



TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



YOSHLAR MUAMMOLARINI
O'RGANISH VA ISTIQBOLLI
KADRLARNI TAYYORLASH INSTITUTI

YANGI AVLOD TASHABBUSLARI VA BARQAROR TARAQQIYOT

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI**

Toshkent - 2025



TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



YANGI AVLOD TASHABBUSLARI VA BARQAROR TARAQQIYOT

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI

2025-yil 20-may

UO'K: 37.013.42:502.131.1:004

KBK: 74.6:20.1:32.81

“Yangi avlod tashabbuslari va barqaror taraqqiyot” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. –T.: Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi. 2025. -296 bet.

Ushbu to'plam “Yangi avlod tashabbuslari va barqaror taraqqiyot” mavzusida bo'lib, unda “O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida kreativ va innovatsion fikrlash, ta'limda yangi yondashuvlar, yoshlarning salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va ekologiya bo'yicha faolligini oshirish, yashil iqtisodiyot va start-up loyihalarni qo'llab-quvvatlash kabi mavzularga oid tadqiqot ishlari va ilmiy qarashlari aks ettirilgan materiallarning bayoni keltirilgan.

To'plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va keltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga muallifning o'zlari mas'uldirlar.

Mas'ul muharrir: i.f.f.d., dots. Sh.Muxamadjanov

Tahrir hay'ati:

t.f.d., dots. X.Nosirov

f.-m.f.f.d. A.Elmuurodov

Taqrizchilar:

PhD, dots. Z.A.Shamansurova

PhD M.B. Umarova

PhD S.I.Xalikchayeva

Texnik muharrir:

S.Maxanov

Tashkiliy guruh a'zolari:

S.Tojiboyev

N.Ismoilov

Sh.Xo'jaqulov

M.Abralova

I.Tillaboyev

Z.Ataxanov

D.Choriyeva

T.Shodiyev

Mundarija

KIRISH 9

1-SHO'BA. IJTIMOIIY INNOVATSIYALAR: KREATIV VA INNOVATSION FIKRLASH, TA'LIMDA YANGI YONDASHUVLAR

Abdurahmonova Kamola Erkin qizi, Hamroyeva Komila *Yangi o'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy yondashuv.* 10

Abdurasulova Munisa Abduvohid qizi *Milliy qadriyatlar orqali o'quvchilarda milliy idrokni rivojlantirish* 13

Abralova Zabarjat Djurayevna *Innovatsion rivojlanish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruvchilik kompetensiyalarini shakllantirish* 16

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Kamolova Nodirabegim Lutfullo qizi *Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar* 18

Akbarova Dono Raxmatjanovna *Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining tibbiy bilimlarini rivojlantirishda ta'lim shakllarining ahamiyati* 22

Axrorova Munisaxon Nodirxon qizi *Content-based instruction and its role in enhancing efl learners' academic language proficiency* 26

Bektoshev G'iyosiddin Saxriddin o'g'li *Kreativ fikrlashni shakllantirishda steam yondashuvining innovatsion imkoniyatlari* 30

Elmanova Shodiyona Fayzulloyevna, Salomova Hulkar *Boshlang'ich ta'limda mavzulararo integratsiya* 34

Elmurodov A., Toshmuradova M. Sh. *Ijtimoiy innovatsiyalar asosida ta'lim standartlarini yangilashning nazariy va amaliy asoslari* 39

Eshmuminova D. I. *Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion shaklda ta'lim-tarbiya jarayolarini tashkil etish.* 43

Foziljonova Durdona Voxidjon qizi *Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yozma nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishning ahamiyati* 47

Ibragimova Dilnavoz Hazratkulovna *Boshlang'ich talimda mehnat tarbiyasi va kasb-hunar ta'limini metodologiyasi* 52

Isabekova Dilafruz Shermirzayevna, Po'latova Shodiya *Maktabgacha ta'limda pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishda coaching tizimining tadbiq etish texnologiyasi* 55

Izaitullayeva Lazokat Eshimbayevna, Tursunova Parvina Bahodir qizi *Ijtimoiy innovatsiyalar, kreativ va innovatsion fikrlash, ta'limda yangi yondashuvlar. .* 58

Jo'rayeva Xilola Toxirovna, Jumabaeva Shaxlobanu Perdebay qizi *Kreativ yondashuv va uning innovatsion faoliyatdagi ahamiyati* 62

Jo'rayeva Ruxshanabonu To'ychizoda <i>Boshlang'ich ta'limda zamonaviy tendensiyalar: muammolar, yechimlar va innovatsion o'qitish yondoshuvlari</i>	66
Madaminova Mohinabonu Ma'rufjon qizi <i>Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish va sifatli o'qitishni ta'minlash.</i>	70
Otamirzayev Safiyatulloh Jo'ramirzo o'g'li <i>Ijtimoiy innovatsiyalar maktab va universitetlarni jamiyat muammolarini hal qilish markaziga aylantirish</i>	75
Rashidova Solikha Tokhir qizi <i>Bridging theory and practice: implementing project-based learning in higher education</i>	78
Raxmatullaev Izatulla, Muydinov Firuzjon <i>Mavzuni o'zlashtirishda mustaqil ish va testdan samarali foydalanish usullari</i>	82
Raxmatullayeva Dilrabo Alimjanovna, Umrzoqova Shaxzoda <i>CEFR talablari asosida til ko'nikmalarini rivojlantirishda internet vositalari.</i>	85
Rustamova Zulxumor Azizjon qizi <i>Bolalarni kelajak kasblariga yo'naltirish – davr talabi shakllantirishda innovatsion yondashuvlar.</i>	89
Safarova Iroda, Elmirzayeva Gulsevara <i>Integratsiyalashgan dasturlarni tashkil etish samaradorligi.</i>	93
Tursunov Akmal Raxmatullayevich <i>Zamonaviy o'qitish texnologiyalarning mazmun-mohiyati va tamoyillari misolida</i>	97

2-SHO'BA. YOSHLARNING SALOMATLIGI, IJTIMOY MOSLASHUVI VA EKOLOGIYA BO'YICHA FAOLLIGINI OSHIRISH

Akramova Farangiz Ravshan qizi <i>Motivatsiyaning psixologik omillari va uning zamonaviy yoshlar ongiga ta'siri</i>	101
Bozorova Mohinur Akram qizi <i>Deviant xulq-atvor profilaktikasida oila, maktab va jamiyat hamkorligi</i>	107
Mingbayeva Nozimaxon Ismatilla qizi <i>Jamiyatimizda olib borilayotgan inson qadrini yuksaltirish siyosatida yoshlarning ijtimoiy ahamiyati</i>	110
Mirzaxalilova Nazokat Mirzaolimovna <i>O'rta guruh bolalalari nutqini xalq og'zaki ijodi vositasida rivojlantirishda xalq pedagogikasining o'rni</i>	113
Morozova Anastasiya Vladimirovna <i>Social innovations, along with creative and innovative thinking, represent new approaches in education</i>	118
Nazarova Nilufar Jo'rayevna <i>Barqaror rivojlanish jarayonida yoshlarning sog'lom hayot va ekologik faollik tamoyillari.</i>	121
O'tkir Odiljonov <i>Maktablarda airlite bo'yoqlari orqali havo tozalash: rivojlangan mamlakatlar tajribasi.</i>	125
Ortiqova Yulduz Akram qizi <i>Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatini shakllantirishda tarbiyachining roli.</i>	134

Raxmonov Do'stmurod Abdinazarovich <i>Ijtimoiy soha rivojida yoshlar faolligini oshirish — barqaror taraqqiyotni ta'minlash omili</i>	140
Rustamov Mashhurbek Umidjon o'g'li <i>Yoshlarning ekologik ongini shakllantirish va ularni atrof-muhitni muhofaza qilishga jalb etish yo'llari</i> . .	144
Siroj Madatovich Ro'zimurodov, Murodali Sunnatovich Yusupov <i>Yoshlarda salomatlik me'yorlarini shakllantirish omillari: ijtimoiy-falsafiy yondashuv</i>	147
Tohirjonova Xumora Azizbek qizi <i>Barkamol insonni tarbiyalashning asosiy tarkibiy qismlari</i>	152
Gulnoz Xodjayeva <i>Alfa avlodining ijtimoiy-emotsional rivojlanishi</i>	155
Xoshimov Komronbek <i>Neyropsixologik asosda ta'limda kreativ va innovatsion fikrlashni rivojlantirish</i>	160
Yuldashova Sanamjon Bobomurod qizi <i>Bo'lg'usi tarbiyachilarda grafik organayzerlar vositasida ekologik tarbiyani shakllantirish usullari</i>	164
Yusupov O'ktam <i>Sharq allomalarimiz ilmiy merosida ekologik ta'lim-tarbiya</i>	168
Каюмова Нодира Карим кизи <i>Нейродидактический подход в обучении рки: студенческий взгляд на инновации</i>	171
Сеитов Азамат Пулатович <i>Метамодернистская перспектива восприятия мира незрячей молодежи</i>	176
Ф.Х. Сирождидинова, Махмудова Сарвиноз Жахонгир кизи <i>Адаптация студентов к новому этапу жизни: социально-психологический и педагогический аспекты</i>	179
Эгамбердиева Дилдора Тохиржон кизи <i>Роль и место умственного воспитания дошкольников в педагогике</i>	184
3-SHO'BA. RAQAMLASHTIRISH VA AXBOROT MAYDONIDA YOSHLAR: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, MEDIASAVODXONLIK VA ONLAYN FAOLLIK	
Abdullaeva Diyora Aliyarovna <i>The role of technology in shaping media literacy among youth and children</i>	189
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna, Bo'riyeva Shaxnoza Inat qizi <i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mediamadaniyatini darsdan tashqari faoliyat orqali shakllantirish</i>	192
Abralova Munajat Djurayevna <i>Raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish</i>	197
Davidova Sevinch Farhod qizi <i>Avtomatik rostdash tizimlarining tuzilish sxemalari va ularning o'zgarishi</i>	200

Jabborova Maftuna Komil qizi, Qo'chqorova Aziza Asqar qizi <i>Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.</i>	204
Kamolova Muxlisa Rustamovna <i>Web-based learning management systems: enhancing interactivity and effectiveness in distance education</i>	207
Kayumova Laziza <i>Maktabgacha yoshdagi bolalarda axborot-kommunikatsion texnologiyalar(akt)dan foydalanish imkoniyatlari</i>	211
Kuanishova Dilmira Tuychiyevna <i>Global raqamlashtirish va axborot maydoniga yoshlarni jalb qilish masalasi.</i>	214
Melsov Anzor Bahrom o'g'li <i>O'smir yoshdagi o'quvchilarda deviant xulq-atvor profilaktikasi</i>	217
B.B.Mo'minov, D.D.Djurayev <i>Tarmoq texnologiyalarini o'qitishda virtualnetuz simulyatoridan foydalanish imkoniyatlari.</i>	220
Niyozova Shaxnoza Farxod qizi <i>Raqamli transformatsiya davrida kreativ va innovatsion fikrlashning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.</i>	224
Umrzoqova Nafisa Sodiqjon qizi <i>Empowering youth through digital literacy: challenges and opportunities in the information age</i>	227
Xudoyberdiyeva Laylo Sanjar qizi <i>Pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi</i>	231
Xusenova Gulrux Otabek qizi <i>Oliy ta'limda raqamli texnologiyalar va ularning o'rni.</i>	235
Yo'ldoshev Sherzod Ravshan o'g'li <i>Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda raqamli texnologiyalar: "raqamli ma'naviyat platformasi" misolida</i>	238
Yuldasheva Nilufar Abdulayevna, Tusunova Sadoqat Abdusalom qizi, Bekturdiyev Sanjarbek Sharifboyevich <i>Formation of digital culture: prospects and problems of reality.</i>	242
Chalayeve Zilola Qo'yli qizi <i>Oliy ta'lim transformatsiyasi: raqamlashtirish orqali sifat va raqobatbardoshlik sari.</i>	245
Ш.И. Думахонова <i>Способы укрепления национальной идентичности через социальные сети и средства коммуникации</i>	248
Мирзалиев Фердавсбек Дилмурод угли <i>Цифровая компетентность как ключ к успешной социализации и самореализации молодежи</i>	252
4-SHO'BA. YASHIL IQTISODIYOT VA START-UP LOYIHALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH	
Aminov Suhrob Davlatbek o'g'li <i>Yoshlar salomatligi va ekologik ongini shakllantirishda biologik toza mahsulotlarning o'rni</i>	257

Ismoilova Nigora Mirzoaliyevna <i>Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida o'zbekistonda mavjud muammolar va ularni innovatsion yondashuvlar bilan hal qilish imkoniyatlari</i>	260
Jurakulova Yulduz Shokirovna <i>Strategic directions for supporting start-up projects in the context of a green economy.</i>	265
Kurchiyeva Moxina Baxrom qizi <i>Yashil iqtisodiyot davrida suv resurslaridan samarali foydalanishning ahamiyati.</i>	269
Ochilov Shoxrux Ravshan o'g'li <i>Yashil iqtisodiyot va start-up loyihalarni qo'llab-quvvatlash: o'zbekiston qonunchiligidagi imkoniyatlar va muammolar</i>	272
Rashidov Mels Karimovich <i>Mamlakatimiz erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida yashil iqtisodiyotga o'tishning dolzarbligi</i>	276
Salimov Burxon Abubakirovich, Mamadiyeva Malikaxon Mahmudjonovna <i>Atrof muhitni himoya qilish va "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish muammolari.</i>	280
Sharapova Gulnoza Valentinovna, Bo'riyeva Gulshan Ulmasbek qizi <i>"Yashil" energetika-farovon kelajak, iqtisodiy barqarorlik kafolati</i>	283
Sirojiddinova Zilolaxon Jaloliddin qizi <i>O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish istiqbollari</i>	287
Ubaydullayeva Gulchehra, Latipova Nargiza <i>Ishlab chiqarish korxonalarini yashil texnologiyalar asosida rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning o'rni</i>	291
Xasanov Asliddin Saydulla o'g'li <i>Yashil diplomatiyada o'zbekiston respublikasining ekologik tashqi siyosati</i>	294
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi <i>Yashil iqtisodiyotga o'tish davrida yo'qolib borayotgan kasblar va yangi sohalarning paydo bo'lishi natijalari</i>	298
Пулатова Л.Т., Набижонов М.С. <i>Экология и охрана окружающей среды с помощью новейших технологии.</i>	302

KIRISH

Bugungi globallashuv va jadal ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida barqaror taraqqiyotni ta'minlash, innovatsion rivojlanish omillarini kuchaytirish hamda jamiyatda faol, tashabbuskor va mas'uliyatli yoshlar avlodini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yangi avlod tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning ilmiy, intellektual va ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar muammolarini o'rganish instituti hamkorligida "Yangi avlod tashabbuslari va barqaror taraqqiyot" mavzusida o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi

PF-158-son Farmonida belgilangan maqsadlar ijrosiga qaratilgan. Ushbu tadbir yoshlarning ijtimoiy innovatsiyalar, texnologiya, ta'lim, ekologiya, raqamlashtirish va axborot maydonidagi faolligini kuchaytirish, ularning tashabbuslarini ilmiy asosda qo'llab-quvvatlash yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur "Yangi avlod tashabbuslari va barqaror taraqqiyot" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ana shu dolzarb masalalarni ilmiy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish, soha mutaxassislari, olimlar, tadqiqotchilar va yosh izlanuvchilar o'rtasida samarali muloqot va tajriba almashuvini yo'lga qo'yish maqsadida tashkil etildi. Konferensiya doirasida yoshlarning ijtimoiy innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, ta'lim, tadbirkorlik, ruhiy salomatlik, ekologiya hamda axborot maydonidagi faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar va amaliy takliflar muhokama qilindi.

Ushbu to'plamga kiritilgan ilmiy maqola va tezislarda mualliflarning dolzarb muammolarga oid nazariy qarashlari, ilmiy xulosalari hamda amaliy tavsiyalari o'z aksini topgan. Taqdim etilgan materiallar mamlakatimizda yoshlar siyosatini yanada takomillashtirish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish va barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur konferensiya materiallari to'plami ilmiy jamoatchilik, ta'lim sohasi mutaxassislari, tadqiqotchilar, yoshlar bilan ishlovchi amaliyotchi xodimlar hamda keng kitobxonlar uchun foydali bo'lishiga ishonch bildiramiz.

Tashkiliy qo'mita

1-SHO'BA. IJTIMOIIY INNOVATSIYALAR: KREATIV VA INNOVATSION FIKRLASH, TA'LIMDA YANGI YONDASHUVLAR

YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Abdurahmonova Kamola Erkin qizi

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta'lim
kafedrası o'qituvchisi

Hamroyeva Komila

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi
e-mail: kamolaerkinovna38@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ta'limning mazkur bo'g'inini rivojlantirish, shu asnoda bolaning intellektual shaxsini shakllantirish, ta'lim xizmatlarini yaratish orqali sifat darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani sohadagi izchil islohotlarning natijasi bo'lmoqda. Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuv haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tizimida, ta'lim sifati, ta'lim tizimini isloh qilish, moslashuvchan modellar, davlat talablari, zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tayyorlov guruh bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish. Maktabgacha ta'lim o'quv tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini, o'quv tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uni yechishni to'g'ri hal qila bilish, texnologiya usullaridan foydalanish qiyinchiliklarini to'g'ri yechimini topishga yo'naltiriladi. Ta'lim — tarbiya masalalari, har bir millatning milliy merosiga, umumbashariy qadriyatlariga bog'langan holda maktabgacha yoshdan boshlab o'zligini anglash, erkin fikrlash, g'urur tuyg'ularini shakllantirishga qaratiladi.

Hozirgi kunda barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Asosan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yuksak bilim egallashida multimedia ta'limi ham muhim o'rinda turadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya olayotgan katta va maktabga tayyorlov guruhlarida aynan 5-7 yoshli bolalar tayyorlanadi. Ulardagi intellektual salohiyatni shakllantirishning boshlang'ich davri ham xuddi shu yoshdan boshlanadi. Aynan shu sababli hozirgi kunda maktabgacha ta'limda multimedia

ta'limiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Multimedia vositalari orqali har xil o'yinlar metodlar taxlab bolalarga bilimlarni qiziqarliroq o'rgatish, maktabga tayyorlov guruhlarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanishning asosiy va yetakchi shakli mashg'ulotdir.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya jarayonini multimedia vositalari asosida tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Multimedia vositalariga, birinchi navbatda, elektron darsliklar, video-audio rasmlar, kompakt disklar, turli taqdimotlar kiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediani turli xil mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Masalan, tabiat bilan tanishtirishda, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda hamda xorijiy tilda mashg'ulotlarni tashkil etishda multimedia vositalari yuqori natijalar beradi. Mashg'ulot jarayonida bolalarni zeriktirib qo'ymaydi va ularni mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini yana ham ko'proq oshirishda keng imkoniyatlarni yaratib beradi. Shuningdek, multimedia ta'limidan zamonaviy, innovatsion ta'limning bir shakli sifatida mashg'ulotlar jarayonida to'g'ri foydalanish maktabgacha ta'limda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarning ham innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Multimedia texnologiyasi orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlar kompyuter texnologiyasiga asoslanadi. Kompyuter mashg'ulotlarining aksariyati birlashgan mashg'ulotlar shaklida o'tkaziladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mashg'ulot davomida bolalarning kompyuter oldida 15 daqiqadan ortiq o'tirishi mumkin emasligini e'tiborga olinishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim –tarbiyasiga qo'yilgan Davlat talablari"da ham bolaning kompyuterda shug'ullanishi 5-20 daqiqa etib belgilangan. 15 daqiqaga rejalashtirilgan material o'tib bo'lib, 20 daqiqali oraliq bosqichi o'tkaziladi. Ushbu oraliq bosqichda tarbiyalanuvchilarni hisobga olib, kompyutersiz amalga oshiriladigan mashg'ulot o'tkaziladi. Kompyutersiz o'tkaziladigan ushbu oraliq mashg'ulotlarda, mavzuga tegishli og'zaki savol – javoblar, topishmoqlar, turli mazmundagi o'yinlar, amaliy tadbirlar, shuningdek, she'r, ashula aytiladi va jismoniy mashqlar bajariladi. Jumladan, ko'z toliqishini bartaraf etuvchi ko'z gimnastikasi bir necha daqiqa davomida ko'zni ochib yumish, xonaning burchaklariga navbatma - navbat nazar tashlash kiradi. Oraliq bosqichdan so'ng yana 15 daqiqali asosiy mashg'ulot davom ettiriladi. Maktabgacha tayyorlov guruhlarini bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish, asosan uch tomonlama amalga oshiriladi.

1. Kompyuter va uning dasturlari yordamida didaktik vositalar tayyorlanadi hamda Internet va masofali ta'lim jihozlaridan foydalaniladi.

2. Kompyuter ishtirokida bevosita dialog metodi asosida bolalarga

yangi material o'rgatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, 6-7 yoshli bola kattalar kabi kompyuterda ishlashga qodir emas, shuning uchun Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi materialni o'rganishda bevosita dialog metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu holda kompyuter didaktik vosita manbai rolini o'ynaydi.

3. Bilvosita dialog – virtual axborot muhitida kompyuter bilan dialog asosida multimedia texnologiyasi amalga oshiriladi.

Multimedia vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimedia texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishda qo'shimcha vositalar – kompakt disk, turli xil taqdimotlar, slaydlar va boshqalar talab etiladi. Multimedia vositalaridagi ta'lim – tarbiya materiallari dinamik xarakterga ega bo'lib, ular animatsiya bilan berilgan bo'ladi. Ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan an'anaviy ko'rgazmali materiallar statik xarakterga ega. Masalan tarbiyachi "A" harfini an'anaviy usulda o'rgatish mobaynida, bolaga uning qog'ozda yoki kartonda yasalgan shaklini ko'rsatadi (statik vosita). Multimedia vositasida ko'rsatilganda "A" harfi kompyuter (monitor) ekranida tebranib, bolalarning diqqatini o'ziga jalb etadi (dinamik vosita). Hozirgi kunda turli xil multimediali ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim tarbiya jarayoniga tatbiq etish jadal rivojlanmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish metodikasi to'liq ishlab chiqilmagani uchun tarbiyachi pedagoglar multimedia vositalarini multimedia texnologiyasi sifatida qabul qilmoqdalar.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasbetadi. Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Djurayeva, B.R., Tojiboyeva, H.M., Nazirova, G.M. "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari".

Uslubiy qo'llanma. — T: 2015.

2. Djamilova, N.N. "Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. — T: 2018.
3. Suyumov, J., Madaliyeva, G., va Hakimova, K. (2021). IMITATION MODELING TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATIONAL PROCESS. Теория и практика современной науки, (5), 18-21.

MILLIY QADRIYATLAR ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY IDROKNI RIVOJLANTIRISH

Abdurasulova Munisa Abduvohid qizi

Buxoro davlat Pedagogika instituti 1-bosqich
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy qadriyatlarning o'quvchilarning tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Milliy qadriyatlar orqali yosh avlodda milliy idrok tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish zarurligi asoslaydi. Ta'lim jarayonida milliy madaniyat, til, urf-odat va an'analarni o'quvchilarga singdirishning samarali usullarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy namuna ko'rsatishi va oila bilan hamkorligining ahamiyatini keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *milliy qadriyatlar, axloqiy, ma'naviy va madaniy meros, milliy idrok, barkamol inson, urf-odat va an'analar, insonning iymon-e'tiqodi, milliy o'zlik, g'urur, mehnatsevarlik, xalqparvarlik g'oyalari.*

Milliy qadriyatlar — bu xalqning asrlar davomida shakllangan axloqiy, ma'naviy va madaniy merosidir. Ular xalq hayotining har bir jabhasida o'z aksini topgan bo'lib, inson tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega. O'quvchilarni ana shu qadriyatlar asosida tarbiyalash orqali ularning ongida milliy idrok — ya'ni o'z millatiga, tarixiga, tiliga va madaniyatiga nisbatan hurmat, g'urur va sadoqat tuyg'ulari shakllanadi.

An'ana va qadriyatlar qadriyat sifatida, to'g'ri yashashga, xalq va vatanga fidoyi farzand bo'lishga da'vat etishi bilan katta ahamiyatga ega. Yoshlar asrlar osha yashab kelgan xalqona qadriyatlardan qanchalik saboq olsa, barkamol inson sifatida takomillashib boraveradi. Chunki an'anaviy xalq madaniyatiga asoslangan qadriyatlar insonning iymon-e'tiqodini ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishiga qaratilgan [1].

Milliy idrokning shakllanishi bolalikdan boshlanadi. Ayniqsa, maktab ta'limi jarayonida bu masalaga alohida e'tibor qaratish zarur. Ta'lim tizimida milliy qadriyatlarga asoslangan metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning ruhiy-axloqiy

dunyosini boyitish, ularni ma'naviy yetuk shaxs qilib tarbiyalash mumkin. Bu borada ona tili, adabiyot, tarix, musiqa, tasviriy san'at kabi fanlar muhim o'rin tutadi. Masalan, o'zbek xalq ertaklari, dostonlari, maqollaridan foydalanish orqali o'quvchilarga ezgulik, mehnatsevarlik, sadoqat kabi fazilatlar singdiriladi. Bundan tashqari, milliy bayramlar, xalq urf-odatlariga bag'ishlangan tadbirlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda o'z millatiga nisbatan hurmat va iftixor hissi kuchayadi. Ular milliy liboslar, kuy va qo'shiqlar, an'anaviy taomlar, hunarmandchilik mahsulotlari bilan tanishar ekan, o'z xalqining boy madaniyatiga qiziqib boradi.

Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy namuna ko'rsatishi, milliy qadriyatlarga sadoqatli bo'lishi, o'zini tutishi, muomalasi orqali o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi o'z faoliyatida milliylikni doimiy aks ettirsa, bu o'quvchilarni ham shu yo'ldan borishga undaydi. Ayni paytda, ota-ona va oila muhitining ham o'rni beqiyosdir. Maktab va oila hamkorligida tashkil etilgan tarbiyaviy ishlar, masalan, ota-onalar ishtirokidagi an'anaviy tadbirlar, milliy qadriyatlarga oid suhbatlar natijasida o'quvchilarda bu tushunchalar mustahkamlanadi.

Milliy idrok tushunchasi — biror millat yoki xalqning o'ziga xos madaniyat, an'ana, tarixi, qadriyatlar va o'zligini anglash orqali shakllangan umumiy fikr va his-tuyg'ularining jamlanmasidir.

Milliy idrok tushunchasi quyidagi atamalar bilan o'zaro bog'liq bo'ladi:

1. Tarixiy xotira - avlodlardan -avlodlarga o'tgan tarixiy voqealar va shaxslar;
2. Til va adabiyot - millatning o'ziga xos tili, tarixiy adabiyoti, va zamonaviy ijodi.
3. Madaniy meros - an'ana, urf-odat va san'at shakllari.
4. Qadriyatlar - etika, axloqiy tamoyillar va umumiy qabul qilingan qoidalar.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy boyligi va milliy o'zligini belgilovchi asosiy omillardandir. Ular orqali yosh avlodda milliy idrok, ya'ni o'z millatiga xos bo'lgan madaniyat, til, urf-odat va an'analarga nisbatan hurmat va sadoqat hissi shakllanadi. Bu borada taniqli pedagog olim A. Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir" degan fikri bejiz aytilmagan.[2] Chunki ma'naviy yuksak, milliy ongli avlod tarbiyasi — har qanday jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi.

Maktab ta'limi jarayonida milliy qadriyatlarni o'quvchilarga singdirishning bir necha yo'llari mavjud. Dars jarayonlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish, tarixiy shaxslar hayoti misolida vatanparvarlikni targ'ib etish, milliy bayramlar va tadbirlar orqali o'quvchilarda milliy g'urur uyg'otish mumkin. Masalan, adabiyot darslarida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Erkin Vohidov kabi milliy adiblarning asarlarini o'rganish orqali nafaqat til boyitiladi, balki milliy o'zlik, g'urur, mehnatsevarlik, xalqparvarlik g'oyalari ham singdiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi "Ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotining samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarorida ham ta'lim tizimida milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya masalasi dolzarb vazifa sifatida belgilab qo'yilgan.[3] Bu hujjat o'quvchilarda ma'naviy immunitetni mustahkamlashda milliy asoslarni e'tiborga olish zarurligini ko'rsatadi.

O'quvchining milliy idrokini shakllantirishda o'qituvchi shaxsiy namuna bo'lishi muhim omildir. O'qituvchi o'zini tutishi, nutqi, kiyinish madaniyati, odob-axloqi orqali bevosita tarbiyaviy rol o'ynaydi.

Shuningdek, sinf va maktab miqyosida milliy urf-odatlarga oid tadbirlar - Navro'z, Mehr-oqibat haftaligi, xalq hunarmandchiligi ko'rgazmalari - o'quvchilarning milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini oshiradi. Bu borada oila bilan hamkorlik muhim. Ota-onalar ishtirokidagi ochiq darslar, suhbatlar, milliy taomlar festivali, "Buvilar maktabi" kabi loyihalar orqali o'quvchi uydagi tarbiya bilan maktabdagi qadriyatlar o'rtasida uyg'unlikni his qiladi.[4]

Navro'z tinchlikni, sihat-salomatlikni qadrlab, asrab –avaylab yashashga da'vat etadi. Tinchlik va sog'likni asrasak qolgan narsalarga albatta erishamiz [5].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, milliy qadriyatlar yosh avlodning ma'naviy kamol topishi uchun ularning milliy ong va ma'naviy kamol topishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni yanada rivojlantirish uchun o'qituvchi dars jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanish, darsdan tashqari tadbirlar tashkil qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi "Ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotining samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PQ-4964-son qarori. -Toshkent.
2. Mirziyoyev Sh. M. (n.d.). Navro'z bayrami tabrigi. Retrieved from http://kunuz.com/crp/Navruzбайramtabriklarivase_rlar_crp/
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot., 1992.
4. Boboxonov S., va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent: O'qituvchi., 2016.
5. Falsafa qomusiy lug'ati. - Toshkent: Sharq., 416 b., 2004.
6. Xasanboyeva M. Milliy tarbiya asoslari. - Toshkent: Ma'naviyat., 2014.
7. Sharipov Q. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi. Samarqand: SamDU nashriyoti., 2020.

8. UNESCO. Education and cultural identity. Paris: UNESCO Publishing., 2019.

INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING BOSHQARUVCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Abralova Zabbarjat Djurayevna

Nizomiy nomidagi O'zMPU, katta o'qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion rivojlanish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruvchilik kompetensiyalarini shakllantirish, kasbiy kompetensiya, boshqaruv kompetensiyasining tarkibi, tashkiliy-boshqaruv kompetensiyalarning amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: *innovatsion rivojlanish, kasbiy kompetensiya, boshqaruvchilik kompetensiyasi, tashkiliy- boshqaruv kompetensiyasi, funksional komponent.*

Ma'lumki, ijtimoiy-iqtisodiy makonning globallasuvi, yangi texnologiyalarning faol joriy etilishi, axborot resurslarining ahamiyatining ortishi, milliy va jahon bozorlarida raqobat kuchayishi – shular va boshqa ko'plab omillar tashkilotlar rahbariyatini o'ziga xos axborot vositalarini qidirishni faollashtirishga majbur qiladi. Raqobatdosh ustunliklarga erishish omillari, ular orasida o'qituvchilarning kasbiy vakolatlar darajasi alohida o'rin tutadi. Bularning barchasi bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalari va mehnat bozori talablari o'rtasidagi nomuvofiqlik muammosini hal etish zaruriyatidan dalolat beradi. Bugungi innovatsion rivojlanish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilayotgan talablar, ularning davlatimiz rivojiga o'z hissasini qo'shishi, raqobatbardosh malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarning oshishi bilan belgilab berilmoqda.

Innovatsion rivojlanish — ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi innovatsiyalarni doimiy va maqsadli izlash, tayyorlash va joriy etish orqali amalga oshiriladigan innovatsion iqtisodiyot turiga o'tish jarayoni. Mazkur davrda malakali pedagoglardan boshqaruvchanlik kompetensiyalarga ega bo'lish, amalda qo'llay olish, jahon rivojlangan davlat ta'lim tizimida ham o'z o'rniga ega bo'lishni talab qilmoqda. Ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining boshqaruv kompetensiyasi shaxsiy, tashkiliy va funksional yoki aslida boshqaruv tarkibiy qismlarining kombinatsiyasi sifatida qaraladi.

Boshqaruv kompetensiyasining shaxsiy komponenti o'qituvchining kasbiy faoliyati muvaffaqiyatining muhim omili bo'lgan shaxsning rivojlangan boshqaruv fazilatlarining mavjudligini nazarda tutadi — bu ijtimoiy intellekt, tashkiliy va kommunikativ qobiliyatlar, irodaviy fazilatlar, subyektiv nazorat darajasi,

o'qituvchi shaxsining kasbiy faoliyatga yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi. Tashkiliy kompetensiya bo'lajak o'qituvchilarni turli faoliyat turlariga jalb qilishni osonlashtiradi va o'qituvchilar jamoasining o'quv va kognitiv faoliyatini tashkil qilishni ta'minlaydi. Funksional komponent yoki haqiqiy boshqaruv kompetensiyasi kelajakdagi o'qituvchining pedagogik boshqaruv funksiyalarini bajarishga tayyorligi, bilimlari, intilishlari, tayyorgarligi va qobiliyatining doimiy boyitib boruvchi tizimidir. O'qituvchining tashkiliy-boshqaruv faoliyatining mohiyati o'quvchilarni tarbiyalashning eng adekvat usul va vositalarini, pedagogik yo'llari va yo'nalishlarini tanlashdan iborat. Shuning uchun talabalarni (bo'lajak o'qituvchilarni) tayyorlash jarayonida tashkiliy va boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Talabalarning tashkiliy va boshqaruv qobiliyatlarini shakllantirish o'qituvchining rahbarligi ostida o'quv va kasbiy faoliyatda mustaqil ijodiy faoliyatga o'tishdan oldin, aks ettirish ko'nikmalarini majburiy egallash bilan amalga oshiriladi. Refleksiv usullar tashkiliy va boshqaruv qobiliyatlarini ongli, maqsadli rivojlantirishga yordam beradigan maxsus psixologik holat sifatida ajralib turadi. Fikrlash talabaga olingan natijalarni shakllantirishga, keyingi ish maqsadlarini oldindan belgilashga va uning kasbiy yo'lini to'g'rilashga yordam beradi. O'qituvchining tashkiliy va boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni kompetensiyaga asoslangan va refleksiv-faollik yondashuvlari doirasida amalga oshiriladi. O'qituvchining tashkiliy-boshqaruv faoliyatini amalga oshirishga tayyorlashning asosiy shartlaridan biri bu muammoli vaziyat bo'lib, u darsda o'rganish markaziga qo'yiladi va qaror qabul qilishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha, o'qituvchining boshqaruv kompetensiyasi tarkibiga quyidagilar kiradi: boshqarish nazariyasi, faol tizimlar nazariyasi haqidagi bilimlarni birlashtirish zarur; rejalashtirish, loyihalash, modellashtirish va prognozlash va zarur shart-sharoitlarni hisobga olgan holda samarali faoliyatni tashkil etish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovatsion rivojlanish sharoitida bo'lajak o'qituvchilardan nafaqat boshqaruvchilik kompetensiyaga ega bo'lishlari, balki uni amaliy faoliyatda qo'llab, yuqori natijalarga erishishlarini ta'minlashlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Levanova E. A. Профессиональная готовность к практической деятельности педагога как залог конкурентноспособности специалиста. Voronej davlat texnika universiteti axboroti, 10(3-2), 148–150., 2014.
2. Pavlova L. N. Управленческая компетенция педагога. Kasbiy ta'lim. Poytaxt, (2)., 2013.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARING KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim
pedagogikasi kafedra mudiri, PhD, dotsent

Kamolova Nodirabegim Lutfullo qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim
fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning o'rni yoritilgan. Kreativlikni rivojlantirishda ta'limda interfaol metodlar, texnologik vositalar va noan'anaviy mashg'ulotlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning erkin fikrlashi, mustaqil yechim topishga intilishi uchun yaratiladigan shart-sharoitlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv, interfaol metodlar, mustaqil fikr, o'quvchi faolligi.*

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi — bilimli, tafakkuri rivojlangan, mustaqil va kreativ fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalashdan iborat. Bugungi kunda jamiyatning har sohasida innovatsion fikrlashga ega, yangicha yondashuvlarni ilgari sura oladigan kadrlarga talab ortmoqda. Shu bois, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar, pedagogik vositalar va metodlar haqida so'z yuritiladi.

Kreativ fikrlash — bu mavjud muammolarga noodatiy, original yondashuv orqali yechim topish, yangilik yaratish, mustaqil fikr yuritish qobiliyatidir. Bu qobiliyat insonning kundalik hayotda, kasb faoliyatida va jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ta'lim tizimining ilk bosqichidayoq kreativ fikrlashni shakllantirish orqali o'quvchilarda yangicha dunyoqarash, yangilikka intilish va tashabbuskorlikni uyg'otish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4312-sonli qarorida "Ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish" ta'lim strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa har bir pedagogdan yangicha yondashuv, innovatsion

metodlardan foydalanishni talab etadi.

Innovatsion yondashuvlar — bu an'anaviy usullardan farqli ravishda o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydigan, mustaqil fikrlashga yo'naltiradigan metodlardir. Bunday yondashuvlarga quyidagilar kiradi:

Interfaol metodlar (aql charxi, "fikrlar to'fon"i, rolli o'yinlar);

STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics asosida ijodiy integratsiyalashgan o'qitish);

Muammoli ta'lim (problem-based learning);

Loyiha asosida o'qitish (project-based learning);

Raqamli texnologiyalar va o'yinli platformalar (Kahoot, Quizizz, Mentimeter kabi vositalar).

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali ijodiy tafakkurni endigina shakllantira boshlaydigan yoshda bo'lgani uchun ularga qulay muhit yaratish muhim. Bu yoshdagi bolalar tabiatan qiziquvchan, tasavvur kuchi yuqori, o'z fikrini erkin ifoda etishga moyil bo'ladi. O'qituvchi esa bu salohiyatni yo'naltirib, quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:

Ijodiy topshiriqlar: ochiq turdagi savollar, chizmalar, hikoya yozish, voqeani boshqa nuqtai nazardan hikoya qilish;

Muammoli vaziyatlar yaratish: kundalik hayotdan olingan real holatlar asosida savollar berish;

Jamoaviy ishlash: kichik guruhlarda loyihalar ishlab chiqish, umumiy yechim topish;

Vizuallashtirish: xaritalar, diagrammalar, "aql xaritasi" (mind map) kabi vositalar orqali fikrlash jarayonini qo'llab-quvvatlash.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki bolalarda izlanishga, yangilikka intilishga undovchi shaxs sifatida harakat qilishi kerak. O'qituvchi quyidagi metodik tamoyillarga amal qilishi lozim:

O'quvchini tinglash, uning fikrini qadrlash;

Javobning to'g'riligidan ko'ra, fikr yuritish jarayoniga e'tibor qaratish;

Har bir o'quvchiga ijodiy yondashuvni shakllantirish imkonini berish;

Har xil fikrlar, qarashlar erkinligini qo'llab-quvvatlash.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi — bu bola tafakkurining shakllanishida eng muhim davrdir. Shu bosqichdayoq o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish kelajakda mustaqil qaror qabul qilish, muammolarga noodatiy yechim topish va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Innovatsion metodlar va vositalardan samarali foydalanish orqali har bir o'quvchining intellektual va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish mumkin. Ta'lim sifatini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar aynan

mana shu yondashuvni amaliyotga joriy etishni talab etmoqda.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida o'quvchilarda kreativ fikrlash, mustaqil va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kreativ fikrlash — bu muammolarni hal qilish, yangi g'oyalar va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan intellektual jarayon sifatida ko'riladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarda kreativ fikrlashni shakllantirish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlash uchun juda muhimdir. Shu bois, pedagogikada innovatsion yondashuvlar, metodlar va vositalarni qo'llash orqali bu qobiliyatni rivojlantirishning ahamiyati tobora oshmoqda.

Kreativ fikrlash — bu yangi g'oyalar va yechimlar ishlab chiqish, mavjud bilimlarni o'zgartirish yoki yangilash, eski ko'rinishdagi muammolarga yangi usulda qarash qobiliyatidir. Ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish nafaqat akademik muvaffaqiyatga erishish uchun, balki jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning barcha sohalarida faol ishtirok etish uchun ham muhimdir.

Boshlang'ich ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilishi kerak, chunki bu yoshdagi bolalar hali dunyoqarashlarini shakllantirishning dastlabki bosqichida turishadi. Ular o'z fikrlarini ifodalashda, masalalarga yondashuvda va o'zlarining qobiliyatlarini sinovdan o'tkazishda katta imkoniyatlarga ega. Shu bois, o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish ta'limning eng asosiy vazifalaridan biriga aylanishi lozim.

Pedagogikada innovatsion yondashuvlar va metodlar — bu o'quvchilarning kreativlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yangicha usullar va texnikalardir. Innovatsion yondashuvlar orqali o'quvchilar o'zlarini erkin ifoda eta olishadi, yangi g'oyalar ishlab chiqadilar va muammolarni samarali hal etish uchun yangi yechimlar izlaydilar. Innovatsion ta'lim metodlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

Interfaol metodlar: Bu metodlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, ular o'z fikrlarini erkin ifodalashadi, savollar va masalalar bilan ishlashadi. Masalan, "fikrlar to'foni" (brainstorming), "aql charxi" (mind mapping), "rolli o'yinlar" orqali o'quvchilar jamoa bilan ishlashga, muammolarga ijodiy yondashishga o'rgatishadi.

Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning, PBL): Bu metodda o'quvchilar real hayotdagi muammolarni tahlil qilish va hal qilish orqali o'rganadilar. Ular shaxsiy izlanishlarga, guruh ishlari va ijodiy yondashuvlarga tayanib, o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatadilar.

Loyiha asosida ta'lim (Project-Based Learning, PBL): Bu metodda o'quvchilar ma'lum bir loyiha asosida ishlashadi, jamoaviy ishda o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etishga harakat qiladilar. Loyiha orqali o'quvchilar o'z fikrlarini, tasavvurlarini va bilimlarini rivojlantirishadi.

STEAM ta'limi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics): Bu metodologiya orqali o'quvchilarga fanga, texnologiyaga, muhandislikka, san'atga va matematikaga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beriladi. STEAM yondashuvi orqali o'quvchilar ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishadi.

Raqamli ta'lim vositalari va o'yinlar: Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilar kreativ fikrlashda o'z imkoniyatlarini kengaytirishadi. Interaktiv platformalar, o'yinli ilovalar (masalan, Kahoot, Quizizz), dasturlash va robototexnika kabi vositalar bolalar uchun ta'limni qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvlarni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish uchun o'qituvchining roli juda katta. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi shaxs sifatida harakat qilishi kerak. U quyidagi tamoyillarga asoslanib faoliyat olib borishi lozim:

1. O'quvchini tinglash va qo'llab-quvvatlash: O'qituvchi har bir o'quvchining fikrini qadrlashi, unga erkin fikr bildirish imkoniyatini yaratishi kerak. Fikrlarning xilma-xilligi o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga turtki bo'ladi.

2. Muammolarni yechishda erkinlik berish: O'quvchilarni faqat aniq javoblar topishga yo'naltirish o'rniga, turli xil fikrlarni qadrlash va o'quvchilarga ijodiy yechimlar taklif etish imkoniyatini yaratish zarur.

3. Guruhda ishlashni rag'batlantirish: Jamoaviy ishda o'quvchilar bir-biridan o'rganishadi, g'oyalar almashinadi va ijodiy fikrlarni birlashtiradilar.

4. Tushuncha va nazariyani amaliyot bilan bog'lash: O'qituvchi yangi mavzuni nafaqat nazariy ma'lumotlar bilan, balki amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari va innovatsion yondashuvlar orqali mustahkamlashi lozim.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish — bu ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga mustahkam asos bo'ladi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali o'quvchilarni faollik, mustaqil fikrlash va yaratish jarayonlariga jalb qilish mumkin. Ta'lim tizimida o'qituvchilarning metodik va texnologik yondashuvlari o'quvchilarning ijodiy potensialini yuzaga chiqarishda asosiy vosita hisoblanadi. Har bir o'quvchining ijodiy yondashuvini rivojlantirish orqali biz kelajakda jamiyatda yangiliklarni yaratishga qodir, intellektual salohiyatga ega bo'lgan avlodni tarbiyalaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat., 1997.
2. Abduazizov A.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi., 2016.

3. Allamurotov A. Ta'lim va yozuv: tarixiy taraqqiyot bosqichlari. - Toshkent: O'qituvchi., 2020.
4. Anderson L.W., & Krathwohl, D.R. A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. New York: Longman.. 2001.
5. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent: Fan., 2004.
6. Goleman D. Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. New York: Banta Books., 1995.
7. Qodirov A. O'zbek tilining izohli lug'ati.- Toshkent: Fan nashriyoti., 2015.
8. Saidov S. Zamonaviy ta'lim metodlari va innovatsion yondashuvlar. - Toshkent: Innovatsiya., 2018.
9. Shun Z., & Luo, M. Creative thinking in education: A practical guide for primary school teachers. Beijing: Education Press., 2021.
10. Xudoyberganov A. Yozma nutqni o'qitishning lingvistik va didaktik asoslari.- Toshkent: Ilm Ziya., 2017.
11. UNESCO. Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action. Paris: UNESCO Publishing., 2020. <https://unesdoc.unesco.org>

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINING TIBBIY BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM SHAKLLARINING AHAMIYATI

Akbarova Dono Raxmatjanovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
e-mail: donoakbarova454@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining tibbiy bilimlarini rivojlantirishda ta'lim shakllarining ahamiyati, pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalari, ta'lim-tarbiya ishlarini samarali amalga oshirish va bunda talabalarning faolligini oshirish ko'p jihatdan o'qitish shakli va unga mos keluvchi o'qitish metodini to'g'ri tanlashga hamda qo'llash bo'yicha ma'lumotlar batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya mutaxassislari, tibbiy bilimlar, rivojlantirish, ta'lim shakllari, o'qitish metodi, faollik, kombinatsiya, kompleks, nazorat, maqsadli dasturlar.*

O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasida keng ko'lamli islohotlar boshlanib, sohada jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. 2019 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, vazifalari, yaqin va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilashda hamda sohaga doir dasturlar va kompleks chora tadbirlarni ishlab chiqish uchun muhim asos bo'ldi [1].

2020 yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun [2] esa ushbu soha taraqqiyotida, yoshlarimiz zamonaviy bilimlarni egallashda hech shubhasiz, yangi yo'llarni ochib berdi. Bugungi rivojlangan bir davrda ta'lim-tarbiya jarayoniga katta e'tibor berilmoqda. Zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanish davrida ta'lim tizimiga va unda faoliyat olib borayotgan zamonaviy o'qituvchilarga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda.

Kasbiy mahoratga ega o'qituvchi mustaqillik g'oyasiga e'tiqodi, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkuri, kasbining tegishli ma'lumoti, ya'ni, o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo'lishi hamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda sezishi, o'rganishi va baholay olishi, pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim [3].

Pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi bilimdonlik va mahorat osonlik bilan shakllanmaydi, buning uchun o'qituvchida ko'p yillar davomida orttirilgan tajriba evaziga kasbiy mahorat oshib boradi. Pedagogik mahoratda o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lishi alohida e'tiborga olinadi. Chunki, kishida bilim, fikr doirasi keng bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Buning uchun har bir bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'z fanining tegishli ma'lumot egasi, yuksak kasbiy tayyorgarligi va yuqori axloqiy fazilat egasi bo'lishi kerak.

Ta'lim-tarbiya ishlarini samarali amalga oshirish va bunda talabalarning faolligini oshirish ko'p jihatdan qaysi o'qitish shakli va unga mos keluvchi o'qitish metodini to'g'ri tanlashga hamda qo'llashga bog'liqdir. O'qitish shakli deganda muayyan mashg'ulot (dars)da ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun o'qituvchi rahbarligida talabalarning o'quv materialini ongli ravishda puxta o'zlashtirishiga qaratilgan o'quv-tarbiya faoliyati tushuniladi [4].

Ta'lim berishda dars berishning sifatleri quyidagilardan iborat bo'ladi:

a) talabalar tarkibining doimiyliigi;

- b) ularning bilimi (tayyorgarlik darajasi) taxminan bir xil saviyada bo'lishi;
- v) mashg'ulotni qat'iy jadval asosida belgilangan ma'lum vaqt davom etishi;
- g) o'qituvchi yoki o'quv (ishlab chiqarish ta'limi) ustasining bevosita rahbarligi;
- d) uning xilma-xil o'qitish metodlaridan foydalanishi;
- e) darsni frontal (yoppa, umumiy), zveno (guruh-guruh) va individual (yakka-yakka) ko'rinishda olib borish imkoniga ega bo'lishi.

Demak dars o'qitish jarayoniga tashkiliy aniqlik kiritadi va ishlab chiqarish ta'limi va boshqa fanlar darslarini navbatlashtirib tashkil etishga, binobarin, talabalarning yuqori unumdorlik bilan o'qishini hamda dam olishini ta'minlashga imkon beradi. Ayni fan va hamma darslarni to'g'ri va uyg'un tashkil etgandagina darsning mazmuni va to'la maqsadga muvofiq ochilishi mumkin. Bundan tashqari, ishlab chiqarish ta'limi maqsadlari va vazifalariga muvofiq ravishda quyidagiga o'xshash har xil dars turlarini qo'llash mumkin:

1. Kombinatsiyali (o'qitish jarayonining hamma zvenolarini o'z ichiga olgan) mashg'ulot.
2. Operatsiyalarni o'zlashtirishga (ayni operatsiyaga oid ish-mehnat usullarini o'rganishga) bag'ishlangan dars.
3. Kompleks ishlarni bajarishga (konkret buyum tayyorlash munosabati bilan ilgari o'rganilgan operatsiyalarni texnologik kompleks tarzida birlashtirishga) bag'ishlangan dars.
4. Nazorat (tekshirish, sinov) topshiriqlari va malaka olishga bag'ishlangan dars (chorak oxirida, yarim yillik, o'quv davrida) [5].

Ayrim dars shaklidagi ishlab chiqarish ta'limi asosan auditoriyada tashkil etilishini e'tiborga olib, shuni ham ta'kidlashimiz kerakki, talabalar bajaradigan ishlarning xarakteriga qarab (bir tipli yoki turli tipli ishlarning bajarilishiga qarab) darsni tashkil etish shakli ham tanlanadi (masalan, ishni – darsni frontal – butun sinf uchun; zveno; yakka va aralash tashkil etish). Masalan, talabalarning hammasi bir xil mavzuni yoki amaliy jarayonni bajarsa darsning frontal shaklini qo'llash mumkin [6]. Bu holda o'qituvchi talabalarning hammasi uchun bitta umumiy vazifa beradi va hamma talabalarga nisbatan qo'yiladigan umumiy talablar asosida vazifani bajarish texnologiyasining to'g'ri bajarilishini kuzatib boradi.

Talabalar bajaradigan ishlar mazmuni (tayyorlash texnologiyasi) bir-biriga yaqin, lekin xarakteri, ya'ni konstruksiyasi boshqa-boshqa bo'lgan hollarda darsni guruhli shaklda tashkil etish ma'qul, masalan, tibbiy bilimlarni o'qitishda asosan tibbiy atamalarni va unga xos mavzularni o'rganishda o'qituvchi ishni qismlarga ajratadi va har bir qismni o'rganishni 2-3 kishilik guruhga topshiradi. Ularga oid hamma umumiy ma'lumotlarni o'qituvchi frontal tarzida talabalarga aytib beradi, har bir qismning o'ziga xos ma'lumotlarini esa har bir zvenoning o'ziga aytadi. O'qitishning

bu shaklidan foydalanganda o'qituvchining ish hajmi, frontal shakldagidan ko'ra ancha ortadi [7].

Ta'lim-tarbiya ishlarini samarali amalga oshirish tibbiy bilimlarni berishda bir qancha muhim jihatlarni o'z ichiga oladi: 1. Tayyorlov dasturlari: Tibbiy ta'lim dasturlari zamonaviy talablar va texnologiyalar asosida yangilanib borilishi zarur. Bu, talabalarga eng so'nggi tibbiy bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradi. 2. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim: Tibbiyot sohasida amaliy tajriba juda muhimdir. Talabalar klinik ko'riklar, stajirovkalar va boshqa amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etishlari kerak. 3. Interaktiv ta'lim usullari: An'anaviy darslardan tashqari, interaktiv metodlar (guruh ishlari, simulyatsiyalar, onlayn platformalar) orqali talabalar bilan faol aloqa o'rnatish va bilimlarni mustahkamlash muhimdir. 4. O'qituvchilarning malakasi: Ta'lim jarayonida malakali o'qituvchilar ishtiroki zarur. Ular nafaqat bilim berish, balki talabalarni motivatsiya qilish va ularning rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak. 5. Etika va professionallik: Tibbiyotda kasbiy etikani o'qitish ham muhim ahamiyatga ega. Talabalarga bemorlar bilan munosabatda bo'lish, maxfiylikni saqlash va kasbiy mas'uliyatni tushuntirish lozim. 6. Tadqiqot faoliyati: Talabalarni ilmiy tadqiqotlarga jalb etish orqali ularning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. 7. Maqsadli dasturlar: Turli ijtimoiy guruhlar uchun mo'ljallangan ta'lim dasturlarini yaratish orqali tibbiy bilimlarni kengaytirishga erishish mumkin. 8. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Tibbiyotda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga erishiladi [8].

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ko'rsatilgan bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislariga ta'lim-tarbiya berish shakllari to'g'ri tashkillashtirilsa, tibbiy ta'lim yanada sifatli va samarali bo'ladi, natijada yangi avlod mutaxassislari tayyorlanadi, shuningdek, xilma-xil dars o'tish shakllarini to'g'ri qo'llash albatta talabalarda bilimlar doirasini kengaytiradi. Ta'lim-tarbiya ishlarini samarali amalga oshirish va bunda talabalarning faolligini oshirish asosan o'qitish shakli va unga mos keluvchi o'qitish metodini to'g'ri tanlashga hamda qo'llashga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020, 23 sentyabr). O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-son Farmoni.
3. Ishmuhamedov, R., & Yuldashev, M. Ta'lim va tarbiya innovatsion pedagogik texnologiyalar (p. 17). Toshkent: 2017.

4. Qoziboyeva, M. M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat nomli o'quv qo'llanma (p. 12). Andijon., 2020.
5. Najmudinov, X. G., & Najmudinova, M. X. Сущность принципов обучения взрослых в системе непрерывного образования. Uzluksiz ta'lim, Maxsus son, 81.. 2020.
6. Kamilova, R. T. Yosh sportchilarning jismoniy rivojlanishi va funksional holatini aniqlash uslublari. — Toshkent., 2013.
7. Akbarova, D. R. Adaptiv harakatga keltiruvchi rekreatsiya va reabilitatsiya shakllari. Defektologiyaning dolzarb masalalari, 1(1), 51–53., 2016.
8. Akbarova, D. The importance of types of medical supervision of a doctor in the development of medical knowledge of future teachers of physical culture. Science and Innovation, 2(B4), 402–407., 2023.
9. Akbarova, D. R. Sport tibbiyotida funksional testlarning ahamiyati. Ilmiy axborotlari ilmiy jurnali, 1(1), 50–57-b., 2022.
10. Akbarova, D. R. Place of physical exercises in the schedule. International Conference on European Science and Technology, 86(1), 75–78., 2016.
11. Arzikbaev, A., & Akbarova, D. Features of anatomic and psychophysiological development of juvenile school students. Influence of Knowledge and Public Practice on the Development of Creative Potential and Personal Success in Life, 38–38., 2016.

CONTENT-BASED INSTRUCTION AND ITS ROLE IN ENHANCING EFL LEARNERS' ACADEMIC LANGUAGE PROFICIENCY

Axrorova Munisaxon Nodirxon qizi

Student at the Tourism Faculty of Chirchik
State Pedagogical University
e-mail: zulfiyabaxtiyorovna@gmail.com

Annotation: In the context of English as a Foreign Language (EFL) education, academic language proficiency remains a fundamental objective in preparing learners for both academic and professional environments. This study investigates the impact of Content-Based Instruction (CBI) on improving academic language proficiency among EFL learners, focusing on its role in integrating subject content with language development. Drawing on both theoretical underpinnings and

empirical data, the research analyzes how exposure to authentic content in disciplines such as science, history, and social studies supports learners' mastery of academic vocabulary, syntactic complexity, and discourse competence. The study also incorporates a case study conducted in several Uzbek secondary schools where CBI approaches were piloted in English-taught subject classes. Results suggest that students engaged in CBI-based instruction demonstrated increased fluency in academic discourse and more accurate use of subject-specific terminology. These findings highlight the potential of CBI as a pedagogical strategy to bridge the gap between language learning and content mastery in multilingual educational settings.

Key words: *Content-Based Instruction (CBI); academic language proficiency; EFL learners; subject integration; CLIL; discourse competence; Uzbekistan; language development; secondary education; interdisciplinary learning*

In recent years, the global demand for English proficiency has expanded beyond communicative competence to include the mastery of academic language, which is essential for learners' success in higher education and professional contexts. Academic language proficiency—defined by Cummins as the ability to understand and use language associated with academic discourse—requires not only lexical depth but also familiarity with genre-specific structures and cognitive skills such as analysis, synthesis, and argumentation. However, traditional EFL approaches in many educational contexts, including Uzbekistan, often fall short in preparing students for the linguistic demands of academic study. Content-Based Instruction (CBI), an approach that integrates language instruction with subject matter content, has gained increasing attention as a means to bridge this gap. In CBI, students learn language through exposure to authentic texts, concepts, and tasks drawn from disciplines such as science, mathematics, and history. Numerous international studies have demonstrated the effectiveness of CBI in promoting both linguistic and cognitive development. In Uzbekistan, the implementation of CBI-related strategies, particularly in English-taught STEM and humanities subjects in secondary schools, is being supported through educational reforms such as the National Development Strategy for 2022–2026.

Preliminary studies conducted in Tashkent and other regional educational centers have shown that EFL learners exposed to content-rich instruction exhibit stronger command of academic vocabulary, improved reading comprehension, and increased motivation to engage with academic texts. Moreover, educators report that learners in CBI classrooms demonstrate enhanced critical thinking skills and more active participation in academic discourse. These developments align with broader educational goals to create globally competent graduates equipped with

21st-century skills. Despite its potential, the adoption of CBI in Uzbek classrooms still faces challenges, including teacher preparedness, access to resources, and alignment with curriculum standards. Thus, a deeper investigation into how CBI impacts academic language development in local EFL contexts is warranted. This article aims to examine the role of Content-Based Instruction in enhancing EFL learners' academic language proficiency in Uzbekistan, drawing on recent pedagogical research, field observations, and classroom-based case studies.

Content-Based Instruction (CBI) is widely recognized for its potential to develop both linguistic and academic skills among EFL learners. The theoretical foundation of this approach is deeply rooted in Krashen's Input Hypothesis, which emphasizes the importance of comprehensible input in language acquisition (Krashen, 1982) [3]. Moreover, Vygotsky's Sociocultural Theory supports the role of guided interaction and scaffolding in the development of both cognitive and linguistic capacities (Vygotsky, 1978) [4]. In the EFL context, CBI allows learners to simultaneously engage in language development and content mastery. It facilitates the acquisition of subject-specific terminology and academic discourse skills, which are essential for success in higher education (Brinton, Snow, & Wesche, 2003) [2]. For example, when students learn science through English, they do not just improve their vocabulary, but also develop critical thinking and disciplinary literacy (Coyle, Hood, & Marsh, 2010) [2]. Empirical studies show that CBI enhances metacognitive awareness and encourages learners to become more autonomous in their academic writing and reading (Mehisto, Marsh, & Frigols, 2008) [5]. This is particularly evident in integrated classrooms where the curriculum is designed to merge content knowledge and language learning outcomes.

In the Uzbek context, pilot programs supported by the Ministry of Preschool and School Education and international partners like the British Council have experimented with content-based syllabi in vocational and secondary schools, yielding promising results in learners' fluency and engagement (Nation, 2013)[6]. CBI's interdisciplinary nature also fosters higher-order thinking skills by integrating reading, writing, and oral activities in authentic academic contexts. Through this, students become better prepared for international standardized tests, academic writing, and participation in global scholarly discourse (Coyle et al., 2010)[2]. The implementation of Content-Based Instruction (CBI) in EFL classrooms yielded several key observations regarding learners' academic language proficiency. Qualitative classroom observations, teacher feedback, and student reflections consistently indicated enhanced engagement, improved academic vocabulary usage, and greater fluency in content-specific discourse.

One of the primary findings was the increase in learners' ability to interpret

and produce discipline-specific texts. When content such as geography, biology, or economics was taught in English, learners demonstrated deeper cognitive processing and language output compared to traditional grammar-based instruction. These outcomes align with Coyle et al. (2010) [2], who noted that content integration provides meaningful contexts for linguistic expression. Student writing samples collected over a 12-week CBI module revealed increased lexical variety, more accurate grammatical structures in academic writing, and improved organization of ideas. This aligns with previous research which shows that learners exposed to subject-integrated language input are more likely to transfer academic conventions into their language production (Brinton, Snow, & Wesche, 2003) [1].

Another important outcome was learners' increased confidence and participation in academic discussions. Classroom recordings demonstrated a gradual shift from passive listening to active participation and idea generation. This phenomenon is supported by sociocultural perspectives on language learning, which emphasize the role of socially situated interaction in developing higher-order thinking (Vygotsky, 1978) [4]. In the context of Uzbekistan, where traditional form-focused instruction still dominates many EFL classrooms, these findings highlight the transformative potential of CBI. Learners not only improved their English proficiency but also became more comfortable with critical thinking and academic reasoning tasks. This is particularly significant given Uzbekistan's national strategy to internationalize education and foster globally competent graduates.

However, some challenges were also identified. Teachers unfamiliar with content pedagogy faced difficulties in balancing language support with content delivery. This confirms earlier findings by Mehisto et al. (2008) [5], who argued that successful CBI requires adequate teacher training and curriculum planning. In sum, the results substantiate that CBI offers an effective pathway for advancing academic language proficiency among EFL learners. When implemented systematically with appropriate support structures, it can foster both linguistic competence and cognitive growth in multilingual learning contexts.

This study has demonstrated that Content-Based Instruction (CBI) plays a pivotal role in enhancing EFL learners' academic language proficiency by integrating subject-matter content with language learning objectives. The results reveal that CBI fosters deeper cognitive engagement, supports vocabulary development in context, and improves learners' fluency and accuracy in academic discourse. Through exposure to authentic materials and content-rich tasks, learners develop not only linguistic competence but also the ability to think critically and communicate effectively within academic contexts. In the context of Uzbekistan's evolving education system, where English language instruction is increasingly aligned with global

standards, the incorporation of CBI can serve as a valuable pedagogical approach. While challenges such as teacher preparedness and curriculum alignment remain, the potential benefits of CBI in developing globally competent and linguistically proficient learners are significant. Future efforts should focus on teacher training, resource development, and policy support to ensure the successful implementation of CBI across diverse educational settings.

REFERENCES

1. Brinton, D. M., Snow, M. A., & Wesche, M. B. Content-based second language instruction. University of Michigan Press. 2003. <https://doi.org/10.3998/mpub.23734>. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press. 2010. <https://www.cambridge.org/core/books/clil/4EAB8E108B11A4C9ED21F72F5AD585F2>
2. Krashen, S. D. Principles and practice in second language acquisition. Pergamon Press. 1982. http://www.sdkrashen.com/content/books/principles_and_practice.pdf
3. Vygotsky, L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.,1978. <https://www.hup.harvard.edu/catalog.php?isbnq9780674576292>
4. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. J. Uncovering CLIL: Content and language integrated learning in bilingual and multilingual education. Macmillan Education., 2008., <https://www.macmillanenglish.com/us/catalogue/uncovering-clil>
5. Nation, I. S. P. Learning vocabulary in another language (2nd ed.). Cambridge University Press., 2013., <https://doi.org/10.1017/CBO9781139858656>

KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA STEAM YONDASHUVINING INNOVATSION IMKONIYATLARI

Bektoshev G'iyosiddin Saxriddin o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti ijtimoiy
fanlar fakulteti tarix yo'nalishi 2 — kurs talabasi
e-mail: bektoshevgiyosiddin03@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM yondashuvining kreativ fikrlashni

shakllantirishdagi innovatsion imkoniyatlari keng yoritilgan. STEAM yondashuvi o'quvchilarda innovatsion fikrlash va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda samarali usul sifatida qaraladi. Maqolada STEAM komponentlari ta'lim jarayoniga qanday integratsiya qilinishi, o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni qanday shakllantirishga yordam berishi, shuningdek, STEAM metodikasining o'ziga xos xususiyatlari va amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi STEAM yondashuvining kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi rolini o'rganish va uning ta'limda yangi imkoniyatlarga yo'l ochishi mumkinligini ko'rsatishdir. Shuningdek, maqolada ta'lim tizimida STEAM yondashuvining muvaffaqiyatli qo'llanilishiga to'siq bo'luvchi omillar ham tahlil qilinadi, shuningdek, bu yondashuvni o'quvchilarda qanday samarali tarzda amalga oshirish mumkinligi bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *STEAM yondashuvi, kreativ fikrlash, innovatsion ta'lim, ijodiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, ta'lim metodikalari, san'at va texnologiya integratsiyasi, ta'lim innovatsiyalari.*

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yondashish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u pedagogik, psixologik va texnologik tamoyillarga tayanadi. Ushbu tadqiqotda kreativ tafakkurni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosiy metodologik yo'nalish sifatida belgilandi.

STEAM - bu bir nechta fan sohalarini birlashtirgan ta'lim texnologiyasi. Bu tanqidiy fikrlash, tadqiqot qobiliyatlari va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish vositasidir. STEM so'zi ingliz 4 so'zning bosh harflaridan tashkil topgan abbreviatura bo'lib, unda: S – Science –Fan T – Technology – Texnologiya E – Engineering –Muhandislik A – Art – San'at M – Mathematics – Matematika kabi fanlarning qo'shilishidan kelib chiqqan bo'lib, ushbu yondashuv bilan maktab o'quvchilari faoliyatining mazmuni san'at va eng yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga bag'ishlangan muhim ijodiy komponentga asoslanadi.[1]

STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganida, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas. Ta'lim tizimida sinf — dars tizimidan loyihaviy faoliyatga tomon o'tish, fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko'chirish, ularni amaliyotda faol qo'llash jarayoni orqali fanlar integratsiyasi, muammolar yechimining yangicha yo'llarni izlash, lozim topilsa, kashf

etishga yo'naltirilgan kabi vazifalarni qo'ydi. Masalan biologiya fanida an'anaviy dars o'tish tizimi orqali moddalarni hujayraga ta'siri og'zaki va yozma tarzda o'rganilib yod olinsa, STEAM ta'lim tizimi orqali o'rganilganda esa moddalarni sintez qilish bilan bir qatorda ularni amalda tirik organizmda sinab ko'rishga imkon yaratiladi. Bundan tashqari STEAMni afzalligini ko'rishimiz mumkin an'anaviy darsda suvni fizik biologik kimyoviy xususiyatlarini chizish yozish ta'riflash orqali tushuntirilsa STEAMda esa suvni sun'iy sintez qilish orqali o'quvchilar uning to'laligicha xususiyatlarni ta'riflay oladilar.[2]

STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi? Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. O'rganish paytida biz nafaqat aqlimiz bilan, balki qo'limiz bilan ham bir vaqtda ishlashimiz kerak. Faqat guruh devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzulari muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar". STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib-ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalari faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas. Bundan ko'rinadiki, STEAM ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar amalda bajargan faoliyatlarini ijodiy fikrlash orqali tushuntirib berishga harakat qiladilar.[3]

PISA dasturida 15 yoshli o'quvchilar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi. PISA tadqiqotida kreativ fikrlash bilim sohasida original va samarali yechimlar, yutuqlar va tasavvurni ta'sirchan ko'rinishlarga olib keladigan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyati deb ta'riflanadi. Ushbu tavsif o'quvchilarning turfa kontekst va ta'lim darajasida g'oya berish amaliyotida samarali qatnashishni o'rganishlari kerakligiga, g'oyaning o'ziga xosligi va munosibligini baholagan holda uning ustida mulohaza yuritishga va toki maromiga yetkazmaguncha g'oyani takomillashtirishga urg'u beradi. Bu tavsif ishlab chiqilayotganda, shuningdek, turli sohadagi mutaxassislar maslahati va kreativlik borasidagi keng adabiyot tahlilining natijalari ham inobatga olingan. Kreativ fikrlash endigina shakllanayotgan talqin bo'lib turgan bir paytda ancha keng hamda kreativlik tuzilmasi kuchli tadqiqotchilik an'anasiga ega bo'ladi.

Demak, kreativlik – layoqat, jarayon va muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat bo'lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo'lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir. Ijodiy maqsadlarni ro'yobga

chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san'atkorlik talanti kabi kengroq va maxsus ko'nikma va qobiliyatlar ham zarur bo'ladi. Masalan, san'at durdonalari yoki texnologik kashfiyotlarni yaratish bilan bog'liq buyuk ijodkorlikda kreativ fikrlashdan tashqari salmoqli talant, chuqur bilim, muayyan sohada tinimsiz mehnat hamda jamiyat tomonidan ushbu mahsulot qiymatga ega ekanligi haqidagi e'tirof ham talab etiladi. Aksincha, kichik yoxud kundalik kreativlik (masalan, fotojurnalda rasmlarni mahorat bilan joylashtirish; oziq-ovqat qoldiqlaridan yangi taomni hosil qilish yoki ishxonadagi murakkab muammoga ijodiy yechim topish kabi) ijodiy fikrlashga qodir deyarli barcha insonlarga zarurdir.[4]

Xulosa qilib aytganda, STEAM ta'limining innovatsion imkoniyatlari, o'quvchilarning barcha intellektual va ijodiy salohiyatini to'liq namoyon qilishga zamin yaratadi. Bu yondashuv o'quvchilarda muammoni hal qilish ko'nikmalarini, tanqidiy fikrlashni, hamda jamoaviy ishni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, STEAM tizimi orqali o'quvchilar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini sinab ko'rish va yangi yondashuvlar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

O'qituvchilar uchun STEAM yondashuvi, o'quvchilarning ilg'or bilimlarni qabul qilishlari uchun innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash imkoniyatini yaratadi. Bu yondashuv o'quvchilarning ijtimoiy, emotsional va intellektual taraqqiyotini ta'minlab, ularning global miqyosda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.

Shunday qilib, STEAM yondashuvi, o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirishda samarali va innovatsion vosita sifatida ajralib turadi. Bu yondashuv ta'lim tizimini zamonaviylashtirish va yoshlarning kelajakda ijodiy hamda analitik fikrlash qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алексеев Н.Г., Леонтович А.В., Обухов А.С., Фомина Л.Ф. Концепция развития исследовательской деятельности учащихся // Исследовательская работа школьников. № 1. С. 24–33., 2002.
2. Сорокина Т.Е. От STEM к STEAM-образованию через программную среду Scratch // Современные информационные технологии и ИТ-образование. -Т. 2. № 11. С. 362–366.,2015.
3. Yevdokimova YE.S. Texnologiya proyektirovaniya v DOU YE.S.Yevdokimova. — M.: TS Sfera, — 64 s., 2006.
4. Gafforov Ya.X. Toshtemirova. S. Ways to increase the effectiveness of education in an integrated environment. International Journal of Current Research and Review. India. 2020.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MAVZULARARO INTEGRATSIYA

Elmanova Shodiyona Fayzulloyevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

e-mail: elmanovashodiyona@gmail.com

Salomova Hulkar

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

e-mail: hsalomova1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda mavzulararo integratsiyaning nazariy asoslari, mazmuni va amaliy ahamiyati yoritilgan. Integratsiyalashgan yondashuv orqali fanlararo bog'liqlikni mustahkamlash, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, integratsiyalashgan darslarni loyihalash va tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, mavzulararo integratsiya, integratsiyalashgan yondashuv, ta'lim sifati, fanlararo bog'liqlik, kompetensiya, innovatsion metodlar.*

Bugungi globalashuv jarayonida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar kundankunga ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish va turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib berish orqali ta'lim jarayonini yaxlit va tizimli tarzda yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mavzulararo integratsiya – bu o'quv dasturlarida turli fanlar mazmunini o'zaro bog'liq holda olib borish orqali o'quvchilarda kompleks va chuqur bilim shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvdir.

Integratsiyalashgan ta'lim nafaqat o'quvchilar tafakkurining rivojlanishiga, balki ularning dunyoqarashi, ijodiy yondashuvi va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, XXI asr talablari darajasida bilimli, raqobatbardosh va tashabbuskor shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Mavzulararo integratsiya asosida tuzilgan darslar, odatda, o'quvchini faollikka chorlaydi, uni markaziy figuraga aylantiradi va mustaqil fikrlashga undaydi.

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda mavzulararo integratsiyaning ilmiy-nazariy asoslari, u orqali erishiladigan pedagogik natijalar, shuningdek, real dars jarayonlarida uni samarali qo'llashning uslubiy yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, integratsiyaning milliy o'quv dasturlariga mosligi, amaliyotda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari haqida ham tahliliy fikrlar yuritiladi.

Ta'lim – bu jamiyat taraqqiyotining asosi, inson kapitalini shakllantiruvchi

muhim omildir. Zamonaviy pedagogika ilg'or g'oyalar, yangicha yondashuvlar asosida rivojlanib borar ekan, o'quv jarayonida faqat alohida fanlarni o'qitish emas, balki ular orasida uzviy aloqadorlikni ta'minlash zarurati ham ortib bormoqda. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichi bu borada alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu davrda o'quvchilarda dunyoqarash, tafakkur, ijtimoiy va axloqiy qarashlar shakllanadi.

Mavzulararo integratsiya – bu turli fanlarni yagona maqsad asosida uyg'unlashtirib, o'quvchilarda chuqur va puxta bilim, keng ko'lamli tasavvur hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'limiy yondashuvdir. Bu usul orqali o'quvchilar har xil fanlardan olgan bilimlarini bir-biri bilan bog'lash, tahlil qilish, solishtirish va real hayotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Misol uchun, “ asrash” mavzusi atrofida ona tili, tabiatshunoslik, matematika va tasviriy san'at fanlarining integratsiyasi orqali o'quvchilar ekologik madaniyatni o'zlashtiradi, ijodiy fikrlaydi va raqamli tafakkurini rivojlantiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, milliy o'quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish va integratsiyalashgan ta'limni joriy etish orqali o'quvchilarda funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, axborotni tahlil qilish kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Shu boisdan, boshlang'ich ta'limda mavzulararo integratsiyaga asoslangan darslar nafaqat bilim berishga, balki o'quvchini mustaqil, faol, izlanuvchan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, integratsiyalashgan yondashuv o'qituvchidan yangicha fikrlashni, darsni puxta rejalashtirishni va innovatsion usullarni qo'llashni talab etadi. Bu esa o'z navbatida, pedagogik mahoratni oshirish, dars sifati va samaradorligini kuchaytirish imkonini beradi. Ushbu maqolada mavzulararo integratsiyaning nazariy asoslari, ularning amaliyotdagi qo'llanilishi, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari haqida batafsil tahlil yuritiladi.

Metodlar: Ushbu ilmiy tadqiqotda boshlang'ich ta'lim jarayonida mavzulararo integratsiyaning samaradorligini o'rganish, uning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadida kompleks metodlar tizimi qo'llanildi. Tadqiqotda nafaqat mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish, balki real dars jarayonlarini kuzatish, o'qituvchilar va o'quvchilar bilan ishlash, tajriba-sinov darslarini tashkil etish orqali aniq faktlar asosida xulosalar chiqarildi. Quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy-tahliliy metod — tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlash maqsadida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, darsliklar, metodik qo'llanmalar, davlat ta'lim standartlari (DTS), o'quv rejalari va dasturlar chuqur o'rganildi. Mavzulararo integratsiya tushunchasining psixologik, pedagogik va metodik jihatlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar (Finlyandiya,

Janubiy Koreya, Singapur, AQSH) ta'lim tizimlaridagi integratsiyalashgan ta'lim yondashuvlari o'rganilib, ularning ijobiy jihatlari tahlil qilindi.

Empirik metodlar — empirik bosqichda boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan yondashuvning amaliy qo'llanilishi kuzatildi va tahlil qilindi. Bu jarayonda quyidagi usullar qo'llandi:

Kuzatuvmetodi: Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi bir nechta umumta'lim maktablarida 1–4-sinflar darslari kuzatildi. Darslarda mavzulararo integratsiya elementlarining mavjudligi, o'quvchilarning faolligi, fanlararo bog'liqlikni tushunish darajasi o'rganildi. Kuzatuv natijalari maxsus protokollar asosida qayd etildi.

Tajriba-sinov ishlari. Maxsus ishlab chiqilgan integratsiyalashgan dars ishlanmalari asosida eksperimental sinflarda darslar tashkil qilindi. Bu darslar jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasi, bilimlarni qo'llash malakalari, savodxonlik darajasi va ijodiy fikrlashi baholandi. Eksperimental va nazorat guruhlar natijalari solishtirilib, integratsiyalashgan yondashuvning ijobiy ta'siri isbotlandi.

So'rovnoma va suhbat metodi: O'qituvchilar, metodistlar va boshlang'ich sinf rahbarlari o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovnomalarda mavzulararo integratsiyadan foydalanish chastotasi, qiyinchiliklar, uslublar va natijalar haqida savollar berildi. Shuningdek, ayrim tajribali o'qituvchilar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar orqali ularning individual tajribalari, yondashuvlari va tavsiyalari o'rganildi.

Statistik va kontent tahlil usullari — to'plangan ma'lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, diagramma va jadvallar asosida umumlashtirildi. Eksperiment natijalari foizlarda ifodalanib, ular orasidagi farqlar aniq ko'rsatildi. Kontent tahlil usuli orqali o'quvchilarning yozma va og'zaki ishlari (matnlar, rasmlar, topshiriqlar, og'zaki bayonlar) tahlil qilindi.

Ushbu metodlar orqali mavzulararo integratsiyaning nazariy asoslari chuqur yoritildi, amaliy holati obyektiv baholandi va maqolaning xulosalariga asos bo'luvchi daliliy materiallar yig'ildi.

O'tkazilgan tadqiqotlar, empirik kuzatuvlar, tajriba-sinov ishlari va tahlillar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi. Mavzulararo integratsiyaning o'quvchilarning bilim sifatiga ijobiy ta'siri aniqlandi. Tajriba-sinov darslarida fanlararo bog'liqlik asosida tuzilgan topshiriqlar va dars mazmuni o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kuzatish, solishtirish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini kuchaytirdi. O'quvchilar mavzuni chuqurroq tushunish, turli fanlardagi bilimlarni birlashtirib qo'llash imkoniga ega bo'ldilar.

Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Darslarda real hayotiy masalalar, mavzularga mos o'yinli elementlar, tasviriy san'at, tabiatshunoslik, matematika va ona tili fanlarining uyg'unlashtirilgan holda o'tilishi o'quvchilarning faol qatnashuviga, savollar berishga, fikr bildirishga, o'z nuqtai

nazarini himoya qilishga olib keldi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari mavzulararo integratsiyani asosan intuitiv (tajriba asosida) tarzda qo'llashlari ma'lum bo'ldi. So'rovnomalar va suhbatlar orqali aniqlanishicha, aksariyat o'qituvchilar integratsiyani turli fanlar kesimida amaliyotda qo'llashga harakat qiladilar, biroq ular bu yondashuvning nazariy asoslari, metodik tartibi va didaktik imkoniyatlari haqida yetarli bilim va ko'nikmaga ega emaslar.

Darslarni integratsiyalashgan holda tashkil etish o'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Fanlararo bog'liqlik asosida tuzilgan topshiriqlar orqali o'quvchilar axborotni tahlil qilish, mantiqiy bog'liqliklarni aniqlash, ifodaviy vositalardan foydalanish, matnlar asosida amaliy yechimlar topish kabi faoliyatlarni bajarishga o'rgandilar. Bu esa ularda hayotiy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan ta'lim o'qituvchining darsga tayyorgarligini puxtalashtiradi, lekin qo'shimcha resurs va metodik yondashuvlarni talab qiladi. O'qituvchilar tajribasida aniqlanishicha, integratsiyalashgan darslarni tashkil qilish ko'proq vaqt, ijodiy yondashuv va maxsus metodik vositalarni talab qiladi. Bu esa dars sifati oshishiga olib kelsa-da, o'qituvchidan ko'proq tayyorgarlik va o'z ustida ishlashni talab qiladi.

Mavzulararo integratsiyani ta'limga tatbiq etish orqali kompetensiyaviy yondashuv amaliyotda to'laqonli ro'yobga chiqadi. O'quvchilar faqat alohida bilim emas, balki bu bilimlarni qo'llash, hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish, muammoli masalalarni yechish va ijtimoiy muloqotda foydalanish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Boshlang'ich ta'limda mavzulararo integratsiyani joriy etish bugungi kunda zamonaviy pedagogik jarayonning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'tkazilgan ilmiy-nazariy tahlillar, amaliy kuzatuvlar va tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarning bilim sifatini oshirish, fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Mavzulararo integratsiya nafaqat o'quv mazmunini uyg'unlashtirishga, balki o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini real hayotiy holatlarga tatbiq etish salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Fanlar o'rtasidagi uzviylikni hisobga olgan holda tashkil etilgan darslar bolalarda murakkab tushunchalarni yengil qabul qilish, mavzuni mazmunan chuqur anglash, mustaqil tahlil qilish va muammoni kompleks hal qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Shuningdek, mavzulararo integratsiyalashgan ta'lim modeli o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, uning didaktik yondashuvini qayta ko'rib chiqish, innovatsion metodlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi. Ammo amaliyotda

aniqlanishicha, ko'pchilik boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu yondashuvning metodik asoslari, darsni rejalashtirish tartibi va baholash mezonlari bo'yicha yetarlicha tayyor emas. Shu bois, mavzulararo integratsiyani tizimli ravishda amalga oshirish uchun pedagoglar uchun maxsus o'quv kurslari, metodik qo'llanmalar va namunaviy dars ishlanmalari zarur

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mavzulararo integratsiya asosida tashkil etilgan darslar an'anaviy darslarga nisbatan o'quvchilarning faolligini oshiradi, bilimlarning chuqurlashuviga olib keladi; Integratsiyalashgan topshiriqlar orqali o'quvchilar bilimlarini turli fanlar kesimida bog'lab tushunadi va hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladi; O'quvchilar o'rtasida ijodkorlik, muloqotchanlik, fikr almashish, tanqidiy yondashuv va axborotni tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi; O'qituvchilarning darsga tayyorgarligi yanada mas'uliyatli, tizimli va puxta bo'lishini taqozo etadi.

Demak, boshlang'ich ta'limda mavzulararo integratsiyalashgan yondashuvni keng tatbiq etish orqali biz nafaqat o'quvchilarning bilim sifatini, balki ularning funksional savodxonligi, ijtimoiy faol pozitsiyasi va shaxsiy rivojlanishini ham samarali tarzda ta'minlay olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–2909-sonli qarori. “O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori, 2021-yil.
3. Yo'ldoshev N., Abduqodirov A. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
4. G'ofurov K., Xolmatov A. Pedagogika asoslari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022.
5. Toshpulatova G.T. Mavzulararo integratsiya: nazariy va amaliy asoslar. – “Boshlang'ich ta'lim” ilmiy-metodik jurnali, №4., 2021.
6. To'xtaeva M.X. Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida dars tashkil etish. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
7. Tursunxo'jayev A. Boshlang'ich sinfda ta'lim sifatini oshirishda fanlararo integratsiyaning ahamiyati. – “Xalq ta'limi” jurnali, №6., 2020,
8. Ziyayeva N.S. Fanlararo integratsiyaning pedagogik asoslari. – Ilmiy-texnik axborot, 2021.

IJTIMOY INNOVATSIYALAR ASOSIDA TA'LIM STANDARTLARINI YANGILASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Elmurodov A.

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-
metodik markazining bosh mutaxassisi, fizika-
matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

e-mail: elmurodov8111@mail.ru

Toshmuradova M. Sh.

Toshkent davlat tibbiyot universitetining
magistratura talabasi,

e-mail: toshmuradova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimini zamonaviylashtirishda ijtimoiy innovatsiyalar, xususan, davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda kreativ fikrlash va ilg'or tajribalarning ahamiyati yoritilgan. Xalqaro tajriba tahlil qilingan holda, O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy innovatsiyalar, davlat ta'lim standarti, kreativ fikrlash, ta'lim tizimi, xalqaro tajriba.*

Zamonaviy global ta'lim tizimi tez sur'atlar bilan rivojlanib, har bir davlatdan o'z ta'lim siyosatini qayta ko'rib chiqishni va uni xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy innovatsiyalar va axborot oqimi shiddatli rivojlanayotgan bir davrda ta'lim sifati, unga bo'lgan yondashuv va me'yoriy asoslar tubdan yangilanmoqda [1].

Davlat ta'lim standartlari (DTS) har qanday ta'lim tizimining asosi bo'lib, o'quv dasturlarining mazmuni, o'qitish natijalari va baholash mezonlarini belgilaydi. Shu sababli, DTSni ishlab chiqish va doimiy takomillashtirib borish, bu jarayonga ijtimoiy innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish dolzarb masala sanaladi. Innovatsiyalar orqali yoshlarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning zamonaviy kasb-hunarlariga mos ko'nikmalarini shakllantirish mumkin[2-8].

Mazkur maqola ijtimoiy innovatsiyalar asosida ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini tahlil qilish, xalqaro tajribalarni o'rganish va milliy tizimga mos innovatsion takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — xalqaro tajribalar va ijtimoiy innovatsion yondashuvlar asosida davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Bugungi ta'lim

tizimining zamonaviy talablariga mos holda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, o'quvchilarning raqobatbardosh bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi standartlarni yaratish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqsadga erishish uchun ijtimoiy innovatsiyalarning ta'lim sohasidagi ahamiyatini tahlil qilish, xalqaro tajribada davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etishdagi innovatsion yondashuvlarni o'rganish, O'zbekiston ta'lim tizimida amaldagi standartlarning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim standartlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, pedagoglar va ta'lim muassasalarining mazkur jarayondagi ishtirokini kuchaytirish yo'llarini aniqlash vazifalar belgilab olindi.

Mazkur tadqiqotda sifatli (qualitative) tahlil usullari asosida kompleks yondashuv qo'llanildi. Asosiy metod sifatida hujjatlarni tahlil qilish (document analysis), solishtirma tahlil (comparative analysis) va kontent-tahlil (content analysis) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida UNESCO, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va strategik hujjatlari, Rossiya, Singapur, Germaniya, Xitoy va Buyuk Britaniya kabi davlatlarning pedagogik kasbiy standartlari bo'yicha tajribalari[9-15], O'zbekiston Respublikasining amaldagi davlat ta'lim standartlari va ularni ishlab chiqish tartibiga oid normativ hujjatlar o'rganildi[1].

Shuningdek, ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, pedagoglar va magistratura talabalari o'rtasida suhbatlar o'tkazilib, ularning fikrlari asosida muammo va takliflar aniqlashtirildi.

Tadqiqot metodologiyasi innovatsion yondashuvlarning amaliy ahamiyatini ochib berish, ularning ta'lim standartlariga integratsiyalashuv darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida ijtimoiy innovatsiyalarning ta'lim standartlarini takomillashtirishdagi o'rni va ahamiyati bo'yicha quyidagi muhim natijalarga erishildi:

Singapur, Germaniya va Buyuk Britaniya kabi ilg'or davlatlarda ta'lim standartlari muntazam ravishda yangilanib, zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar va texnologik taraqqiyot asosida takomillashtirib borilmoqda. Ularning tajribasida innovatsion kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar asosiy yo'nalish sifatida e'tiborga olingan.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida davlat ta'lim standartlari mavjud bo'lsa-da, ularning mazmunida amaliyotga yo'naltirilgan kompetensiyalar va zamonaviy texnologiyalarni qamrab oluvchi elementlar yetarli emas. Ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish ko'proq individual tashabbus darajasida qolmoqda.

Innovatsion yondashuvlar bo'yicha takliflar:

ta'lim standartlarni ishlab chiqishda mehnat bozori ehtiyojlari, yoshlarning manfaatlari va jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar hisobga olinishi zarur;

pedagogik standartlarga "ijodiy yondashuv", "innovatsion tashabbus", "axborot madaniyati" kabi yangi kompetensiyalarni kiritish tavsiya etiladi;

ta'lim tashkilotlari va amaliyotchi pedagoglarni ta'lim standartlarni ishlab chiqish hamda sinovdan o'tkazish bosqichlariga faol jalb etish lozim.

Xalqaro tajribalarda ta'lim standartlari nafaqat nazariy asosga, balki amaliy, baholanuvchi va natijaviy mezonlarga tayanadi. Bu esa o'quvchilarni real hayotga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda esa bunday ko'rsatkichlar ba'zan umumiy va aniq mezonlarsiz taqdim etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy innovatsiyalarni davlat ta'lim standartlariga integratsiyalash — ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim vositadir. Xalqaro tajribalarda bu jarayon tizimli va barqaror yondashuvlar asosida tashkil etilgan bo'lsa, milliy tizimda hali bu borada institutsional va metodik asoslar to'liq shakllanmagan.

O'zbekistonda davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish jarayoni asosan normativ hujjatlar bilan chegaralangan bo'lib, innovatsion kompetensiyalar va ijtimoiy-emotsional rivojlanish mezonlari yetarli darajada aks ettirilmagan. Mazkur holat esa zamonaviy yoshlarning kasbiy va shaxsiy rivojlanish ehtiyojlariga to'liq javob bermaydi.

Muhokama davomida aniqlanganki, davlat ta'lim standartlarini yaratishda quyidagi muammolar mavjud:

soha mutaxassislarining, pedagoglar va o'quvchilarning fikri yetarli darajada hisobga olinmasligi;

innovatsion texnologiyalar va kreativ tafakkurni o'rgatuvchi kompetensiyalarning standartlarda cheklangan tarzda aks ettirilishi;

standartlarni ishlab chiqishda amaliy sinov va tahlilga kam e'tibor qaratilishi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun DTS ishlab chiqish jarayonida ijtimoiy innovatsion yondashuvlarni chuqur integratsiyalash zarur. Bu esa, o'z navbatida, ta'limni hayot bilan bog'laydi, o'quvchi va talabalarning real muammolarni hal qilishga qaratilgan bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ijtimoiy innovatsiyalar orqali ta'lim standartlarini takomillashtirish, yoshlarning ehtiyojlari va zamon talablari asosida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan mexanizmlar uzoq muddatli ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirishda ijtimoiy innovatsion yondashuvlardan foydalanish dolzarb va zaruriy masaladir. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, ilg'or ta'lim tizimlarida

innovatsion kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy-emotsional rivojlanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Milliy tizimda esa ushbu yo'nalishlar bo'yicha rivojlanish bosqichma-bosqich olib borilmoqda, biroq bu jarayonni tezlashtirish, tizimli va ilmiy asosda amalga oshirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda ijtimoiy innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalar va mehnat bozori ehtiyojlari hisobga olinishi lozim;

innovatsion kompetensiyalar – kreativ fikrlash, raqamli savodxonlik, axborot madaniyati, ijtimoiy moslashuv — davlat ta'lim standart mazmuniga integratsiya qilinishi kerak;

ta'lim standartlarni yaratish jarayoniga pedagoglar, amaliyotchilar va yoshlar keng jalb qilinishi, ularning fikri va takliflari asosida hujjatlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq;

davlat ta'lim standartni yaratishda xalqaro tashkilotlar, xususan, UNESCO tavsiyalari asosida metodik yondashuvlar tatbiq etilishi muhim;

ta'lim standartlari hayot bilan bog'liq, amaliy va o'lchab bo'ladigan natijalarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Mazkur takliflar O'zbekiston ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish, yosh avlodning innovatsion salohiyatini ro'yobga chiqarish va barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi kuchli inson kapitalini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 157-son qarori.
2. Anderson, T., & Dron, J. Three Generations of Distance Education Pedagogy. The International Review of Research in Open and Distributed Learning, 2011., 12(3), 80–97.
3. Darling-Hammond, L. Empowered Educators: How High-Performing Systems Shape Teaching Quality Around the World. Jossey-Bass. 2017.
4. European Commission. Key Competences for Lifelong Learning. Luxembourg: Publications Office of the European Union., 2018.,
5. Fullan, M. Stratosphere: Integrating Technology, Pedagogy, and Change Knowledge. Pearson., 2013.
6. Kozyrev A.V. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Moskva., 2022.

7. Mishra, P., & Koehler, M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 2006., 108(6), 1017–1054.
8. OECD. (2018). The Future of Education and Skills: Education 2030. OECD Publishing.
9. Sahlberg, P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press., 2015.
10. Singapur Ta'lim Vazirligi (MOE). 21st Century Competencies Framework., 2019. www.moe.gov.sg
11. Singapur Ta'lim Vazirligi (MOE). 2022,. Education Reform and Innovation.
12. UNESCO. Global Framework for Teacher Standards., 2023.
13. Xitoy Xalq Respublikasi Ta'lim Kengashi. Teacher Competency Framework., 2020.
14. Қўсимов, Б. Ҳ. Инновацион таълим ва таълим стандартлари. Тошкент: “Илм-зиё” нашриёти, 2022.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION SHAKLDA TA'LIM-TARBIYA JARAYOLARINI TASHKIL ETISH

Eshmuminova D. I.

NavDU, “Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etilishi haqida fikr boradi. Ushbu ta'lim bolaning 3 yoshdan 7 yoshga to'lgunga qadar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va mulk shaklidan qat'iy nazar ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

Kalit so'zlar: *uzluksiz ta'lim, yetuk shaxs, ota-ona, oila, mahalla, ilk qadam, tashkiliy, uslub, psixologiya, pedagogika.*

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan,

bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi.

Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim tashkilotining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasiga doir qator tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini, respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligini muhtaram Prezidentimiz qabul qilayotgan Qaror va farmoyishlarida bayon etilgan.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta'lim bolaning 3 yoshdan 7 yoshga to'lgunga qadar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va mulk shaklidan qat'iy nazar ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar rivojlanadilar va ta'lim – tarbiya oladilar. Ularning sog'ligi mustahkamlanadi, o'z-o'zigaxizmat ko'rsatish ko'nikmalarini hosil qiladi. Ularda mehnatga muhabbat uyg'onadi. Kattalarni hurmat qilish hamda vatanparvarlik tuyg'ulari tarbiyalanadi. Bolalar maktab ta'limi uchun bosqichma-bosqich tayyorgarlik ko'radilar.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi. Bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassasalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim — maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishi, individual ruhiy holati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda bolalarga ta'lim-

tarbiya berishga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi. Bu jarayon bolalarda ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallashiga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan yurtimizning jahon hamjamiyatida qay darajada o'rin egallashi, o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, yosh avlodning qanchalar bilimli, yetuk, komil, erkin fikrlaydigan va o'z menini yarata oladigan, qisqa qilib aytganda yurt uchun o'z hissasini qo'sha oladigan bo'lib yetishishi ta'lim tizimiga qo'ygan ilk qadami bilan boshlanadi. Bola maktabgacha ta'lim tashkiloti ostonasiga qo'ygan qadami, uning ilk qadami hisoblanadi. Bu dargoh murg'ak qalblarga ilm eshiklarini ochuvchi, uni yuqori marralar tomon yetaklovchi nurli maskan hisoblanadi. Nima sababdan hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish davr talabiga aylanmoqda, degan savol tug'iladi, albatta.

Chunki, bola tug'ilgandan so'ng yetti yoshgacha bo'lgan davr uning uchun eng muhim davrdan biri hisoblanadi. Bola bu davrda o'z hayoti uchun kerakli bo'lgan barcha ta'lim- tarbiyani olishi va u olgan ta'lim-tarbiyasi umr yo'llarida hamroh bo'lishi hammamizga ma'lum albatta. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga borar ekan bola erkin fikrlashni, o'zgalar bilan tez muloqotga kirishishni, o'zida ta'lim — tarbiyaga oid bilimlarni, atrof muhitni, uni o'rab turgan zaminning turfa xil ne'matlarini atrofdagi predmetlar haqidagi to'liq ma'lumotlarni, mashg'ulotlar orqali kerakli bilimlarni oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga borgan bolaning ko'zi yonib turadi. U hamma narsani yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o'rganishga, u narsa haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishga qiziqadi. Bolaning bu yosh davri shijoatga to'la, doimo harakatda bo'ladigan davri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilalarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiyalash davri sifatida tarixga muhrlanmoqda. Negaki, mamlakatimizda mazkur tizimni davlat siyosati darajasigacha ko'tarilishi, hali hech bir davrda o'z aksini topmagan. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanmish maktabgacha ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor tahsinga loyiq. Biz shunday sharoitda zamonaviy, teran fikrlaydigan intellektual va madaniy-estetik qadriyatlarda o'zining mukammal bilimi va tajribasi nuqtai nazaridan yondasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalashni bosh maqsadimiz deb bilar ekanmiz, buning mas'uliyatini

astoydil his qilish bizning oldimizda turgan murakkab, o'z o'rnida sharaflı vazifa ekanligini unutmashligimiz talab etiladi. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi bolalarni katta hayotga o'rgatish, ularda jamiyatga moslashuvchanlik, guruhlarda o'z o'rniga ega bo'lish va o'zining mustaqil o'rni haqidagi ilk qarashlar barq urib boradigan maskan vazifasini o'tamog'i lozim hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyaning eng oliy maqsadi barkamol shaxsni shakllantirish va uni jamiyat uchun munosib voris qilib tayyorlab berishdir. Bunda ta'lim jarayonida yangi pedagogik talablar, ya'ni pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi, ulardan foydalanishga oid pedagogik talablar, ya'ni pedagogik tamoyillarni ishlab chiqishni hamda amaliyotga tatbiq etishni taqozo etadi. Amaliyotga tadqiq etilayotgan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat o'quv dasturi bu – ta'lim jarayoniga qo'shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlaridir.

Umuman olganda, davlat talablarida kichik va maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni besh yo'nalishda rivojlantirish kerakligi ko'rsatilgan. Bu besh yo'nalishni rivojlantirib, bola 4 kompetensiyaga ega bo'ladi, ya'ni u 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladi. Bularning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni diqqat markazda – bola va uning manfaatlari yotadi. Pedagog ota-ona, pedagogik tarkib, bolaning o'zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil qiladi. Dastur asosida bilim olish jarayoni o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020 yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi

QONUN-595-son - T.:2019 yil 16-dekabr.

3. "Takomillashtirilgan Ilk qadam Davlat o`quv Dasturi. - T.: 2022.
4. Shodmonova Sh. Maktabgacha pedagogika. - T., «Fan va texnologiyalar», 2005.
5. Pedagogika fanidan izohli lug'at. (Tuzuvchilar: Hasanboyev J., To'raqulov X., Hasanboyeva O., Usmonov N.). - T., «Fan va texnologiyalar», 2015.
6. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/24-ilmiy-tarixiy-adabiy-maqolalar-risolalar>

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING YOZMA NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Foziljonova Durdona Voxidjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Ta'lim va
tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich
ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
e-mail: foziljonovadurdona4@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yozma nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishning ahamiyati haqida batafsil yoritilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy didaktik vosita sifatida konseptual jihatdan asoslangan bo'lib, ta'limiy faoliyat hamda ilmiy-tadqiqot jarayonlari o'rtasidagi epistemologik uyg'unlikni ta'minlovchi, samarali nazariy-metodik platforma sifatida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, nutqiy kompetensiya, yozma nutqiy kompetensiya; psixologik, metodik va lingvistik yondashuvlar, yozuv malakasi, sun'iy intellekt (AI), plagiat, innovatsion taraqqiyot.*

Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiluvchi kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiya ekanligi isbot talab qilmas haqiqatdir. Jamiyatni rivojlantirish, kelajak poydevori bo'lmish yosh avlodni ma'nan sog'lom va har tomonlama barkamol shaxs etib voyaga yetkazishda ham ilm-fan o'chog'i – kichik ta'lim jabhalarining o'rni beqiyosdir. Shu bois, islohotlarning asosiy negizi maktabgacha va boshlang'ich ta'limni tubdan isloh etishga qaratilmoqda.

Xususan, boshlang'ich ta'lim ta'limning asosini tashkil etib, pedagoglar oldiga boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy kompetensiyasini samarali rivojlantirishni

ta'minlashdek mas'uliyatli vazifa qo'yiladi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdan ko'zlangan maqsad o'quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning: "O'z fikrini mustaqil ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin", – degan fikrlari kichik yoshli maktab o'quvchilarining nutqiga alohida e'tibor bilan yondashishga chorlaydi [2]. Zero, o'quv jarayonida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy o'rin tutadi.

Nutqiy kompetensiya shaxsning nutqini aniq, ravon va samarali ifodalash qobiliyatidir. Buning isboti o'laroq, olim D.Shadmankulovning ilmiy yondashuvlariga ko'ra, "Nutqiy kompetensiya (kommunikativ kompetensiya)- o'quvchining notanish matnni ifodali o'qiy olish, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish, fikrni yozma ravishda izchil ifodalay olish darajasi hisoblanadi" [3]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi, negaki bu ularning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga, o'z-o'zini o'rganishga va global dunyoda muvaffaqiyatli bo'lishlarida ahamiyatlidir. Shuningdek, o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish ularning shaxsiy o'sishi va ijtimoiy faolligi, akademik muvaffaqiyatga erishishi uchun zamin yaratadi hamda o'rinli tanqidiy fikrlash natijasida samarali takliflar berish ko'nikmasini ham shakllantiradi.

Yozma nutqiy kompetensiyani rivojlantirish – bu murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, u psixologik, metodik va lingvistik asoslar bilan chambarchas bog'liqdir.

Psixologik yondashuvga ko'ra, yozma nutqni shakllantirishda o'quvchining individual qobiliyatlari, fikrlash darajasi, emotsional holati va motivatsiyasi muhim rol o'ynaydi. Yozish jarayoni ongli faoliyat bo'lib, unda tafakkur, xotira, e'tibor va ijodiy yondashuvlar ishtirok etadi.

Metodik yondashuv esa yozma nutqni bosqichma-bosqich, tizimli tarzda shakllantirishni nazarda tutadi. Bu yerda matn tuzish qoidalari, kompozitsion tuzilma, uslubiy jihatlar, mavzuga mos yondashuvlar va topshiriqlarning izchilligi e'tiborga olinadi. Sun'iy intellektdan foydalanish esa metodik jarayonni soddalashtiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrini rag'batlantiradi.

Lingvistik yondashuv yozma nutqdagi til vositalarining to'g'ri, mazmunli va grammatik jihatdan aniq qo'llanilishini o'z ichiga oladi. Bunda sinonimlar, uslubiy vositalar, gap tuzilishi va kontekst muhim ahamiyatga ega. SI texnologiyalari matnning grammatik va uslubiy sifati ustida ishlashga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar uyg'unlashganda, ta'lim jarayonida yozma nutq kompetensiyasi yuqori darajada shakllanadi. Zero, yozuv malakasi o'qituvchi faoliyati uchun asosiy ko'nikmalardan biri bo'lib, aynan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bu boradagi

mahorati o'quvchilarning dastlabki bilimlari shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida, o'z fikrini izchil, mantiqiy va mazmunli tarzda bayon eta olish qobiliyatini shakllantirishda ham yozma nutqiy kompetensiya muhim ahamiyat kasb etadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tahliliy va tanqidiy, mantiqiy fikrlash;
- savodxonlik (yozma va raqamli savodxonlik) darajasi – adabiy til me'yorlariga amal qilish;
- pedagogik yozuv kompetensiyasi – didaktik materiallar: dars ishlanmalari, reja va qo'llanmalar tuzish kabilar.
- Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yozma nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning bilim olishini yanada yuksaltiradi. Bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi bu jarayonda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zero, sun'iy intellekt texnologik rivojlanish asosi bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida uning roli tobora ortib bormoqda.

Ta'limdagi sun'iy intellekt – bu talabalarga bilim olish, axborot va ta'lim resurslaridan foydalanish jarayonini o'zgartiradigan, vaqtdan oqilona foydalanish va makonni yengib o'tishga yordam beradigan, o'z tezligida o'rganishga imkon beradigan, talabalarga o'rganish va ilmiy tadqiqotlarda yordam berishning inqilobiy usulidir [4].

Sun'iy intellekt yordamida yozish ko'nikmalarini rivojlantirish kishining yozish qobiliyatini oshirishda qimmatli vositadir. Al yozish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradigan ba'zi usullar: Grammatika va imloni tuzatish: Al vositalari real vaqt rejimida grammatika va imlo xatolari haqida fikr-mulohazalarni taqdim etishi mumkin, bu esa yozuvchilarga o'z yozuvlarining umumiy sifatini yaxshilashga yordam beradi. Lug'at boyligini oshirish: Al yordamida ishlaydigan yozuv yordamchilari yozuvdagi so'z boyligi va rang-barangligini yaxshilash uchun sinonimlar va muqobil so'zlarni taklif qilishlari mumkin. Uslub va ohang tahlili: Al yozish uslubi va ohangini tahlil qilib, uni mo'ljallangan auditoriya yoki maqsadga muvofiqroq moslashtirish bo'yicha takliflar berishi mumkin. Plagiatni aniqlash: Al vositalari yozuvchilarga plagiatning har qanday holatlarini aniqlash va iboralarni o'zgartirish bo'yicha takliflar berish orqali o'z asarlarining originalligini ta'minlashga yordam beradi. Yozish bo'yicha ko'rsatmalar va ilhom: Al yozuvchilarga yozuvchi blokirovkasini yengib o'tishga yordam berish va ijodkorlikni rivojlantirish uchun yozish ko'rsatmalari yoki g'oyalarni yaratishi mumkin [3].

Sun'iy intellekt vositalarining taqqoslovchi jadvali

Ushbu vositalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z yozma nutqini

takomillashtiribgina qolmay, balki ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarni qo'llash, innovatsion fikr yuritish ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar.

Sun'iy intellektning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yozma nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati, avvalo, ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va shaxsiylashtirish imkoniyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Zamonaviy raqamli texnologiyalarni pedagogik faoliyatlariga integratsiya qilish orqali bo'lajak o'qituvchilar nafaqat o'z kasbiy kompetensiyalarini takomillashtiradilar, balki

Sun'iy intellekt vositasi	Asosiy funksiyasi	Ta'limda qo'llanilishi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Tilmoch AIG' Tahrirchi Bot	Turkiy tillarda tezkor tarjima va tahrirlash imkoniyati	O'zbek tilida grammatik tahrir va sifatli tarjima xizmati	Kirill-o'zbek tiliga sifatli o'tkazish, sayqalchi belgilarining mavjudligi	bepul versiyada funksiyalarning cheklanganligi
ChatGPT	Matn yaratish, savol-javob, tahlil	Ilmiy matnlar yozish, savollar tuzish	Har tomonlama moslashuvchan	Yuqori aniqlik uchun to'g'ri so'rov (prompt) kerak
Antiplag.uz	Plagiatni aniqlash	Barcha akademik hujjatlar, ilmiy manbalardagi originallikni tekshirish	Keng qamrovli ma'lumotlar bazasi bilan ishlash imkoniyati	Bepul foydalanish xizmatining mavjud emasligi
Gemini	Axborotlarni qidirish, matnlar yaratish	Ma'lumotlarni tahlil qilish, adabiyotlar sharhini tuzish, g'oyalarni generatsiya qilish.	Ijodiy vazifalarni qo'llab-quvvatlash	Ba'zan ilmiy ma'lumotning manbasini aniq dalillay olmaslik
Perplexity AI	Ma'lumotlarni qidirish va manbalarini aniqlash	Ilmiy tadqiqotlarda asosiy ko'makchi: ma'lumotlarni tezkor yig'ish va sintez qilish	Mustaqil o'rganishni ta'minlash	Ba'zan murakkab savollar yuzasidan qisqa manbalarning berilishi
Academia	Akademik ma'lumotlar uchun platforma	So'nggi tadqiqot tendensiyalaridan xabardor bo'lish	Ilmiy ma'lumotlarning ishonchli ekanligi	Ba'zi ilmiy ma'lumotlarni bepul yuklay olmaslik
Napkin AI	Ma'lumotlarni vizual tarzda tahlil qilish	Shaxsiy bilim bazasini yaratish	Ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlikni vizualizatsiya qilish	Mobil qurilma orqali foydalanishning cheklanganligi

Grammarly	Grammatik va stilistik tekshiruv	Ingliz tilidagi yozma ishlar	To'g'ri yozishni o'rgatish xizmati, professional uslub	O'zbek tilini qo'llamaydi
Notion AI	Reja, xulosa, kundalik yozuvlar	Konspekt va dars rejalari yaratish	Tashkiliy va yozma ishlarda qulay	To'liq mustaqil ishlashi cheklangan
QuillBot	Parafraz, sinonimlar tanlash	Plagiatni kamaytirish, matnni optimallashtirish	Stil va ifoda shaklini yaxshilaydi	Ba'zan mazmunni o'zgartirib yuborishi mumkin
Jasper AI	Kontent va ijodiy matnlar	Esse, blog va hikoyalar yaratish	Ijodiy ishlarga ilhom beradi	To'liq versiyasi pullik
Writesonic	Matn yaratish, savol-javob	Prezentatsiya va ijodiy topshiriqlar	Tez va samarali natija	O'zbek tili imkoniyatlari cheklangan
ChatDOC G' Humata.ai	PDF dan savol-javob	Ilmiy maqolalarni tahlil qilish	Murakkab matnni tushuntiradi	Faqat PDF formatli hujjatlar uchun

o'quvchilarning bilim olish jarayonini interaktiv va samarali tashkil etish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida, ta'lim samaradorligini oshirish va kelajak avlodni raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga puxta va maqsadli joriy etilishi mamlakatning innovatsion taraqqiyoti va iqtisodiy salohiyatining yuksalishiga mustahkam zamin yaratishi, shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nazarova N. Boshlang'ich sinflarda yozuv malakasini oshirish: ijodkorlik va samaradorlikni rivojlantirishda sun'iy intellektning o'rni. –Inter-education, global study G'G' Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 137-b.
2. Xushbaqova Z.J., Parpiyev O. Boshlang'ich sinflarda nutqiy savodxonlikni rivojlantirish. Ta'lim sifati Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili,-645 b.
3. Shadmankulova D. Lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda maktablar tajribasining o'rni. -Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar G'G' ilmiy-nazariy va metodik jurnal, №3G'2023.
4. Qarshiyev J. Talabalarining o'quv faoliyati va ilmiy izlanishlarida sun'iy intellekt: imkoniyat va chegaralar. –Scienceproblems.uz. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. № SG'2(4) 364-369-b., 2024.

BOSHLANG'ICH TALIMDA MEHNAT TARBIYASI VA KASB-HUNAR TA'LIMINI METODOLOGIYASI

Ibragimova Dilnavoz Hazratkulovna

Qarshi iqtisodiyot pedagogika universiteti
o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta'limida mehnat tarbiyasi, kasb-hunar ta'limi va ularning metodologiyasi haqida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, mehnat tarbiyasi, kasb, hunar, ta'lim, o'quvchilar, ijtimoiy-pedagogik, nazariya.*

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining pirovard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehnatga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir [1].

Maktab ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiyasidagi eng zarur vazifalardan biri hisoblanadi, chunki mehnat har qanday rivojlanish va taraqqiyot jarayonining asosidir [2].

Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;

ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab

turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishni oshirish;

o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi.

Qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiya chiqindilari qog'oz, karton, sim, yog'och, gazmol va boshqalar bilan: tabiiy va sun'iy xom-ashyolar maxsus loy, yog'och va plastmassalar, plastilin, yelim va boshqalar bilan keng iste'mol mollari va xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, tayyorlash uchun mahalliy xom-ashyolar bilan elektr, radiotexnika to'plamlari va hokazolar bilan ishlashga o'rganadilar.

Mazkur vazifalar tizimida o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Bolani mehnatga psixologik tayyorlash – unda mehnatga nisbatan uning yoshiga mos keluvchi ongli vaq ijobiy (musbatlar) munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarini egallashga qiziqishlarni shakllantirishdan iboratdir.

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarning aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o'zaro bog'lik holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi.

Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o'quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go'zallik va o'z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi. Yuqoridagilarga asoslanib, o'quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvofiq. Bular:

o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatini tushunilishi;

ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;

ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg'otish;

o'quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg'ularini qaror toptirish;

ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg'usini tarbiyalash;

ularning mehnatga ongli munosabatda bo'lishlariga erishish;

mehnatda ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash;

o'quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko'z qorachig'iday asrash tuyg'ularini shakllantirish;

mehnatda do'stlik, o'rtoqlik va hamkorlikka erishish;

o'quvchilarning mehnatni go'zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar.

Mehnat eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Mehnat ta'limida mehnatga psixologik tayyorgarlik, mehnat faoliyatining to'g'ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsda har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo'lgan sifatlari shakllanadi. Kasb — (Lotincha: professio — rasmiy ko'rsatilgan mashg'ulot, ixtisoslik) — maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi. Kasb — kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'ulot turi. Hunar — o'zbek tiliga tojik tilidagi shakli olingan; asli "layoqat", "san'at" ma'nolarini anglatadi; keyinchalik "kasb" ma'nosini ham anglatadi boshlagan. Dunyoda 10000 dan ortiq kasb va mutaxassisliklar mavjud. Ushbu kasblarning birini qobiliyatlarimizga, dunyoqarashimizga eng asosiysi qiziqish va moyilliklarimizga qarab tanlashimiz kerak. Inson ishlayotgan vaqtda uning diqqat-e'tibori sohaga emas (bu soha qanchalik yaxshi, obro'-e'tiborli va boshqa ko'pgina afzalliklarga ega bo'lishiga qaramay), balki mehnat predmeti (obyekti)ga qaratilgan bo'ladi. Mana shu predmetni ishlatib, nimadir qilish kerak (bu endi mehnatning maqsadi bo'ladi). Har qanday mehnatda qurollar, vositalar mavjuddir. Nihoyat, odam uchun uning qanday sharoitda ishlashi muhim ahamiyatga egadir. Kasb tanlashni o'ylayotgan kishi uchun qulay bo'lgan kasblar klassifikatsiyasi mana shu belgiga qarab tuziladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda pedagoglarning oldida turgan muhim vazifalar quyidagilar:

- o'quvchilarni kasbga bo'lgan qiziqishlarini yanada takomillashtirish;
- uni kasb tanlash darajasiga yetkazish;
- ko'p qirrali qiziqishga ega bo'lgan o'quvchilarda o'ziga ko'proq yoqqan sohani, kasbni tanlashga amaliy yordam berish;
 - o'quvchilarda mehnat qiluvchi kishilarga nisbatan hurmat xislatlarini tarbiyalab borish;
- o'quvchilarning o'ziga xos qiziqishlarini e'tiborga olgan holda ularni asta-sekin jamiyat ijtimoiy mehnatiga jalb qilib borish; 88 — kasblar to'g'risida ma'lumotlarni yetarlicha berib borish;
- inson mehnati bilan yaratilgan moddiy boyliklarni har tomonlama tejash xislatlarini tarbiyalash;
- o'quvchilarning o'zi qiziqadigan kasb yo'nalishiga jalb qilish va egallangan bilimlarni amalda qo'llashlariga erishish;
- o'quvchilarda mehnat va kasb tanlashga qiziqish uyg'otish. Bu jarayon to'g'ri tashkil etilganda shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Tarbiya jarayonida o'quvchining qobiliyatlari, bu qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari u, yoki bu kasb haqida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish, bolalar

psixologiyasini hisobga olish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ibragimova D. O'qituvchi faoliyatida pedagogik kompetensiyaning o'rni va ahamiyati. Ta'lim, fan va innovatsiya, 2, 172–175., 2024.
2. Oripova N. Kh., Mirzaeva M. A., Nazirov U. K., & Keldiyarova, V. B. (n.d.). Main core and meaning of shaping professional faith(pp. 242–245). <https://doi.org/10.31838/jcr.07.02.43>
3. Norboshyeva M. O. Bolalar psixologiyasi. - Toshkent., 2002.
4. G'oziev E. G. Psixologiya. - Toshkent: O'zMU., 2002.
5. Hasanboyeva O., va boshq. Pedagogika tarixi.- Toshkent: G'. G'ulom., 312 b., 2004.
6. To'xtaxo'jayeva. Pedagogika. - Toshkent., 2005.
7. Ziyonet. (n.d.). Retrieved from <https://ziyonet.uz>

MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGLARNING KASBIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA COACHING TIZIMINING TADBIQ ETISH TEXNOLOGIYASI

Isabekova Dilafruz Shermirzayevna

Angren universiteti "Pedagogika va
psixologiya" kafedra o'qituvchisi
e-mail: d.isabekova@auni.uz

Po'latova Shodiya

Maktabgacha ta'lim 3 kurs kunduzgi guruh
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgachata'lim tizimida pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishda coaching tizimini joriy etishning ahamiyati yoritilgan. Coaching – bu pedagoglarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan, ularning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi zamonaviy o'qitish texnologiyasi hisoblanadi. Maqolada coaching texnologiyalarining asosiy tamoyillari, amaliy qo'llanilishi va ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, Finlyandiya, AQSh va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilib, ularning ta'lim tizimida coachingning qanday tatbiq etilishi tahlil qilingan. "Ilk Qadam" davlat dasturining

coaching tizimiga integratsiyasi va uning pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ta'siri ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari coaching tizimini maktabgacha ta'lim muassasalarida samarali qo'llash ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *coaching, maktabgacha ta'lim, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, innovatsion ta'lim metodlari, "Ilk Qadam" dasturi, xorijiy tajriba.*

Maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish jarayoni zamonaviy ta'lim metodlari va texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, coaching tizimini tatbiq etish pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishda samarali yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda. Coaching – bu an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, pedagoglarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish va o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyadir.

Coaching tizimi pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuv sifatida pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu tizim pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, ularga muayyan muammolarni hal qilish va kasbiy mahoratlarini rivojlantirishga yordam beradi. Coaching jarayonida mentor yoki murabbiy pedagoglarga individual yoki guruh shaklida maslahat va amaliy ko'rsatmalar berib boradi. Bu esa ta'lim sifati oshirish, ta'lim jarayonini takomillashtirish va innovatsion metodlarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy coaching texnologiyalari pedagoglarning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Ushbu tizim quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi: individual yondashuv, amaliy mashg'ulotlar, refleksiya va o'z-o'zini baholash, doimiy tahlil va takomillashtirish. Ushbu tamoyillar orqali pedagoglar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, balki ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, coaching orqali pedagoglarning kasbiy faolligi oshib, ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish ko'nikmalari shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida coaching texnologiyalarini joriy etishning muhim jihatlaridan biri – pedagoglar uchun maxsus trening va seminarlarni tashkil etishdir. Bu orqali ularga yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar o'rgatiladi. Shu bilan birga, coaching jarayonida pedagoglar o'zaro tajriba almashish, jamoaviy ishlash va birgalikda muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa nafaqat pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga, balki maktabgacha ta'lim sifatining oshishiga ham xizmat qiladi.

Maktabgachata'lim tizimida coaching tizimini tatbiq etishda "Ilk Qadam" davlat dasturining ahamiyati katta. Ushbu dastur bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash bilan birga, pedagoglarning ham kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi. "Ilk Qadam" dasturi asosida rivojlantiruvchi muhit yaratish, individual va

guruhiy ta'lim yondashuvlarini qo'llash, bolalar bilan interaktiv metodlar asosida ishlash pedagoglarning coaching jarayonidan samarali foydalanishini ta'minlaydi. Dastur doirasida pedagoglar uchun tashkil etilayotgan treninglar va seminarlar, ularning amaliy mashg'ulotlarga jalb etilishi coaching tizimini joriy etishda asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, coaching tizimi ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimida coaching o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu yerda pedagoglar doimiy ravishda mentorlardan maslahat olib, o'z tajribalarini baholab boradilar. Shuningdek, AQSh va Buyuk Britaniyada ham coaching tizimi keng tarqalgan bo'lib, pedagoglar uchun doimiy trening va reflektiv mashg'ulotlar tashkil qilinadi. Bu esa o'qituvchilarning innovatsion metodlarni o'zlashtirishiga va ta'lim jarayonini yaxshilashiga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, coaching metodlaridan foydalangan pedagoglarning kasbiy mahorati sezilarli darajada oshadi. Ularning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ishtiyoqi ortib, ta'lim jarayonida samaradorlik yuqori bo'lishiga erishiladi. Shuningdek, coaching jarayoni pedagoglarni o'z pedagogik faoliyatlarini tahlil qilishga, muammolarni hal etish bo'yicha yangi strategiyalar ishlab chiqishga va shaxsiy rivojlanish rejasini tuzishga undaydi. "Ilk Qadam" dasturi orqali ushbu jarayon yanada tizimli va samarali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishda coaching tizimini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiya pedagoglarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning innovatsion yondashuvlarini shakllantirish va ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. "Ilk Qadam" dasturi coaching tizimini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy asoslarni taqdim etadi. Shuningdek, xorijiy tajriba ham coaching tizimining samaradorligini tasdiqlab, uning pedagogik jarayonga ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu boisdan, coaching tizimini samarali tashkil etish va uni pedagoglar orasida keng joriy etish ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva, G. "Maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari". — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti., 2021.
2. Karimova, D. "Pedagogik innovatsiyalar va ularni maktabgacha ta'limda qo'llash". — Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti., 2020.

3. Ismailova, N. "Ilk Qadam dasturi asosida pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish usullari". — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. 2019.
4. Sattorova, M. "Maktabgacha ta'limda zamonaviy metodik yondashuvlar". — Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti., 2022.
5. Yuldasheva, R. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar". — Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti nashriyoti., 2021.
6. Axmedova, Z. "O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish strategiyalari". — Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti., 2018.

IJTIMOYIY INNOVATSIYALAR, KREATIV VA INNOVATSION FIKRLASH, TA'LIMDA YANGI YONDASHUVLAR

Izaitullayeva Lazokat Eshimbayevna

Angren Universiteti "Pedagogika va tillar
fakulteti" Pedagogika va psixologiya kafedrası
katta o'qituvchisi

Tursunova Parvina Bahodir qizi

Angren Universiteti "Pedagogika va tillar
fakulteti" III bosqich talabasi
e-mail: tursunovaparvina577@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida kreativ va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi, ularning o'quv jarayoniga ta'siri, ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muallif ilg'or texnologiyalar asosida talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va raqobatbardoshlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy innovatsiya, kreativ fikrlash, innovatsion fikrlash, ta'lim, STEAM, inklyuziv ta'lim.*

Hozirgi kunda nafaqat ta'lim sohasida, balki inson hayotining har jabhasida yangilik, kreativlik va zamonaviylik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi globallashuv davrida jamiyatning barqaror rivojlanishi ijtimoiy innovatsiyalarga, kreativ va innovatsion fikrlashga hamda ta'limda yangi yondashuvlarga bog'liq. Ijtimoiy innovatsiyalar jamiyatning dolzarb muammolarini

hal etishga qaratilgan bo'lib, ta'lim sohasida innovatsion fikrlash o'quv jarayonini takomillashtirish va o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "III – Renessans tomon birga qadam qo'yamiz" deya baralla murojaat qilishlari ham, ta'lim tarbiya sohasiga kelib taqaladi, shuningdek ta'lim-tarbiya poydevori mustahkam bo'lsagina, insonlarning yashash tarzi ham mukammal darajaga ko'tariladi. Bu borada avvalo yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Ijtimoiylashuv jarayoni hozirgi kunda juda tez sur'atlarda, "ommaviy madaniyat"ning yoshlarning mafkurasiga o'rnashib qolishi va mafkuraviy immunitetning to'g'ri shakllantirilmaganligi ham hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon ham albatta insonning ruhiy holatiga qarab belgilanadi, insonning ruhiyati qanchalar sog'lom, qanchalar bardoshli bo'lsa, inson shu darajada turli mafkuraviy tazyiqlarga qarshi tura oladi. Bugungi texnika va texnologiya asrida yosh avlodga turli virtual tazyiqlarning tobora kuchayishi ham yana bir dolzarb muammolardandir. Shunday ekan ushbu muammolarni bartaraf etish ham psixologik, ham pedagogik tarbiyaning asl mazmunini tashkil etadi. Shuning uchun ham prezidentimiz tomonidan ta'lim sohasini "xususiylashtirish", "sog'lom raqobatni yo'lga qo'yish", "ta'lim sohasida sifat va miqdor darajalarini oshirish orqali ham yangidan yangi kreativ va innovatsion davrga start berdilar.

Shunga ko'ra, avvalo tarbiyaning ustuni bu – oila, oilada tarbiyaning ustuni esa ayol, negaki — "Ayol bir qo'li bilan — beshikni, bir qo'li bilan esa – dunyoni tebratadi". Chunonchi Prezidentimiz tomonidan ayol – qizlarimizning ta'lim olishga alohida e'tibor qaratish va qulayliklar yaratish borasida ham o'z tashabbuslarini bayon etdilar. Tashabbus bor joyda – o'sish, rivojlanish va yuksalish muqarrar. Hozirgi pedagogik psixologik faoliyatimni boshlash arafasida shuni ma'lum qilmoqchimanki, biz yosh avlodning, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishishida yoshlarni ham ruhan, ham ma'nan, ham jismonan, qalban va aqlan sog'lom qilib tarbiyalash yo'lidagi mashaqqatli vazifalarni hal qilish, yangi g'oyalar yaratish, ta'lim sohasini yangi yondashuvlar bilan isloh qilish bizning eng oliy maqsadimizdir. Zotan, yoshlarning ong-u tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalashni eng muhim vazifaga aylantirish masalasi yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunimizda ham aks etgan. Chunki yurtimizni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqish, barcha kuch-g'ayratni birlashtirish va fidokorona mehnat qilish orqali Yangi O'zbekistonni, pirovardida, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish mumkin.

Ijtimoiy innovatsiyalar deganda, jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy, ekologik va iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan yangi g'oyalar, xizmatlar, mahsulotlar

va tashkilotlar tushuniladi. Ular mavjud resurslardan samarali foydalanish, hamkorlikni kuchaytirish va jamiyatning barcha qatlamlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish orqali ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Ijtimoiy innovatsiyalarga misollar:

- Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish;
- Inklyuziv ta'lim dasturlari;
- Mikromoliya xizmatlari;
- Axborot texnologiyalari yordamida qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish.

Bundan 20 yil oldingi hayot darajamiz bilan hozirgi hayot darajamizning keskin tarzda yaxshilanishi, 20 yil keyingi hayot darajamiz esa bundan-da yuksalib borishi ham albatta ijtimoiy innovatsiyalarni modellashtirish orqali amalga oshadi. Har bir sohada ijtimoiy innovatsion g'oyalarning qo'llanilishi, bu mamlakatimizning har sohada, har jabhada rivojlanishi mohiyatan o'z tasdig'ini topmoqda. Shunday ekan yosh avlodni milliy xarakter tuyg'usi va zamonaviylikka hamnafas qilib tarbiyalash ijtimoiy soha vakillariga, ya'ni ijtimoiylashuv jarayonida ishtirok etuvchi barcha ijtimoiy agentlariga yuklatilgan eng oliy maqsadimiz desak mubolag'a bo'lmaydi.

Kreativ va innovatsion fikrlashning ahamiyati

Kreativlik – bu yangi va o'ziga xos g'oyalarni yaratish qobiliyati. Innovatsiya esa bu g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish va yangi mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarni yaratishdir. Kreativ va innovatsion fikrlash ijtimoiy innovatsiyalarning asosi hisoblanadi. Ular muammolarni yangicha nuqtai nazardan ko'rish, noodatiy yechimlarni topish va ularni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Insonning qanday hayot kechirishi, uning hayotiy bilim, ko'nikma va malakalarni qay tarzda o'zlashtirilganligi, qaysi jabhada boshlang'ich poydevorning mustahkam qo'yilishi, bu kelajakning shunchalik porloq bo'lishidan darak beradi. Bunda esa albatta kreativlik va innovatsion fikrlashning o'rni beqiyos. Hozirgi jamiyatimizning “Zamonaviylik – milliylik” da kabi milliy rux, milliy xarakter, milliy g'urur tushunchalarini kreativ yondashuv asnosida yoshlarimizga tarbiya va ta'limning uyg'unligi, ota bobolarimiz tajribalari asosida ushbu jamiyatni qurish, yirik namoyondalarimiz Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari jadidchiligimiz namoyondalari ham o'sha davrda ta'lim – tarbiya sohasida yangiliklarni tatbiq etish harakatida bo'ldilar. Bugungi kungacha bo'lgan davrda ularning yuksak fikrlari va qarashlari o'z tasdig'ini topib kelmoqda. Tarixiy hodisalarning o'zi, insonga kelajakni qurish uchun katta muallim bo'la oladi, tarixiy xulosa, kelajakka qadamni shaxdam qo'yish demakdir.

Ta'limda yangi yondashuvlar

Ta'lim tizimi yosh avlodda kreativ va innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun muhim rol o'ynaydi. Bu borada quyidagi yangi yondashuvlar qo'llanilishi mumkin:

- Muammoga asoslangan o'qitish (Problem-based learning): Talabalarga real

hayotdagi muammolarni hal etish vazifalari beriladi, bu ularni tanqidiy fikrlash, tadqiqot o'tkazish va guruhda ishlashga undaydi.

- Loyihaga asoslangan o'qitish (Project-based learning): Talabalar uzoq muddatli loyihalar ustida ishlashadi, bu ularga o'z qiziqishlariga mos ravishda chuqur bilim olish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

- Dizayn fikrlash (Design thinking): Bu insonlarga yo'naltirilgan muammolarni hal etish usuli bo'lib, empatiya, prototiplash va iteratsiya kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

- STEAM ta'limi: Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini integratsiyalashgan holda o'qitish, bu talabalarda ijodiy va innovatsion fikrlashni rivojlantiradi.

- Raqamli texnologiyalardan foydalanish: Ta'lim jarayonida interaktiv taxtalar, onlayn resurslar, virtual reallik va sun'iy intellekt kabi texnologiyalardan foydalanish talabalarning qiziqishini oshiradi va ularga yangi bilim olish imkoniyatlarini yaratadi.

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish eng oliy darajaga ko'tarish, ta'limiy va tarbiyaviy sohaning boshqa barcha sohalarga o'z ta'sir doirasiga ega ekanligi yaqqol sezilmoqda. Chunki ta'lim va tarbiyaning mukammal bo'lishi jamiyatimizning madaniy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jabhalarining rivojida juda katta rol o'ynaydi. Hozirgi kundagi ta'limiy va tarbiyaviy islohotlarning, jahon miqyosida rivojlangan davlatlar ta'lim tizimining qay darajada natija berishi va ularni bosqichma bosqich amalga oshirish, jamiyatimiz qonun qoidalariga moslashtirilgan holatda tatbiq etish masalalari ko'rilmogda. Hozirgi kunda rang-barang muhitda istiqomat qilayotganligimiz uchun ham, hozirgi yosh avlodni keng qamrovli, yetakchi ta'lim va tarbiya bilan qamrab olish ham mushkul sanalmoqda. Shu jumladan hozirgi yoshlarni hayratda qoldirish va qiziqtirish ham, chunonan olganda muammoli holatlarni, ta'limga qiziqishni sezilarli darajada pasaytirmogda. Shuning uchun ham ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi metodlarni kreativlik nazariyasi bilan boyitish, qayta ishlash, zamonaviylashtirish ham muhim sanaladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim tarbiya tizimidan boshlanadi" degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz. Bunda esa albatta, ijtimoiy innovatsiyalar, kreativ va innovatsion fikrlash hamda ta'limda yangi yondashuvlar jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga molikdir. Ta'lim sohasida innovatsion fikrlash o'quv jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ta'lim tizimida yangi yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilarni kreativ va innovatsion fikrlashga o'rgatish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash

muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O'zbekiston., 2008.
2. Mirziyoyev, Sh. M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — Toshkent: O'zbekiston., 2016.
3. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. — Toshkent: O'zbekiston., 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida." — Toshkent.
5. Pedagogik mahorat: O'quv-metodik qo'llanma. - Toshkent: TDPU nashriyoti., 2005.

KREATIV YONDASHUV VA UNING INNOVATSION FAOLIYATDAGI AHAMIYATI

Jo'rayeva Xilola Toxirovna

Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi, 2-kurs talabasi
e-mail: hilolazuraeva11@gmail.com

Jumabaeva Shaxlobanu Perdebay qizi

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi, 2-kurs talabasi
e-mail: jumabaevashaxlobaniw@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchining kreativ yondashuv va uning innovatsion faoliyati haqida so'z borib, ularni amaliyotga tatbiq etish to'g'risida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, kreativlik, kreativ faoliyat, pedagogik jarayon, innovatsiya, innovatsion faoliyat, rivojlanish, o'z-o'zini faollashtirish.

Bugungi kunda o'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator omillarga tayanadi. Unda o'qituvchining muloqatchanligi, qarshi fikrlarga nisbatan xolisona munosabatga tayyorligi inobatga olinadi. Natijasida

o'qituvchi o'z faoliyati ilmiy ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi. O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

A.I. Prigojin innovatsiya-kreativ deganda muayyan ijtimoiy birlikka — tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir. Tadqiqotchilar (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi.

Kreativlik termini Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bil kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantaziyalik (fantaziya.)

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial — ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi.

Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon — natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa subyekt — shartlilik tavsifidan foydalanadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bolish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish.

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va

targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va oquv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi;
- bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;
- mazmunini insonparvarlashtirish, doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;
- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga — yangilik, maqbullik (optimallik), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi.

V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;
- kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarmi aniqlash;
- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishqlik darajasini aniqlash;
- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;
- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish. Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o'qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon berdi:
- innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;
- ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;
- shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;
- ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga shaylik;
- innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;
- innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;
- kasbiy refleksiya bo'lgan qobiliyat.

Faoliyatdagi kreativlik — faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko'rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta'minlaydigan faoliyatining u yoki bu turi tavsifli potensial

kreativ individiumning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning eng muhim subyektiv shartidir (N.M.Gnatko).

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri — o'qituvchi shaxsidir. O'qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;
- yangicha harakat qila olishga o'rgatish.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish kreativlari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Xulosa: O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 son Farmoni.
3. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi (<https://www.gazeta.uz>)

4. N.N. Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006.
5. R.A.Mavlonova, N.X.Raxmankulova. "Boshlang'ich ta'limda innovatsiya". T., TDPU., 2007.
6. IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI 5 IYUN / 2022 YIL / 19 -SON 3493. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167-168.4. Minamatov, Y. E. U., 2021.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA INNOVATSION O'QITISH YONDASHUVLARI

Jo'rayeva Ruxshanabonu To'ychizoda

CHDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim sohasidagi zamonaviy tendensiyalar, ularning amaliyotdagi ifodasi, mavjud muammolar va ularga taklif etilayotgan yechimlar haqida fikr yuritilgan. Asarda innovatsion ta'lim yondashuvlari, texnologik vositalarning o'rnining ortib borayotgani, differensial ta'lim, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid masalalar keng yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchining zamonaviy roliga, ota-onalar bilan hamkorlik, bolalarning emotsional intellekti va milliy qadriyatlar asosidagi tarbiyaviy ishlar haqida ham atroflicha ma'lumot berilgan. Annotatsiyada boshlang'ich ta'limda individual yondashuv va o'quvchilarning shaxsiy rivojiga qaratilgan usullar zamonaviy ta'limning poydevoriga aylangani ta'kidlanadi. Asar o'quvchilarning hayotga tayyor, dunyoqarashi keng, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlaydigan shaxs sifatida shakllanishi uchun qanday shart-sharoitlar zarurligini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, zamonaviy tendensiyalar, innovatsion yondashuv, texnologiyalar, ijodiy fikrlash, differensial ta'lim, o'quvchi rivoji, o'qituvchi roli, emotsional intellekt, ota-ona hamkorligi, milliy qadriyatlar, muammo va yechimlar, ta'limda yangilik.*

Zamonaviy ta'lim tizimi har doim yangilanib, o'zgarib boradi. Boshlang'ich ta'lim esa o'quvchilarning bilim olishning poydevori sifatida juda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda, ta'limda ko'plab yangiliklar, innovatsiyalar va yangi yondashuvlar

mavjud. Shu bilan birga, ta'limni yanada samarali qilish, o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yangi metodlar ishlab chiqilmoqda. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda zamonaviy tendensiyalar va ularni amalda qo'llash haqida gapirish juda muhimdir. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy tendensiyalardan biri texnologiyalarning ta'lim jarayoniga qo'shilishi hisoblanadi. Bugungi kunda, maktablarda interaktiv doskalar, kompyuterlar, mobil ilovalar va boshqa raqamli vositalar yordamida o'quvchilarni yanada samarali ta'lim olishga undashmoqda. Bu texnologiyalar o'quvchilarga bilimni o'rganishning yangi usullarini taqdim etadi va ularni o'rganish jarayonini qiziqarli va o'ylantiruvchi qiladi. Shuningdek, onlayn ta'lim imkoniyatlari ham ta'lim tizimining bir qismiga aylangan, bu esa masofaviy ta'lim olish imkonini yaratadi. Texnologiyalarning ta'limga ta'siri o'quvchilarga keng dunyoqarash va yangi imkoniyatlar yaratadi.

Bundan tashqari, zamonaviy ta'limda o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ba'zilar o'qishni tezda o'zlashtirsa, boshqalari uchun bu jarayon sekinroq rivojlanishi mumkin. Shuning uchun, differentsiatsiyalashgan ta'lim usuli qo'llanilishi kerak. Bu usulda o'qituvchilar har bir o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda darslarni tashkil qiladi. Bu esa o'quvchilarga o'z sur'atida va o'ziga xos tarzda bilim olish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy ta'limda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'quvchilarni nafaqat bilim berish, balki ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ham muhimdir. O'quvchilarni real hayotdagi masalalarni hal qilishga, yangi fikrlar yaratishga o'rgatish kerak. Bu ularni hayotda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlaydi. Bunday fikrlash o'quvchilarning o'zini anglashiga va o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, ta'lim tizimida muammolar ham mavjud. Birinchi navbatda, texnologiyalarga kirish imkoniyatlari cheklangan. Ayrim maktablarda internetga ulanish, kompyuterlar yoki boshqa raqamli vositalar mavjud emas. Bu o'quvchilarga ta'lim olishda to'siq bo'lishi mumkin. Shuningdek, o'qituvchilarning malakasi ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni to'liq o'zlashtirmagan holda, ta'limni samarali tashkil etishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Maktablardagi ijtimoiy tengsizliklar ham o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlariga ta'sir qiladi. Ba'zi hududlarda o'quvchilarni ta'lim bilan ta'minlashda muammolar bo'lishi mumkin, bu esa ta'lim sifatini pasaytirishi mumkin.

Biroq, bu muammolarni bartaraf etish uchun yechimlar ham mavjud. Birinchi navbatda, maktablarda texnologik resurslarni kengaytirish zarur. Internetga ulanish va kompyuterlar bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratish, o'quvchilarga ta'limni raqamli usulda olish imkonini beradi. Shuningdek, o'qituvchilarga malaka oshirish

kurslari va treninglar tashkil etish, ularni yangi metod va texnologiyalar bilan tanishtirish kerak. Bu o'qituvchilarning ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishiga yordam beradi. Differensatsiyalashgan ta'lim tizimini joriy etish orqali har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos ta'lim berish mumkin. O'quvchilarning psixologik holatini yaxshilash uchun esa psixologik yordam xizmatlarini taqdim etish zarur.

Zamonaviy boshlang'ich ta'limning eng muhim jihatlaridan biri – o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilganligidir. Endilikda dars jarayonlari faqatgina bilim berish bilan cheklanmayapti. Aksincha, bolalarning mustaqil fikrlashiga, o'z fikrini erkin ifoda etishiga, jamoadagi faol ishtirokiga e'tibor kuchaymoqda. Bu yondashuv o'quvchilarni faol hayotga, jamiyatda o'z o'rnini topishga tayyorlaydi. O'qituvchilar endi faqat ma'lumot beruvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, motivator va ilhomlantiruvchi sifatida faoliyat olib borishmoqda. Ular darslarda o'yin uslublari, rolli o'yinlar, loyihaviy ishlar, bahs-munozaralar kabi usullardan foydalanib, bolalarning darsga qiziqishini oshirishga intilmoqda. Bu kabi usullar o'quvchining darsga nisbatan munosabatini o'zgartirib, uni faol ishtirokchiga aylantiradi.

Yana bir muhim jihat – bu ota-onalar bilan samarali hamkorlikdir. Zamonaviy ta'limda ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki katta ahamiyat kasb etadi. Ular bolalarining o'quv faoliyatida faollik ko'rsatishi, darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etishi, ijtimoiy hayotga moslashuvi uchun qo'llab-quvvatlashadi. Maktab va oilaning birgalikdagi harakati tufayli ta'lim yanada barakali bo'ladi.

Innovatsion yondashuvlar orqali ta'limda yangi o'zgarishlar yuz bermoqda. Masalan, STEM ta'limi (fan, texnologiya, muhandislik, matematika yo'nalishlari asosida o'rgatish) boshlang'ich bosqichdan boshlab tatbiq etilmoqda. Bu yo'nalish o'quvchilarda texnik va muhandislikka qiziqishni uyg'otadi, amaliy fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, ekologik ta'lim, moliyaviy savodxonlik kabi dolzarb mavzular ham darslarda asta-sekin o'rin olmoqda. Yana bir muhim yangilik – emotsional intellektni rivojlantirish o'quvchilarning hissiy holatini tushunish, o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalarning fikrini tinglash va qadrlashga o'rgatish orqali ular hayotga tayyorlanadi. Shunday qilib, zamonaviy ta'lim nafaqat aqlni, balki qalbni ham tarbiyalaydi.

Shu bilan birga, o'quvchilarning qiziqishlari va iste'dodlarini erta aniqlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Boshlang'ich ta'limda turli to'garaklar, ijodiy mashg'ulotlar, sport va musiqa darslari orqali bolalarda o'ziga xos qobiliyatlar yuzaga chiqadi. Bu esa kelajakda kasb tanlashda, hayotda o'z yo'lini topishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. O'qituvchilarning asosiy vazifasi – har bir bolaning qalbiga yo'l topish, ularning ichki dunyosini anglash va ularni sog'lom shaxs sifatida shakllantirishdir.

Bugungi ta'limda darslarning baholash tizimi ham o'zgarib bormoqda. Endi faqat ball yoki baho qo'yish emas, balki o'quvchining faolligi, ishtiroki, erishgan yutuqlari va rivojlanish sur'ati ham inobatga olinmoqda. Bunday yondashuv bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, ularni muvaffaqiyatga intilishga undaydi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, ona tiliga hurmat, tarix va madaniyatni o'rganish ham boshlang'ich bosqichdanoq ta'limning ajralmas qismiga aylangan. Global dunyoda yashayotgan bolalar o'z milliyligini anglab, boshqa madaniyatlarga nisbatan ochiq, lekin o'z ildizlariga sodiq bo'lib voyaga yetishlari kerak. Bu borada ta'lim tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ko'rilmogda.

Zamonaviy yondashuvlar bilan birga, o'qituvchining mehribonligi, sabr-toqati va bolalarni tushuna olishi – ta'limda hal qiluvchi omillardan biridir. Eng ilg'or texnologiyalar ham, eng zamonaviy uslublar ham o'qituvchining samimiy yondashuvisiz kutilgan natijani bermaydi. O'qituvchi – bu o'quvchi qalbiga nur sochuvchi, unga yo'l ko'rsatuvchi inson. Shuning uchun, boshlang'ich ta'limda o'qituvchining shaxsiy fazilatlar va ruhiy jihatdan tayyorgarligi juda muhim. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy tendensiyalar ta'limni yangilash, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini va shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Muammolar mavjud bo'lsa-da, ular ustida izchil ishlanmoqda. Ta'limda innovatsion yondashuvlar, o'qituvchilar va ota-onalarning hamkorligi, bolaning ichki dunyosini anglash – bularning barchasi kelajak avlodni tarbiyalash yo'lidagi muhim qadamlardir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda zamonaviy tendensiyalar ta'lim tizimini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Texnologiyalar, innovatsion metodlar va individual yondashuvlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada osonlashtiradi. Biroq, bu jarayonni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun qo'shimcha choralar ko'rish zarur. Yaxshi ta'lim tizimi o'quvchilarga faqat bilim beribgina qolmasdan, ularni hayotda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimova D.X. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2021.
2. G'ofurov K., Yo'ldoshev Sh. Ta'limda innovatsiyalar va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Bobomurodov Sh.S. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Yusupov A.A., Shodmonov A. Zamonaviy dars va interfaol metodlar. –

Toshkent: Ilm ziyo, 2022.

5. Qo'chqorova G'. Psixologiya va pedagogika asoslari. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2020.
6. UNESCO. Global Education Monitoring Report: Inclusion and education – All means all. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
7. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, tarjima (rus tilidan), 1986.

INTERFAOL METODLAR ORQALI O'QUVCHILARNING BILIM OLISH JARAYONINI FAOLLASHTIRISH VA SIFATLI O'QITISHNI TA'MINLASH

Madaminova Mohinabonu Ma'rufjon qizi

O'zDJTU 1-bosqich talabasi Xorijiy til va
adabiyoti: ingliz tili

e-mail: madaminova131@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada interfaol yondashuvlar va muammoli ta'lim o'rtasidagi farqlar, pedagogik texnologiyalar bilan bog'liqligi va ularning samaradorligi haqida ilmiy asoslangan fikrlar keltirilgan. Maqola pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *pedagog, pedagogik texnologiya, metod, metodologiya, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, o'yin.*

Hozirgi davr ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni bilim olish jarayoniga faol jalb etish, ularning kognitiv faolligini oshirish hamda mustahkam o'quv motivatsiyasini shakllantirishdan iboratdir. O'quvchilarda mavzuga nisbatan befarqlik, dars jarayonida passiv ishtirok etish va mustaqil fikrlashga bo'lgan qiziqishning sustligi — zamonaviy ta'limning hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolaridan biridir. An'anaviy ta'lim uslublarining cheklangan imkoniyatlari sharoitida ta'lim jarayonini yangilash, uni interfaol, innovatsion va ijodiy yondashuvlar bilan boyitish zarurati tobora ortib bormoqda. Mazkur holat ta'lim metodikasi va metodologiyasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri — o'quvchilarni bilim olishga rag'batlantirish, ularning darsdagi faolligini ta'minlash va o'rganish jarayonini imkon qadar mazmunli, qiziqarli hamda interaktiv tarzda tashkil etishdan iboratdir. Pedagogik texnologiya – bu ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil

qilish va baholashning ilmiy asoslangan, tizimli va izchil yo'lidir.

O'Tolipovning fikricha: "Pedagogik texnologiya – vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizim". U o'qituvchining pedagogik mahorati, o'quv metodlari, vositalari hamda o'quvchining faoliyatini uyg'unlashtirgan holda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyaning an'anaviy usullardan farqi u talabalarning o'zlariga berishiga emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonining yakunida konkret bir harakatlarni bajarishga yo'naltirilganligidir [1].

Pedagogik texnologiya tushunchasi nafaqat dars o'tkazish usullarini, balki butun ta'lim jarayonining strategik rejalashtirilishini, o'qitishning maqsadga yo'naltirilganligini, o'quv materiallarini tizimlashtirishni va o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Pedagogik faoliyatda bu maqsadlarga erishishda metodika va metodologiyaning o'zaro uyg'unligi muhim rol o'ynaydi. Ta'lim metodikasi — bu darsni olib borishdagi strategik va taktikasi yondashuvlarning majmuasi bo'lib, u aniq pedagogik maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi o'quv shakllari, usullari, vositalari va tamoyillarini o'z ichiga oladi. Metodologiya esa mazkur metodik qarashlarning ilmiy-nazariy asoslarini belgilaydi; u o'quv jarayonining maqsadi, yo'nalishi va baholash mezonlarini aniqlashda asosiy tayanch sifatida namoyon bo'ladi. Asosiy jihat shundaki, pedagogik texnologiyada har bir bosqich (maqsad qo'yish, rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat va tahlil) oldindan puxta ishlab chiqiladi va natija kafolatlanadigan tarzda tashkil etiladi. Bu esa uni oddiy metodikadan ajratib turadi. Shunday qilib, pedagogik texnologiyalar zamonaviy darslarning tayanch tamoyillaridan biri bo'lib, ular orqali o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishi oshadi, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalar shakllanadi. Interfaol metodlar, muammoli ta'lim, axborot-kommunikatsion vositalar bilan dars o'tish kabi shakllar pedagogik texnologiyalar tarkibiga kiradi.

Bugungi kunda pedagogik amaliyotda o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Xususan, o'yinli metodlar, muammoli o'qitish, loyihaviy metod, klaster va aqliy hujum kabi metodlar ta'lim jarayoniga interfaollik va jonlilik baxsh etadi. Bunday yondashuvlar orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq anglaydi, mustaqil fikrlashga va o'z nuqtai nazarini asoslab berishga o'rganadi. Ayniqsa, maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqilsa, ular uchun vizual vositalar, harakatli o'yinlar, musobaqalarga boy dars shakllari ancha samarali hisoblanadi.

Pedagogning ijodiy potentsiali uning o'z ijodkorlik sifatlarini shakllantirishga intilishda, pedagogik odobining namoyon bo'lishida, qobiliyati va kasbiy malakasini takomillashtirishda, kutilmagan vaziyatlarda topqirlik qila olishida, o'quvchi-

talabalarni komillik sari mohirlik bilan yetaklay olishida ko'rinadi[21,2].

Pedagog dars o'tish davomida kerakli ta'lim metodikasini qo'llay bilishi talab qilinadi. Ta'lim metodikasining muvaffaqiyatli qo'llanilishi, avvalo, tanlangan metodning o'quvchilar yoshiga, dars mavzusiga, sinf darajasiga va ta'lim maqsadlariga mos bo'lishi bilan belgilanadi. O'yin elementlariga asoslangan darslar esa ushbu mezonlarga to'liq javob beradi: ular o'quvchining emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday darslarda sog'lom raqobat muhiti vujudga keladi, o'quvchilar o'zaro fikr almashadi, ijtimoiylashadi, bahs va muhokama orqali o'z bilimlarini mustahkamlaydi. Metodologik yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, o'yinli metodlar konstruktivizm tamoyillariga asoslanadi. Bu yondashuvga ko'ra, o'quvchi passiv bilim oluvchi emas, balki o'quv jarayonining faol subyekti; u o'z bilimini o'zi quradi, tajriba asosida shakllantiradi va real hayotdagi vaziyatlar bilan bog'laydi. Bunday konstruktiv metodologiyaga tayanilgan darslar ta'lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, zero u o'quvchini markazga qo'yadi va uning shaxsiy faolligiga tayanadi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilganida va pedagogik faoliyat jarayonlari metodologik hamda psixologik jihatdan to'g'ri tashkil qilinganida ta'lim samarasi yangi bosqichga ko'tariladi[2].

Agar bu jarayon metodologik asoslangan, psixologik ehtiyojlar va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda puxta tashkil etilsa, nafaqat ta'lim sifati oshadi, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda ham muhim natijalarga erishiladi. Hozirgi kunda esa darsdagi jarayonlarni kuchaytirishga qaratilgan ta'limlardan eng keng qo'llanilib kelinayotgani interfaol va muammoli metodlardir. Interfaol metodlar va muammoli ta'lim zamonaviy pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim yondashuvlar hisoblanadi. Ular umumiy maqsad – o'quvchilarning faolligini kuchaytirish va dars jarayonini jonlantirishga xizmat qilsa-da, mazmuni va qo'llanilish tamoyillari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Interfaol metodlar, avvalo, darsda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ular orasida hamkorlik, muloqot va ijtimoiy faollikni shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu metodlarda o'quvchi bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi subyekt sifatida qatnashadi. Guruhda ishlash, juftlikda muhokama qilish, fikr almashish, o'z pozitsiyasini himoya qilish orqali o'quvchilar nafaqat mavzuni o'zlashtiradilar, balki kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash va jamoaviy muomala madaniyatini ham rivojlantiradilar. O'qituvchi bu jarayonda rahbar va yo'naltiruvchi sifatida ishtirok etadi. Muammoli ta'lim esa, asosan, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni anglab yetish, uni tahlil qilish va yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bunda darsning boshida o'qituvchi ma'lum bir muammoli vaziyatni yaratadi, savol

qo'yadi yoki yechimi noma'lum bo'lgan holatni taqdim etadi. O'quvchilar esa ushbu muammoni hal qilish jarayonida yangi bilimlarni o'zlashtiradilar. Bu metod nafaqat mantiqiy tafakkurni, balki mustaqil qaror qabul qilish, kuzatish, xulosa chiqarish kabi muhim kognitiv ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Umuman olganda, interfaol metodlar ko'proq o'quvchilarning darsga jalb qilinishi, ijtimoiylashuvi va faolligi orqali ta'lim sifatini oshirsa, muammoli ta'lim esa chuqur fikrlash, tahlil qilish va muammo yechimini topish orqali bilimlarni mustahkamlashni ko'zlaydi. Ikkala yondashuvning uyg'unligi esa ta'lim jarayonini yanada boyitadi va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatmoqda-ki, interfaol metodlar zamonaviy darslarda o'quvchilarni ko'proq jalb etish, ularning motivatsiyasini oshirish va o'zaro hamkorlikni shakllantirish nuqtai nazaridan yanada foydaliroq hisoblanadi. Chunki ushbu metodlar orqali o'quvchilar darsda passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadilar, bu esa ularning mavzuga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, mustaqil fikrlashga undaydi va bilimlarni ongli ravishda egallashga xizmat qiladi.

Interfaol metodlar darsni jonlantiribgina qolmay, balki o'quvchilarda muloqotga kirishish, muammoni birgalikda hal qilish, fikrni asoslab berish, qaror qabul qilish kabi real hayotda muhim bo'lgan ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Shuningdek, bu yondashuv individual yondashuvni ta'minlab, har bir o'quvchining o'z qobiliyatiga mos tarzda ishtirok etishiga imkon yaratadi. Shu jihatdan olganda, interfaol metodlar nafaqat bilim berish, balki shaxsni tarbiyalash va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ham samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Interfaol metodlarga taklif sifatida "Mehmon kutish" nomli qiziqarli o'yinni kiritmoqchiman. Mazkur metodika o'zining o'zgacha g'oyasi va ijodiy yondashuvi bilan e'tiborga loyiq. O'yin boshlanishidan oldin o'qituvchi mavzuga oid savollarni shokolad qog'ozlariga o'rab, ularni bir savatchaga joylashtiradi. Shundan so'ng o'quvchilar ikki yoki uch guruhga bo'linib, navbatma-navbat savatchadan shokolad olib, ichidagi savolga javob berishadi. To'g'ri javob bergan guruhlar ushbu shokoladlarni o'zlarining likopchalariga joylashtiradi. O'yin davomida har bir guruh o'z likopchasini shokoladlar bilan to'ldirish orqali mehmon kutishga tayyorlanadi. Bu yerda o'qituvchi har bir guruhga "mehmon" sifatida tashrif buyurib, savollarga berilgan javoblar asosida dasturxon (ya'ni likopcha) qanchalik to'ldirilganini kuzatadi.

Metodikaning asosiy pedagogik ustunliklaridan biri – o'quvchilarda bilim olish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishidir. O'yin elementlari yordamida o'quvchilar mashg'ulotga katta ishtiyoq bilan yondashadi, savollarga javob topish uchun o'z bilimlarini safarbar etishadi va jamoa bo'lib fikrlashni o'rganishadi. To'g'ri javob topa olmagan guruhlar esa o'yindan ma'lum darajada chetlatilib, shokoladni boy berishadi, bu esa ularda keyingi urinishda ehtiyotkorlik bilan javob

berish va mas'uliyatli yondashish hissini kuchaytiradi. Metodika orqali o'qituvchi dars jarayonida kuzatish olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi: qaysi o'quvchi faol, qaysi biri sust qatnashmoqda, kimda mavzu bo'yicha chuqur tushuncha bor, kim ko'proq izlanmoqda – bularning barchasi aniqlanadi. Shuningdek, o'yin davomida guruhlar o'rtasida sog'lom raqobat muhiti shakllanadi, bu esa darsni jonlantirishga xizmat qiladi.

Dars yakunida eng ko'p shokolad to'plagan guruh g'olib deb e'lon qilinadi. G'olib guruh a'zolari va savollarga muvaffaqiyatli javob bergan o'quvchilar a'lo baholar bilan rag'batlantiriladi. Bu esa o'quvchilar uchun rag'batlantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi va ularda kelgusida ham darslarga faol qatnashish istagini kuchaytiradi. Xulosa qilib aytganda, "Mehmon kutish" metodikasi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarni faollikka undash, ularning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, guruh bo'lib ishlash madaniyatini oshirishda yuqori samaraga ega bo'lgan metodik yondashuvdir. Ushbu o'yin nafaqat zamonaviy metodologik usulning bir ko'rinishi bo'libgina qolmay, o'zimizning milliy qadriyatlarimizni ham o'zida mujassam qilgan interfaol o'yin turiga kiritisa bo'ladi.

Xulosa tariqasida ta'kidlash joizki, bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar va yangilanishlar zamonaviy o'quvchilarning ehtiyojlari va jamiyat talablariga mos keladigan samarali pedagogik yondashuvlarni qo'llashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, interfaol metodlar orqali darslarni tashkil etish o'quvchilarning shaxsiy faolligini kuchaytiradi, ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, muloqot madaniyati va ijtimoiy kompetensiyalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu metodlar o'quv jarayonini jonlantirib, uni beryoqlama ma'lumot berishdan ko'ra, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan bilim olish muhitiga aylantiradi. Bu esa ta'limning sifat va samaradorligini oshirish bilan birga, shaxsiy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Shu bois interfaol metodlar zamonaviy ta'limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralishi, ularni dars jarayonida tizimli ravishda qo'llash esa bugungi pedagogik amaliyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tojiyev M., Ziyomammedov B., O'ralova M., Pedagogik texnologiya va mahorat fanining o'quv mashg'ulotlarini loyihalash. – Toshkent: "Tafakkur-bo'stoni", – 50-60 b., 2012.
2. Omonov H. T., M. B. Xattabov, Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 15-90 b., 2016.
3. Tolipov, O'. Ro'ziyeva, D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –

Toshkent: "Innovatsiya-ziyo", 2019. – 6-115 b.

4. Tolipov O'. Q., Usmonboyeva M., Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: "Fan", – 44-b., 2006.
5. Mehmonova M. H., Abduraximova Z. A., Interfaol metodlar va ularning ta'lim jarayonidagi mohiyati, Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi, 2023-yil 3-iyun. – 16-18-b.

IJTIMOY INNOVATSIYALAR MAKTAB VA UNIVERSITETLARNI JAMIYAT MUAMMOLARINI HAL QILISH MARKAZIGA AYLANTIRISH

Otamirzayev Safiyatulloh Jo'ramirzo o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

yurisprudensiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

e-mail: sofvatullohotamirzayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy innovatsiyalar konsepsiyasining mohiyati, mazmuni va ularning ta'lim muassasalari – xususan, maktab hamda universitetlar – faoliyatiga integratsiyalashuvi orqali jamiyat muammolarining samarali hal etilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ijtimoiy innovatsiyalar maktab va universitetlarni nafaqat bilim berish markazi, balki jamiyat ehtiyojlariga javob bera oladigan tashabbuskor subyektlarga aylantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, ta'lim tizimining transformatsiyasi, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, hamkorlik madaniyati va innovatsion muhitning rivoji ijtimoiy innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liqligi nazariy hamda empirik asosda asoslab berilgan. Tahlillar davomida xorijiy tajribalar, mahalliy sharoitlar va mavjud muammolarni o'zaro solishtirilib, maktab va oliy ta'lim muassasalarini jamiyat muammolarini hal etish markaziga aylantirishning imkoniyatlari va mexanizmlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy innovatsiyalar, ta'lim tizimi, universitet, maktab, jamiyat muammolari, innovatsion rivojlanish, fuqarolik jamiyati, hamkorlik, ijtimoiy o'zgarishlar, transformatsiya.*

Global ijtimoiy o'zgarishlar davrida ta'lim muassasalarining roli tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. An'anaviy bilim berish vazifasidan tashqari, zamonaviy maktab va universitetlar jamiyat oldidagi dolzarb muammolarga yechim taklif qiluvchi ijtimoiy innovatsiyalar markaziga aylanishi zarurati tobora kuchaymoqda. Bu o'zgarish, bir tomondan, ta'lim tizimining dinamik va interaktiv tus olishini talab etsa, ikkinchi tomondan, uni ijtimoiy taraqqiyotning faol harakatlantiruvchi kuchiga

aylantiradi.

Ijtimoiy innovatsiyalar — bu mavjud ijtimoiy muammolarga yangicha, barqaror va inklyuziv yondashuvlarni ilgari suruvchi tashabbus va mexanizmlar yig'indisidir. Ular jamiyatning real ehtiyojlariga mos keladigan tizimli o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Mazkur innovatsiyalarni ta'lim muassasalariga tatbiq etish orqali ijtimoiy ong, fuqarolik faolligi va ko'p tomonlama hamkorlikka asoslangan yangicha ta'lim muhiti shakllanadi. Bu muhitda o'quvchilar va talabalar passiv bilim oluvchilar emas, balki jamiyatda ijobiy o'zgarishlar yaratuvchi faol subyektlar sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim tizimini ijtimoiy innovatsiyalar markaziga aylantirishda asosiy e'tibor – inson kapitalining sifat jihatdan yuksalishiga, axloqiy-ijtimoiy mas'uliyatning oshishiga, hamda mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor va ijtimoiy masalalarga befarq bo'lmagan shaxslarni shakllantirishga qaratiladi. Bu jarayon esa, o'z navbatida, ta'limning faqat mehnat bozori ehtiyojlariga emas, balki jamiyat barqarorligiga va taraqqiyotiga xizmat qiladigan institut sifatidagi maqomini mustahkamlaydi. Ta'lim muassasalarining ijtimoiy innovatsiyalar jarayonidagi muvaffaqiyati, avvalo, ularning ichki tashkiliy tuzilmasi va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlovchi muhit mavjudligiga bog'liq. Maktab va universitetlarda ijtimoiy loyihalarni muvofiqlashtiruvchi maxsus bo'limlar, grantlar asosida ishlovchi tashabbus markazlari, inkubatsion va akseleleratsion dasturlar faoliyati yo'lga qo'yilganda, bu nafaqat ijtimoiy innovatsiyalarni tizimlashtiradi, balki ularni barqaror rivojlanishning asosiy omiliga aylantiradi. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida interdisiplinar tadqiqotlar, transchegaraviy hamkorlik va xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan o'quv modullari ijtimoiy o'zgarishlarga tez va moslashuvchan javob berish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etgan universitetlar – masalan, Stanford, MIT, yoki European School of Social Innovation – o'zlarining ta'lim strategiyasini faqat iqtisodiy raqobatbardoshlikka emas, balki ijtimoiy adolat, tenglik va ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslagan. Shu jihatdan qaraganda, O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham ijtimoiy innovatsiyalar vositasida jamiyat bilan bog'liqlikni kuchaytirish va ijtimoiy ongni shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur transformatsion yondashuvda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi alohida o'rin tutadi. Sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali ta'lim jarayoni individuallashtirilgan, moslashuvchan va ishtirokchilik asosidagi shaklga kiradi. Bu esa ijtimoiy innovatsiyalarni keng jamoatchilik ishtirokida shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, maktab va universitetlar o'z innovatsion faoliyatlarini ommaviy axborot vositalari, blog platformalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali ochiq va shaffof shaklda targ'ib etishi orqali

jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Barcha yuqoridagi jihatlar umumlashtirilganda, ijtimoiy innovatsiyalar ta'lim muassasalarini jamiyat muammolarini hal etishda strategik markazga aylantirish imkoniyatiga ega ekanligi aniq ko'rinadi. Biroq bu imkoniyatning real kuchga aylanishi uchun davlat siyosati, fuqarolik jamiyati, biznes sektori va ilmiy hamjamiyat o'rtasidagi faol va samimiy hamkorlik zarur.

Aynan shu sinergiya natijasida maktab va universitetlar ijtimoiy taraqqiyotning markaziy aktyorlariga aylanishi mumkin. Ta'lim muassasalarining ijtimoiy innovatsiyalar markaziga aylanishi zamonaviy jamiyat ehtiyojlari va global rivojlanish tendensiyalarining tabiiy oqibatidir. Maktab va universitetlar endilikda nafaqat bilim va malaka beruvchi tizim sifatida, balki ijtimoiy muammolarni aniqlovchi, tahlil etuvchi va ularning yechimini ishlab chiquvchi institutsional aktyorlar sifatida shakllanmoqda. Bu jarayon ijtimoiy ong, fuqarolik faolligi va jamiyatga daxldorlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida ta'limning ijtimoiy funksiyasini qayta talqin etishni taqozo qiladi.

Ta'lim muassasalarida ijtimoiy innovatsiyalarning barqarorligini ta'minlash uchun kross-sektorial hamkorlikni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, ya'ni ta'lim, nodavlat tashkilotlar, mahalliy hokimiyat, biznes sektori va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik, resurslarning integratsiyasi va birgalikda strategik qarorlar qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Aynan shunday platformalar orqali maktab va universitetlar jamiyat muammolarini hal qilishda katalizator rolini bajara oladi. Masalan, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik muammosiga nisbatan universitetlar mehnat bozori ehtiyojlariga mos yangi kasbiy yo'nalishlarni taklif qilish orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, zamonaviy ta'lim muassasalari ijtimoiy innovatsiyalarni ilgari surishda madaniy-hududiy kontekstni inobatga olgan holda harakat qilishi lozim.

Chunki har bir jamiyatning o'ziga xos madaniy qadriyatlari, urf-odatlar va sotsiologik tuzilmalari mavjud. Ijtimoiy innovatsiyalar esa, ushbu kontekstni chuqur anglagan holda, lokal darajada amaliyotga tatbiq etilsa, ularning ta'siri ancha barqaror va chuqur ildiz otadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida ta'lim muassasalari ijtimoiy tengsizlik, gendep muammolari yoki ekologik muammolarga qarshi kurashda markaziy o'rin egallashi mumkin. Yuqorida bayon etilganidek, ijtimoiy innovatsiyalar orqali ta'lim muassasalari shunchaki bilim o'rgatuvchi makon emas, balki jamiyatni o'zgartiruvchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va barqaror taraqqiyotga yo'naltiruvchi faol subyektga aylanishi mumkin. Buning uchun esa ta'lim tizimi va ijtimoiy strukturalar o'rtasidagi interaktiv, adaptiv va refleksiv aloqalarni mustahkamlash zarurdir. Shu bilan birga, maktab va universitetlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy innovatsiyalar samaradorligini baholash va monitoring qilish tizimining mavjudligi

ham muhim ahamiyatga ega. Innovatsion tashabbuslarning faqat soniy emas, balki sifatli natijalari, ya'ni, ular jamiyatda qanday real o'zgarishlar yuzaga keltirgani – indikatorlar asosida o'lchanmog'i lozim. Bunda ishtirokchilar fikri, manfaatdor tomonlarning mulohazalari va mustaqil baholov indikatorlari orqali kompleks tahlil amalga oshiriladi. Bu esa ijtimoiy innovatsiyalarni bevosita jamiyat ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shu bois, ta'lim muassasalarining ijtimoiy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashi nafaqat ijtimoiy muammolarning hal etilishiga, balki barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev A.K. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni., -Toshkent: Ijtimoiy fikr, 154 b., 2017.
2. G'afforov N.G. Innovatsion rivojlanishning sotsiologik mezonlari., — Toshkent: Akademnashr, 164 b., 2019.
3. Sagdullaev A., Mamatov B. Ijtimoiy ong va uning modernizatsiyadagi o'rni., -Toshkent: Ma'naviyat, 128 b., 2016.
4. Abdukarimov A. Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning sotsiologik tahlili., — Toshkent: Innovatsiya, 172 b., 2020,
5. Qurbonov R.H. Jamiyat va ta'lim: o'zaro bog'liqlikning nazariy asoslari., — Toshkent: Fan, 190 b., 2021,
6. To'xtasinov K. Yoshlar ongida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda ta'limning o'rni., - Toshkent: O'zbekiston, 140 b., 2015,
7. Ergashev D. Barqaror taraqqiyot va innovatsion jamiyat modelining ijtimoiy asoslari., — Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim, 160 b., 2022,
8. Norqulova M. Ta'lim va ijtimoiy muammolar integratsiyasi: metodologik yondashuvlar., — Toshkent: Ijtimoiy taraqqiyot, 144 b., 2023.

BRIDGING THEORY AND PRACTICE: IMPLEMENTING PROJECT-BASED LEARNING IN HIGHER EDUCATION

Rashidova Solikha Tokhir qizi

4th-year student Alisher Navo'i Tashkent State
University of Uzbek Language and Literature

e-mail: solihatakhirovna@gmail.com

Annotation: This article defines the benefits of project-based learning in higher education as an effective approach that leads to active learning, critical thinking and practical application of knowledge. It also explains the term PBL and discusses its application in Uzbekistan.

Key words: *Project-based learning (PBL); higher education; collaborative learning; students' engagement; teaching method; learning experience, academic achievements; critical thinking; active learning.*

Uzbekistan has seen an increase in the promotion of project-based learning (PBL) in recent years, largely due to the Ministry of Public Education's efforts to implement PBL in secondary schools since 2012. The initiative aimed to promote student-centered learning and raise educational standards by providing students with opportunities to improve their research, analytical, and problem-solving skills.

Since then, PBL approaches have been implemented in the majority of secondary institutions in Uzbekistan, applied to a variety of subjects including mathematics, science, social studies, and languages. In 2019, with an initial investment of US\$4 million, the Academic Innovation Fund (AIF) began supporting higher education institutions in adopting innovative teaching methods, including PBL. Projects under the AIF have contributed to the development of a contemporary education system aligned with current market demands.

Project-based learning, also known as PBL, is an approach that has been shown to be effective in fostering full student involvement in the classroom and enhancing skills in areas such as critical thinking, teamwork, and problem-solving. Students are encouraged to actively participate in the learning process through PBL, allowing them to gain hands-on experience by working on real-world problems, making independent decisions, and presenting their solutions on global environment problems to real audiences, helping them actively understand and work collaboratively in authentic learning environments, whilst being sufficiently engaged with cognitive tools. Additionally, PBL might contribute to developing students' intra- and interpersonal competencies. Furthermore, PBL improves students' academic achievement in STEM (science, technology, engineering and mathematics), it is also found that the significant positive effect of PBL is demonstrated in social sciences.

Studies have found that teachers consider PBL as an approach that promotes both students' and teachers' learning and motivation, collaborating with groupmates and feeling a part of community at university level whilst student-centered learning, connects theory with practice and brings linked to teachers'

instruction.

Recent research shows that PBL has been effectively implemented throughout the country of Uzbekistan. According to a research conducted by the Ministry of Public Education (2021), the share of schools taking part in PBL projects increased from 60% in 2018 to 70% in 2020. According to findings of the study, students who participated in project-based learning activities had higher levels of academic achievement and participation than their peers who did not. In addition, instructors who used PBL reported higher levels of motivation and overall job satisfaction compared to instructors who utilized traditional teaching strategies.

Examples of Project-Based Learning:

1. Creating a Company: Students develop a business plan, including market research, financial planning, and marketing strategy'
2. Scientific Project: Students design and conduct experiments, such as testing the effects of different fertilizers on plant growth, to apply scientific methods and research skills'
3. Historical Restoration: Students research and plan the restoration of a local historic site, building history knowledge and teamwork skills;
4. Awareness Campaign: Students create and implement campaigns on social or environmental issues, like plastic waste reduction, enhancing communication and leadership abilities.

PBL also requires that students use different higher-order thinking skills during the process of designing and implementing PBL. It is consequently important for students to be able to identify and solve problems and make decisions using critical and creative thinking. As PBL is time-consuming, and often requires examining situations and problems from multiple perspectives, requires lots of discussing and clarifying ideas, and evaluating the ideas of others, it is therefore usually implemented as collaborative work leading to collaborative learning which provides additional important educational benefits. When the activity is implemented as doing small projects during the course lesson, students commonly use lower-order thinking skills to show an understanding of teacher-delivered content. In PBL, students are on all occasions, actively engaged, and they are the owners of the whole process of learning. Their choices in the design of the process and the project are vitally important and the project development process requires students' continuous inquiry. Students and teachers collaborate to create success criteria and assessment methods.

The investigation was conducted in an English course at a Thai university among 47 second-year Information Science students. They were given a task working in 13 groups (3–4 members) on a project named "The Role of Information

Science in Our Society".The project, worth 20% of the course grade, offered an opportunity to combine English language skills with their field knowledge. After two weeks of preparation, groups demonstrated their projects in various formats. Semi-structured interviews were conducted in Thai to collect students' views on the project.

Students shared four main points about the project: presentation timing, balancing language and content, language preparation, and suggestions for improvement. Some students found the final-week presentations stressful due to other deadlines. Most felt they used both English and Information Science knowledge well and were surprised by their language abilities. A few wanted more help to improve their English presentation skills. Overall, students agreed the project was useful and should continue in the course.

The research showed that PBL can develop students' communication skills. Moreover, projects help learners to make decisions on giving solutions for global problems. In this way, students become more confident in their skills and knowledge. Students also some time management skills which will be helpful in their future lives. PBL is a new teaching method in Uzbekistan that, if properly implemented, benefits young learners by making learning enjoyable and effective.

REFERENCES

1. Aripova E., & Inomkhujaeva Sh. Project-based learning in Uzbekistan. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(4). eISSN 2660-6828.,2023. Retrieved from <https://cajipc.centralasianstudies.org>
2. Alimova F. A. Project-based learning: Enhancing student engagement and creativity. European Journal of Innovation in Non-formal Education (EJINE), 5(3). ISSN 2795-8612., 2025.
3. Kokotsaki D., Menzies V., & Wiggins A. Project-based learning in higher education. In Technology supported active learning (pp. 31–57)., 2021. https://doi.org/10.1007/978-981-16-2082-9_3
4. Ruzmetova S.S., & Mannanova F. Sh. Project-based learning (PBL). Toshkent: 2023. Uzbek State University of World Languages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8055550>
5. Affandi A., & Sukyadi D. Project-based learning and problem-based learning for EFL students' writing achievement at the tertiary level. Rangsit Journal of Educational Studies, 3(1), 23., 2016. <https://doi.org/10.14456/rjes.2016.2>

MAVZUNI O'ZLASHTIRISHDA MUSTAQIL ISH VA TESTDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

Raxmatullaev Izatulla

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Tibbiy va biologik kimyo kafedrası professori,
k.f.n.,

Muydinov Firuzjon

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, PhD
e-mail: firuzjon7727@gmail.com

Annotatsiya: Ma'lumki, Respublikamizning deyarli barcha oliy o'quv yurtlari talabalari kredit – modul tizimida ta'lim olmoqdalar. Maqolada, shu kredit — modul tizmi sharoitida ta'lim jarayonining markaziy omili bo'lgan talabalar mustaqil ishlarini samarali tashkil etish yo'llari bo'yicha so'z boradi.

Kalit so'zlar: *ta'lim texnologiyasi, kredit – modul tizimi, o'qituvchi, talaba, faol va interaktiv usullar, sillabus, mustaqil ish, glossariy, referat, test.*

Bugungi kunda dunyoning juda ko'plab mamlakatlarida, jumladan bizning Respublikamizda ham ta'lim jarayoni zamonaviy ta'lim texnologiyasi hisoblangan kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan. Ma'lumki, kredit tizimiga o'tish O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasining darajalari, bosqichlari, akademik darajalarini aniq baholashga imkon beradi va ularni shaffof, tashxislanadigan va tan olinadigan holatga keltiradi. Bu esa jahon ta'lim muhitiga qo'shilishning bosh shartlaridan biri hisoblanadi [1]. Tibbiyot va farmatsevtika ta'lim muassasalarida kredit-modulli o'qitish tizimini joriy etish to'g'risidagi Nizom tibbiy va farmatsevtika ta'lim jarayoniga kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va mutaxassislarni amaliy jihatdan tayyorlashni takomillashtirish orqali oliy, o'rta maxsus professional, oliy va o'rta maxsus professional ta'limdan keyingi ta'limni ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi [2].

Mazkur tizim: ta'limni individuallashtirish; ta'lim trayektoriyasini tanlash; kreditlar ko'rinishidagi bilimlar hajmini hisobga olish; shu asosida o'z-o'zini tarbiyalash ; bilimlarni ijodiy rivojlantirish darajasini oshirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda ko'zda tutilgan asosiy maqsad: ta'lim tizimimizni xalqaro oliy ta'lim tizimlari bilan hamkorlikda tashkil etish va shu orqali mehnat va xizmat bozorlari talab va ehtiyojlarni qondiruvchi mutaxassislarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Ma'lumki, an'anaviy o'qitish tizimida o'quv jarayonining asosiy tashkilotchisi,

ma'lumot berishning bosh manbasi o'qituvchi hisoblanar edi. Bunda, o'qituvchi faoliyati auditoriya mashg'ulotlarining asosiy qismini qamrab olardi.

Kredit – modul tizimida o'qituvchining yuqoridagi funksiyasi ancha pasayib talaba o'quv jarayonining markaziga ko'tariladi va u mustaqil ta'lim olish muhitiga tushadi. Mazkur tizim ta'lim sifatini oshirish bilan birga o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatni yaqinlashib, mustahkamlanishiga omil bo'ladi.

Shu bilan birga bu tizimda avvalo Oliy ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi o'zining bilim, ko'nikma va malakasini talab darajasida shakllantirishga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Bunda o'quv muassasa o'quv moddiy texnika bazasini yetarli darajada ta'minlash, o'quv materiallari, talabalarning mustaqil bilim olish madaniyatini shakllantirish bilan ularning zamonaviy yangiliklarni qabul qilish, ko'nikma va mahoratlarini oshirish kun tartibining asosiga aylanadi.

Kredit-modul tizimida xar bir professor o'qituvchi o'zining o'tadigan fani bo'yicha fan dasturini ya'ni «Sillabus» ni tayyorlab uni semestr boshidayoq talabalarga taqdim etadi. Dasturda shu fanning maqsadlari, vazifalari, talabaning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati, beradigan malaka va ko'nikmalari, semestr davomida o'rganiladigan mavzular ro'yxati, darslik va adabiyotlar shuningdek baholash mezonlari haqidagi ma'lumotlar beriladi.

Kredit tizimida darslar interfaol shaklida o'tilib, hafta davomida talabani mustaqil ishlashga, o'qib o'rganishiga yo'naltiriladi. Hafta oxirida talabaning reytingi mashg'ulot natijalari bo'yicha jamlanib, aniqlanadi. Talabaning yaxshi tayyorlanmasdan haftadagi balining past bo'lishi uning o'rtacha bahosining tushib ketishiga olib keladi. Bunday sharoitda talaba ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga kirmay imtihondan tanish savollar tushib tasodifan o'tish holatlari bo'lmaydi. Fan bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarining mavzulari va mazmuni o'quv moduli doirasida mantiqiy ketma — ketlikda keltiriladi.

Amaliy mashg'ulotlar (laboratoriya) mavzulari ro'yxati, ularning o'tkazish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, texnologiyalar, vaziyatli masalalar variantlari, «keys»lar, faol va interaktiv usullar, shuningdek laboratoriya ishlarining ro'yxati, mazmuni, maqsadi, ishlatiladigan jihoz va ashyo (reaktiv) lar kabi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Ushbu yuqorida keltirilgan ko'rsatma va tavsiyalarning aksariyati asosan auditoriya sharoitida olib boriladigan ishlar bo'lib ularning amalga oshirilishi bevosita o'qituvchi ishtiroki va nazorati ostida bajariladi.

Biz quyida talabalarning shu yuqorida ko'rsatilgan nazariy va amaliy topshiriqlarni yaxshi o'zlashtirib, mustahkamlashga, uni ko'nikmaga aylantirilishida muhim o'rin tutgan mustaqil topshiriqlar va ularni amalga oshirish yo'llari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Bilamizki, talabaning mustaqil ishlari professor-o'qituvchilar tomonidan auditoriyada talabalarga beriladigan mavzulardan tashqari o'quv modulining mazmuniga taalluqli va tegishli mavzular, masalalar, ma'lumotlarni mustaqil o'rganish va ko'nikma hosil qilishga qaratilgan muhim ta'lim jarayonidir.

Bunda talaba auditoriyadan tashqari vaqtida o'qituvchining bevosita va bilvosita rahbarligi hamda nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirishdan iboratdir.

Mustaqil mashg'ulotlar jarayonida ish dasturida ko'rsatilgan, talabalar tomonidan bajarilishi zarur bo'lgan ishlar (glossariylar, referatlar, vaziyatli masalalar, muammoli ma'ruzalar, testlar, qisqa uslubiy qo'llanmalar) beriladi [3].

Bizning ish faoliyatimizda, talabalar o'qish jarayonida moduldagi berilgan mavzu mazmunini yaxshi o'zlashtirishda aynan ular uchun berilgan glossariylar, vaziyatli masalalar, testlar tuzish va rejadagi mustaqil ish savollariga qisqa – lo'nda javoblar yozishlarini nazorati orqali ular mavzular mazmunini yaxshi o'zlashtirganliklari kuzatildi va alohida baholanadi. Masalan, "Aminokislotalar almashinuvi" mavzusi bo'yicha berilgan glossariy tuzish topshirig'ini oladigan bo'lsak, bunda talaba dastlab oqsillar tarkibiga kiruvchi barcha aminokislotalarni esga olishiga to'g'ri keladi va shu bo'yicha ish boshlab 20 ta aminokislotani tarkibiy tarifini yozib chiqadi.

Bu ish talabani shunchaki vaqtini olmay balki tuzilishi unutilgan bo'lsa eslanadi ya'ni tarkibi, tuzilishi, qaysi sinfga mansubligi, organizmdagi almashinuv jarayonlardagi va boshqa bajaradigan funksiyalari yoki uning o'zgarishi kabi qator hissa – xususiyatlarini keltirish bilan aynan shu aminokislota haqidagi ma'lumotlar mustahkamlanadi. Albatta glossariyga yozilgan javobning qay darajada bo'lishi talabaning shu tushuncha yoki ibora to'g'risida qanchalik bilim va ma'lumotlarga ega bo'lishiga bog'liq bo'ladi. To'liqroq ma'lumotlarni keltirmoqchi bo'lsa albatta kitob qarashga to'g'ri keladi. Bu esa o'z o'rnida materialni yana bir bor takrorlash, esga olish hisobiga o'zlashtirilishni yaxshiroq bo'lishiga imkon beradi. Shuningdek mavzu bo'yicha test tuzish topshirig'i berilganda, talaba unga tushuntirilganligiday dastlab yodda saqlash kerak bo'ladigan ma'lumotlar asosida, so'ngra tushunish va yakunida qo'llay olish bilan (mulohaza, fikrlash) bog'liq bo'lgan tushunchalarga tayangan holda yechimi topiladigan testlar tuzadilar.

Bunday topshiriqlarning yana bir ijobiy tomoni shundan iborat bo'ldiki, bunda xar bir talaba o'zi mustaqil, o'zining tushunishi va fikr mulohazalaridan kelib chiqqan holda mustaqil ish bajarganligi uchun ham mavzuni ancha yaxshi tushunib yetishlariga sabab bo'lishiga amaliy tajribalarda ishonch hosil qilinmoqda. Mustaqil ish talabaning ilmiy adabiyotlar va axborot resurslari bilan ishlash ko'nikmalarini

rivojlantirishga ham yordam beradi va ta'limni rivojlantirishning maqsadi bo'lgan raqobatbardosh sifatli mutaxassisni tayyorlashni amalga oshirishni ta'minlaydi. Hozirgi axborotlar oqimi juda yuqori bo'lgan bir sharoitda talaba axborot resurslarini bilishi muhim hisoblanadi. Mustaqil ish, birinchi navbatda, tanlangan kasbga va uning xususiyatlarini o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi. Kredit-modul ta'lim tizimi sharoitida mustaqil ishlarni tashkil etishda talabalarning mustaqil o'qishga bo'lgan motivatsiyasi alohida ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham talabalar mustaqil ishlarining metodik mazmuni kelgusidagi kasbiy faoliyati jarayonida kasbga va o'zining shaxs sifatida yanada rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashga va ularni aniq, amaliy muammolarni mustaqil hal qila oladigan ko'nikmalarni shakllanishiga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usmonov, B. Sh., & Xabibullayev, R. A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. Toshkent., 2020., (7 b.)
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020-yil 8-sentabrdagi 236-sonli buyrug'iga ilova. I-bob: Umumiy qoidalar. Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2021-yil 4-iyundagi № 121-sonli buyrug'iga 1-ilova bilan tasdiqlangan va 2021-yil 4-iyunda № BD-2.07 raqami bilan ro'yxatga olingan "Biologik kimyo" fanining namunaviy modul dasturi. (15 b.)

CEFR TALABLARI ASOSIDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET VOSITALARI

Raxmatullayeva Dilrabo Alimjanovna

Angren universiteti o'qituvchisi

e-mail: dilraborakhmatullayeva@gmail.com

Umrzoqova Shaxzoda

Angren universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy tillarni o'rganishda internet texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining til o'rgatishdagi o'rne, CEFR talablari asosida to'rtta asosiy til ko'nikmasini (gapirish, tinglash, o'qish va yozish) rivojlantirishda internet resurslarining tutgan o'rne tahlil qilingan. Xususan, forumlar, vebinarlar,

masofaviy ta'lim tizimlari va E-learning platformalarining samaradorligi, ularning til o'rganishga ijobiy ta'siri misollar asosida ochib berilgan. Shuningdek, talabalar mustaqil ta'lim olish jarayonida internetdan foydalanish orqali bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini qanday rivojlantirishlari mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *internet texnologiyalari, CEFR, masofaviy ta'lim, e-learning, til ko'nikmalari, forum, vebinar, interfaol usullar, mustaqil ta'lim.*

Xorijiy tillarni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalardan, interfaol usullar va axborot-kommunikativ vositalardan foydalanish hozirgi kun talabidir. Yurtimizda xorijiy tillarni o'qitilishi, o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholovchi CEFR talablari bo'yicha, til o'rganuvchilar 4 ta til ko'nikmalari: gapirish, tinglash, o'qish va yozish qobiliyatlarini integrallashgan holda o'rganishlari lozim. Shunday ekan, tilni integrallashgan holda o'rganish uchun albatta innovatsion texnologiyalardan foydalanish ahamiyatlidir.

Innovatsion jadallashish davrida chet tillarini o'rganish borasida ham kundan kunga yangi innovatsion vositalar paydo bo'lmoqda. Mana shunday vositalardan biri internetdir. Xorijiy tillarni o'rgatishda internet texnologiyalardan foydalanish xususida juda ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularda elektron pochta, forumlar, veb-konferensiyalar, veb-seminarlar, onlayn o'qishlar haqida bahs-munozaralar yuritilgan. Mazkur maqolada yuqorida ko'rsatilgan internet xizmatlarning ayrimlari haqida so'z yuritiladi.

Zamonaviy axborot texnologiya vositalari takomillashib va rivojlanib borayotgan jadal zamonda o'quv muassasasida tahsil olayotgan talaba yoshlarning zarur axborotlarni internet tizimidan mustaqil ravishda topa olishlari, o'quv jarayonida duch keladigan turli muammoli savollarni to'la va to'g'ri hal qila olishidagi muhim sharoitlardan biriga aylanib bormoqda. Ta'lim jarayonida internet saytlardan foydalanish imkoniyatlarini, uning samaradorligini aniqlashda avval internet xizmatining turlari va ularning xarakterini aniqlab olish nihoyatda muhimdir. Internetning axborot resurslaridan foydalangan holda chet tillarni o'rganish jarayonida bir nechta vazifalarni bajarish mumkin:

- Internet va multimedia vositalari yordamida tinglash ko'nikmasini rivojlantirish;
- Qiyinchilik darajasi har xil materiallardan foydalanish orqali o'qish ko'nikmasini shakllantirish;
- Munozara va bahslarda ishtirok etish orqali gapirish ko'nikmasini rivojlantirish;
- Turli mavzularda insho va bayonlar tuzish, savollarga individual yozma javoblar yozish orqali yozma nutqni shakllantirish;
- Lug'at boyligini yangi so'zlar bilan boyitish, ayni vaqtda keng

qo'llanilayotgan so'z va iboralardan xabardor bo'lish;

- O'rganilayotgan til madaniyati haqida bilimlarni oshirib borish uchun do'stlar bilan muloqotda bo'lish.

Barchaga ma'lumki, chet tillarini o'qitishda yozish ko'nikmasini o'rgatish qiyinchilik tug'diradi. Zamonaviy pedagoglar ushbu ko'nikmani o'rgatishda talabalar nutq faoliyatlarini o'stirish va so'z boyliklarini oshirishda internet tizimidagi turli o'quv forumlarida chet tillarida muloqotlarni tashkil qilishlari diqqatga sazovordir. Bunda talabalar auditoriyada biror mavzuni o'rganadilar va o'qituvchi tomonidan forumlarda mustaqil ravishda ishlashlari uchun mavzu beriladi. Forumda ishlash jarayonida talabalarda chet tilida mustaqil yozish ko'nikmasi rivojlanadi. Og'zaki munozaradan forumdagi muloqotning farqi shundaki, bunda ular turli xatolar qilishdagi qo'rquvdan xoli bo'lib, bildirimoqchi bo'lgan fikrlarini murakkab va to'ldirilgan birikmalar orqali tayyorlay oladilar, ularni tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar va yozuv orqali ifodalaydilar. Onlayn tizimidagi forumlarda talabalar ishtirok etishlari ularning chet tilidagi lug'at boyligidan to'liq foydalanishlari va uni yanada to'ldirishga harakat qilishlarida turtki bo'ladi, bundan tashqari til o'rganish jarayonida ijodiy tomonlarini ochish va madaniyatlararo muloqotlarni tashkil qilishlarida qiziqish uyg'otadi. Forumning asosiy maqsadi bu chet tilida munozara qilish ko'nikmasini rivojlantirishdir. Noan'anaviyligiga qaramasdan, forumlar chet tillarni o'qitishda samarali usullardan biri bo'lishi mumkin.

Til o'rganish jarayonida axborot maydoni ko'lami jihatidan keng va axborot almashinish tomonidan chegaralanmagan bo'lishi kerak. Boshqa tomondan esa bu jarayon ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, talabadan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qilgan holda o'qituvchi tomonidan boshqarib turilishi kerak. Chet tillarini masofaviy o'qitish tizimi talabalarni mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Masofaviy ta'lim orqali talabalar dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini oshirish – ularni ilmiy fikrlashga o'rgatish, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida faolligini kuchaytirishni nazarda tutadi. Buning uchun esa talabalar masofaviy ta'lim texnologiyalarini o'rganishlari va ulardan qaysi biri qulay va samarador bo'lsa, mustaqil ta'lim olish uchun o'sha texnologiyadan foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda chet tillarini o'rganishning samarali usullaridan yana biri bu chet tillarini onlayn tizimi orqali o'rganishdir, ya'ni bu internet orqali uyda chiqmasdan turib bilim olish yoki yangi ma'lumotlarni o'rganish imkoniyatidir. Uy sharoitida qulay vaqtda chet tillarini o'rganish yoqimli bo'lishi bilan birga internet

texnologiyalarining virtual borlig'i uy yoki ofisda o'qituvchi bilan bo'ladigan real dars kayfiyatini ham bera oladi. Bunday ta'lim tizimi E-learning (Electronic Learning – inglizcha so'zining qisqartmasi), elektron o'qitish tizimi deb atalib, dunyo miqyosida bir qator afzalliklari uchun keng qo'llanib kelinmoqda. Ular:

- O'quv soatlarining moslashuvchanligi;
- O'quv muassasasiga bormasdan, masofaviy o'qish;
- Kam xarj, ya'ni bunday ta'lim olish kunduzgi ta'lim olishga nisbatan arzonroqdir;
- Interfaol o'qish, ya'ni internet orqali real o'qituvchi va guruh talabalari bilan muloqotga kirishish imkoniyati;
- Har bir talabaga individual yondashish kabilardir.

Xalqaro Language Link til markazi ma'lumotlariga ko'ra, chet tillarini onlayn tarzda o'rganishda uning interfaoliligini ta'minlovchi bir nechta vazifalari mavjud. Masalan, internetda o'qituvchi va boshqa ta'lim oluvchilar bilan suhbatlar qilish, forumlarda turli dolzarb mavzular yuzasidan bahs-munozaralar tashkil etish, talaba va o'qituvchining yozishmalar yozishi yoki onlayn tizimida berilgan yozma topshiriqlarni tekshirish va talabalarga masofaviy ta'lim olish jarayonida to'plagan ballarini taqdim etish va talabalar ushbu baholariga asoslanib o'quv jarayoniga moslashishlaridir. Onlayn kurslarda til o'rganmoqchi bo'lgan talabalar o'z ustlarida mustaqil ishlash orqali yaxshi natijalarga erisha oladilar, chunki bugungi kunda onlayn kurslar turlicha va barchaga qulay. Bunday ta'lim turi kelajakda yanada takomillashadi va keng ommani o'ziga jalb etadi.

Xorijiy tillarni o'rgatishning yana bir samarali usullaridan biri onlayn seminar va vebinarlar haqida ham to'xtalib o'tsak. "Vebinar" so'zi inglizcha "webinar" – internetda onlayn tizimda anjuman, uchrashuv va taqdimotlar o'tkazish demakdir. Bunda har bir ishtirokchi o'z kompyuteri oldida internet tarmog'iga ulangan holda veb konferensiya tashkil qilingan saytga kirish orqali qatnashadi va ovozli moslama yordamida o'zaro aloqaga kirishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta'lim tizimi bu ta'lim oluvchining qiziqish va ko'nikmalarini erkinligini amalga oshirishda qulayliklar yaratuvchi individual ta'lim olishga yo'naltirilgan ta'lim tizimidir. Biroq, talaba mustaqil ta'lim olishiga qaramasdan, o'qituvchi o'zlashtirishini tekshirib turishi lozim. Bunday ta'lim turini istovchilar internet tizimiga ega bo'lgan, qayerdaligi va yoshidan qat'i nazar o'zlariga qulay vaqtda jadval tuzgan holda bilim olishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). Strasbourg: Council of Europe., 2001.

2. Karimova, G. N. E-learning texnologiyalari orqali til o'rgatishning afzalliklari. Ta'lim va innovatsiya jurnali, (3), 30–35., 2023.
3. Raximov, O. D., Turg'unov, O. M., Mustafoev, Q. O., & Ro'ziyev, H. J. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. (60 b.), 2013.
4. Murodova, N. M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining xorijiy til o'qitishdagi o'rni. O'zbekiston pedagogika jurnali, (2), 45–49., 2022.

BOLALARNI KELAJAK KASBLARIGA YO'NALTIRISH – DAVR TALABI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Rustamova Zulxumor Azizjon qizi

Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti 1-kurs
talabasi

e-mail: zulxumorr094@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola XXI asrda bolalarni kelajak kasblariga yo'naltirishning ahamiyatini, zamonaviy yondashuvlarni va o'qituvchilar, ota-onalar, hamda jamiyatning roli haqida ma'lumot beradi, shuningdek, global mehnat bozoridagi o'zgarishlar tufayli yangi kasblarning paydo bo'lishi va an'anaviy kasblarning o'z ahamiyatini yo'qotishi tahlil qilinadi. Bolalarni kelajak kasblariga tayyorlash uchun raqamli savodxonlik, yumshoq ko'nikmalar, interaktiv va amaliy ta'lim yondashuvlarini qo'llash zarurligi ko'rsatiladi. Shuningdek, zamonaviy yoshlarning "Z" va "Alfa" avlodlari xususiyatlari ham muhokama qilinadi. Natijada, maqola bolalarning kelajakda muvaffaqiyatli kasb egasi bo'lishlari uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llarini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: *kasbga yo'naltirish, zamonaviy yondashuvlar, yumshoq ko'nikmalar, raqamli savodxonlik, ta'lim tizimi, interaktiv ta'lim.*

XXI asr — bu texnologiyalar, sun'iy intellekt va tezkor o'zgarishlar asridir. Bugungi kunda mehnat bozori o'zgarib bormoqda, an'anaviy kasblarning ahamiyati pasayib, yangi kasb yo'nalishlari paydo bo'lmoqda. Shu sababli jamiyat oldida turgan dolzarb va global vazifalardan biri- bolalarni kelajak kasblariga to'g'ri yo'naltirish, ularning salohiyati va qiziqishlarini erta aniqlab, zamon talablariga mos ko'nikmalar bilan qurollantirishdir. Ushbu maqolada bolalarni kasbga yo'naltirishning zamonaviy yondashuvlari, ota-onalar va pedagoglarning roli hamda bu borada xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Maqsad — yosh avlodni global mehnat bozoriga tayyorlash yo'llarini ilmiy asosda o'rganishdir.

XXI asrda ilm-fan va texnologiya misli ko'rilmagan darajada rivojlanmoqda.

Bugungi kunda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar, robototexnika, kiberxavfsizlik va ekologik muhandislik sohalari jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Bu esa o'z navbatida mehnat bozorida yangi kasblarning paydo bo'lishiga va ayrim an'anaviy kasblarning ahamiyatsizlashuviga olib kelmoqda. Masalan, ilgari muhim hisoblangan oddiy hisobchi, arxivchi yoki telefon orqali xizmat ko'rsatish kabi kasblar hozirda asta-sekin avtomatlashtirilmoqda.

Ularning o'rnini esa dasturchilar, ma'lumotlar muhandislari (data engineers), sun'iy intellekt asosidagi tizimlarni ishlab chiquvchilar, IT mutaxassislari egallamoqda. Shuningdek, biotexnologiya, tibbiy texnologiyalar, kosmik muhandislik va yashil energetika kabi sohalarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu o'zgarishlar bolalarning kelajakda kasb tanlashi borasida jiddiy yondashuvni talab qiladi. Agar bola hozirgi zamonning texnologik imkoniyatlari, global muammolar va yangi ish o'rinlari haqida tushunchaga ega bo'lmasa, u o'z salohiyatini to'laqonli namoyon eta olmaydi. Shu boisdan, bolalarni kelajak kasblariga yo'naltirish – bu shunchaki kasb haqida ma'lumot berish emas, balki ularni global o'zgarishlarga tayyorlashdir.

Kelajak kasblari ko'proq “yumshoq ko'nikmalar” deb ataluvchi — kommunikatsiya, jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, kreativ va tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik kabi shaxsiy sifatlarga tayangan holda rivojlanadi. Shuningdek, raqamli savodxonlik, xorijiy tillarni bilish, sun'iy intellekt asoslari va kod yozish kabi texnik ko'nikmalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun, jamiyatda bolalarni zamonaviy kasblarga yo'naltirish nafaqat ta'lim tizimi, balki oilalar, mahallalar, hatto ommaviy axborot vositalarining ham dolzarb vazifasidir. Aynan mana shu yondashuv orqali kelajakda o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqaradigan, bilimli va kasb egasi bo'lgan yangi avlodni tarbiyalash mumkin bo'ladi.

Kelajak kasblariga tayyorlanayotgan yosh avlod uchun faqatgina nazariy bilimlar yetarli emas. Zamonaviy davrda muvaffaqiyatga erishish uchun amaliy ko'nikmalar, tashabbuskorlik, yangiliklarga ochiqlik, texnologiyalar bilan ishlay olish, tez o'zgaruvchan muhitga moslasha olish kabi ko'nikmalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi yoshlar “Z” va “Alfa” avlodlariga mansub bo'lib, ular tug'ilganidan boshlab raqamli texnologiyalar qurshovida ulg'aymoqdalar. Bu ularning tafakkuri, dunyoqarashi va axborotni qabul qilish uslubini butunlay o'zgartirib yubordi. Shuning uchun, ularga ta'lim berish va kasbga yo'naltirishda an'anaviy yondashuvlar yetarli emas, balki interaktiv, amaliyotga asoslangan, texnologik vositalardan foydalangan holda ta'lim berilishi zarur.

Yoshlar orasida shaxsiy brend yaratish, startaplar bilan shug'ullanish, frilansing va masofadan ishlash kabi yangi imkoniyatlar kengaymoqda. Bu esa o'z navbatida ularning yoshligidanoq mustaqil fikrlash, rejali harakat qilish, vaqtni boshqarish, o'zini

marketing qila olish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishini talab etadi.

Zamonaviy kasblar texnik va intellektual yondashuvni birlashtirgan bo'lib, faqat fan yoki ijtimoiy sohani o'rganish bilan cheklanmaslik kerak. Masalan, kelajakdagi ekolog mutaxassisi nafaqat atrof-muhitni tushunishi, balki ma'lumotlar tahlili, dasturlash, siyosiy tahlil va xalqaro qonunchilikdan ham xabardor bo'lishi kerak bo'ladi. Bunday kompleks yondashuvni shakllantirish uchun maktabgacha ta'limdan boshlab bolalarda muhim ko'nikmalarni rivojlantirish lozim: Muammoli vaziyatni hal qilish qobiliyati, tanqidiy va ijodiy fikrlash, raqamli savodxonlik va texnologiyadan foydalanish, jamoada ishlash va ijtimoiy muloqot va emotsional intellekt va liderlikdir.

Bu ko'nikmalarni shakllantirishda maktab darslari bilan bir qatorda, to'garaklar, loyihaviy ishlanmalar, kasbga oid amaliy seminarlar, IT-parklar, bolalar uchun tashkil etilgan ilmiy laboratoriyalar muhim o'rin tutadi. Shuningdek, ta'lim dasturlariga zamonaviy kasblar haqida ma'lumot beruvchi fanlar, tanishtiruv kurslari yoki kasb tanlash bo'yicha maslahatlar kiritilishi ham zarurdir. Yoshlarning o'z salohiyatini erta anglashlari, kelajagini ongli qurishlari, ularni global muhitga moslashtirish orqali nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun jamiyatning taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shish mumkin bo'ladi.

Kasb tanlash — bu hayotdagi eng muhim qarorlar qatoriga kiradi. Ko'pchilik insonlar aynan bolaligida qaysidir kasbga qiziqib qoladi va bu qiziqish keyinchalik ularning hayot yo'lini belgilab beradi. Shu boisdan, bolalarni erta yoshdan boshlab kasbga yo'naltirish nafaqat foydali, balki zarur hamdir. Maktabgacha davr inson psixologiyasi shakllanadigan eng muhim bosqich bo'lib, bu davrda bola atrof-muhitdagi har qanday hodisani qiziqish bilan o'rganadi. Agar aynan shu yoshda ularning tabiiy qiziqishlari va iste'dodlari to'g'ri yo'naltirilsa, bola o'zining kuchli tomonlarini erta anglaydi. Masalan, chizishga qiziqqan bola tasviriy san'at yoki dizayn sohasida rivojlanishi mumkin, texnika bilan shug'ullanishni yoqtirgan bola esa keyinchalik muhandislik yo'nalishlarini tanlashi ehtimol. Maktab davrida esa bolada shaxsiy qiziqishlar bilan birga ijtimoiy muhit, o'qituvchilar, ota-onalar va do'stlarning ta'siri kuchayadi. Shu nuqtada to'g'ri kasbga yo'naltirish orqali bolani qiziqishiga mos fanlar, to'garaklar, kasbiy loyihalarga jalb qilish mumkin. Bu esa bolada mas'uliyat hissini shakllantiradi, o'z maqsadlariga erishish uchun intilishni kuchaytiradi.

Bolani kelajak kasbiga yo'naltirish jarayoni — bu faqat ta'lim tizimining emas, balki ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning hamkorlikdagi sa'y-harakatlarini talab qiluvchi murakkab, ammo muhim jarayondir. Har bir tomon bu yo'lda o'z o'rnini to'g'ri anglab, mas'uliyat bilan yondashsa, bolalar o'z yo'lini aniq, ishonchli va muvaffaqiyatli tarzda belgilab olishlari mumkin. Ota-onalar — bolani eng yaxshi taniydigan, u bilan ko'p vaqt o'tkazadigan va unga eng katta ta'sir o'tkazuvchi insonlardir. Ular bola qanday faoliyatga qiziqishini, qanday vaziyatlarda o'zini erkin tutishini, nimaga mehr

bilan yondashishini kuzatib borish orqali farzandining qiziqishlarini erta anglashga yordam bera oladilar.

Afsuski, ba'zida ota-onalar farzandlarining istagini emas, balki o'z orzularini bolalarigayuklashadi—buesa bolaning o'z kasbini onglitanlashiga to'sqinlik qiladi. Shu bois ota-onalar zamonaviy kasblar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi, farzandini quvvatlashi va unga ishonchi orqali ilhom berishi kerak. Pedagoglar esa bolani ko'proq nazariy va amaliy jihatdan rivojlantiradi. Ular har bir o'quvchining salohiyati, bilim darajasi va harakatlanish uslubini sinf jarayonida kuzatadi. O'qituvchilarning kasbga yo'naltiruvchi faoliyati — bu faqatgina dars o'tish bilan cheklanmasligi kerak. Ular o'quvchilarda turli kasblarga qiziqish uyg'otuvchi loyihalar, seminarlar, ustozlar bilan uchrashuvlar, ekskursiyalar orqali real hayotga yaqinlashtirilgan ta'lim shakllarini tashkil qilishi lozim.

Ayniqsa, texnologiyalar tez o'zgarib borayotgan bugungi kunda pedagoglar ham doimiy ravishda o'z ustida ishlashi va yangi kasb yo'nalishlari haqida xabardor bo'lishi zarur. Jamiyat esa umumiy muhitni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Kasbga yo'naltirish tizimi samarali ishlashi uchun mahalliy hokimliklar, nodavlat tashkilotlar, biznes sektori, axborot vositalari, texnoparklar, IT markazlar va boshqa turli institutlar hamkorlikda ishlashi kerak. Masalan, bolalarga mo'ljallangan kasb tanlash festivallari, stajirovka imkoniyatlari, master-klasslar, turli kasb egalari bilan jonli uchrashuvlar, onlayn kasb tanlash testlari va portal xizmatlari orqali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kengaytirilishi mumkin. Umuman olganda, bola o'z kasbini to'g'ri tanlashi uchun unga ta'lim beruvchi o'qituvchi, tarbiyalovchi ota-ona va imkoniyat yaratib beruvchi jamiyat birgalikda harakat qilishi lozim. Zero, bu harakat bugungi bola uchun emas, balki ertangi jamiyat uchun poydevor bo'ladi. Bugungi kunda bolalarni kelajak kasblariga yo'naltirish masalasi nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Fan va texnologiya jadal rivojlanayotgan davrda mehnat bozori talablari ham o'zgarib bormoqda. Endilikda an'anaviy kasblar bilan bir qatorda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, ekologiya, bioximiya kabi yangi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bois, bolalarni erta yoshdan kasbga yo'naltirish, ularning qiziqishlari, iste'dodlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda yo'l ko'rsatish muhim vazifa hisoblanadi. Maqolada ta'kidlanganidek, maktabgacha va maktab davrida to'g'ri yondashuv, ota-onalarning e'tibori, pedagoglarning ilg'or metodlari hamda jamiyatning yordami bilan har bir bola o'zining iqtidoriga mos, kelajagi porloq kasbni tanlay oladi. Bu esa nafaqat alohida individ sifatida bolaning baxtli hayot kechirishiga, balki mamlakat taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Shunday ekan, kasbga yo'naltirish ishlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, zamonaviy va interaktiv metodlardan foydalanish, turli kasblar bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot ishlari olib borish bugungi

davrning zarur talabidir. Har bir bola — bu kelajagimiz, va ularning to'g'ri kasb tanlashi — bu kelajakdagi taraqqiy etgan jamiyat garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti., 2009.
2. Mirziyoyev, Sh. Ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy kasblarga yo'naltirish masalalari - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati., 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-60-sonli qarori. (2022-yil 12-yanvar). 2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (n.d.). Rasmiy ma'lumotlar portali. Manba: <https://www.stat.uz>
5. UNESCO. Early career guidance practices in Europe and Asia. Paris: UNESCO Publishing., 2023.
6. World Economic Forum. Jobs of tomorrow: Mapping opportunity. Geneva: World Economic Forum., 2022.

INTEGRATSIYALASHGAN DASTURLARNI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI

Safarova Iroda

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: irodasafarova03@gmail.com

Elmirzayeva Gulsevara

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: nqurbonov990@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada integratsiyalashgan o'quv dasturlarining nazariy-metodik asoslari, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni va pedagogik samaradorligi tahlil etiladi. Integratsiyalashgan yondashuv asosida tuzilgan dasturlar o'quvchilarda funksional savodxonlik, fanlararo tafakkur, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekani asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada integratsiyalashgan ta'limning shakllari, tashkil

etish mexanizmlari va amaliy natijalari ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Integratsiyalashgan ta'lim, integratsiyalashgan dasturlar, fanlararo bog'liqlik, samaradorlik, innovatsion pedagogika, STEAM yondashuvi, ta'lim sifati, kompetensiyaviy yondashuv, o'quv metodik ta'minot, o'quvchilarda tizimli fikrlash.*

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv va raqobat muhitida jadal sur'atlar bilan rivojlanib borar ekan, o'quvchilarda faqatgina alohida fanlardan bilim berish emas, balki ularni hayotiy faoliyatga tayyorlash, kompleks yondashuvda fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, integratsiyalashgan ta'lim dasturlari zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas va dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda.

Integratsiyalashgan ta'lim — bu o'quv jarayonini bir necha fanlar yoki sohaga oid bilimlarni uyg'unlashtirib, bir butun tizim sifatida tashkil etish bo'lib, u o'quvchilarda chuqur, tahliliy va amaliy bilimni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv orqali o'quvchilar turli fanlardan o'zlashtirgan bilimlarini bir-biri bilan bog'laydi, bu esa ularga muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash, tadqiqot olib borish kabi zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Ta'lim dasturlarini integratsiyalash orqali o'qitish jarayoni nafaqat o'quvchilarning bilim olish darajasini, balki o'qituvchilarning ham metodik yondashuvini zamonaviylashtirishni taqozo etadi. Shu sababli integratsiyalashgan dasturlarni samarali tashkil etish masalasi hozirgi ta'lim islohotlarining markaziy mavzularidan biri sifatida ko'rilmogda. Bunday dasturlar orqali o'qitish natijalari yaxshilanadi, o'quvchilar o'rtasida fanlararo tafakkur shakllanadi, ularning ijodiy va amaliy faoliyati kuchayadi.

Integratsiyalashgan dasturlar – bu bir nechta fan yoki yo'nalishlarni o'zaro bog'liq holda o'rgatish tizimidir. Bunday dasturlar o'quvchilarni turli fanlarda olgan bilimlarini real hayotiy muammolarni hal etishda qo'llashga o'rgatadi. Masalan, tabiiy fanlar, matematika va axborot texnologiyalarini yagona loyiha asosida birlashtirib o'qitish mumkin.

Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz berayotgan islohotlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va bilimga bo'lgan talablarning ortib borishi o'quv jarayoniga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ana shunday zamonaviy yondashuvlardan biri bu — integratsiyalashgan ta'lim dasturlaridir. Integratsiya atamasi lug'aviy jihatdan "birlashtirish", "yagona tizimga keltirish" degan ma'nolarni bildiradi. Ta'lim sohasida esa bu, turli fanlarni o'zaro bog'liq holda, yagona didaktik tizim asosida o'qitishni anglatadi.

An'anaviy o'quv rejalarida fanlar alohida-alohida, izolyatsiyalangan tarzda o'qitilgan bo'lsa, integratsiyalashgan yondashuv bu chegaralarni yo'q qiladi,

fanlararo bog'liqlikni ta'minlaydi va bilimlarning real hayotdagi qo'llanishiga zamin yaratadi. Masalan, biologiya darslarida ekologik muammolar muhokama qilinarkan, geografiya, kimyo va matematika fanlari bilan bog'liq bilimlar ham faol tarzda jalb etiladi. Bu esa o'quvchilarda tahliliy va tizimli fikrlashni shakllantiradi, ularni real hayotiy muammolarni hal etishga tayyorlaydi.

Shuningdek, integratsiyalashgan dasturlar zamonaviy o'quvchilar uchun dolzarb bo'lgan loyihaviy, amaliy va kompetensiyaviy yondashuvlar bilan ham bevosita bog'liq. Ular o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash, ijodkorlik kabi zaruriy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shu sababli, integratsiyalashgan dasturlarni yaratish va ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish hozirgi ta'lim strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda.

Ushbu maqolada integratsiyalashgan dasturlar mohiyati, ularni joriy etish mexanizmlari, tashkil etishning samarali yo'llari hamda ularning o'quv jarayoniga ta'siri chuqur tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotda integratsiyalashgan dasturlarni tashkil etish va ularning samaradorligini baholash maqsadida quyidagi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi:

1. Tahlil va sintez usuli. Mavzuga oid ilmiy manbalar, o'quv dasturlari, normativ hujjatlar va xorijiy tajribalar o'rganilib, ularning o'zaro solishtirish asosidagi tahlili amalga oshirildi. Fanlararo integratsiya bo'yicha ilg'or amaliyotlar asosida umumlashtirishlar qilindi.

2. Empirik kuzatuv usuli. O'zbekistonning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etilgan darslar kuzatildi. Darslarda o'quvchilarning faolligi, bilimlarni o'zlashtirish darajasi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari o'rganildi.

3. So'rovnoma va suhbat metodi. Tadqiqot doirasida tajribaviy sinflarda dars o'tgan o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovlar orqali integratsiyalashgan darslarning afzalliklari, qiyinchiliklari va ta'siri haqida fikrlar olindi.

4. Eksperiment va diagnostika. Integratsiyalashgan o'quv rejalari asosida tuzilgan darslar bir necha sinfda tajriba sifatida joriy etildi. Eksperiment natijalari dastlabki va yakuniy bilim ko'rsatkichlari asosida taqqoslab tahlil qilindi.

5. Statistik tahlil usuli. O'rganilgan natijalar raqamli ko'rsatkichlar asosida statistik jihatdan qayta ishlanib, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va o'zgarish dinamikasi aniqlanib, jadval va grafiklar orqali tasvirlandi.

O'tkazilgan tadqiqotlar va tajribaviy sinovlar asosida integratsiyalashgan dasturlarni tashkil etish ta'lim sifatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqladi. Quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Bilimlarni o'zlashtirish darajasi oshdi. Integratsiyalashgan darslar asosida o'qitilgan sinflarda o'quvchilarning fanlararo bog'liqlikni tushunish ko'rsatkichlari 20–

25% ga yuqori bo'ldi. Dastlabki diagnostika va yakuniy test natijalari o'rtasidagi farq integratsiyalashgan yondashuvning samarali bo'lganini ko'rsatdi.

2. O'quvchilarning qiziqishi va faolligi oshdi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 87% qismi integratsiyalashgan darslar an'anaviy darslarga qaraganda ko'proq qiziqarli va foydaliroq ekanini bildirdi. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlar va loyihaviy ishlar o'quvchilarni faollikka undadi.

3. Ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlandi. Darslarda muammoli vaziyatlar va real hayotiy masalalar asosida bilimlarni qo'llash talabi o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini oshirdi. Bu o'z navbatida natijalarning chuqur va barqaror shakllanishiga olib keldi.

4. O'qituvchilarning metodik yondashuvi takomillashdi. Eksperimentda ishtirok etgan pedagoglarning 76% qismi integratsiyalashgan yondashuv ularga darslarni mazmunan boyitish, o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb qilish imkonini berganini ta'kidladi. Shu orqali o'qituvchilarning kasbiy mahorati ham oshdi.

5. Darslarning hayotiylik darajasi oshdi. Integratsiyalashgan dasturlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar real hayotdagi vaziyatlarni modellashtirishga, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llashga intildilar. Bu esa o'quv jarayonining kontekstual (hayotga yaqin) bo'lishini ta'minladi.

Integratsiyalashgan dasturlar zamonaviy ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini chuqurroq egallashiga xizmat qiladigan samarali yondashuvlardan biridir. Bu yondashuv orqali fanlararo bog'liqlik mustahkamlanadi, o'quvchilar real hayotga yaqin holatlarda bilimlarni qo'llashni o'rganadi, ijodiy va tanqidiy fikrlash rivojlanadi. Integratsiyalashgan dasturlarni puxta tashkil etish esa o'quv jarayonining sifatini oshiradi, ta'lim samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Shu bois, bunday dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'rayev, N. Pedagogik texnologiyalar va ta'lim tizimida innovatsiyalar. — Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti., 2021.
2. Xolboyeva, D. Fanlararo integratsiya asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish. — Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2020.
3. Karimova, Z., & Ergashova, M. (2019). Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan yondashuv asoslari. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi., 2019.
4. Sharipova, N. Ta'limda integratsiyalashgan yondashuv va metodik tadbqiqotlar.- Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti., 2022.

5. Hasanboeva, M. Ilmiy-pedagogik integratsiya va uning ta'lim jarayonidagi roli. — Toshkent: TDPU nashriyoti., 2017.

ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARNING MAZMUN-MOHİYATI VA TAMOIYILLARI MISOLIDA

Tursunov Akmal Raxmatullayevich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti dotsenti

e-mail: akmal_tursunov_1971@mail.ru

Annotatsiya: Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda o'qitish samaradorligi, asosan, o'quvchining o'qitish jarayonidagi o'rni, pedagogning unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda o'qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan. O'quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo'llaniladi. An'anaviy o'qitish asosan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning rivojlanishini ko'zda tutmaydi.

Hozirgi zamon avlodining rivojlanish sur'ati oldingilardan ko'ra ancha yuqori bo'lganligi sababli, o'qitishning an'anaviy tizimi, rivojlanishga to'sqinlik qila boshladi. Muammo bu tamoyilni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida zo'ravonlik mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda qulchilik xususiyatlarini shakllantiradi. Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish asosida amalga oshirilishi mumkin.

Millatimiz shakllanishi bilan birgalikda xalqimizning mentaliteti insonga muhabbat va hurmat ko'rsatish, unga yordamlashish xislatlari asosida yuzaga chiqdi.

Kalit so'zlar: o'qitish, pedagog, an'anaviy, fan, texnika, texnologiyalar, tarbiya, jarayonda, shaxs, milliy, model.

Bugungi kunda o'qitish jarayonida, pedagogik texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan, o'quv maqsadlari tomon erishiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda o'qitish samaradorligi, asosan, o'quvchining o'qitish jarayonidagi o'rni, pedagogning unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bu jarayonda o'qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko'rish mumkin.

1. Avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan.

2. Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona subyekt sifatda namoyon bo'ladi, o'quvchilar esa faqatgina obyekt vazifasini bajaradi xolos.

Bunda o'quvchining tashabbusi va mustaqilligi yo'qoladi, o'qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Odatdagi an'anaviy o'qitish, avtoritar texnologiyaga

taalluqlidir. Bunda, avvalo Y.A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktika tamoyillariga asoslangan o'qitishning sinf-dars tizimida tashkil etish nazarda tutiladi. Hanuzgacha dunyoda eng ko'p tarqalgan o'qitishning sinf-dars tizimi hisoblanadi, u quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

Yoshi va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil bo'lgan o'quvchilar sinfni tashkil etadi:

Sinf guruh, oqim yagona o'quv reja, yagona o'quv dasturlar va yagona mashg'ulotlar jadvali asosida shug'ullanadi;

Mashg'ulotlarning asosiy birligi dars bo'lib, u bitta fanning bitta mavzusiga bag'ishlanadi va o'qituvchi tomonidan boshqarilib boriladi;

An'anaviy o'qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo'ladi: o'quvchi bu hali to'la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa — bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs. Mumtoz an'anaviy sinf-dars tizimi — bu bayon etishning ma'ruzaviy usuli va kitob bilan mustaqil ishlashni o'z ichiga oladi. Zamonaviy an'anaviy o'qitish esa, o'qitishning texnik vositalarini qo'llagan holda, foydalanishdan iborat bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda, o'quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimining milliy modeliga alohida e'tibor qaratilgan.

Bu model 5 tarkibiy qismdan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. Bu yerda ta'lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismi — shaxs birinchi o'rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta'lim tizimi, shu jumladan, o'qitish shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrida fan, texnika, texnologiyalar yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan davrda, bir avlod hayoti davomida fanning rivoji insoniyatning butun tarixidagidan ko'ra ko'proq bo'lgan bu davrda, o'qitishning an'anaviy tizimi o'z umrini oxiriga yetdi. Hozirgi zamon avlodining rivojlanish sur'ati oldingilardan ko'ra ancha yuqori bo'lganligi sababli, o'qitishning an'anaviy tizimi, rivojlanishga to'sqinlik qila boshladi.

Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish asosida amalga oshirilishi mumkin. Axborotning hajmi, xilma-xilligi, egallashga moyilligi va vositalarining yetarliligi samarali individual va mustaqil o'qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. O'qitishni jadallashtirish maqsadida, pedagogning o'quvchiga bo'lgan munosabati «sardor»likdan, uning

«sherigi»ga aylanishi zarur.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayri insoniy hisoblanadigan zo'ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu tamoyilni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir.

Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta'lim tizimida o'quv fanidan o'quvchiga emas, o'quvchidan o'quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo'ladi. Individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:

- o'rtacha o'quvchiga yo'naltirishdan voz kechish;
- shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;
- shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.

Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo'ladi:

- har bir o'quvchi qiyofasida noyob shaxsni ko'rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha o'quvchilar iste'dodli degan ishonch bo'lishi kerak.

- shaxsga, yutuqni ma'qullovchi, qo'llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya'ni o'qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak.

- bevosita majburlashga yo'l qo'ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg'u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik.

- pedagogik jarayonda, o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko'maklashish. Oliy, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tizimi uchun, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishbilarmonlik o'yinlari;
- muammoli o'qitish;
- tabaqalashtirilgan o'qitish;
- dasturlashtirilgan o'qitish;
- kompyuterlashtirilgan o'qitish;
- modulli o'qitish.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti jadallashtirilgan davrida rivojlangan davlatlarda shakllantirilganligini inobatga olgan holda ular chuqur ildizlarga ega ekanligini ta'kidlash to'g'ri bo'lar edi. Qadimiy faylasuf Sokrat o'z chiqishlarida savol va javob usulini ishlatar edi. Bu usul haqiqatni bilib olish uchun yordam berar edi. Qadimiy Rim pedagogi M.F.Kvantilian har bir shogirdga e'tibor va diqqat bilan yondashishni tavsiya bergan edi. O'rta asr Sharqining buyuk olim-mutafakkirlari tomonidan yirik pedagogik meros qoldirilgin. Asrlar, mingyillar davomida shaxsga muhabbat va hurmat, unga yordamlashish xislatlari asosida

sivilizatsiya shakllanib keldi.

Millatimiz shakllanishi bilan birgalikda xalqimizning mentaliteti insonga muhabbat va hurmat ko'rsatish, unga yordamlashish xislatlari asosida yuzaga chiqdi. Eng avvalo, yoshlarimizga nisbatan muhabbat yaqqol namoyon bo'ladi.

Xalqimiz bolalarga siz deb munosabat qilur, kattalar ularga birinchi bo'lib salom berur. Bu zamonaviy g'oyalarning debochasi, buyuk ajdodimiz Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Bolaga rahmdillik qilmoq, uni o'pib quchoqlamoq haqida» bobida yoritilgan. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarning o'zagi shaxslar o'rtasidagi yuqori qadriyatlariga, teng huquqlilikka asoslangan munosabat hisoblanadi.

Pedagogik innovatsiyalar mutaxassislarni yangicha sharoitda ishlashga tayyorlov-chi jarayon sanaladi. Shuni aytishimiz kerakki, uzluksiz ta'lim tizimida yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirib borish bevosita ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

Shaxsiy fazilatlariga asoslangan ta'limimiz, jahon fanning shakllanishiga va rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgani bilan ajralib turadi. Abu Ali ibn Sino, A.Beruniy, Al-Xorazmiy, M.Ulug'bek, Al-Buxoriy, A.G'ijduvoni, B.Naqshbandiy, A.Navoiy, Z.Bobir kabi buyuk ajdodlarimizning ta'limoti, jahon sivilizatsiyasidagi bebaho ulushini bugungi kunda butun dunyo tan olmoqda. Pedagogika fanining rivojlanishiga Yevropa buyuk pedagog olimlari hissa qo'shganlar. Italiyalik Vittarino di Feltre, Fransuz Fransua Rable, ingliz Tomas More, nemis A.Distruverg va boshqalarni ta'kidlab o'tish lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar insonning aqliy qobiliyatlarini ochishiga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalar asosida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali maqsad sari yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. O'quv qo'llanma.-T: -68-b., 2001.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. — Ташкент: Молия, 2002.
3. Махмутов М., Ибрагимов Г.И., Ушаков М.А. Педагогические технологии, развитие мышления учащихся. -Казань: с. 13., 1993.
4. Назарова Т.С. Педагогические технологии новый этапов.

2-SHO'BA. YOSHLARNING SALOMATLIGI, IJTIMOY MOSLASHUVI VA EKOLOGIYA BO'YICHA FAOLLIGINI OSHIRISH

MOTIVATSIYANING PSIXOLOGIK OMILLARI VA UNING ZAMONAVIY YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Akramova Farangiz Ravshan qizi

Turon Universiteti Psixologiya yo'nalishi 2-kurs
talabasi

e-mail: farangizakramova120@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola motivatsiyaning psixologik omillarini tahlil qiladi va uning zamonaviy yoshlar ongiga ta'sirini o'rganadi. Motivatsiya, uning turli shakllari (ichki va tashqi motivatsiya), shaxsiy qadriyatlar, qiziqishlar va ijtimoiy omillar kabi asosiy ma'lumotlarga asoslanib, yoshlar o'rtasida muvaffaqiyatga erishishdagi motivatsiyaning roli muhokama qilinadi. Maqolada, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalarning yoshlarning motivatsiyasiga ta'siri, o'zini anglash va maqsad qo'yish jarayonlarida qanday yordam berishi ko'rsatilgan. Tahlil qilingan psixologik omillar yoshlarning ruhiy holatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular o'z maqsadlariga erishish uchun qanday motivatsion strategiyalarni qo'llashi lozimligini ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, psixologik omillar, ichki va tashqi motivatsiya, yoshlar ongiga ta'sir, ijtimoiy tarmoqlar, o'zini anglash, maqsad qo'yish, muvaffaqiyat strategiyalari, ruhiy holat, psixologik maslahatlar.

Zamonaviy yoshlar ongiga motivatsiyaning ta'siri bugungi kunda juda muhim sanaladi. Texnologiyaning rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning kuchayishi, o'qish va ish sohalaridagi yangi yondashuvlar motivatsiya jarayoniga yangi o'lchovlar qo'shdi. Yoshlar ko'pincha o'zlarini muayyan muvaffaqiyatlar orqali namoyon etishga intilishadi, bu esa o'z navbatida, ularning faoliyatida qo'shimcha rag'batlantiruvchi omil bo'ladi. Shu bilan birga, motivatsiya turli psixologik omillar, shaxsiy ehtiyojlar va ijtimoiy ta'sirlar orqali shakllanadi. Yoshlarning ta'limda, ishda va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyat qozonishlariga yordam beruvchi asosiy manba, ularning ichki va tashqi motivatsiyasiga asoslanadi.

Motivatsiya inson faoliyatini boshqaruvchi va unga yo'naltiruvchi asosiy psixologik kuchlardan biri hisoblanadi. Bu jarayon, turli ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Yoshlar ongidagi motivatsiya tizimi jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarga mos ravishda rivojlanadi. Motivatsiya, ayniqsa, yoshlar uchun, o'qish va ish faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishda muhim ahamiyat kasb

etadi. Bu jarayon, yoshlarning o'z maqsadlariga erishishga qiziqishlarini uyg'otadi va ularga o'zlarini rivojlantirish uchun turtki beradi. Motivatsiya, shuningdek, yoshlar psixologiyasi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, chunki o'ziga xos sharoitlar, ta'lim tizimlari va ijtimoiy muhit ularga turli darajadagi rag'batlar taqdim etadi. Shuningdek, motivatsiya yoshlarning dunyoqarashi, ularning faoliyatini boshqarishda katta o'rin tutadi, hamda ularning ijtimoiy, shaxsiy va akademik muvaffaqiyatlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi davrda jamiyatda yoshlarning motivatsiyasi pasayib borayotganligi, ularning bilim olish, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Raqobatbardoshlik, ijtimoiy bosim va texnologik muhitning tezkor o'zgarishlari yoshlarning ongida motivatsiyaning ichki manbalarini susaytirib, tashqi rag'batlarga bog'liqlikni kuchaytirmoqda. Bu esa ularning o'zini anglash, mustaqil maqsad qo'yish va unga intilish kabi psixologik jihatdan muhim ko'nikmalarini zaiflashtiradi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo'lgan ideal hayot tasvirlari, bosim va solishtirishlar ko'plab yoshlarda o'ziga nisbatan past baho va ichki ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ta'lim tizimida va ish muhitida motivatsiyani rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmayotgani muammoni yanada chuqurlashtirmoqda. Shu sababli, yoshlarning motivatsiyasini shakllantiruvchi psixologik omillarni chuqur o'rganish va bu omillarni ijobiy yo'nalishda boshqarish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Motivatsiya, shuningdek, yoshlar psixologiyasi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, chunki o'ziga xos sharoitlar, ta'lim tizimlari va ijtimoiy muhit ularga turli darajadagi rag'batlar taqdim etadi. Shuningdek, motivatsiya yoshlarning dunyoqarashi, ularning faoliyatini boshqarishda katta o'rin tutadi, hamda ularning ijtimoiy, shaxsiy va akademik muvaffaqiyatlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda motivatsiyaning psixologik omillari va uning zamonaviy yoshlar ongiga ta'sirini o'rganishda bir nechta usullar qo'llanildi. Bular orasida anketalar, so'rovlar eng asosiy usullar bo'ldi. Anketalar yordamida yoshlarning motivatsiya darajasi, ularning ichki va tashqi motivatsiyasini shakllantiruvchi omillar va ijtimoiy ta'sirlar haqida ma'lumotlar yig'ildi. Tadqiqot ishtirokchilari o'qish va ish faoliyatidagi yoshlar bo'lib, bu guruhlar orasida motivatsiyaning qanday omillar tomonidan boshqarilayotganini tahlil qilish mumkin bo'ldi. Anketalar orqali motivatsiyaning ichki va tashqi manbalari, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning roli haqida savollar berildi. Bu metod yordamida yoshlarning motivatsiyasi va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash mumkin bo'ldi.

So'rovlar metodidan tadqiqotda ishtirok etgan yoshlarning fikrlarini to'plash uchun foydalanildi. Bu usul yoshlarning motivatsiya darajasini va ularga ta'sir

qiluvchi omillarni yanada chuqurroq o'rganishga imkon berdi. So'rovlar ko'pincha anketalarga qaraganda interaktiv tarzda bo'lib, ishtirokchilar bilan yuzma-yuz suhbatlar olib borildi. Bu metod yoshlarning shaxsiy fikrlarini va o'z motivatsiyasiga bo'lgan munosabatini to'g'ridan-to'g'ri o'rganishga yordam berdi.

Tadqiqotda 500 nafar yosh ishtirok etdi. Ularning 60 % talaba va 40 % ish faoliyatidagi yoshlar edi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda, ishtirokchilarning motivatsiya darajalari turli guruhlar bo'yicha solishtirildi. Shu bilan birga, motivatsiyaning asosiy manbalari — ichki motivatsiya, tashqi rag'batlar va ijtimoiy ta'sirlar o'rganildi. Tadqiqot natijalari yoshlar orasida ichki va tashqi motivatsiya darajalarining qanday taqsimlangani, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalarning motivatsiyaga qanday ta'sir qilishi haqida aniq ma'lumotlar berdi. Bu metodologiya yordamida motivatsiyaning psixologik omillari va uning yoshlar ongiga ta'siri haqida to'liq va aniq ma'lumotlar yig'ildi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar yoshlar motivatsiyasini o'rganish uchun samarali vosita bo'ldi va kelajakda yoshlarning motivatsiyasini oshirish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Guruh	Ichki motivatsiya(%)	Tashqi motivatsiya(%)	Ijtimoiy ta'sir(%)
Talabalar	68%	75%	60%
Ish faoliyatdagi yoshlar	60%	80%	55%

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlarning motivatsiyasining psixologik omillari va uning shakllanishi o'ziga xos jihatlarga ega. Tadqiqotda ishtirok etgan talabalarda ichki motivatsiya darajasi (68%) ish faoliyatidagi yoshlar (60%) ga qaraganda biroz yuqori. Bu talabalar o'z maqsadlariga erishish uchun ichki motivatsiyaga ko'proq tayanishini ko'rsatadi. Ichki motivatsiya, ko'pincha o'zini rivojlantirish, bilim olish yoki shaxsiy maqsadlar bilan bog'liq bo'lib, talabalar o'zlari uchun yuqori qoniqish va o'sishni o'z faoliyatlarida ustuvor deb bilishadi. Ish faoliyatidagi yoshlar uchun esa ichki motivatsiyaning darajasi biroz pastroq bo'lib, ular ko'proq tashqi rag'batlarga (moliya, ish joyidagi muvaffaqiyat, ijtimoiy maqom) tayanadilar.

Tashqi motivatsiya, ayniqsa ish faoliyatidagi yoshlar o'rtasida yuqori bo'lib (80%), ko'proq moliyaviy rag'batlar va lavozimga tayanadigan omillar bilan bog'liq. Ishdagi muvaffaqiyatlar ko'proq tashqi omillarga asoslangan bo'lib, bu yoshlar o'z faoliyatlarini tashqi mukofotlar orqali o'lchashadi. Talabalar orasida tashqi motivatsiyaning darajasi 75% ni tashkil etadi. Bu shuni anglatadiki, talabalar o'qishda muvaffaqiyatga erishishda tashqi rag'batlarga ham tayanadilar. O'quvchilar uchun tashqi motivatsiya akademik muvaffaqiyatlar, stipendiyalar yoki boshqa ijtimoiy mukofotlar bilan bog'liq.

Ijtimoiy ta'sir yoshlarning motivatsiyasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Talabalar orasida ijtimoiy ta'sirning ta'siri 60% ni tashkil etadi, ish faoliyatidagi yoshlar orasida esa bu 55% ni tashkil etadi. Bu, yoshlarning motivatsiyasida guruhdagi muvaffaqiyat, o'zaro raqobat va ijtimoiy o'lchovlar ahamiyatli rol o'ynashini ko'rsatadi. Talabalar uchun ijtimoiy ta'sir ko'pincha o'quv muhitidagi raqobat va guruhning muvaffaqiyatlari orqali namoyon bo'ladi, ish faoliyatidagi yoshlar esa o'z faoliyatlarida ish joyidagi yuksalishlar va kollektiv muvaffaqiyatni ijtimoiy ta'sirning asosiy manbai sifatida his qilishadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarning motivatsiyasi ichki va tashqi omillarning kombinatsiyasiga asoslanadi. Talabalar ichki motivatsiyaga ko'proq tayanishsa, ish faoliyatidagi yoshlar ko'proq tashqi rag'batlar va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ijtimoiy ta'sirning yoshlar uchun o'ziga xos salbiy va ijobiy tomonlari mavjud. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari yoshlarni muvaffaqiyatga undasa-da, ba'zan bu ularda o'zini past baholash va stressga olib kelishi mumkin. Tadqiqot natijalari, yoshlarni motivatsiyalashda ichki motivatsiyaning ahamiyatini e'tiborga olib, tashqi rag'batlar va ijtimoiy ta'sirni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, yoshlar orasida ichki va tashqi motivatsiyaning taqsimlanishi, shuningdek, ijtimoiy ta'sirlarning motivatsiyaga ta'siri turlicha va kompleksdir. Bunda yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy sharoitlari, ta'lim va ish faoliyatidagi o'zgarishlar muhim rol o'ynaydi. Talabalar va ish faoliyatidagi yoshlar orasida motivatsiyaning shakllanishida farqlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Talabalar, asosan, o'zlarining ichki motivatsiyasiga tayanib, o'qish va ilmiy faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishga intilishadi. Bu ularning o'zlarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi. Talabalar uchun ichki motivatsiya yuqori darajada bo'lishi, o'z bilimlarini oshirish, shaxsiy o'sish va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarga asoslangan. Biroq, ish faoliyatidagi yoshlar uchun tashqi motivatsiya, ya'ni ishdagi muvaffaqiyatlar, moliyaviy mukofotlar va lavozimlar, yuqori darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, ularning motivatsiyasini oshiradi, ammo ichki motivatsiyaning darajasi pastroq bo'lishi mumkin. Shuning uchun, bu guruhni motivatsiyalashda tashqi omillarga ko'proq e'tibor qaratish kerak.

Tadqiqotda aniqlangan yana bir muhim omil bu ijtimoiy ta'sirning motivatsiyaga ta'siri. Ijtimoiy ta'sir, yoshlar uchun juda katta ahamiyatga ega, chunki ular o'zlarining muvaffaqiyatlarini boshqalar bilan solishtiradilar. Talabalar va ish faoliyatidagi yoshlarning motivatsiyasida ijtimoiy omillar, ayniqsa, guruhdagi muvaffaqiyatlar, ijtimoiy tarmoqlardagi mashhurlik va raqobat kabi omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Bu yoshlar uchun ijtimoiy ta'sirni rag'batlantiruvchi vosita sifatida ishlatish mumkin, lekin bu ta'sirni salbiy tomondan boshqarish kerak, chunki raqobat va o'zini past baholash, ba'zida yoshlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir

ko'rsatishi mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun motivatsiyani oshirishda katta vosita sifatida ishlatilmoqda, ammo ularning ta'sirini boshqarish lozim. Ijtimoiy tarmoqlarda muvaffaqiyatga erishganlar va mashhur shaxslar yoshlarni o'zlariga intilishga undaydi, lekin ba'zan bu o'zini past baholash va stressga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarning motivatsiya darajasini pasaytiradi. Ijtimoiy ta'sirning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun yoshlar o'zaro qo'llab-quvvatlash va salbiy ta'sirlarni kamaytirish bo'yicha psixologik yordam olishlari kerak. Motivatsiyaning psixologik omillari va yoshlar ongiga ta'siri haqidagi tadqiqot natijalari kelajakda yoshlarni motivatsiyalash uchun yangi strategiyalar ishlab chiqishda yordam beradi. Birinchi navbatda, yoshlarning ichki motivatsiyasini oshirishga qaratilgan dasturlar va strategiyalar ishlab chiqish zarur. Bu dasturlar yoshlarni o'zlari uchun foydali va qoniqarli maqsadlarni belgilashga, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga, o'z rivojlanishlariga qiziqish bildirishga undashi kerak. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va tashqi omillarning motivatsiyaga ta'sirini boshqarish uchun psixologik maslahatlar va treninglar o'tkazish, yoshlarning salbiy ta'sirlardan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, motivatsiyaning psixologik omillari va yoshlar ongiga ta'siri o'rtasidagi bog'lanishni chuqur o'rganish, motivatsiyani oshirishda samarali usullarni yaratishda asosiy qadamdir.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, yoshlarning motivatsiyasini oshirish va psixologik omillarni hisobga olish orqali ularga muvaffaqiyatga erishishda yordam berish uchun quyidagi tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

Birinchidan, yoshlarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ularni o'z shaxsiy maqsadlarini aniqlashga, ilmga, kasbiy o'sishga va mustaqil qaror qabul qilishga undash kerak. Ta'lim muassasalarida ichki motivatsiyani qo'llab-quvvatlash uchun individual yondashuv, rag'batlantiruvchi muhit va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar joriy etilishi zarur. Bu jarayonda psixologik yordam va maslahatlar orqali talabalar va yosh mutaxassislarining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish ham muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, tashqi rag'batlantirish vositalarini (moddiy mukofotlar, maqtov, ijtimoiy maqom) ichki motivatsiya bilan muvozanatli uyg'unlashtirish kerak. Tashqi rag'batlar qisqa muddatli natija berishi mumkin, ammo ularni o'z vaqtida va maqsadga muvofiq qo'llash orqali ichki ishtiyoqni so'ndirmaslik lozim. Masalan, mukofotlar nafaqat natija, balki harakatning o'zi uchun ham berilishi kerak, bu esa motivatsiyaning tabiiy o'sishiga yordam beradi.

Uchinchidan, ijtimoiy ta'sir, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi muvaffaqiyat standartlari va guruh bosimi, yoshlarning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi

mumkin. Bunga qarshi yoshlarni ijtimoiy solishtirishdan ko'ra, o'z rivojlanish sur'atiga e'tibor qaratishga o'rgatish kerak. Treninglar, psixologik mashg'ulotlar orqali ularning ijtimoiy bosimlarga bardosh berish ko'nikmasi shakllantirilishi zarur.

To'rtinchidan, yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish va doimiy psixologik yordam ko'rsatish orqali ularning stressni boshqarish, maqsadga sodiqlik va qat'iyatlilik kabi ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Bu jarayonda individual psixologik maslahatlar, motivatsion uchrashuvlar, shaxsiy rivojlanish rejalari kabi vositalar yordamida ularning ijtimoiy va shaxsiy barqarorligi ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalari asosida, yoshlarning motivatsiyasi ichki va tashqi omillar hamda ijtimoiy ta'sirga bog'liq ekanligi aniqladik. Talabalar ichki motivatsiyaga ko'proq tayanib, ilm-fan va o'qishdagi muvaffaqiyatlarga intilishadi, ish faoliyatidagi yoshlar esa tashqi rag'batlar va ijtimoiy maqomga ko'proq e'tibor qaratishadi. Ijtimoiy ta'sir ham yoshlarning motivatsiyasida katta rol o'ynaydi. Shuning uchun yoshlarni motivatsiyalashda ichki va tashqi omillarni muvozanatlash, ijtimoiy ta'sirni boshqarish va psixologik yordamni kengaytirish zarur. Bu yoshlarning shaxsiy va professional rivojlanishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaeva, S. Motivatsiya va uning o'qishdagi roli. — Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti., 2012.
2. Jumayev, A. Pedagogik psixologiya: Talabalarni motivatsiyalashning psixologik asoslari. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti., 2011.
3. Ergasheva, Z. Ijtimoiy psixologiya va motivatsiya. — Toshkent: Akademnashr., 2014.
4. Sodiqov, A. Psixologik omillar va motivatsiya. — Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti., 2016.
5. To'raqulov, N. Motivatsiyaning yoshlar ongiga ta'siri. — Toshkent: O'zbekiston yoshlar ittifoqi nashriyoti., 2010.
6. Qodirov, S. Talabalarni o'qishga motivatsiyalash. — Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti., 2013.
7. Rakhmatov, M. (2015). Yoshlarning ijtimoiy faoliyatini motivatsiyalash. -Toshkent: Ijtimoiy fanlar akademiyasi nashriyoti.
8. Jabborov, M. Yoshlarni motivatsiyalashda psixologik va ijtimoiy omillar. — Tashkent: Sharq nashriyoti., 2017.

DEVIANT XULQ-ATVOR PROFILAKTIKASIDA OILA, MAKTAB VA JAMIYAT HAMKORLIGI

Bozorova Mohinur Akram qizi

Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs
magistranti

e-mail: mohinurbozorova70@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada deviant xulq-atvor tushunchasi, uni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar, yoshlar orasida uchrash ehtimoli va uni bartaraf etishda oila, maktab hamda jamiyatning o'zaro hamkorligining dolzarbligi yoritilgan. Shuningdek, ushbu salbiy holatlarning oldini olishda kompleks yondashuvning samaradorligi, hamda tizimli profilaktika ishlarini tashkil etish bo'yicha amaliy takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *deviant xulq-atvor, profilaktika, oila, maktab, jamiyat, hamkorlik, tarbiya, yoshlar.*

Jamiyatda barkamol, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash – har bir davlatning eng ustuvor vazifalaridan biridir. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy, ma'naviy va psixologik jihatdan sog'lom o'sishi mamlakat kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq, hozirgi zamon talablari, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar, shuningdek global axborot maydonining kengayishi sababli yoshlar orasida deviant xulq-atvor holatlari ko'paymoqda. Ushbu salbiy holatlar, o'z navbatida, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy moslashuviga to'siq bo'lib, ijtimoiy muammolarning yanada kuchayishiga sabab bo'ladi. Shu bois deviant xulq-atvorni oldini olishda oila, maktab va jamiyatning samarali hamkorligi zarur.

Deviant xulq-atvor — bu ijtimoiy normalar va qadriyatlarga zid keladigan, jamiyat tomonidan salbiy baholangan harakat va xulq-shakllarni anglatadi. Bu ko'plab ko'rinishlarga ega: maktabda o'qishni tark etish, qonunbuzarlik, tajovuzkorlik, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish, ijtimoiy me'yorlardan chetlashish va hatto o'z joniga qasd qilish holatlari ham shu guruhga kiradi. Ushbu hodisalar yoshlarning ma'naviy va ijtimoiy muhitda duch keladigan qiyinchiliklari, shuningdek, ularning ruhiy salomatligi bilan bevosita bog'liq.

Oila yosh avlod uchun asosiy ijtimoiylashuv muhitidir. Bu muhitda bola nafaqat biologik jihatdan o'sadi, balki ongli shaxs sifatida shakllanadi. Oilaning tarbiyaviy roli bolaning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhimdir. Agar oila a'zolari orasida mehr-muhabbat, o'zaro hurmat va ishonch mavjud bo'lsa, bola o'zini himoyalangan va qadrlangan his qiladi. Bunday sharoitda bolaning o'zini tutishi barqaror va ijtimoiy me'yorlarga mos keladigan

bo'ladi. Aksincha, oilada nizolar, zo'ravonlik, e'tiborsizlik yoki qattiq nazorat mavjud bo'lsa, bola o'zini jamiyatdan ajratilgan, tushunilmagan his qilishi mumkin. Bu esa ko'pincha ularni salbiy xulq-atvorga olib keladi.

Oilaviy muhitdagi muammolarni aniqlash va bartaraf etishda psixologik maslahat xizmatlarining roli katta. Ota-onalarga psixologik savodxonlikni oshirish, oilaviy muloqotni rivojlantirishga ko'maklashish yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda samarali vositadir. Shuningdek, oilalarda ota-onalarning o'zaro munosabatlari ham bolaning ruhiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Oilada sog'lom munosabatlar va barqaror muhit bo'lishi yoshlarning ijtimoiy hayotga to'liq moslashishi uchun zarur.

Maktab yoshlarning ikkinchi ijtimoiy muhitidir va ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Pedagoglar nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyalovchi sifatida ham faol bo'lishlari lozim. Maktabda o'quvchilar orasida salbiy xulq-atvorning oldini olish uchun darsdan tashqari ijtimoiy-madaniy tadbirlar, sport musobaqalari, ijtimoiy loyihalar va mentorlik dasturlari tashkil etilishi zarur. Shuningdek, maktabda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning mavjudligi yoshlarning ruhiy holatini kuzatish va zarur yordamni ko'rsatishda muhimdir.

Pedagogik xodimlarning bolalar bilan individual ishlashi, xavf guruhiga kiruvchi o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, ularni ijtimoiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashi kerak. Maktab va ota-onalar o'rtasidagi doimiy muloqot yoshlarning muammolarini erta aniqlashga imkon yaratadi. Maktabda yoshlar uchun ijtimoiy va psixologik savollar bo'yicha treninglar, stressni boshqarish bo'yicha mashg'ulotlar ham o'tkazilishi zarur.

Jamiyat darajasida esa mahalla, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, yoshlar markazlari va ijtimoiy xizmatlar yoshlarning ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etadi. Mahallalarda yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish, ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etish uchun mahalla faollari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish muhimdir. Shuningdek, yoshlarning madaniy va sportga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni ta'minlash deviant xulq-atvorning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy jamiyatda yoshlarning axborot maydoni kengaygan, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri kuchayganligi sababli, yoshlar orasida noto'g'ri va zararli axborotlarning tarqalishi ham deviant xulq-atvorni kuchaytirishi mumkin. Shu bois, maktab va jamiyat tomonidan yoshlarni axborot savodxonligini oshirish, internetdagi xavflardan himoya qilish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish kerak.

Yuqoridagi barcha omillarni o'z ichiga olgan ko'p tomonlama va tizimli profilaktika tizimini yaratish yoshlarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi, ularni

jamiyat uchun foydali va faol fuqarolarga aylantiradi. Shu maqsadda, davlat siyosati darajasida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini qo'llab-quvvatlash, oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish, maktab va jamiyat tizimlari o'rtasida faol integratsiyani ta'minlash kerak.

Xulosa qilib aytganda, deviant xulq-atvorning oldini olishda oilaning mehrga asoslangan muhit yaratishi, maktabning tarbiyaviy salohiyati va jamiyatning faol ishtiroki bir butun tizim sifatida faoliyat yuritisa, bu og'riqli muammoni bartaraf etish imkoniyati yanada kengayadi. Zamonaviy pedagogik, psixologik va ijtimoiy texnologiyalarni joriy etish orqali yoshlarni salbiy ta'sirlardan himoya qilish, ularni sog'lom, mas'uliyatli va jamiyatga foydali shaxslar sifatida tarbiyalash mumkin. Bu esa o'z navbatida, mamlakatning ma'naviy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat., 2008.
2. Abdullayeva, M. M. Pedagogik psixologiya asoslari. 2019. — Toshkent: O'qituvchi.
3. Islomova, N. K. Yoshlar tarbiyasida zamonaviy yondashuvlar. - Toshkent: Ta'lim., 2023.
4. Jalolov, J. Pedagogika: Nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan., 2022.
5. Saidov, A. X. Inson huquqlari: O'quv qo'llanma. — Toshkent: Adolat., 2020.
6. UNESCO. Preventing school violence and bullying: A global report. Paris: UNESCO Publishing, 2019.
7. World Health Organization (WHO). Adolescent health and development. 2020. — Geneva: World Health Organization.
8. Zokirova, D. S. Oila psixologiyasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti., 2021.

JAMIYATIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN INSON QADRINI YUKSALTIRISH SIYOSATIDA YOSHLARNING IJTIMOY AHAMIYATI

Mingbayeva Nozimaxon Ismatilla qizi

Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining "Boshqaruv ko'nikmalari va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish" kafedrası katta o'qituvchisi, sotsiologiya fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola davlat tizimida olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda yoshlarning o'rnini naqadar muhim ekanligi keltirilgan. Ularning ijtimoiy faol qilishning jamiyatga ahamiyatli jihatlari ochib berilgan bo'lib, Inson qadrini ulug'lashda yoshlar kelajak asosi ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi, davlat jamiyat, jamoatchilik fikri, inson qadri, yoshlar, grantlar.*

So'nggi yetti yilda o'tkazilgan tub islohotlar natijasida mamlakatimizda "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" g'oyasi o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Inson qadrini ulug'lash, har bir insonning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh yo'nalishiga aylandi. So'nggi yillarda mamlakatimizda dastlab Harakatlar strategiyasi, ayni vaqtda Taraqqiyot strategiyasi doirasida bu borada samarali ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Xususan, jamoatchilik fikrini shakllantirgan aholi murojaatlari bilan ishlash jarayonida yangi mexanizmlar tatbiq etildi. Bunda qonun ustuvorligini ta'minlash aholini qiynab kelayotgan ijtimoiy muammolar yechimini topishda fuqarolik jamiyati institutlari va aholi o'rtasida ochiq va shaffof muloqot mexanizmi ta'minlanib kelinmoqda.

Binobarin, mamlakatimizda Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi aynan "Inson qadrini yuksaltirish tamoyili" asosida qurildi. "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" deb belgilangan birinchi bo'limda Prezident Shavkat Mirziyoyev o'rinli qayd etganidek: "Inson – davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda eng oliy qadriyati bo'lishi lozim. Biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston uchun inson qadri va xalq manfaati, hamma narsadan ustundir"

Strategiyada 7 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha "Inson qadri uchun 100 ta maqsad" belgilab olindi. "Davlat xalq xizmatchisi" tamoyili asosida aholi murojaatlari bilan ishlash holatini nazoratga olish, joylarda amalga oshirilgan ishlar natijasiga muvofiq ularga ta'sirchan choralar ko'rish mexanizmlarini ishga tushirish dolzarblashdi.

Bundan ko'riladiki, Yangi O'zbekiston jamiyatida inson qadrini yuksaltirilishi, ulug'lanishi va har bir insonning hayotda munosib o'rin topishi strategik maqsad sifatida kun tartibiga chiqib bo'ldi. Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda inson qadri tushunchasi bu — xalqning davlat va jamiyat oldidagi o'rni, roli va nufuzini oshirish uchun davlat tashkiloti vakillari tomonidan qilinadigan sa'y-harakatlar majmuidir.

Yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa barcha islohotlarda yoshlarga bo'lgan e'tiborni ko'rishimiz mumkin. So'ngi yillarda yoshlarga oid davlat siyosatida yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash uchun, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun, o'z hayot yo'llarini mustaqil qo'yishlari uchun kerak bo'lgan barcha shart sharoitlar, imkoniyatlar yaratib berilmoqda. 2024 – yilni "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash" yili deb e'lon qilinishi esa yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirib, yoshlar bilan ishlash sohalarining samaradorligini oshirish yuzasidan yanada ko'proq vazifalar qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ham yoshlarga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ular tomonidan amalga oshirilayotgan barcha ijtimoiy-siyosiy chora-tadbirlarda yoshlar masalalarini ko'rishimiz mumkin. Yoshlarni kelajakda o'z kasbiga ega bo'lishi uchun, bandliklarini ta'minlash uchun barcha davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib borishlarini vazifa qilib belgiladilar. Buni bir misolida Mahalla tizimini ko'rishimiz mumkin. Yoshlar nafaqat o'zining kelajagi uchun balkim butun mamlakat kelajagi uchun muhim aholi qatlami ekanligini ham ta'kidlab kelmoqdalar.

Hozirgi kunda yoshlar jamiyatda o'z o'rnini topib olishi uchun ko'plab imkoniyatlar berilayotganligi hech kimga sir emas. Shu sababli, ular o'z salohiyatini hoxlasalar ilm, kasb-hunar, tadbirkorlik yo'nalishlaridan va boshqa bir qancha sohalarda sinab ko'rish sharoitlari yaratilib berilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikda faoliyat olib borish uchun esa raqobat bardosh kadrlarni tayyorlash sababli xalqaro oliy o'quv yurtlari bilan bir qancha grantlar yoshlarga taqdim etib kelinmoqda. Shuningdek, yoshlarimizning uzluksiz ta'lim olishlarini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, oliy ta'lim muassasasida ikki va undan ortiq farzandi shartnoma asosida o'qiyotgan oilalarga imtiyozli ta'lim krediti berish tartibini joriy etish, oliy ta'lim muassasalariga talaba-qizlarni qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun ajratilgan grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirish

hamda 2 mingga yetkazilishi keltirilgan. Bu esa, yoshlarga oid davlat siyosatining ichida jamiyatni kichik bir bo'g'ini hisoblangan oilalarni ham davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan Davlat siyosatining yana bir yorqin misoli sifatida e'tirof etish mumkin.

Yoshlarga oid davlat siyosatining eng muhim jihatlaridan biri bu olib borilayotgan barcha siyosiy jarayonlar avvalambor yoshlarning o'zlarini tashabbuslari bilan amalga oshirib kelinmoqda. Ularning ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarini ustuvor ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yoshlar huquqlarini, erkinliklarini qonuniy ta'minlanib, ularning sog'liklarini saqlash uchun, intellektual, jismoniy va axloqiy kamol topishlariga davlat tomonidan katta siyosiy ishlar olib borilayotganligi barchaga ma'lum. Yoshlarni ish bilan ta'minlash va sportga jalb etish uchun kompleks chora-tadbirlar tizimi amalga oshirilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda yoshlar o'zlarining barcha imkoniyatlarini yoki salohiyatini jamiyat va davlat oldida ko'rsatishlari mumkin va bu esa ular uchun bir qancha natijalarga ega bo'lish imkonini beradi. Xalqi va oilasi oldidagi burchlarini ado etishda hamda yuzi yorug', kelajagi porloq yosh avlod sifatida o'zini ko'rsata oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son).
2. Matibayev T. Ijtimoiy hamkorlik va demokratiya: davlat va jamiyat hayotining barqaror taraqqiyot yo'lida. — Toshkent: "Bilim va intellektual salohiyat". 271 b. 2019.
3. Mingbayeva N. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishda jamoatchilik fikrining roli nomidagi Diss.Ishi.- Toshkent: 2023.
4. <https://review.uz/oz/post/>

O'RTA GURUH BOLALALARI NUTQINI XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASINING O'RNI

Mirzaxalilova Nazokat Mirzaolimovna

Namangan davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

e-mail: mirzaxalilovanazokat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning ravnaqi inson hayot kechirayotgan muhit, ana shu inson faoliyatining turli sohalarida namoyon bo'layotgan ma'naviy asosga ko'p jihatdan bog'liqligi asoslangan. Ma'naviy asosga yillar davomida tarkib topgan xalq pedagogikasi ham kirishi, zero, shaxsning rivojlanishi, uning ma'naviy kamol topishida xalq pedagogikasi boy manbalarga egaligi yoritilgan. Xalq pedagogikasi umumxalq ijodiy mahsulining natijasi, pedagogik madaniyatining asosiy ifodasi bo'lib, uning ildizi qadim-qadimlarga borib taqalishi, u o'zida xalqning orzu istaklari, qarashlari, inson, oila, yosh avlod tarbiyasi haqidagi tasavvurlarini aks ettirishi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *o'rta guruh bolalari, nutq, xalq og'zaki ijodi, vosita, rivojlantirish, xalq pedagogikasi, ta'lim-tarbiya jarayoni.*

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, xalq pedagogikasi – mehnatkash xalq va xalq donishmandligining yosh avlodni maqsadga muvofiq kishilar etib yetishtirishdagi tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo'lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta'lim-tarbiyani amalga oshirish borasida qo'llanilib usul, vosita, ko'nikma va malakalar birligini ifodalovchi tajribalar asosida to'plangan bilim va ma'lumotlar majmuidir. Boshqacha qilib aytganda, xalq pedagogikasi xalq ommasining og'zaki tarzda yaratgan va avloddan – avlodga o'tib kelayotgan tarbiya haqidagi ma'lumotlari – pedagogik ijodlari majmuidir.

A.E.Izmailovning ta'kidlashicha xalq pedagogikasini tadqiq etgan barcha tadqiqotchilarning ta'rificha, xalq pedagogikasi avloddan-avlodga o'tgan tarbiya haqidagi bilimlarining yig'indisiga emas, balki xalqning tarbiyaviy faoliyati tajribasi asosida mazkur bilimlarning malaka va ko'nikmaga aylanishi majmui hamdir. Haqiqatdan ham xalq pedagogikasida faqat tarbiya jarayoni emas, balki ta'lim jarayoni ham asosiy manba sifatida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shunday ekan, olimning fikricha xalq pedagogikasi ta'rifida ta'lim va tarbiya ikki tomonlama jarayon sifatida o'z ifodasini topmog'i kerak, ya'ni, xalq pedagogikasi – xalq ommasining tarixiy va ijtimoiy tajribasi sifatida og'zaki shaklda avloddan-avlodga o'tib kelgan, tajribada sinab ko'rilgan va jamlangan empirik bilimlar, ma'lumotlar, malaka va

ko'nikmalar majmuidir.

Xalq pedagogikasi keng qamrovli, ko'p qirrali bo'lib, tadqiqotchilar uning manbalarini quyidagilardan iborat deb ko'rsatadilar.

1. O'zbek xalq og'zaki ijodi.
2. Milliy urf – odatlar, an'analar, marosimlar.
3. Xalq o'yinlari va o'yinchoqlar.
4. Diniy ta'limotlar.
5. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchilik.
6. Milliy musiqa.
7. Tasviriy san'at.
8. Raqs san'ati.

Biz bu manbalarga yana xalq tabobatini ham qo'shgan bo'lar edik. Zero, xalq tabobatida ham ta'lim-tarbiyaga oid juda ko'p qimmatli manbalar mavjud. Mazkur manbalarining ko'pchiligi alohida emas, bir-biriga uyg'un holda ham ifodalandi. Masalan, xalq og'zaki ijodi tarkibida milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar, xalq o'yinlari, diniy ta'limotlar, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligiga oid, milliy musiqa, raqs san'ati, xalq tabobati va boshqa manbalarni ham uchratish mumkin. Ana shu manbalardan eng muhimi xalq og'zaki ijodi bo'lib, xalqimizning o'z tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti davomida avloddan-avlodga o'tib, sayqallanib kelayotgan, shaxsning ma'naviy-axloqiy takomilida o'ziga xos ta'sir doirasiga ega.

Xalq og'zaki ijodi bilan tarixchilar tarixiy voqealarning unda qanday aks etgani bilan, elshunoslar xalqning urf-odatlari bilan, san'atshunoslar folklordagi musiqa, raqs, o'yin va boshqalarni, tilshunoslar uning lahja va shevalari bilan, adabiyotshunoslar uning yozma adabiyot bilan munosabatlarini tekshiradilar, — deydi K.Imomov. Biz esa bu ta'rifga pedagogika fani ta'lim-tarbiya masalalari xalq og'zaki ijodida qanday ifodalangani bilan shug'ullanishi, uning aqliy, axloqiy, mehnat, nafosat, jismoniy tarbiyada muhim manba ekanligini alohida ta'kidlamoqchimiz. Zero, xalq og'zaki ijodi xalq hayotining badiiy ifodasi bo'lib, xalqning ijtimoiy hayot haqidagi tushunchalarini, uning didini, zavqini, ijtimoiy, tarixiy, falsafiy, badiiy-estetik qarashlarini o'zida aks ettiradi.

Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodining qimmatli, uning ma'rifiy, g'oyaviy tarbiyaviy va estetik ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. U Xalqimizning uzoq tarixi, urf-odati, ijtimoiy hayoti, dunyoqarashining kengligi ijtimoiy munosabatining xilma-xilligi, orzu – umidlarining ulug'vor va shaxs munosabatining xilma-xilligi, orzu-umidlarining ulug'vor va teranligi bilan bilim beradi va ma'naviy – axloqiy tarbiya manbai bo'lib xizmat hisoblanadi. Ayniqsa, bolalarning o'smirlik davrida xalq og'zaki ijodiga qiziqishi o'ta kuchli bo'ladi. Chunki bu yoshda ular katta orzu-umidlar bilan yashaydilar va o'z orzu-umidlarini yuzaga chiqarishda xalq og'zaki

ijodidagi sehr kuchiga, fantaziya ishonuvchanlik kuchli bo'ladi.

Ikkinchidan, xalq og'zaki ijodining badiiyligi, tilining ravonligi, musiqiyligi, soddaligi ham o'smirlarga katta ta'sir etadi, qiziqish uyg'otadi. Aynan, maktabgacha yoshdagi bolalar o'rganadigan dasturlarida xalq og'zaki ijodining qo'shiq, maqol, topishmoq, ertak, doston, afsona, rivoyat, asotir va boshqa janrlari kengroq o'rin olgan bo'lib, ularda ta'lim-tarbiyaga oid xalq donishmandligi ifodalangan.

Bularning barchasi yana ikki tomonlama xarakterga ega:

Birinchidan, xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasining manbai sifatida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim o'rin egallasa, ikkinchi tomondan bu qadriyatlarning o'zi ham xalq pedagogikasining manbai-xalq og'zaki ijodida o'z ifodasini topgan. Qadriyat o'zi nima. Qadriyatlar – inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar (erkinlik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik va boshqalar), jamiyat va inson uchun ijobiy va salbiy ahamiyatga ega ijtimoiy hayotda va tabiatda bo'ladigan yaxshilik, ezgulik, yomonlik, yovuzlik, go'zallik va xunuklik bo'lgan holatlar yig'indisidan iboratdir.

O.Musurmonova qadriyatga shunday ta'rif bergan: “Qadriyat – insonning ma'naviy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan, amaliy faoliyatda davr sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan, o'z shakl va mazmunida u yoki bu xalqning ma'naviy olamini mujassam etgan asrlar davomida xalqning ma'naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida qadrlanib kelingan ma'naviy-ruhiy hatti-harakatlar, narsa va hodisalar majmudir”.

Demak, qadriyatlar inson tomonidan qadrlanadigan narsalar shuningdek, tabiat, ijtimoiy hodisalar, inson hatti-harakatlari va madaniy hodisalar, masalan, texnika yoki san'at asarlaridan iborat bo'lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir (atrof – muhit bilan, insonlar bilan) natijasida vujudga keladigan holatdir. Qadriyatlar mazmunan xilma-xil turlarga bo'linib, turmushning barcha tomonlarini qamrab oladi. Faylasuf olimlar qadriyatlarni xarakteriga ko'ra turlicha tasnif etadilar. Bir guruh faylasuf olimlarning fikrlariga ko'ra, ular “hayot qadriyatlari” va “madaniyat qadriyatlari” dan iborat. Ikkinchi guruhlardagilar esa madaniyatning an'anaviy bo'lishiga asoslanib, qadriyatlarni “moddiy” va “ma'naviy” tarzda tasnif etadilar. Uchinchi guruh tasnifda qadriyatlar “moddiy”, “ma'naviy” va “ijtimoiy – siyosiy” tarzda ifodalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ikkinchi guruh tasnifga asoslanish maqsadga muvofiq. Chunki, hozirgi jamiyat talabiga javob berib shakllanadigan yosh avlodda har ikkala guruhga xos qadriy sifatlar mujassam bo'lmog'i lozim.

Ma'naviy qadriyatlar yosh avlodga xarakteri, qamrovi, shakl va mazmuniga

ko'ra ta'sir etadi. Moddiy faoliyat moddiy qadriyatni yaratishning asosi bo'lib, inson va jamiyat hayoti uchun vosita ishlab chiqarishdan iborat. Ma'naviy faoliyat turli g'oyalar (ilmiy, falsafiy, axloqiy, diniy) yig'indisini tashkil etadi. Har ikkala faoliyat turlari bir-birlari bilan o'zaro bog'liq va hamkorlikda yosh avlod ma'naviyatiga, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir etadi.

Hozirgi vaqtda yosh avlodni urf-odatlar, marosimlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularga foydali tomonlarini ochib berish, o'rgatish davr talabidir. Eng muhimi bolalarning xalqning urf-odat va an'analari hamda umuminsoniy qadriyatlarga qiziqтира bilishimiz zarur.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim muassasasi 'Bolajon' dasturida xalq og'zaki ijodi namunalari salmoqli o'rinni egallagan. Unda, xalq og'zaki ijodidan mehnat qo'shiqlari, topishmoqlar, maqollar, afsonalar, asotirlar, ertak va latifalardan namunalar berilgan. Bevosita, ta'lim-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining yosh avlodni tarbiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish bilan birga, bu borada qo'llanilgan usul, vosita, ko'nikma va malakalar birligini ifodalovchi hissiyotlarini, uning qarashlari va e'tiqodini ham tarkib toptiradi. Bu ikki tomon shaxsni kamolga yetkazishda doimo bir-birini to'ldirib keladi.

Lekin, xalq og'zaki ijodining shaxsning rivojlanishi va shakllanishiga ta'siri ma'lum darajada uning bilimiga ham bog'liq bo'ladi. Borliqni badiiy his etmay, xalq og'zaki ijodining badiiy tili, tasviriy vositalarini tushunmasdan turib shaxsda chuqur fikrlar ham, yuksak tuyg'ular ham qiziqish ham uyg'otish mumkin emas. Shunga ko'ra, qo'shiqlar o'rganilar ekan, dehqonchilik bilan bog'liq qadriyatlar: qo'sh, o'rim, yanchiq yoki xirmon, yorg'ichoq chorvachilik bilan bog'liq charx, bo'zchi, o'rnak, kashtachilik, qo'shiqlarning kuylanishi orqali insonda mehnat zavqi mehnatda yuqori ko'tarinkilik, yuksak kayfiyat paydo qilishda ularning ahamiyatiga e'tibor beriladi.

Ayniqsa, mavsum marosim qo'shiqlardan "Choymoma", "Sust xotin", "Yo, haydar", yig'i-yo'qlovlar bilan bog'lik qadriyatlarni bolalarga tanishtirish ularning g'oyaviy-badiiy qimmatini tushuntirish bolalarda estetik tasavvur, tushuncha va didni shakllantirishda muhimdir. Boychechakning ochilishi, navro'z kelishi, bahor yomg'iri, laylak kelishi, ekinlarning pishib yetilishi, farzand parvarishi, to'y va azalarga qo'shiqlar bag'ishlangan.

Ayniqsa ona allasida mehri daryo, bag'ri keng, quyoshday saxiy ona muhabbati, orzu-istaklari tasviriy bo'yoqlarda ifodalangan. Alla yoqimli kuy bilan ijro etilgan. Onaning nolalari, cheksiz mehri, tengsiz insoniy fazilatlari, xullas, ruhiy olami qo'shilib kuylanadi:

Qo'sh arslon bilaklim,
Botir qoplon yuraklim.

Yaxshi-yomon kunida
Menga jud keraklim.
Alla, bolam, alla-yey,
Jonim bolam, alla-yey.

Go'dakligida ona allasini eshitgan bolalar yana bir karra bu ezgu kuyni eshitib, go'zalligini tasavvur etadilar, ona muhabbati tuyg'usini his qiladilar. Bundan tashqari "Yo, ramazon" qo'shig'idagi ezgu istaklar ifodalangani, tilining ravonligi, yumor bilan yo'g'rilgani, zavq-shavq ifodasi bo'lgan bu qo'shiqning qayta dunyoga kelayotgani ezgulik namunasi ekanligini ham maktabgacha yoshdagi bolalarga katta ta'sir etadi. Shuningdek, bahorda qurg'oqchilik bo'lganda yomg'ir chaqirishga mo'ljallangan "Sust xotin", yoz marosimlarda shamol to'xtashiga bag'ishlangan "Choymoma", "Yo haydar" kabi shamol chaqirishga bag'ishlangan qo'shiqlarda ham ezgu tilaklar, orzu-armonlar ifodalangan badiiy yuksak asarlardir. Ular teatrlashtirilgan mazmun kasb etganligi bilan ham bolalarda qiziqish uyg'otadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. (2019-yil 8-may). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PK-4312-son qaroriga 1-ilova.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti to'g'risida"gi 802-sonli qarori.
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). — Toshkent., 2022.
4. Abdullayev, A. A. (n.d.). Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash.
5. Atadjanova, Sh. Q. (n.d.). Xalq og'zaki ijodi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyasi.
6. Izmailov, A. E. Народная педагогика: педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. 1991., — Moskva: Pedagogika. (76 b.
7. Musurmonova, O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari [Doktorlik dissertatsiyasi]. Nizomiy nomidagi TDPI, — Toshkent: 108 b. 1994.

SOCIAL INNOVATIONS, ALONG WITH CREATIVE AND INNOVATIVE THINKING, REPRESENT NEW APPROACHES IN EDUCATION

Morozova Anastasiya Vladimirovna

Teacher, Department of Practical English

Termez State Pedagogical University

e-mail: anasteywa555@gmail.com

Annotation: This paper explores the role of social innovations in transforming education through the integration of creative and innovative thinking. It highlights how new approaches in education are driven by the need to adapt to a rapidly changing world, where traditional teaching methods are no longer sufficient. The study emphasizes the importance of fostering innovation in both educators and learners to develop more effective, inclusive, and forward-looking educational systems.

Keywords: *social innovation, creative thinking, innovative thinking, education reform, new approaches in education, 21st-century skills, critical thinking, digital literacy, inclusive education, adaptive learning, pedagogical innovation, learner-centered education.*

In today's rapidly evolving world, education must continuously adapt to meet the needs of modern society. Traditional teaching methods are no longer sufficient to prepare students for the challenges of the 21st century. Social innovations, along with creative and innovative thinking, are becoming essential tools in reshaping education systems. These approaches encourage problem-solving, critical thinking, and active participation, creating a more dynamic and inclusive learning environment. This paper explores the significance of these concepts and how they contribute to educational development and transformation.

In the 21st century, education is undergoing a profound transformation driven by technological advancements, global challenges, and evolving societal needs. Among the key forces shaping this change is social innovation — the development and implementation of new ideas, practices, and models that address pressing social issues and improve the well-being of individuals and communities. In the field of education, social innovation plays a crucial role in making learning more inclusive, accessible, and relevant to today's world.

Understanding Social Innovation: Social innovation refers to creative strategies and initiatives that solve social problems in more effective, efficient, or sustainable ways than existing solutions. Unlike traditional innovations, which often focus on economic profit or technological advancement, social innovations

aim to create positive social impact. In education, this may involve new teaching methods, learning environments, community partnerships, or digital platforms that enhance the quality and reach of education. Examples in Education: Many successful examples of social innovation in education can be found globally. For instance, online learning platforms such as Khan Academy or Coursera have revolutionized access to education by offering free or low-cost courses to millions of learners worldwide. Similarly, mobile classrooms and low-tech learning kits have been introduced in remote or underserved areas to overcome barriers related to location, infrastructure, or poverty. Another form of social innovation is inclusive education, which integrates students with diverse needs and backgrounds into mainstream classrooms. Programs that support girls' education in rural regions or those that use culturally relevant materials to engage indigenous students are also important examples. These initiatives often arise from grassroots efforts, driven by educators, NGOs, or local communities who understand the unique needs of their learners.

Benefits of Social Innovation in Education: Social innovations promote equity and participation by recognizing that not all students have equal opportunities. By addressing issues such as gender inequality, language barriers, or disability, these innovations ensure a more just and inclusive education system. They also encourage critical thinking, problem-solving, and creativity skills essential for success in the modern world.

Furthermore, social innovation often fosters collaboration across different sectors government, civil society, private companies, and educators leading to holistic and sustainable solutions. This collaborative approach helps bridge the gap between formal education and real-life challenges, making learning more practical and meaningful. Despite its potential, social innovation in education faces challenges such as limited funding, resistance to change, and lack of policy support. Measuring the long-term impact of such innovations can also be difficult. However, with increased investment, training, and cross-sector partnerships, these obstacles can be overcome. Social innovation is not just a trend but a necessary response to the complexities of modern education. By focusing on inclusion, creativity, and community involvement, it empowers learners and transforms educational systems to better serve society. As we look to the future, fostering social innovation will be key to building a more equitable, dynamic, and resilient education landscape. In an increasingly interconnected and rapidly evolving world, education systems must respond to diverse and complex societal needs. Traditional models of education characterized by standardized curricula, one-size-fits-all instruction, and passive learning are no longer sufficient to equip students

with the skills, knowledge, and mindset needed for the 21st century. In this context, social innovation has emerged as a transformative force in education. It represents not just a shift in what is taught, but how, where, and why learning takes place. Social innovation in education aims to create inclusive, adaptive, and community-driven approaches that address real-world challenges and foster meaningful change. Social innovation refers to new ideas, methods, and solutions that address unmet social needs more effectively and sustainably than existing approaches. In education, social innovations can be seen in various forms: alternative schooling models, community-based learning initiatives, technology-enhanced platforms, inclusive teaching strategies, and policy reforms aimed at reducing inequality. Unlike traditional innovations that often prioritize economic profit or institutional prestige, social innovation is purpose-driven and impact-oriented, placing human and community development at its core.

Social innovation in education is more than just a set of new methods or tools it is a transformative approach that redefines how we perceive teaching, learning, and the role of education in society.. Although challenges such as funding limitations, resistance to change, and policy barriers exist, the long-term benefits far outweigh these obstacles. As we move into an uncertain but opportunity-filled future, embracing social innovation will be crucial to building resilient, equitable, and future-ready education systems. It empowers educators, inspires learners, and strengthens communities—ultimately contributing to a more just and innovative global society.

REFERENCES

1. Mulgan, G., Tucker, S., Ali, R., & Sanders, B. Social innovation: What it is, why it matters and how it can be accelerated. The Young Foundation., 2007.
2. Westley, F., McGowan, K., & Tjörnbo, O. The evolution of social innovation: Building resilience through transitions. Edward Elgar Publishing., 2017.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Trends shaping education 2019. OECD Publishing.
4. UNESCO. Education for sustainable development: A roadmap. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization., 2020.
5. Leadbeater, C. What's next? 21 ideas for 21st century learning., 2008.

BARQAROR RIVOJLANISH JARAYONIDA YOSHLARNING SOG'LOM HAYOT VA EKOLOGIK FAOLLIK TAMOYILLARI

Nazarova Nilufar Jo'rayevna

Toshkent davlat transport universiteti Ijtimoiy
fanlar kafedrası dotsenti (PhD)

e-mail: nazarovanilufar79@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada barqaror rivojlanish jarayonida yoshlarning sog'lom hayot tarziga rioya qilishi va ekologik faolligini oshirish masalalari yoritib berilgan. Unda zamonaviy jamiyatda yoshlarning ekologik ongini shakllantirish, chiqindilarni boshqarish madaniyati va yashil energiya bo'yicha axborot xabardorligini oshirishning dolzarbligi ta'kidlanadi. Shuningdek, ijtimoiy-ekologik amaliyotlarning ahamiyati, yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va sog'lom hayot tarzi bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinib, ilg'or xorijiy tajribalar misolida tavsiyalar berilgan. Maqola yakunida yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish tamoyillarini keng targ'ib qilish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *barqaror rivojlanish, yoshlar salomatligi, ekologik faollik, ijtimoiy moslashuv, ekologik ta'lim, yashil energiya, ijtimoiy-ekologik amaliyot.*

Jamiyat taraqqiyoti murakkab va serqirra jarayon bo'lib, inson uning subyekti sifatida ijtimoiy munosabatga kirishib, jamiyat taraqqiyotiga u yoki bu darajada ta'sir o'tkazadi, ya'ni bu ta'sir natijalarining xarakteri inson ongi va tafakkuri (ratsional asoslari) hamda amaliy o'zgartiruvchan (irratsional faoliyati) orqali amalga oshiriladi[9]. Professor J.Matkarimovanning yozishicha, "Jamiyat – umumiy hudud, umummadaniy qadriyatlar, ijtimoiy-huquqiy me'yor jihatlari bilan ajralib turuvchi a'zolariga ega mustahkam uyushmadir"[6]. Bu jarayonda yoshlar ijtimoiy demografik guruh sifatida faol ishtirok etib, jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'ringa ega bo'ladi. Zero, "jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida: ham individual va ijtimoiy, mikro va makro darajalarda amalga oshirilayotgan nazariy va amaliy ishlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va ko'lami, yo'nalishlari, bosqichlari va usullari, bu jarayonlarning istiqbollari, shuningdek jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar xarakteri, ularning kelgusi taraqqiyot bosqichlari"[5] va Yangi O'zbekiston istiqboli bevosita yoshlarga bog'liqligini inobatga olsak, yoshlarning yoshlarning sog'lom hayot va ekologik faollik tamoyillarini shakllantirish masalasini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish dolzarbligini ko'rsatadi.

Professor M.Bekmurodov yozishicha, "Ijtimoiy rivojlanish g'oyasini hayotga joriy etishdagi yana bir yondashuv emerjentlik nazariyasidir. Emerjentlik – bu yuz

berayotgan o'zgarishlar, shakllanib kelayotgan ijtimoiy jamoalar, dunyoqarashlar, ijtimoiy fikr yo'nalishlari jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy holatlarni ifodalaydi. Ayni vaqtda odamlarning aksariyati yuz berayotgan mohiyatan yangi sifat o'zgarishlaridagi jarayonlarni teran anglamagan holda yashaydilarki, bu holat jamiyatga turli negativ tashqi ta'sirlar eshigini keng ochib beradi"[3]. Shu boisdan ham jamiyat hayotida ro'y berayotgan jarayonlarni tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlagandek: "Dunyoda globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi vaziyatda barcha sohalarida yuksak bilimli kadrlarni tayyorlamasak, taraqqiyotdan ortda qolib ketishimiz mumkin"[8]. Negaki, "mamlakatimiz aholisining qariyb 55 foizini, 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etib, ularning soni 18 milliondan ziyod"[7] ligini e'tiborga olsak, bu jihat jamiyatimizning barcha soha va tarmoqlarni rivojlantirishda katta tayanch va bebaho xazina sifatida e'tirof etish imkonini beradi.

Dunyo barqaror rivojlanishni ilgari surish bo'yicha misli ko'rilmagan vazifaga duch kelmoqda va bu jarayonda yoshlarning o'rni tobora muhimlashib bormoqda. 2050-yilga kelib, jahon aholisi 9,7 milliardga yetishi kutilayotgani va aholining deyarli yarmini yoshlar tashkil etishi, ularning barqaror rivojlanish yo'lidagi sa'y-harakatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega[2]. Shuningdek, yoshlarni o'zgarishlar tashabbuskori bo'lishga ruhlantirish zarurligi oshib bormoqda. "BMTning Taraqqiyot dasturi dunyo bo'ylab 170 dan ortiq mamlakatda o'z faoliyatini amalga oshirmoqda. O'zbekistonda ham mazkur dastur doirasida aholining yashil energiyadan foydalanish, energotejamkor uy-joylar barpo etish va bunda sarf-xarajatlarni minimal darajada qisqartirish bo'yicha ko'nikmalarini oshirish asosiy maqsad etib belgilangan"[4]. Mamlakatimizda ushbu loyiha doirasida bir qator ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, yoshlar orasida bunday loyiha va dasturlar haqida ma'lumotga ega bo'lmaganlar soni yuqoriligini kuzatish mumkin. Chunki kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim yoshlar atrof-muhitga befarq munosabatda bo'lib, chiqindi tashlash madaniyatiga yetarlicha ega emaslar. Shu bilan birga, sog'lom turmush tarzini yuritish borasida ham ma'lum kamchiliklar mavjud. Fastfudlar bilan ovqatlanish, gazli ichimliklarni doimiy iste'mol qilish ko'payib bormoqda.

Yoshlar uchun barqaror rivojlanishni tushunishning dastlabki qadami uning atrofidagi masalalardan xabardor bo'lishdir. Bu iqlim o'zgarishining ta'sirini, tabiiy boyliklarimizning turli yo'llar bilan tugab borayotganini va aholi sonining keskin o'sishi oqibatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Yoshlar muammolar haqida asosiy tushunchaga ega bo'lgach, o'z ta'sirlarini kamaytirishi va barqaror rivojlanishga hissa qo'shish yo'llarini izlab topishlariga yo'naltirish lozim.

Yoshlarning barqaror rivojlanishga qo'shadigan eng muhim hissalaridan biri o'z iste'mol odatlariga e'tiborliroq bo'lishdir. Bu bir martalik plastik mahsulotlardan

foydalanishni kamaytirish, ortiqcha qadoqlangan mahsulotlarni sotib olishdan saqlanish va kundalik hayotda qancha energiya sarflayotganini ko'proq anglashni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, yoshlar daraxt ekish, mahalliy bog'larni tozalashda ko'maklashish va mahalliy barqaror korxonalarni qo'llab-quvvatlash kabi ekologik tashabbuslarida ishtirok etishlari uchun amaliyotlar joriy etish muhim sanaladi.

"Ijtimoiy-ekologik amaliyotlar – bu insonlar va ularni o'rab turgan tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlarini aks ettiruvchi o'zaro bog'liq elementlar majmuasidir. Ijtimoiy-ekologik amaliyot elementlari quyidagi o'zaro aloqador tarkibiy qismlardan tashkil topgan tizimni hosil qiladi:

1) Bilish komponenti (insonning tabiat va u bilan o'zaro munosabati, atrof-muhitdagi xavf-xatarlar va xavfsiz xulq-atvor asoslari haqidagi tasavvurlari);

2) Qadriyat-motivatsion komponent (ijobiy ijtimoiy amaliyotlarga nisbatan barqaror ichki intilish);

3) Xulq-atvor komponenti (o'z faoliyatida orttirilgan tajriba, ko'nikma va bilimlarni amalda qo'llash)"[1].

Janubiy Koreya davlati universitetlarida mazkur ijtimoiy-ekologik amaliyotlar talaba-yoshlarga keng joriy etilib kelinmoqda. Xususan, Koreya davlatidagi turli ishlab chiqarish kompaniyalari homiyligida turli tanlov, festivallar o'tkazilib kelinadi. Bunda talabalar ishtiroki rag'batlantiriladi va ularning g'oyalaridan keng foydalaniladi. Bizda ham ko'plab ishlab chiqarish korxonalari bilan OTMda tahsil olayotgan yoshlar hamkorligi yo'lga qo'yilsa, yangi innovatsion g'oyalar, startap loyihalar va ekologik tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi. Shu orqali, bir tomondan, yoshlarning ish bilan bandligi ta'minlansa, ikkinchi tomondan, mamlakatimizning sanoat va ekologik salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi yangi g'oya va loyihalar vujudga keladi. Bundan tashqari, yoshlarda mas'uliyat tuyg'usi, atrof-muhitga e'tiborli munosabat va jamoaviy ish ko'nikmalari shakllanadi. Mazkur hamkorliklar, ayniqsa, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, ishlab chiqarish korxonalari, davlat tashkilotlari va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlikka asoslangan doimiy platforma va loyihalar tashkil etish zarur. Bu esa zamonaviy bilim va amaliyotni uyg'unlashtirgan, faol, tashabbuskor va mas'uliyatli yoshlar avlodini shakllantirishga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning salomatligini mustahkamlash, ularning ijtimoiy hayotga moslashuvi va ekologik faolligini oshirish orqali jamiyatning sog'lom va barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu borada davlat va jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari va ota-onalar hamkorligida izchil ish olib borilishi lozim. Buning uchun esa:

birinchidan, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish;

ikkinchidan, ijtimoiy moslashuvni yengillashtirish uchun psixologik xizmatlarni kengaytirish;

uchinchidan, ekologik ta'lim va tarbiyani takomillashtirish, yoshlarni ekologik tadbirlarga jalb etish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shutaleva, A., Martyushev, N., Nikonova, Z., Savchenko, I., Abramova, S., Lubimova, V., & Novgorodtseva, A. (2022). Environmental behavior of youth and sustainable development. *Sustainability*, 14(250). <https://doi.org/10.3390/su14010250>
2. The role of youth in sustainable development. (n.d.). YAD Pakistan. Retrieved from <https://www.yad-pk.org/the-role-of-youth-in-sustainable-development/>
3. Bekmurodov, M. (2019). Ижтимоий ривожланиш жараёнларининг социологик асослари. In *Ахборотлашган жамиятда замонавий социологиянинг долзарб масалалари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари* (pp. 22–25). Toshkent: O'zMU.
4. BMTning taraqqiyot dasturi: O'zbekistonda bu qanday ishlayapti? (2024, 4-sentabr). Retrieved from <https://kun.uz/kr/news/2024/09/04/bmtning-taraqqiyot-dasturi-ozbekistonda-bu-qanday-ishlayapti>
5. Mamashokirov, S., & Tog'ayev, Sh. (2007). *Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari*. Toshkent: Ma'naviyat. (9-bet.)
6. Matkarimova, J. (2020). *Zamonaviy jamiyatda yoshlar va huquq: Monografiya*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. (32-bet.)
7. Mirziyoyev, Sh. (2021, 27-yanvar). "Mamlakatimizda yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari"ga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutq. Retrieved from <https://yuz.uz/news/yoshlar-bilan-manzilli-va-tizimli-ishlash-boyicha-dolzarb-vazifalar-belgilandi>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning (2020, 25-dekabr). Yoshlar forumidagi nutqi. Retrieved from <https://yuz.uz/news/vstuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyoeva-na-forume-molodeji-uzbekistana>
9. Yazdonov, U. T. (2020). Ижтимоий онг шакллариинг жамоатчилик

фикрини ташкиллаштириш, бошқариш ва назорат қилишдаги функционалаҳамияти:Фандоктори (DSc)диссертациясиавтореферати. Samarqand. (13-bet.)

MAKTABLARDA AIRLITE BO'YOQLARI ORQALI HAVO TOZALASH: RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI

O'tkir Odiljonov

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
markazi bo'limi boshlig'i
e-mail: rustamjon.utkir86@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Airlite fotokatalitik bo'yoqlari yordamida maktab sinf xonalari va binolarida havo sifati qanday yaxshilanishi mumkinligi, rivojlangan mamlakatlardagi joriy etish tajribasi, iqtisodiy va sog'liq uchun afzalliklari tahlil qilingan. Ilmiy manbalar va aniq misollar orqali ushbu yechimning amaliy samarasi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *Airlite, fotokataliz, havo tozalash, maktab muhiti, ekologiya, energiya tejamkorlik.*

Havo sifati maktab sinf xonalarida o'quvchilar salomatligi va o'qish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, bolalar havo ifloslanishiga kattalarga nisbatan sezgirroq bo'lib, yomon havo ularning o'sishidan tortib aqliy rivojlanishigacha bir qator muammolar keltirib chiqaradi. Masalan, ventilyatsiya tizimi yaxshi ishlamaydigan (yoki mavjud bo'lmagan) sinflarda o'quvchilarning akademik o'zlashtirish natijalari pastroq bo'lishi aniqlangan – tashqi havo aylanish tizimi yaxshi bo'lgan sinflarda o'quvchilar matematika va o'qish fanlari bo'yicha yuqoriroq ball olishgan. Shu bois so'nggi yillarda sinf xonalar havosini yaxshilashga qaratilgan yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Airlite bo'yog'i – shulardan biri bo'lib, u devor va shiftlarni oddiy bo'yoq kabi surkash orqali havoni faol tozalaydigan zamonaviy usul sifatida taklif etilmoqda. Quyida Airlite bo'yoqlarining texnologik asosi, uning ekologik va sog'liq uchun ahamiyati, maktab hamda jamoat binolarida xorijdagi qo'llanish tajribalari, iqtisodiy samaradorligi va o'quvchi-xodimlar uchun foydalari tahlil qilinadi.

Airlite bo'yoqlarining ishlash mexanizmi va texnologik asosi

Airlite – bu ichki va tashqi devorlarga surtish mumkin bo'lgan maxsus bo'yoq bo'lib, unda havoni tozalash xususiyati bor. Uning asosiy ishlash prinsipi fotokatalizga asoslangan bo'lib, bu tabiatda kuzatiluvchi va havodagi ifloslantirgichlarni parchalaydigan reaksiyadir. Airlite tarkibidagi titaniy dioksidi (TiO_2) nanozarrachalari

yorug'lik tushganda faollashib, bo'yoq yuzasida elektronlar ajralib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu elektronlar havodagi namlik (H_2O) bilan o'zaro ta'sirga kirishib, yuqori reaksiyaga kiruvchi qisqa umrli gidroksil radikallarini (OH) hosil qiladi. Hosil bo'lgan radikallar esa havodagi zararli moddalarga (masalan, azot oksidlari NO_x , uchuvchan organik birikmalar VOC va boshqalar) hujum qilib, ularni beozor komponentlarga aylantiradi. Natijada devorda Airlite bo'yog'i qoplamasi bor joyda yorug'lik va namlik mavjud ekan, havo tarkibidagi turli zararli gazlar va moddalar doimiy ravishda neytrallasadi.

Airlite texnologiyasi tabiatdagi havoni tozalash jarayonini devorga "ko'chiradi". Yer atmosferasida quyosh nurlari ta'sirida hosil bo'luvchi manfiy zaryadli ionlar havodagi ifloslanish, bakteriya va yoqimsiz hid molekulalarini neytrallashtiradi. Airlite bo'yog'i xuddi shu prinsip asosida ishlab chiqilgan: yorug'lik energiyasi va havo namligidan foydalanib, yuzada manfiy zaryadli ionlar hosil qiladi, ular esa toksik ifloslantirgichlar, virus va bakteriyalar hamda hidlarni parchalab bezarar holga keltiradi. Shu tariqa Airlite bo'yalgan devorlar yorug'lik tushganda atrofida "ion pardasi" hosil qiladi, bu parda havodagi zararli zarrachalarni o'ziga tortib neytrallashtiradi. Muhimi, bu bo'yoq tarkibida hech qanday antibakterial kimyoviy qo'shimchalar yoki biotsikllar yo'q – uning antimikrob xususiyati fotokatalitik reaksiyaning o'ziga bog'liq va vaqt o'tishi bilan pasayib ketmaydi.

Bo'yoqning tarkibiy asosi ham an'anaviy bo'yoqlardan mutlaqo farq qiladi. Oddiy bo'yoqlar erituvchi kimyoviy moddalar (achchiq hidli VOClar) asosida tayyorlanadi va surkagandan keyin uzoq vaqt davomida havoga ushbu zararli moddalarni chiqarib turadi – ya'ni oddiy bo'yoqning o'zi ham ifloslanish manbai hisoblanadi. Airlite esa kalsiy bazasidagi (marmar toshni qayta ishlashdan qolgan mahsulot) poroshok ko'rinishidagi bo'yoq bo'lib, uni suv bilan aralashtirib surtiladi. Umuman yorqin hidsiz, tarkibida uchuvchan organik moddalar umuman yo'q. Shu bois hududi yangi bo'yalgan bino havosi ham toza bo'lib, darhol foydalanishga muhit tayyor bo'ladi. Airlite tarkibidagi nanokatalizatorlar bo'yoq qatlami ichida mahkam o'rnashgan va havoga ajralib chiqmaydi, shuning uchun inson salomatligiga ta'sir qilmaydi. Bunda fotokatalitik reaksiyani yuzaga chiqarish uchun faqat yorug'lik (quyosh nuri yoki UB-nurlar) va havo namligi talab etiladi. Qo'shimcha energiya yoki uskuna kerak emas. Ishlab chiqaruvchilar ma'lumotiga ko'ra, Airlite bo'yog'i o'z xususiyatlarini kamida 10-yil davomida saqlab qoladi. Demak, bir marta bo'yalgan devor uzoq muddat davomida xuddi filtr singari havodan zararli g'ubor, tutun va gazlarni "yutuvchi" vazifasini bajaradi.

Airlite bo'yog'ining ekologik va sog'liqqa ta'siri

Airlite bo'yog'i havo sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan innovatsion mahsulot bo'lib, uning samaradorligi bir qator ilmiy sinov va tadqiqotlar bilan

tasdiqlangan. Laboratoriya sharoitida o'tkazilgan tahlillarga muvofiq, Airlite qoplamali yuzalar azot oksidlari (NOx) miqdorini nazorat namunasiga nisbatan 45% ga ko'proq pasaytirgan, uchuvchan organik moddalar miqdorini esa 20% ga ko'proq kamaytirgan. Ya'ni, Airlite bo'yalmagan oddiy yuzada passiv yoki tabiiy yo'l bilan zararli gazlar ma'lum vaqtda ma'lum miqdorga kamaygan bo'lsa, Airlite qoplamasi bilan bunda sezilarli darajada katta qo'shimcha reduksiya qayd etilgan. Yevropada 2007-yilda Italiyaning Rim shahrida ifloslangan tunnelni Airlite bo'yog'i bilan qoplash orqali o'tkazilgan ilk tajriba ham yuqori natija bergan – tunnel markazida azot dioksidi konsentratsiyasi 20% ga tushgani qayd etilgan. Bu Airlitening haqiqiy muhitda ham ifloslanishni sezilarli darajada kamaytirish qobiliyati borligini ko'rsatadi.

Airlite havodagi zararli gazlargina emas, balki biologik xavfli zarrachalarga nisbatan ham ta'sirchan. Fotokatalitik reaksiya natijasida hosil bo'lgan gidroksil radikallari va manfiy ionlar bakteriyalar, zamburug' sporolari va viruslarning tuzilishiga zarar yetkazib, ularni bartaraf etadi. London shahrida o'tkazilgan tajribalar Airlite bo'yog'i surkalgan xonalarda bakteriya va zamburug'lar 99,9% ga yo'q qilinganini ko'rsatgan. Yevropa Ittifoqi ko'magida amalga oshirilgan tadqiqot xulosalariga ko'ra esa, mazkur bo'yoq yuzasidagi bakteriya va viruslar 99,9% o'ldiriladi hamda qoldiq sporolari ko'payishiga yo'l qo'yilmaydi. COVID-19 pandemiyasi davomida havodagi viruslarga qarshi kurashishda fotokatalitik qoplamalarning samarasi yanada dolzarb bo'ldi – Yaponiyada ilmiy tadqiqotlar titaniy dioksidi asosidagi fotokataliz texnologiyasi SARS-CoV-2 (kovid) virusini ta'sirsizlantirishga ham samarali ekanini tasdiqladi. Shu ma'noda, Airlite kabi bo'yoqlar diqqatga sazovor, chunki ular devorlarni dezinfektsiyalovchi doimiy yuzaga aylantiradi.

Airlite bo'yog'ining yana bir ekologik foydasi – hid va g'uborlarni kamaytirishidir. Bo'yalgan xonalarda tamaki yoki boshqa chiqindi hidlari tez neytrallashadi va havo toza holatda saqlanadi. Shu bilan birga, bo'yoq yuzasi kir va changning yopishishini qiyinlashtiradigan himoya qatlami hosil qiladi. Demak, bunday devorlar o'z-o'zini tozalashga moyil: chang kamroq o'rnashadi, qoladigan kir qatlamlar ham kamayadi. Airlite tashqi fasadlarda qo'llanilganda esa qo'shimcha ravishda quyosh nurlarini aks ettirib, binolarning yozgi isishi pasayishiga yordam beradi – bu esa energiya tejamkorligiga xizmat qilib, konditsionerga sarflanadigan elektr energiyasini va atmosferaga SO₂ chiqindilarini kamaytiradi (hisob-kitoblarga ko'ra 29% gacha havo tozalash tizimi xarajatlarini qisqartirish mumkin). Binobarin, Airlite nafaqat inson salomatligi uchun, balki atrof-muhit uchun ham ko'p qirrali ijobiy ta'sirga ega deb xulosa qilish mumkin: havoni tozalaydi, binolar mikroklimatini yaxshilaydi va chiqindilarni pasaytiradi.

Maktab va jamoat binolarida qo'llash bo'yicha xorijiy tajriba

Airlite bo'yoqlaridan foydalanish g'oyasi ilk bor Yevropada paydo bo'lib,

hozirgi kunda dunyoning turli rivojlangan mamlakatlarida amaliy tajribalar orqali sinovdan o'tkazilmoqda hamda kengroq joriy etilmoqda. Jumladan, quyida ayrim mamlakatlardagi tajribalar keltiriladi:

- Italiya: Airlite texnologiyasi aynan Italiyada yaratilgan va ilk marotaba shu yerda sinovdan o'tkazilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, 2007-yilda Rimdagi Traforo Umberto I tunneli Airlite bilan bo'yalganida, tunnel ichidagi NOx gazlari 20% ga kamaygani rasman qayd etilgan. Shundan so'ng bu bo'yoq Italiyaning o'zida turli joylarda qo'llanildi: ayrim kasalxonalar, ofislar va maktablarning ichki devorlari Airlite bilan bo'yaldi va havo sifati sezilarli yaxshilandi, deb xabar berilgan. Masalan, Rimdagi bino devorida Airlite bo'yilib yaratilgan Yevropadagi ilk "smog yeyuvchi" rasm ham keng e'tiborga tushgan – ushbu 100 m² maydondagi devor kartina nafaqat estetik, balki har kuni havodan kunda tonnalab zararli gazlarni o'ziga yutib turish xususiyatiga ega. Italiya tajribasi shuni ko'rsatdiki, bu innovatsiya jamoat joylarida havo sifati muammosini hal etishda samara berishi mumkin.

- Buyuk Britaniya: Yevropada Airlite keng qo'llanayotgan mamlakatlardan yana biri – Buyuk Britaniya. Londondagi Halcyon International School mamlakatda Airlite bo'yog'ini qo'llagan birinchi maktab hisoblanadi. Maktab binosini qayta bo'yash zarurati tug'ilganida, ular ekologik toza va foydali yechim izlab Airliteni tanlashdi. Bo'yashdan so'ng amalga oshirilgan monitoringlar binoda havo sifati yaxshilangani va hidlar kamayganini ko'rsatdi. Maktab rahbariyatining ta'kidlashicha, bu innovatsiya o'quvchilar farovonligi va atrof-muhitga hissa qo'shishi bilan ularni qoniqtirgan, chunki bino ichida havo yanada toza bo'ldi va hatto binoda qoladigan ba'zi hidlar barham topdi. Buyuk Britaniya hukumati ham havo ifloslanishini kamaytirish yo'llarini qidirib, Airlite bo'yoqlarini turli davlat obyektlarida sinab ko'rdi. Londondagi bir davlat idorasi binosida 31 m² maydonli xona Airlite bilan bo'yaldi va shu binodagi shunga o'xshash boshqa xona oddiy bo'yoq bilan bo'yalgan holda solishtirildi – natijada Airlite bo'yalgan xonaning havosida NOx 50% dan ortiqqa kamaygani qayd etildi. Yana bir tajriba sharoitida (East London, Jo Richardson Community School maktabgacha ta'lim tashkilotlarining guruh xonasi) Airlite bo'yalgan sinfda bir oydan so'ng azot dioksidi 96,4% ga pasaygani, uchuvchan organik moddalar 98% ga kamaygani o'lchangan, shuningdek, an'anaviy bo'yoqqa nisbatan hech qanday xavfli chiqindi chiqarmasligi va bo'yoqning uglerod izi 67% ga kamroq ekani aniqlangan. Bu natijalar Airlite texnologiyasi bolalar maskanlarida haqiqatan katta samara berishini va havo tarkibini me'yorga keltirib, bolalar nafas oladigan muhitni tubdan yaxshilashini ko'rsatadi.

- Germaniya: Germaniyada ham maktab va jamoat joylarida havo sifatiga katta e'tibor qaratiladi va shu bois fotokatalitik bo'yoqlardan foydalanishga qiziqish ortmoqda. Mamlakatda KEIM kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Ecosil®-ME kabi fotokatalitik ta'sirga ega ichki bo'yoqlar mavjud. Bu bo'yoq

devorlardagi zararli gazlar va hidlarni neytrallashtirishga yordam beradi hamda bakteriya va zamburug'larning o'sishini sezilarli darajada cheklaydi. KEIM Ecosil-ME dezinfeksiyalovchi vositalarga ham chidamli bo'lib, allergiyasi bor insonlar va bolalar muassasalari uchun mosligi sertifikatlangan. Hozircha Airlite brendi Germaniya bozorida rasman keng tarqalmagan bo'lsa-da, mavjud mahalliy analoglar orqali mamlakatda maktab, bolalar bog'chasi va shifoxona kabi joylarda havoni fotokatalitik tozalash amaliyotida qo'llab kelmoqdalar.

- Yaponiya: Yaponiyada fotokataliz sohasi ilmiy va sanoat yo'nalishida juda rivojlangan. Titaniy dioksidi orqali fotokatalitik effekt birinchi bor aynan yaponiyalik olim Akira Fudjishima tomonidan kashf etilgani bejiz emas – bu texnologiya hozir Janubiy-Sharqiy Osiyoda, xususan Yaponiyada jahon darajasidagi “toza texnologiya” sifatida tan olingan. Yaponiyada ko'plab binolar tashqi fasadi o'z-o'zini tozalaydigan fotokatalitik qoplamalar bilan qoplangan, shuningdek, ichki sharoitda ham bakteriya va viruslarni yo'q qiluvchi maxsus qoplamalardan foydalanilmoqda. Masalan, 2020-yilda Osakadagi Kaltech kompaniyasi devorga o'rnatiluvchi fotokatalitik havo tozalagich uskunasi orqali COVID-19 virusini mahalliy sharoitda yo'q qilish bo'yicha ilk muvaffaqiyatli sinovlarni o'tkazgan edi. Yaponiya maktablarida ham pandemiyadan so'ng havo tozalashga doir qo'shimcha choralar qabul qilindi. Ayrim o'quv maskanlari an'anaviy havo almashinuv tizimlariga qo'shimcha ravishda fotokatalitik filtrlarga ega qurilmalar o'rnatdi. Airlite brendi Yaponiyada rasman sotuvga chiqmagan bo'lsa-da, u yerdagi umumiy tajriba shundan iboratki, fotokataliz texnologiyalari havo tozalash, suvni zararsizlantirish va hatto yuqumli kasalliklar profilaktikasida keng qo'llanilmoqda. Shu bois Yaponiya tajribasi Airlite kabi bo'yoqlar uchun ham ilmiy asos yaratib bergan desak bo'ladi.

- AQSH: Amerika Qo'shma Shtatlarida so'nggi yillarda maktab va idoralardagi havo sifatiga jamoatchilik e'tibori orta boshladi. Ayniqsa COVID-19dan keyin maktablarni ventilyatsiyalash va havodagi viruslarni filtrlash masalalari kun tartibiga chiqqan. Airlite hali AQSH bozorida ancha keng tarqalmagan bo'lsa-da, kompaniya mahsulotni Amerika standartiga moslashtirish va sertifikatlash jarayonlarini yakuniga yetkazmoqda. Ayrim xususiy uylar va tijoriy ofislarda Airlite yoki shu kabi havo tozalovchi bo'yoqlar qo'llana boshlangani xabar qilingan. Masalan, AQSHdagi ba'zi startap kompaniyalar mahalliy iqlim va bozorga mos o'z fotokatalitik bo'yoqlarini ishlab chiqmoqda – ularning ba'zilar 5–8-yil davomida 99% gacha VOC va zararli gazlarni parchalash xususiyatini reklama qilmoqda. Shuningdek, yirik bo'yoq ishlab chiqaruvchilar (masalan, Sherwin-Williams) ham “havo tozalovchi bo'yoq” turlarini chiqara boshladi, demak bu bozor AQSHda ham rivojlanmoqda. Kutilmaganda, pandemiya sharoiti bolalar ta'lim muassasalari havosini yaxshilashda bunday innovatsion bo'yoqlarning ahamiyatini AQSHda ham ochib berdi – masalan,

Kaliforniya va Florida kabi shtatlarda ayrim maktab okruglari sinf xonalari devorlarini qayta bo'yashda kamida VOCsiz (yoki havo tozalash xossaga ega) bo'yoqlar talabini qo'yishmoqda. Yaqin kelajakda Airlite AQSH bozorida ham rasman tasdiqlanib, maktab va kasalxonalarda qo'llanishi kutilmoqda.

Yevropa Ittifoqi miqyosida Airlite bo'yog'iga qiziqish yuqori darajada: u Ispaniya, Italiya, Portugaliya va Buyuk Britaniyada sotuvda mavjud bo'lib, qolgan davlatlarga ham kengayib bormoqda. Xulosa qilish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda Airlite va o'xshash texnologiyalarga doir dastlabki tajribalar ijobiy natija bermoqda. Maktab, shifoxona, aeroport, ofis kabi muhitlarda havo sifati sezilarli yaxshilangani, vaholanki bu oddiy bo'yoq surtishdek ko'ringan oddiy chora bilan erishilgani, innovatsiya kelajagi porloqligidan dalolat beradi.

Qo'llashning iqtisodiy samaradorligi

Yopiq binolarda havo tozalashning an'anaviy usullari (ventilyatsiya tizimlari, filtrlar, havo tozalagich priborlar) ma'lum darajada qimmat va energiya talab qiluvchi bo'lishi mumkin. Airlite bo'yog'i esa bino inshootiga integratsiyalashgan yechim sifatida iqtisodiy jihatdan ham jozibador. Birinchidan, uning boshlang'ich qiymati oddiy yuqori sifatli interyer bo'yoqlariga yaqin – ya'ni loyiha uchun maxsus qimmat uskuna yoki material talab etilmaydi. Buyuk Britaniyada Airlite bo'yoqlarining narxi standart devor bo'yoqlari bilan taqqoslanadi va uni bo'yoqchilar odatdagi valik yoki bo'yoq pulverizatori bilan surkashi mumkinligi aytilgan. Demak, o'rnatish uchun qo'shimcha mehnat yoki malaka talab qilinmaydi, bu esa katta loyihalarda muhim omil.

Ikkinchidan, Airlite energiya tejaydi va xarajatlarni pasaytiradi. Tashqi fasadlarga surtilganda bo'yoq yuzasi quyosh nurining katta qismini aks ettirib, binolarni havo tozalash tizimi xarajatlarini 20-30% ga kamaytishi mumkinligi hisoblangan. Masalan, iliq iqlimli shaharda maktab binosi Airlite bilan tashqi tomonlardan bo'yalsa, yoz oylarida xonalarning harorati bir necha darajaga pastroq saqlanishi mumkin – bu esa konditsionerlar kamroq ishlashi va elektr energiyasi tejaliishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, Airlite uzoq muddatli mahsulot: uning havo tozalash xossalari kamida o'n yil davomida saqlanib qolishi tasdiqlangan. Oddiy bo'yoqlar esa ko'pincha 3-5-yilda yangilanishi kerak bo'ladi; Airlite holatida esa qayta bo'yash sikli uzunligi sababli uzoq muddatda xarajat tejiladi.

Uchinchidan, Airlite bo'yog'i ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi. Bino ichida havo tozalagich elektr asboblari ehtiyojni qisqartirishi mumkin (chunki devorning o'zi havoni filtrlashiga yordam beradi). Shuningdek, Airlite qoplamasi devorlarning kirlanishini kamaytirishi sabab ularni tozalash va dezinfektsiyalashga sarflanadigan mehnat va mablag' qisqaradi. Masalan, oddiy bo'yoq surilgan maktab sinfxonasida yil davomida devorlarda yog' tushishi, qoldiqlar yopishishi mumkin va ma'lum

vaqtda qayta quruq tozalash yoki bo'yash talab etiladi. Airlite bo'yalgan xonalarda esa devorlar o'zini o'zi tozalab turushi va mikroblarni o'ldirishi bois, qo'shimcha xizmat ko'rsatish ehtiyoji kamayadi. Bundan tashqari, Airlite ekologik toza bo'lgani uchun tizim sertifikatlarida imtiyozlar beradi: masalan, u xalqaro WELL standartining havo sifati, VOCni kamaytirish kabi talablariga javob berib, binolarning ekologik sertifikat olishida ball to'plashga yordamlashadi. Binoning "yashil" sertifikatlarga ega bo'lishi esa ayni paytda ko'p mamlakatlarda iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlanadi (soliq imtiyozlari, grantlar va h.k.).

Yana bir iqtisodiy samarasi – Airlite bo'yog'i suyuqlik shaklidagi kukun shaklida sotiladi, ya'ni tashish va saqlash arzonroq hamda ishlashidan keyin hech qanday xavfli chiqindi qoldirmaydi. Masalan, Buyuk Britaniyada bir kichik obyektida o'tkazilgan sinovda Airlite va oddiy bo'yoq qiyoslanganida, Airlite qo'llanilishi natijasida 5 kilogrammga yaqin xavfli bo'yoq chiqindisi oldini olingani va 20 gramm atrofida uchuvchan organik moddalar chiqarilmagani hisoblab chiqilgan. Bu esa chiqindilarni utilizatsiya qilish xarajatini ham tejashini anglatadi. Shu tariqa, Airlite iqtisodiy samaradorligi bir necha jabhada namoyon bo'ladi:

- o'rnatish qiymatining pastligi;
- energiya va kommunal to'lovlarni tejash;
- xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish;
- ekologik imtiyozlarni qo'lga kiritish.

O'quvchilar va xodimlar uchun foydalari

Ilmiy manbalarda Airlite bo'yog'ining inson salomatligi va maktab muhiti uchun bir qator bevosita va bilvosita foydalari ta'kidlangan. Eng asosiy jihati – sinf havosining tozaligi ta'minlanadi. Havoda azot dioksidi, formaldegid, benzol kabi ko'zga ko'rinmaydigan xavfli gazlar yoki allergiya chaqiruvchi moddalar yo'q qilinsa, bolalar va o'qituvchilarning nafas yo'llari sog'lomroq bo'ladi. Masalan, bolalar orasida keng tarqalgan astma kasalligi ko'pincha maktabdagi chang, qoldiq hidlar va qolip zanglari bilan bog'liq yomon havo bilan kuchayadi. AQSH ekologik agentligi ma'lumotlariga ko'ra, binolarda namlik va qolip (plesen) mavjud bo'lsa, uy yoki makondagilarning astma va nafas yo'llari kasalligi xavfi 30-50% ga oshar ekan. Airlite esa qolip zanglari paydo bo'lishini deyarli bartaraf etadi va devorlarda hidlanuvchi bakteriyalarning ko'payishiga to'sqinlik qiladi. Bu bolalar uchun nafas olish yengillashishi, allergiya holatlarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Xususan, Airlite bilan bo'yalgan bolalar bog'chalari xonalarida havodagi mikroba va zamburug'lar yo'q qilingani bolalarni turli yuqumli kasalliklar (masalan, mavsumiy gripp) tarqalishidan ham himoyalashga hissa qo'shadi, chunki virus va bakteriyalarning katta qismi devor yuzasiga tushganda neytrallashadi.

Maktab xodimlari – pedagog kadrlar va personallar – uchun ham havoning

toza bo'lishi ishlash samaradorligi va salomatlik jihatidan juda ahamiyatli hisoblanadi. Toza havo va yaxshi ventilyatsiya o'qituvchilarning ish qobiliyatini oshiradi: yomon havoda sersuvlik, charchoq va diqqat pasayishi kuzatilsa, toza havoda odam o'zini yaxshiroq his qiladi. Hatto havo harorati va tozaligining ozgina o'zgarishi o'qituvchi hamda o'quvchilarning aqliy ishlarini bajarish qobiliyatiga ta'sir etishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Demak, Airlite kabi texnologiya orqali sinfda havo tarkibi me'yorlashsa, o'quvchilarning darsda diqqati yaxshilanishi, xastalanib dars qoldirish holatlari kamayishi mumkin. Havosi toza maktablarda o'rtacha davomat yuqoriroq va o'quvchilarning dars qoldirish ko'rsatkichi pastroq bo'lishi ham kuzatilgan – masalan, AQSHda o'tkazilgan tahlillarda havo muhiti sof maktablarda har 1000 o'quvchiga 4-5 taga ko'proq bola doimiy qatnashishi va har 1000 o'quvchiga ta'tilni tashlab ketish (o'qishdan chiqish) holati 10-13 taga kamroq ekani aniqlangan. Albatta, bunda faqat havo emas, balki umumiy maktab sharoiti hissasi bor, lekin havo sifati asosiy omillardan biri ekani ayon bo'lgan. Shuning uchun, Airlite bo'yog'i orqali havoning tozalanishi o'quvchilarning uzluksiz darsga qatnashuvi va ularning o'qish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Psixologik jihatdan ham toza havo muhiti odamni tinchlantirib va stressning kamayishiga olib keladi. Musaffo havoda nafas olish insonning asab tizimiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi, stress gormonlarini kamaytirishi bir necha tadqiqotlarda ta'kidlangan. Airlite bo'yog'i bilan bo'yalgan xonalarda atrofdagi yoqimsiz hidlar (masalan, sinfdagi ko'p bolalar bo'lganida chiqadigan og'ir havo yoki qo'llanilgan kimyoviy moddalar hidi) neytrallashib ketadi. Bu esa sinfda yoki ofisda musaffo va yangilangan atmosfera yaratadi, bunday sharoitda ham bolalar, ham kattalar o'zlarini xotirjamroq va serg'ayrat his qilishadi. Maktablarda havoni yaxshilashning boshqa usullari (ko'proq daraxtlar ekish, sinf xonasini shamollatish) bilan bir qatorda devorlarni Airlite bilan bo'yash ham ichki muhitni yanada kulay qilish yo'lida muhim qadam bo'ladi.

Maktab sinf xonalari va jamoat binolarida havo sifati muammosini hal etish uchun innovatsion yondashuv – Airlite fotokatalitik bo'yoqlaridan foydalanish – rivojlangan mamlakatlarda ijobiy natijalar bermoqda. Italiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi mamlakatlar tajribasi bu texnologiya havodagi zararli gazlar, xavfli bakteriya va viruslar, qolip va hidlarni samarali bartaraf etishini ko'rsatdi. Eng muhimi, bu usul oddiy bo'yoq surtishdek sodda bo'lib, binolarning interyer va eksteryeriga oson tatbiq etiladi, iqtisodiy jihatdan tejamkor va barqaror hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar Airlite bo'yog'i bilan qoplangan yuzalar NOx, SO, VOC kabi ifloslanishni 80-90% gacha kamaytira olishini va mikrobiologik xavflarni deyarli to'liq yo'q qilishini tasdiqlagan. Albatta, har bir binoning havo sifatiga ta'sir etuvchi omillar turlicha bo'lishi mumkin, shuning uchun Airlite qo'llashdan kutiladigan natija muhitga qarab

o'zgarishi mumkin. Lekin rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko'rinadiki, havoni tozalovchi bo'yoqlar zamonaviy arxitekturada muhim o'rin egallab bormoqda. Ularni qo'llash orqali bolalarimizning sog'lom va toza muhitda ta'lim olishiga erishish, shu bilan birga energiya va resurslarni tejash imkoniyati mavjud. Zich shahar muhiti va iqlim o'zgarishi sharoitida bunday innovatsion yechimlar nafaqat ommabop, balki zaruriydir. Airlite misoli shuni ko'rsatadiki, kichik texnologik o'zgartish – devor bo'yog'ini almashtirish – orqali ham global ekologik va salomatlik muammolarini mahalliy darajada yengillatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. European Union. Horizon 2020 loyihasi hisoboti: The paints that eat pollutants and heat homes. Horizon Magazine. Retrieved from <https://ec.europa.eu/research-and-innovation/en/horizon-magazine/paints-eat-pollutants-and-heat-homes>, 2020.
2. UK Green Building Council. (n.d.). Air purifying paint. Retrieved from <https://www.ukgbc.org/news/air-purifying-paint>
3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). (n.d.). CASE STUDY: London air pollution – how one school is improving air quality in the classroom. Celtic Sustainables. Retrieved from <https://www.celticsustainables.co.uk/blog/london-air-pollution-school-case-study>
4. United States Environmental Protection Agency (US EPA). (n.d.). How does indoor air quality impact student health and academic performance? Retrieved from <https://www.epa.gov>
5. European Commission. (n.d.). Airlite Project: Non-toxic eco-paint is a smart way to improve air quality. CORDIS Results in Brief, H2020 Programme. Retrieved from <https://cordis.europa.eu/project/id/airlite>
6. Kun.uz. (2025, March). TBC Bank O'zbekistonda ilk marotaba havoni tozalaydigan innovatsion devoriy tasvirni taqdim etdi. Retrieved from <https://kun.uz>
7. Gazeta.uz. (2025, March 20). Havoni tozalaydigan devoriy surat Toshkent shahrida namoyish etildi. Retrieved from <https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/20/eco-mural>
8. Yuz.uz. (2025, March). Toshkent shahrida havoni tozalaydigan birinchi devoriy surat chizildi. Retrieved from <https://yuz.uz/uz/news/toshkent-shahrida-havoni-tozalaydigan-birinchi-devoriy-surat-chizildi>

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING O'YIN FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHINING ROLI

Ortiqova Yulduz Akram qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti
magistranti
e-mail: ortiqovayulduz2@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyati shakllanishida tarbiyachining pedagogik pozitsiyasi, metodik yondashuvlari va ijtimoiy-psixologik omillar tahlil etiladi. O'yin bolaning ijtimoiylashuvi, emotsional holatini ifoda etishi hamda kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Muallif kichik guruhlar asosida tashkil etilgan o'yinlar orqali bolalarning o'zaro hamkorligi, o'zini ifoda etishi va mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlanishini asoslaydi. Tarbiyachining o'yinga bo'lgan faol ishtiroki bolalarda rolli o'yin malakasining shakllanishi, o'yin mazmunining boyishi va ijtimoiy tajribaning orttirilishida muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, o'yin faoliyati, tarbiyachi, rolli o'yin, ijtimoiylashuv, kichik guruh, emotsional rivojlanish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil o'yin faoliyati kattalar, tarbiyachining rahbar ta'sirisiz mumkin emas. Ammo shu bilan birga, tarbiyachi faqat o'yinni boshlash uchun sharoit yaratadi va tarbiyalanuvchilarga nima qilishni buyurmaydi. Shartlar orasida:

- bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'yinni tanlash va taklif qilish;
- bolalar bilan dialogik munosabatlarni o'rnatish, ularning iltimoslarini eshitish, bolalar tashabbusini qo'llab-quvvatlash;
- ijodkorlikni rag'batlantirish, kutilmagan vaziyatlarni yaratish;
- adekvat obyekt-makon sharoitlarini tashkil etish.

O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, hech qanday ko'nikmalarni o'rganishga tushmasa ham, harakatning standart usullarini talab qilmaydi, ya'ni maxsus o'quv jarayonini talab qilmaydi. Shunga qaramay, o'yin ta'lim bolalarni o'yin faoliyatiga jalb qiladigan kattalar bilan qo'shma o'yinda amalga oshiriladi.

Ko'pgina tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'yinlari o'z-o'zidan, qanday o'ynashni biladiganlar – kattalar yoki katta yoshdagi bolalar ishtirokisiz paydo bo'lmaydi. Hech kim o'ynamagan bolalar o'zlari o'yinni almashtirishni o'ylab topishlari, rolga kirishishlari, o'yin vaziyatini o'ynashlari mumkin emas. Bu shuni anglatadiki, kattalar, tarbiyachi bolalar bilan o'ynashi, o'yinning sherigi, ishtirokchisi

bo'lishi kerak. Ammo tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning harakatlarini nazorat qilishi, o'yin sifatini baholashi shart emas. Bolalar kattalar tomonidan bosim va yo'l-yo'riq his qilmasliklari kerak, balki unga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari kerak, qanday o'ynashni biladigan sherik sifatida.

Tarbiyachi o'yinni jiddiy qabul qilishi, qiziqish, fidoyilik va hissiyotlarni namoyon qilishi kerak. Shunda tarbiyalanuvchilar o'yinga kirishadilar. Bolalarni o'yinga jalb qilish, uning rivojlanishiga yordam berish, tarbiyachi nafaqat bolalar darajasida o'ynashi, balki tarbiyalanuvchilarning o'yin imkoniyatlaridan biroz ustun bo'lishi, ularni yuqori darajadagi o'yin jarayoniga jalb qilishi va yangi imkoniyatlar ochishi kerak bolalar uchun, ya'ni o'yinning proksimal rivojlanish zonasini belgilashi lozim. Shunday qilib, 2–3 yoshda bolalar kattalar bilan birgalikda obyektlarning nomini o'zgartirish, o'yinlarni almashtirish imkoniyatlarini kashf etadilar. [1]

3–4 yoshda bolalarga o'yin rolini va rolli dialogni qabul qilish imkoniyatlarini ko'rsatish kerak. Xuddi shu yoshda qoidalar bilan o'yinlar kiritilishi mumkin. 5 yildan keyin bolalar fantaziya o'yinlariga jalb qilinadi. O'yinning har bir bosqichida va har bir turida tarbiyachining vazifasi bolaning tengdoshlariga yo'naltirishidir, chunki o'yin bolalarning umumiy qo'shma faoliyati bo'lib, sheriklarning harakatlarini hisobga olish, o'ynayotganlarni eshitish va ko'rish kerak. Ushbu qimmatbaho qobiliyatlar o'yin faoliyatida eng yaxshi rivojlanadi. Bolalarni o'yin bilan tanishtirish jarayonida tarbiyachining roli tarbiyalanuvchilarni o'yin atrofida birlashtirishdan iborat.

Bolalarning o'yin faoliyatini shakllantirish uchun tarbiyachi guruhda tegishli mavzu-fazoviy muhitni yaratishi kerak. Bunday muhit mustaqil o'yin vaziyatini yaratish uchun makonning moslashuvchanligi va o'zgarishini nazarda tutadi. Atrof-muhit va o'yin materiallarining ko'p funksionalligi, o'rnini bosuvchi obyektlarning mavjudligi ham o'yin g'oyalarini yaratish va amalga oshirishni rag'batlantiradi. Bolalar o'yin maydonini mustaqil ravishda yaratishi mumkin bo'lgan, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda folklor, xalq va zamonaviy o'yinlar bilan tanish bo'lgan joyda o'yin faoliyati darajasi yuqori bo'ladi.

Tarbiyachi bolalarning o'yin tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi, yangi g'oyalarning daqiqalarini ushlashi, bolalar mantig'ini buzmasdan rivojlantirishi, o'yindagi mustaqillikning har qanday ko'rinishini hurmat qilishi kerak. Tarbiyachi o'zini yaxshi o'ynay olishi, rivojlangan tasavvurga ega bo'lishi, syujetni o'ylab topishi, har qanday rolni o'ynashi, hissiyotli, yuqumli bo'lishi kerak, faqat shu holatda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni o'ynashga o'rgata oladi. Bugungi kunga kelib, maktabgacha ta'limning federal davlat standarti o'yinni bolalar bog'chalariga boradigan bolalar uchun barcha turdagi tadbirlarni tashkil etish uchun asos sifatida ilgari surdi. "O'yin" tushunchasi endi biroz boshqacha ma'noga ega. O'yin eng muhim faoliyat bo'lib, uning yordamida tarbiyachilar turli ta'lim sohalarining barcha o'quv vazifalarini hal

qilishadi.[2]

O'yinning xarakterli xususiyatlaridan biri bu bolalar faoliyatining mustaqilligi. O'yin – bu bolalarning o'zlari tomonidan yaratilgan mahsulot. Ular mustaqil ravishda mavzuni, vaqtni, joyni, rivojlanish yo'nalishini tanlaydilar, rollarni qanday ochib berishni va shunga o'xshash narsalarni hal qiladilar. Har bir bola tasvirni gavdalantirish uchun vositalarni tanlashda erkindir. Tasavvur va fantaziyadan foydalanib, bola o'z rejasini amalga oshiradi, bu unga inson faoliyatining haqiqiy hayotda uzoq vaqt davomida erishib bo'lmaydigan sohalarida mustaqil ravishda shug'ullanishga imkon beradi. O'yinda birlashib, bolalar ixtiyoriy ravishda sheriklarni tanlaydilar, o'yin qoidalarini o'zlari belgilaydilar, ularning bajarilishiga rioya qiladilar va munosabatlarni tartibga soladilar.

Insoniyat tarixi davomida bolalar o'yinlarining syujetlari o'zgargan, chunki ular davr, iqtisodiy xususiyatlar, madaniy, geografik va tabiiy sharoitlarga bog'liq. Bundan tashqari, har bir davrda odamlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan va bolalar hamda kattalarda hissiy munosabatni uyg'otadigan jiddiy, ba'zan favqulodda hodisalar ro'y beradi. Bunday voqealar har doim bolalar o'yinlarining yangi syujetlarini ("urush", "kosmik sayohat") keltirib chiqaradi. Insoniyat tarixida bolalar o'yinlarining "abadiy" syujetlari mavjud bo'lib, ular go'yo odamlarning avlodlarini ("maktab", "qiz-onalar" va boshqalar) bog'laydi. [3]

O'yinlar mazmunining xilma-xilligi bolalarning o'yinda tasvirlangan voqelik tomonlarini bilishi, bu bilimlarning bolaning qiziqishlari, hissiyotlari, shaxsiy tajribasi bilan uyg'unligi bilan belgilanadi. O'yin paydo bo'lib, rivojlanishning yuqori bosqichiga o'tishi uchun uni to'g'ri tashkil etish kerak. Tarbiyachi bolalar jamoasida o'yinni tashkil etish xususiyatlarini bilishi kerak. Buning uchun pedagogika va o'yin psixologiyasi bilimiga asoslangan katta san'at, kasbiy mahorat va bolalarga mehr-muhabbat talab etiladi.

"O'yinni boshqarish" atamasi maktabgacha ta'lim bo'yicha pedagogik adabiyotlarda bolalar uchun o'ziga xos o'yinlarni tashkil qilish va ularning o'yin qobiliyatlarini o'zlashtirishga qaratilgan usullar va usullar to'plamini anglatadi. Maktabgachayoshdagi bolalar o'yinlarini boshqarish tarbiyachining ushbu o'yinlarning mavzularini kengaytirishga ta'sir qilishini, mazmunini boyitishini va bolalarning rol o'ynash xatti-harakatlarini o'zlashtirishga hissa qo'shishini taklif qiladi.[4]

O'yin rejasining paydo bo'lishi va uni amalga oshirish shartlari usulning quyidagi ikkita komponentidir: o'yin muhitini o'z vaqtida o'zgartirish va o'yin davomida bola bilan muloqot qilish. Obyekt-o'yin muhiti bolaning atrof-muhit bilan tanishishda olgan taassurotlarini birlashtirishga va voqelikni qayta tiklashning turli usullarini izlashda uning mustaqilligi va ijodkorligini rivojlantirishga yordam berishi kerak. Tarbiyachi bolalarning amaliy va o'yin tajribasiga qarab mavzu-o'yin muhitini o'zgartiradi: kichik

guruhlarda u tematik to'plamlarni yaratadi, katta guruhlarda esa bolalarni yordamchi materiallardan foydalangan holda o'yin muhitini mustaqil ravishda loyihalashga taklif qiladi — ularning o'z hunarmandchiligi, o'yinchoqlari, o'rnini bosadigan narsalar va boshqalar.

Subyekt-o'yin muhiti kattalarga bolaning mustaqil o'yiniga, o'yin tajribasini o'zlashtirish darajasiga va o'yin mazmunini boyitishga ta'sir qiluvchi kuchli vositadir. Mavzu-o'yin muhiti bolalar tomonidan olingan bilimlarning mazmuniga, bolalarning o'yin qiziqishlariga va ularning o'yinining rivojlanish darajasiga qarab moslashuvchan tarzda o'zgarishi kerak.

O'yin bola hayotining muhim qismi bo'lib, yolg'iz bola yashaydigan jamiyat hayotini aks ettiradi. O'yin jamoasi o'ziga xos munosabatlarga ega bo'lgan ijtimoiy "organizm"dir: hamkorlik, bo'ysunish, o'zaro nazorat. Tarbiyachi bolalar o'yinlarining bevosita nazoratchisi bo'lib, ularda jamoada muayyan hayotiy ko'nikmalarni shakllantiradi: o'zaro tushunish asosida birgalikda o'ynash, bir-biriga yordam berish. Dastlab, barcha bolalar o'yindagi rollarda teng huquqlarga ega, ammo shu bilan birga, istalgan vaqtda ularning har biri o'ziga xos narsalarni o'ylab topishi va taklif qilishi, o'yinni o'z rivojlanishini taklif qilishi, shuningdek, munozarali masalalarni hal qilishi mumkin. Shunday qilib, jamoada birinchi an'analar allaqachon paydo bo'la boshlaydi, o'zlarining "jamoatchilik fikri" kelajakda bolalarning harakatlarini belgilaydi, ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, ularning xatti-harakatlarini baholash uchun "o'lchov" bo'lib xizmat qiladi boshqalarning xatti-harakati kabi. Erta yoshda bolalarda muloqotga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ladi. Bola hayotining birinchi oylaridanoq bir vaqtlar uning birinchi hamkorlari bo'lgan kattalar bilan muloqot qilish quvonchini o'zining tabassumi, u tomonidan chiqarilgan turli tovushlar, qalamlarning harakatlari bilan ifodalaydi. Shu bilan birga, kattalar chaqaloqni atrofdagi dunyoni tan olishga, uning tovushlari, hidlari, ranglari va boshqalarni farqlashga o'rgatadi. Va allaqachon juda erta yoshda bolalarda tanlangan o'yin harakatlari kuzatilishi mumkin. Biri qushlar va hayvonlar tasvirlangan shitirlashlardan xursand bo'lsa, ikkinchisi o'zi uchun oddiy qoshiqlarni tanlaydi va ulardan tovushlarni chiqarib, xursand bo'ladi. Va chaqaloq emaklash va o'tirishni boshlagan paytdan boshlab, uning o'yin imkoniyatlari kengayadi. Uning harakatlarini rivojlantiradigan narsalarga qiziqish uyg'otadi. [6]

Kattalar bolalarning o'yinlarini boshqarib, ularga o'yin syujetini rivojlantirishga yordam beradi, o'yin harakatini yakunlay oladi. Tarbiyachining o'yinga bo'lgan samimiy qiziqishi, mehrli ohang, bolaga va o'yinda yaratilgan tasvirga bo'lgan g'amxo'r munosabati bolalarni sezgirlik va sezgirlikka tarbiyalaydi. Kattalar bilan birgalikdagi o'yinda bola o'yinni ixtiro qilishni, kerakli o'yin harakatlarini bajarishni, nafaqat o'yinchoqlarni to'g'ridan-to'g'ri ishlatishni, balki ularning o'rnini bosadigan narsalarni ham o'rganadi, o'yinni yakunlashni o'rganadi. Bolalar o'yindan zavqlanishlari, ularga

quvonch keltirishi muhimdir. Agar bola nisbatan uzoq vaqt (5-10 daqiqa) yolg'iz o'ynashni bilsa, tarbiyachi o'z o'yiniga qiziqish uyg'otishga harakat qilib, yaqin atrofda o'ynayotgan tengdoshiga e'tiborini qaratishi mumkin. Dastlab, chaqaloq qo'shnisining qo'lidagi o'yinchoqqa qiziqadi va uni olishni xohlaydi. Bu vaqtda bolalar o'rtasida qarama-qarshiliklar paydo bo'lishi mumkin, bu tarbiyachining huquqiga ega va ularni hal qilishi kerak. Har bir bolaning individual xususiyatlarini bilib, tarbiyachi ularni bitta o'yinchoq bilan birgalikda o'yin faoliyati bilan o'ziga jalb qilishga harakat qilishi yoki ularning e'tiborini boshqa narsalar bilan o'ynashga o'tkazishi kerak. Ba'zan bir bolaning faoliyatini rivojlantirish va boshqasining harakatlarini biroz sekinlashtirish tavsiya etiladi. Muayyan rollarni o'ynab, bola nafaqat kattalarning harakatlariga, balki o'yinchoqlarga, o'yinning boshqa ishtirokchilariga bo'lgan munosabatini ham taqlid qiladi. O'yinda tarbiyachining roliga bo'lgan ishtiyoq, uning samimiyligi bolaning o'zi his-tuyg'ularini namoyon etishga yordam beradi. Bolalarda bilim, ko'nikma va malakalarning etishmasligi tufayli o'yinga beqaror qiziqish paydo bo'ladi. Bunday holatda, tarbiyachining roli bolalarning ma'lum bir rolga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash, bolalarga o'yin syujetini rivojlantirish uchun zarur bilimlarni berish, shuningdek, ularga ma'lum ko'nikmalarni o'rgatish, zarur ishlarni bajarishga undashdir harakatlar. Bolalarning qo'shma o'yinlariga jalb qilish juda ehtiyotkorlik bilan asta-sekin amalga oshirilishi kerak, hech qanday holatda bolaning o'z xohishiga xalaqit bermasligi kerak. Do'stona bolalar o'yinlarning birinchi ishtirokchilari bo'lishadi. Avvaliga ko'proq ehtiyotkor bo'lgan bolalar esa faqat kuzatuvchiga aylanadi. Va bu hech qanday tarzda tarbiyachi tomonidan baholanmasligi kerak. Aks holda, ikkinchisi uzoq vaqt davomida jamoaviy o'yinlarga qiziqishni yo'qotishi mumkin, keyin esa bola uchun bolalar bog'chasida qolish faqat sinovga aylanadi. Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarning xususiyatlarini hisobga olish, kichik guruhlarda o'yinlarni tashkil etish muhimdir. Bunday o'yinlarda bola o'zini o'yinda sherik sifatida yanada aniqroq ko'rsatishi mumkin, bu kelajakda tengdoshlariga o'zaro tushunish va ishonch uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mustaqil ravishda syujetni ixtiro qila oladigan va rivojlana oladigan bola boshqa birovning o'yiniga osongina qiziqishi mumkin. Xulq-atvor me'yorlarining bajarilishi, shuningdek, bolaning ichki motivatsiyasiga, u qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirayotganiga va o'yindagi sheriklari u uchun qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirishiga bog'liq. Shaxsiy hamdardlik ko'p jihatdan asos bo'lib xizmat qiladigan kichik o'yin guruhida bolalar uchun do'stona munosabatlarni o'rnatish va jamoaviy xatti-harakatlar normalariga rioya qilish osonroq bo'ladi. Kollektiv ijodkorlikni rivojlantirish uchun o'z harakatlarini tahlil qilish qobiliyati, o'yinda xulosa chiqarish qobiliyati muhimdir. O'yin oxirida bolalar bilan suhbat kabi texnika yordamga kelishi mumkin. Bunday suhbatlar nafaqat mustaqil, balki kelajakka bo'lgan nuqtai nazar bilan ham fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Suhbat

davomida tarbiyachi bolalarni o'z harakatlarini munosib baholashga, boshqalarning harakatlarini tahlil qilishga o'rgatadi.

Erta yosh (2–3 yosh) – kattalarning alohida harakatlaridagi o'yinlar. Bularga “chaqaloqni tebratish”, “tovoqqa ovqat qo'yish”, “mashina haydash” va shunga o'xshash o'yinlar kiradi. Bola kattalarning ko'rgan harakatiga taqlid qiladi, lekin haqiqiy chaqaloq yoki mashina bilan emas, balki ularning o'yin o'rnini bosuvchi vositalar bilan. Aslida, bu oddiy taqliddan rol o'ynashga o'tish bosqichidir; bunday o'yinlar hatto kattalar umuman o'ynamaydigan bolalarda ham o'z-o'zidan paydo bo'ladi. So'zning to'liq ma'nosida xayoliy vaziyat hali bu yerda emas, faqat obyektlarning o'ynoqi ma'nosi shaklida uning boshlanishi mavjud. O'zini rol bilan to'liq identifikatsiya qilish ham yo'q: chaqaloq harakatning o'ziga to'liq singib ketgan va hali o'yinda o'zini chaqaloqni yotqizuvchi ona yoki qayergadir ketayotgan haydovchi sifatida hisoblamasligi mumkin. [5]

Shaxsiy harakatlar o'yinlarida bola deyarli gapirmaydi: u umuman jim o'ynaydi yoki o'yinni haqiqiy tovushlarga taqlid qiladigan tovushlar bilan hamroh qiladi, masalan, avtomobil dvigatelining shovqini, mushukning miyovlashi yoki onaning ninisi. U vaqti-vaqti bilan o'yinda so'z yoki iboralarni gapiradi, lekin u hech qachon boshqa belgilar uchun gapirmaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu darajadagi o'yinlarda hali belgilarni o'zaro ta'siri yo'q. Agar uch yarim yoshga kelib, bola hali ham kattalarning individual harakatlarini o'ynasa, bu ma'lum bir kechikishni ko'rsatadi. Shuning uchun tarbiyachi bola bilan imkon qadar ko'proq o'ynashi, individual va zanjirli harakatlarni bajarishda rol o'ynash xatti-harakati modelini ko'rsatishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyati ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada ta'kidlanganidek, o'yin jarayoni orqali bolalarda mustaqillik, ijtimoiy munosabatlarga kirishish, rollarni anglash va o'zini ifodalash kabi ko'nikmalar shakllanadi. Tabiiy va mavzu-yo'naltirilgan o'yin muhiti, ayniqsa kichik guruhlarda tashkil etilgan o'yinlar bolalarda hamkorlik, ishonch va empatiya kabi sifatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda tarbiyachining roli hal qiluvchi bo'lib, u bolalar o'yiniga rahbarlik qiladi, zarur bilim va ko'nikmalarni singdiradi, ularni fikrlash va ijodiy yondashuvga yo'naltiradi. O'yin jarayonining mantiqiy yakunlanishi va keyingi suhbatlar esa bolalarning o'z harakatlarini anglash, xulosa chiqarish va o'rganilgan tajribani umumlashtirish imkonini beradi. Shu tariqa, o'yin faoliyati orqali bolalarda jamiyatga moslashish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy tajribani egallash imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boguslavskaya, Z. M., & Smirnova, Ye. O. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rivojlantiruvchi o'yinlar: Bolalar bog'chasi tarbiyachilari

- uchun qo'llanma. — Moskva: Ma'rifat nashriyoti. 207- b., 1991.
2. Boguslavskaya, Z. M., & Smirnova, Ye. O. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rivojlantiruvchi o'yinlar. — Moskva: Ma'rifat nashriyoti. 143- b., 1992.
 3. Bolotina, L. R. Maktabgacha pedagogika. 1997.,-Moskva: Ma'rifat nashriyoti. 163b.
 4. Galanov, A. S. Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishi: Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari va otalar uchun qo'llanma. — Moskva: ARKTI nashriyoti. 64 b., 2002.
 5. Gerbova, V. V. 2–4 yoshli bolalar bilan nutq rivojlantirish mashg'ulotlari (kichik turli yoshdagi guruh): Tarbiyachi uchun qo'llanma. — Moskva: Ma'rifat, 127- b., 1993.
 6. Gubanov, N. F. Bolalar bog'chasida o'yin faoliyati. - Moskva: Mozaika-Sintez nashriyoti. 198- b., 2006.
 7. Zavorigina, E. V. Kichik bolalarning dastlabki syujetli o'yinlari. 1988., — Moskva: Ma'rifat nashriyoti. 96 b., tasvirlar bilan., 1988.

IJTIMOY SOHA RIVOJIDA YOSHLAR FAOLLIGINI OSHIRISH — BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH OMILI

Raxmonov Do'stmurod Abdinazarovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti Tarix va
ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ijtimoiy soha va uning strukturaviy-funksional jihatlarini tadqiq etishga nisbatan ilmiy jamoatchilik o'rtasida qiziqish kuchayib, bunda yoshlarni ijtimoiy demografik guruh sifatida o'rganish dolzarblashib bormoqda. Maqolada yoshlar masalasi ijtimoiy sohaning muhim masalalaridan biri sifatida qaralib, unga nisbatan nazariy yondashuvlar ko'rsatib o'tilgan. Yoshlarga doir ijtimoiy muammolar ekzo va endo omillarning ta'siri asosida o'zgarib borayotganligi, ijtimoiy sohaning qadriyatlari, fan-texnika va innovatsiya yutuqlarining ijtimoiy-madaniy hayotga tatbiq etish mexanizmi, yoshlarning masalasining ijtimoiy siyosat bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *yoshlar, filantropik, ijtimoiy soha, ijtimoiy differentsiatsiya, texnologik komponent, refleksiya, metodologik.*

Ijtimoiy sohaning maqsadi, yoshlarning bazaviy ehtiyojlarini qondirib, uning

talab va takliflari asosida hayot farovonligini ta'minlash uchun mavjud resurslardan katta ijtimoiy guruhlarining talab va takliflari asosida foydalanishdan iborat. Bu o'rinda, individual filantropik faoliyat yoki institutsionallashtirilgan filantropik harakatlarni ham rolini inobatga olish lozim bo'ladi. Masalani mohiyatini belgilash uchun, K.X.Momdijyanni jamiyatning tagtizi-mining asosini ijtimoiy hayot sathlari ifodalab, yoshlarni o'zaro faoliyatlarining tipini amal qilishi uchun har qanday jamiyat to'rtga bo'linadi. Moddiy (xo'jalik), ma'naviy, tashkiliy va ijtimoiy kabilar shular jumlasidandir. Bu sathlarni to'rtta bo'linishi bejiz emas, ular jamiyat hayotining elementlariga tengdir deb yozgani [1.210], masalani tarixiy-falsafiy jihatlariga e'tibor qaratishni taqozo etadi.

P.V.Alekseyevning fikricha, taraqqiyot, shu jumladan ijtimoiy taraqqiyotning bosqichlari mavjud bo'lib, bunda ilmiy yondashuvlar metodologik va siyosiy-madaniy mazmunni ta'minlaydi [2.126].

Global muammolarni vujudga kelishini va ular bevosita ijtimoiy sohaga daxldorligini – yoshlar o'rtasidagi turli kasalliklar, atrof-muhitning ifloslanishi, iqtisodiy va tabiiy beqarorliklar, texnologiyalarga bog'lanib qolinganlik ijtimoiy refleksiyaning taqozo etmoqda [3.100].

Ijtimoiy soha genezisi va evolyutsion darajalariga doir munozaralarda:

ijtimoiy sohani tarkiblarining qamrovini kengligi va torligiga e'tibor qaratishda yoshlar masalasiga doir yagona nuqtai nazar shakllanmaganligini;

ijtimoiysohaning asosiy komponentlarini ajratishda, ustuvorlik iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy va texnologik komponentlarga berilishini aniqlanmaganligi;

ijtimoiy sohani ijtimoiy xizmat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy aloqadorlik kabi darajalar miqyosida tasvirlashni mavjudligi;

ijtimoiy sohani antologik, mantiqiy, aksiologik, etik va metodologik jihatlariga bo'yicha konseptual yondashuvni shakllanmaganligini kuzatish mumkin.

Metodologik jihatdan, Hindistonlik faylasuf D.Edraning ijtimoiy sohaga "yaxlitlik va sinoptik qarash" asosida paradigmaviy dilemmalarni belgilashni [4.215] taklif etgani e'tiborga molik. Barcha ijtimoiy munosabatlar – ijtimoiy subyektlarning munosabatlarini rivojlanishi sanalib, bunda ijtimoiy differentsiatsiya mehnatga nisbatan, gender tenglikka nisbatan alohida ajratishni talab etmaydi. Ijtimoiy sohaning funksiyasi ham buni taqozo etmaydi, chunki tibbiy xizmat, ta'lim olish, madaniy hordiq chiqarish, ijtimoiy ta'minotdan xabardor bo'lish, maishiy yordam olish va xizmat ko'rsatish har bir yoshga taalluqlidir.

Yoshlarga hukumatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, ularning ijtimoiy ongini shakllantirish va kasbiy tayyorgarliklariga ilmiy jihatdan yondashilayotganlik natijasida ularning nufuzi oshib borilayotganligi alohida mazmun kasb etadi. Shuning uchun yoshlar hukumatimiz, xalqimiz tomonidan

ularga bildirilayotgan ishonchga o'z faoliyatlari samaradorligini oshirish bilan javob berishlari talab etiladi. Buning uchun yoshlar quyidagilarga amal qilishlari maqsadga muvofiq:

- o'z kasbiy bilimlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ya'ni mustaqil tarzda davlat va jamiyat qurilishi, boshqaruv va kasb odobiga oid ilmiy adabiyot va ommaviy nashrlardan foydalanishlari lozim;

- kasbiy munosabatlarida xushmuomalalikka amal qilib, belgilangan Nizom doirasida o'z burch va majburiyatlarini bajarishlari, jamoat joylarida shaxsiy xulqni nazorat qilib, tengdoshlaridan ham buni talab qila olishlari lozim;

- respublikamiz ommaviy axborot vositalarida shaxsiy tajriba bilan o'rtoqlashish, tajriba almashishni yo'lga qo'yib, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mudofaaviy ongni shakllantirish kabi masalalarni muhokama qilish maqsadga muvofiq [5.49].

Agarda dunyo miqyosida yoshlar ijtimoiy farovonligini/ijtimoiy hayot sifatini ta'minlashga e'tibor qaratsak, quyidagi jihatlar dominantligi kuzatiladi:

jismoniy sog'liq;

yoshlar daromadi;

ijtimoiy munosabatlar;

depressiyaning mavjud emasligi;

ish bilan ta'minlanganlik;

bo'sh vaqtning mavjudligi kabi ko'rsatkichlar asosida baholanish [6], ijtimoiy sohani rivojlantirish yoshlarning faolligiga bevosita bog'liqligini kuzatish mumkin.

Ye.O.Smoleva ijtimoiy hayot farovonligini, yoshlarni yashashini subyektiv va obyektiv shart-sharoitlarining xarakteristikasi sanalib, barchasi yoshlarning ehtiyojlariga taalluqli va subyektiv tasavvur hamda baho berishda ifodalanishi ta'kidlaydi [7.148].

Yoshlarga doir ijtimoiy muammo, bu vujudga kelgan vaziyat, holat, voqea yoki shart-sharoitki, bu yoshlarga bevosita yoki bilvosita jamiyatda salbiy tarzda ifodalanadi. Bu tushunchaga doir har xil munosabatlar institutsional darajada bildirilgan. Bugungi kunda yoshlarga doir ijtimoiy muammolar qatoriga alkogolizm va narkomaniya, abort, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, yosh xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik, diskriminatsiyaning turli ko'rinishlari, yoshlar ishsizligi va boshqa shu kabi masalalar dolzarb sanaladi [8.36].

Ijtimoiy sohani takomillashtirish milliy strategiyasini ishlab chiqish uchun indikatorlarni belgilab olishni talab etadi. N.D.Emirov ijtimoiy sohaga doir innovatsion yondashuvlar deganda, indikatorlarni belgilashni ham nazarda tutgan. Indikator resursni tanlash va yo'naltirish uchun yagona asos sanaladi [9.189]. Buning uchun "Adjemoglu – Robinson" konsepsiyasiga (biron bir institutning iqtisodiy

muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi ekstraktiv yoki inklyuziv institutlarni tizidagi ustuvorligiga taalluqli. Bunda ikkita arxetip qarama-qarshiligi ifodalangan: Ekstraktiv – siqib oluvchi, tortib oluvchi. Inklyuziv – kirituvchi, jamlovchi [10]) asosanib:

a) ijtimoiy sohani oliy qadriyat tarzida e'tirof etish uchun, uni ibratli, namunali modelini yaratib, ijtimoiy refleksiyaning ta'minlash uchun, sotsiologiya fanini barcha Oliy ta'lim yo'nalishlariga kiritish;

b) shaxsiy qadriyat, inson ehtiyoj va talabalarini qondirishini istagini bildirish uchun, uni ifodalash madaniyatiga ega bo'lishi, buning uchun "Ijtimoiy davlat asoslari" modulini tayyorlash;

d) ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun yoshlarga muammolarni majmuaviy mezonlarni belgilash maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, yoshlarga doir ijtimoiy muammolarni sotsiologik tadqiqotlar yordamida aniqlash va jarayonlarni doimiy o'lchab borish, u yoki bu vaqt oralig'ida u yoki bu yoshlar guruhiga oid holat haqida tezkor ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatini berishi bilan birga uni tahliliy faoliyatning ijtimoiy-madaniy ahamiyati yoritishga ham ko'mak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Социальная философия и философия истории / Под ред. К. Кх. Момдзхяна. Москва: ИНФРА-М. (с. 210). 2018.
2. Алексеев, П. В. Социальная философия. 2003. Москва: ООО «ТК Велби». (с. 126).
3. Swanson, H., & Collins, A. Learning to theorize in a complex and changing world. Foresight and STI Governance, 13(2), 98–106., 2019.
4. Edara, D. Biography of a blunder: Base and superstructure in Marx and later. Newcastle upon Tyne: Cambridge Scholars Publishing. (p. 215)., 2016.
5. Samarov, R. S. Mudofaaviy faoliyat: nazariy yondashuvlar. - Toshkent: Turon Zamin Ziyo. (b. 48–49)., 2017.
6. Gallup. (n.d.). Global wellbeing. Retrieved from <https://news.gallup.com/topic/global-wellbeing.aspx>
7. Smoleva, E. O. Счастье и деньги: материальные аспекты субъективного благополучия. Проблемы развития территории, 3(107), 144–166., 2020.
8. Zarubina, Yu. N., & Serova, E. A. Социальные проблемы современного общества. Yaroslavl': YarGU. (36 s.)., 2018.

9. Emirov, N. D. Инновационные подходы в управлении социальной сферой. Sankt-Peterburg: Politexnika universiteti nashriyoti. (s. 189), 2011.
10. Academia.edu. (n.d.). Retrieved from <https://www.academia.edu/>

YOSHLARNING EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNI ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHGA JALB ETISH YO'LLARI

Rustamov Mashhurbek Umidjon o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar
fakulteti "Siyosatshunoslik" yo'nalishi 1-kurs
talabasi

e-mail: mashhurbekrustamov28@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekologik tahdidlar fonida yosh avlodning ekologik ongini shakllantirish muammosi zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlar asosida tahlil etilgan. Tadqiqot davomida ekologik ong tushunchasining strukturaviy tarkibi, uning ijtimoiy ong shakllari bilan uzviy aloqasi, shuningdek, yoshlar orasida ekologik mas'uliyatni rivojlantirish mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Muallif ta'lim-tarbiyaning innovatsion shakllari, transdisiplinar yondashuvlar, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ekologik ongga ta'sirini ilmiy asosda yoritib beradi. Ekologik madaniyatni shakllantirishda ma'naviy qadriyatlar, diniy-etnik omillar va global barqarorlik strategiyalarining o'zaro uyg'unlashuvi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *ekologik ong, ekologik madaniyat, atrof-muhit muhofazasi, yoshlar faolligi, ekologik tarbiya, ijtimoiy ong, barqaror rivojlanish, ekologik ta'lim, texnologik yondashuv.*

Hozirgi davrda insoniyat sivilizatsiyasi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bu ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishdir. Ayniqsa, yosh avlod vakillarining ekologik ongini shakllantirish bu jarayonning ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki bugunning yoshavlodiertangijamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy faol subyektlari sifatida tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni bugundan o'zlashtirishlari lozim. Ekologik ong bu nafaqat tabiat hodisalari haqida bilimga ega bo'lish, balki ekologik qadriyatlarni anglash, ularga amal qilish va o'z xatti-harakatlarida namoyon etish qobiliyatidir. Ekologik ong ijtimoiy ongning muhim shakli sifatida insonning ekologik muhitga bo'lgan munosabatini belgilovchi psixologik-madaniy holatdir. Uni shakllantirish jarayoni esa kompleks va bosqichma-bosqich olib boriladigan

tizimli faoliyatni talab etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlarning ekologik ongini rivojlantirishda avvalo, ta'lim tizimining roli beqiyosdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda ekologik tarbiya va ta'lim mazmunan chuqurlashtirilishi, metodik jihatdan takomillashtirilishi zarur. Ekologik fanlar doirasida berilayotgan nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg'ulotlar, tabiatga sayohatlar, ekologik loyihalarda ishtirok etish kabi faoliyatlar orqali o'quvchilarda ekologik fikrlash va tafakkurni shakllantirish mumkin. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, interaktiv platformalar orqali ham ekologik savodxonlikni oshirish samarali bo'lmoqda.

Konstruktivistik ta'lim nazariyasiga ko'ra, yoshlar ekologik bilimlarni faqat tayyor shaklda emas, balki o'z faoliyatlari, mushohadalari va muloqotlari jarayonida mustaqil o'zlashtirishlari kerak. Masalan, simulyatsiya o'yinlari, ekologik debatlar, ekologik loyiha ishlari orqali talabalar muammoli ekologik vaziyatlarni mustaqil tahlil qiladi, muqobil yechimlar ishlab chiqadi va bu orqali o'zlarida ekologik qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantiradilar. Ekologik ongni shakllantirishda ijtimoiy ong shakllari, ya'ni ijtimoiy normalar, an'analar, urf-odatlar va ommaviy axborot vositalari orqali shakllanadigan tasavvurlar alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, yoshlar orasida mashhur bo'lgan raqamli kommunikatsiya vositalari bloglar, ijtimoiy tarmoq sahifalari, podcastlar ekologik g'oyalarni tez va samarali yetkazishning zamonaviy vositalariga aylangan.

Shu bilan birga, zamonaviy eko-startaplar va "green economy" konsepsiyasi doirasida tashkil etilgan yoshlar harakatlari ekologik tafakkurni real iqtisodiy faoliyat bilan integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Global miqyosdagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, ekologik muammolarning 70% dan ortig'i inson faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning ekologik mas'uliyatini kuchaytirish bu ekologik ofatlar oldini olishda eng barqaror strategiyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, urbanizatsiya, sanoatlashuv va raqamli texnologiyalar ekspansiyasi sharoitida yoshlarning ekologik qarashlari va xulq-atvori o'zgarib, global ekologik muvozanat izdan chiqishi ehtimoli ortadi.

Ijtimoiy institutlar, maktablar, o'quv yurtlari va ommaviy axborot vositalari ekologik ongni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu institutlar yordamida yoshlar ekologik axloqiy qadriyatlarni o'zlashtiradi va ekologik xulq-atvorni shakllantirishda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Ekologik ongning shakllanishi jamiyatda mas'uliyatli va faol fuqarolarning ko'payishiga xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Ekologik ongni shakllantirish bu davomiy va tizimli jarayon bo'lib, u faqat ta'lim tizimi orqali amalga oshirilmaydi. Buning uchun barcha ijtimoiy qatlamlarning faol ishtiroki,

ilg'or pedagogik texnologiyalar va transdisiplinar yondashuvlarning birgalikdagi ishlashi zarur. Ekologik ongni shakllantirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida ekologik ta'lim va tarbiyaning kompleks yondashuvlarga asoslanganligi o'zining yuqori ahamiyatini namoyon etadi.

Ayniqsa, ekologik ongni shakllantirishda yoshlarning subyektiv tajribalari va shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. Yoshlarning ekologik ta'limga nisbatan motivatsiyasi, ularning ijtimoiy va madaniy holatiga qarab, har xil bo'lishi mumkin. Shu sababli, ekologik ta'limni individualizatsiya qilish va yoshlarning ekologik xulq-atvorini rivojlantirishda ularning ehtiyojlariga moslashish talab etiladi. Bunda pedagoglarning roli beqiyos bo'lib, ular yoshlarning ekologik ongini shakllantirishda ularning individual imkoniyatlarini, qiziqishlarini va motivatsiyalarini aniqlashlari zarur. Ekologik ongning shakllanishi uchun ijtimoiy tarmoq va madaniyatning ta'siri ham ahamiyatli. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda ekologik muammolarni keng tarqatish va yoshlarni bu borada axborot bilan ta'minlash — yangi davr talablariga javob beradigan muhim vositadir. Yoshlarning ekologik ongini rivojlantirishda raqamli media resurslar va onlayn platformalar yordamida ekologik ta'lim olish imkoniyatlari kengayadi. Bunday yondashuv ekologik ma'lumotlarni tezkor va samarali tarzda tarqatish imkonini beradi, shu bilan birga yoshlarning ekologik masalalarga oid bilim va tushunchalarini yangilashda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Innovatsion texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt (AI), raqamli simulyatsiyalar, virtual haqiqat (VR) texnologiyalari yordamida ekologik muammolarni modellash, ekologik muvozanat buzilganda yuzaga keladigan oqibatlarni yoshlar ongiga jonli, vizual shaklda yetkazish mumkin. Bunday ilg'or yondashuvlar orqali nafaqat bilim beriladi, balki hissiy-psixologik ta'sir kuchayadi, bu esa ekologik ongning chuqurroq shakllanishiga olib keladi. Shuningdek, yoshlar ishtirokidagi jamoaviy tashabbuslar, masalan, "eko-marafonlar", "yashil maktablar", "bir talabadan bir daraxt" kabi ijtimoiy-harakatlar ekologik ongni amaliy faoliyat bilan mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday harakatlar ekologik faollikni rivojlantiribgina qolmay, balki jamiyatda ekologik mas'uliyatni umumiy madaniyat darajasiga olib chiqadi. Bu kabi tashabbuslar O'zbekistonning turli viloyatlarida ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularni tizimlashtirish va ilmiy asoslash zaruriyati ortib bormoqda. Natijada, ekologik ong bu vaqtinchalik kompaniya yoki targ'ibot emas, balki doimiy va uzluksiz ijtimoiy ong shakli bo'lib, u o'zida bilim, hissiyot, axloqiy mas'uliyat va harakat uyg'unligini mujassam etadi. Har bir yosh bu ongni egallagan chog'da u nafaqat atrof-muhitni muhofaza qiluvchi shaxs, balki ekologik barqarorlikni yaratuvchi ijtimoiy liderga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ekologik ongini shakllantirish va ularni

atrof-muhitni muhofaza qilishga jalb etish bu keng ko'lamli, uzluksiz va ijtimoiy hamkorlikka asoslangan jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati ta'lim, axborot, ijtimoiy faoliyat va shaxsiy yondashuvlar uyg'unligiga bevosita bog'liqdir. Yoshlarning ekologik ongini shakllantirish va ularni atrof-muhitni muhofaza qilishga faol jalb etish bugungi kunda ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lida ustuvor strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ekologik ong bu faqat bilimlar yig'indisi emas, balki ekologik qadriyatlar asosida shakllanuvchi ongli va mas'uliyatli hayot tarzi, ekologik qarorlar qabul qilish madaniyatidir. Ekologik tarbiya jarayoniga yoshlarning bevosita jalb qilinishi, ya'ni ular uchun ekologik loyihalar, tadbirlar, ekskursiyalar va ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etish imkoniyatlarining yaratilishi muhim ahamiyatga ega. Zero, ekologik ongning barqaror shakllanishi aynan amaliy faoliyat orqali kuchayadi. Kelajak avlodning ekologik xavfsiz jamiyatda yashashi bevosita bugungi yoshlarning ekologik savodxonligi va madaniyatiga bog'liqdir. Shu bois, ularni bugundan boshlab puxta ekologik ta'lim va tarbiyaga jalb etish dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan ijtimoiy ehtiyojdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch., — Toshkent: Ma'naviyat, 176 b. 2008.
2. Abdurahmonova M. Ekologik tarbiyaning nazariy asoslari., - Samarqand: Zarafshon, 145 b., 2018.
3. Bobojonova Z.S. Ekologik madaniyat asoslari., — Toshkent: Fan va texnologiya, 164 b. 2020.
4. Komilova D. Yoshlar va ekologik ong: psixopedagogik tahlil., — Toshkent: Ilm Ziyo, 156 b. 2022.
5. Muxammadjonov A. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish., - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 198 b., 2019,
6. Rasulov D. Ekologik tarbiya va uning zamonaviy yondashuvlari.,-Toshkent: O'qituvchi, 178 b., 2021.

YOSHLARDA SALOMATLIK ME'YORLARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI: IJTIMOY-FALSAFIY YONDASHUV

Siroj Madatovich Ro'zimurodov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti,
f.f.b.f.d., (PhD)

Murodali Sunnatovich Yusupov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti,
f.f.b.f.d., (PhD)
e-mail: sirojozimurodov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarni salomatligi va axloqiy mezonlar asosida ularning salomatlik me'yorlarini belgilashdagi roli ijtimoiy-falsafiy va sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarda salomatlik madaniyatini va uning me'yorlarini shakllantirishda ijtimoiy ong, tibbiy ta'lim va axborot vositalarini muhimligini ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *tibbiy ong, tibbiy madaniyat, salomatlik me'yorlari, sog'lom turmush tarzi.*

Jamiyatda salomatlik nafaqat organizmning jismoniy holati, balki insonning ruhiy, aqliy, ijtimoiy va ma'naviy barqarorligini ifoda etuvchi murakkab ijtimoiy tushunchadir. Inson hayotining mohiyati va mazmunini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinganda, uning tub ildizida salomatlikning turli qirralari yotadi. Ayniqsa, yoshlarni ongida salomatlik me'yorlarini shakllantirish va bu faqat tibbiy yoki ijtimoiy masala emas, balki jamiyat taraqqiyoti, axloqiy tafakkur, madaniy qadriyatlar va hayotiy maqsadlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan antologik va aksiologik muammo hisoblanadi. “Salomatlik” tushunchasi jamiyat tibbiy hayotining mazmun-mohiyatini ifodalovchi va tarkibiy tuzilishini o'zida namoyon qiladigan asosiy falsafiy kategoriyalardir. Bu tushunchaning mazmun-mohiyati va ilmiy-amaliy ahamiyatini aniqlamasdan turib, jamiyatning tibbiy hayotini hamda uning negizini belgilovchi omillardan biri bo'lgan aholining tibbiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish, uni globallashuv jarayoni talablariga mos ravishda tubdan o'zgartirish masalasini hal qilib bo'lmaydi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlashicha “Biz o'z faoliyatimizni boshlagan dastlabki kunlardan e'tiboran siz, hurmatli xalq vakillari bilan barcha muhim vazifalarimiz qatorida ikkita eng asosiy masalaga alohida ahamiyat qaratish haqida kelishib olgan edik. Bularning birinchisi — jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash bo'lsa, ikkinchisi — aholimizning sog'lig'ini muhofaza qilishdir. Hammamiz tushunamiz, tinchlik va sog'liq – bu har bir inson, butun xalqimiz uchun hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan buyuk ne'matdir. Shuning uchun ham mana shu ikki sohada biz ahvolni tubdan o'zgartirib, ijobiy natijalarga erisha olsak, butun jamiyatimizdagi vaziyat va ijtimoiy muhit keskin o'zgaradi, men bunga aminman”[1;154],– degan edi.

Shu o'rinda salomatlik deb nimaga aytiladi, degan savol yuzaga keladi. Bu savolga qadimgi zamonlardan boshlab hozirgi vaqtgacha soha olimlari va faylasuflar, shifokorlar, tabiblar va boshqalar tomonidan juda ko'plab qarashlar bayon qilingan. Masalan, miloddan avvalgi 460-377 yillarda yashab o'tgan qadimgi Yunonistonning mashhur faylasuf-tabibi Gippokrat: "Sog'lomlik – bu tashqi tabiiy muhitning inson organizmiga ta'siri tufayli paydo bo'ladigan va rivojlanadigan holatdir"[2;60],– degan bo'lsa, Aflotun: "Odam hayotini abadiy ruh boshqaradi. U uchta — aqliy, hayvoniy va o'simlik ruhlaridan iborat. Aqliy ruh bosh miyada joylashgan, hayvoniy ruh yurakda va qonda joylashgan, o'simlik ruhi esa jigarda bo'ladi. Bulardan eng muhimi hayvoniy ruh, u tanaga issiqlik va harakat bag'ishlaydi. Jigardagi o'simlik ruhi esa organizmni oziq bilan ta'minlaydi. Bu uchala ruh uchta mavhum kuch yordamida harakat qiladi. Sog'lomlik ham, kasallik ham shu uchta ruhga bog'liq. Odam shu ruhlarning ta'siridan chetga chiqmay yashasa, salomat, agar chetga chekinsa, kasallik paydo bo'ladi"[3;23],– degan fikrni ilgari surgan holda odamlardagi sog'lomlik va bemorlikni ruhlarga bog'laydi. Shuningdek, antik dunyoning mashhur faylasuf-tabiblaridan yana biri 130-201 yillarda yashagan Klavdiy Galen: "Sog'lomlik – bu 4 ta unsur namlik, jismoniy tana, organlar va butun organizmni boshqaruvchi kuchlarning muvozanati va uyg'unlashuvidan iboratdir. Shu sababli biz og'riqlarni his qilmaymiz, har kungi vazifalarimiz bo'lgan yuvinish-taranish, ichish, ovqatlanish va rahbarlik qilishda qatnashish kabi o'zimizga kerakli bo'lgan ishlarni bajaramiz"[4;37],– degan edi. Shuning uchun yoshlarda salomatlik me'yorlarini shakllantirish degani, aslida ularning hayot falsafasini, qadriyatlar tizimini, insoniylik mezonlarini va tafakkur madaniyatini shakllantirishni anglatadi. Bu esa nafaqat maktab yoki oliy ta'lim muassasalarida, balki oilada, ommaviy axborot vositalarida, madaniyat va san'atda, hatto diniy-ma'naviy tarbiyada salomatlikni borliqning ajralmas qismi sifatida tushuntirishni talab qiladi. Salomatlik me'yorlari shunchaki jismoniy gigiyena yoki sportga oid qoidalardan iborat emas, balki ular shaxsning dunyoqarashi, hayotga bo'lgan munosabati, o'z tanasiga va ongiga nisbatan ongli yondashuvi orqali qaror topadi. Shu jihatdan, salomatlikni falsafiy kategoriyalar – axloq, erkinlik, mas'uliyat, ozodlik, vijdon, g'amxo'rlik bilan uyg'un holda ko'rish muhimdir.

Markaziy Osiyoda yashab o'tgan ajdodlarimizdan Ismoil Jurjoni (1080 – 1141) "Xorazmshoh xazinasi", "Tibbiyotining mohiyati" nomli asarlarida "Sog'lomlik – bu kishi sog'lig'iga salbiy ta'sir etuvchi barcha omillarni bartaraf etishdir"[5;98], – degan bo'lsa, Abu Mansur Qamariy (Abu Ali ibn Sinoning tib ilmidagi ustoz bo'lgan) esa "Boylik va sog'lomlik" nomli kitobida quyidagicha yozgan edi: "Sog'lomlik birinchi galda normal, xotirjam hayot kechirishdir. Buning uchun esa normal ovqatlanish, har xil zararli odatlardan saqlanish kerak" [5;102] ligini uqtirgan. Shuningdek, salomatligi uchun mas'uliyatni his qilgan yosh – bu jamiyat oldidagi mas'uliyatni

ham chuqur anglay oladigan insondir. Sog'lom tan, sog'lom ruhda yashovchi shaxs esa o'z qarorlarida erkin, hayotga nisbatan ongli, tafakkurda aniq va irodali bo'ladi. Aynan shu salohiyat orqali u o'zini jamiyatda ijodkor, ijobiy kuch sifatida namoyon qila oladi. Demak, salomatlikning shakllanishi – bu shaxsning ijtimoiy shakllanishi jarayonidir.

Buyuk ajdodlarimizdan eng mashhuri Shayxurrais Abu Ali ibn Sino(980-1037) o'zining "Tib qonunlari" nomli qomusiy asarida: "Biror kishining" "odam gavdasining holi uch xil bo'ladi: sog'liq, kasallik, uchinchi sog'liqqa ham, kasallikka ham qo'shilmaydigan bir holat; holbuki, sen ikki xilgina qilib qo'ya qolding" deyishi to'g'ri emas, chunki shunday bahsni qiluvchi kishi yaxshi o'ylasa, ikki narsadan tashqari, uchinchi bir holatning bo'lmasligini va bizning uchinchi holat bayoniga muhtoj emasligimizni tushunadi. Agar uchinchi holat lozim bo'lsa, albatta, bizning "gavdaning nosog'ligi" degan so'zimiz kasallikni hamda sog'liq ta'rifiga sig'maydigan uchinchi bir holatni o'z ichiga olgan bo'ladi.

Sog'liq shunday malaka yoki holdirki, u sababli a'zolaridan sog'lom ishlar vujudga chiqadi. Sog'liq uchun bu ta'rifga muqobil: kela oladigan biron o'zga ta'rif yo'q. Lekin bahs qiluvchilar sog'liqni o'zlaricha ta'riflab, o'zlariga ham kerak bo'lmaydigan shartlarni sog'liq ta'rifiga kiritib yuboradilar. Bu to'g'rida tabiblar bilan bahslashib o'tirishga o'rin yo'q. Tabiblar ham bu kabi narsalar haqida munozara qiladigan kishilardan emaslar. Tabiblar bilan yoki ularning fikriga qo'shilmog'chi kishilar bilan munozara qilish biror foyda yetkazmaydi ham. Ammo bu masalada haqiqatni bilish boshqa fan, ya'ni mantiq fanining qoidalariga tegishlidir. Haqiqat mantiq fanidan talab qilinsin!" [6;12].

"Salomatlik" tushunchasiga berilgan bir qator ta'riflardan ham ko'rinib turibdiki, ularda: birinchidan, o'rab turgan tabiiy muhitning hal qiluvchi roli; ikkinchidan, qandaydir "mutlaq ruh"ning boshqaruvchanligi; uchinchidan, butun dunyo asosini tashkil etuvchi birlamchi mohiyat; to'rtinchidan, inson organizmidagi barcha a'zolarining o'z vazifalarini to'liq bajarishdagi holati kabilar asos qilib olingan. Holatga bunday tarzda yondashishga, birinchidan, aholining salomatligini asrash borasidagi shakllangan shart-sharoitlar; ikkinchidan, aholi salomatligini saqlash uchun yetkazib beriladigan dori-darmonlarning yetishmasligi; uchinchidan, jamiyatda ustun bo'lgan falsafiy dunyoqarash talablarini bajarishning qat'iyligi; to'rtinchidan, o'z manfaatini ko'zlovchi ayrim doiralarning butun mamlakat aholisining emas, balki birinchi navbatda o'zining, oilasining, yaqin qarindosh-urug'larining salomatligini saqlash borasida g'amxo'rliqi sabab bo'lgan.

Yoshlarni axloqiy mezonlar asosida tarbiyalansa, ular salomatlikning ahamiyatini chuqur anglaydi. Shaxsiy salomatlik uchun mas'uliyat, gigiyenik madaniyat, zararli odatlardan yiroqlik, faol hayot tarzi kabi tushunchalar bevosita

axloqiy qarorlar va qadriyatlar bilan bog'liq. Inson sog'lig'i jamiyatdagi eng yuksak qadriyat sifatida talqin etilganda, bu tushuncha axloqiy ongda ham chuqur ildiz otadi. Yoshlarda salomatlik me'yorlarini shakllantirishning eng muhim axloqiy omili – o'z salomatligiga bo'lgan ongli munosabatdir. Har bir inson o'z tanasiga, ruhiyatiga va sog'lig'iga hurmat bilan qarashi, unga zarar yetkazmasligi kerak. Bu jihatdan, o'ziga g'amxo'rlik qilish bu axloqiy majburiyatdir. Bu, avvalo, o'z salomatligiga, hayotiga nisbatan mas'uliyatli bo'lishni anglatadi. Ayniqsa, yoshlarning o'z sog'lig'i uchun javobgarlik his qilishi, ular ichki axloqiy madaniyatining shakllanganidan darak beradi. Jamiyatda salomatlikni saqlashga oid qadriyatlar mavjud bo'lsa, bu umumiy axloqiy muhitni sog'lomlashtiradi. Bunda oila muhitining tutgan o'rni nihoyatda muhim. Ota-ona o'z farzandlariga sog'lom hayot tarzini, gigiyenik me'yorlarni va to'g'ri ovqatlanish madaniyatini o'rgatishi axloqiy jihatdan namunali xulqni shakllantiradi. Farzandlarda sog'lom turmush tarzi ongini shakllantirishda axloqiy o'rnak ko'rsatish – bu eng ta'sirchan metodlardan biridir. Shu bois XX asrning o'rtalaridan boshlab “salomatlik” tushunchasiga faylasuflar, tibbiyotshunoslar, politologlar psixologlar tomonidan ilmiy ta'riflar berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, salomatlik me'yorlari jamiyatda ijtimoiy, madaniy, tibbiy va axboriy omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab konstruksiya hisoblanadi. Ular nafaqat biologik ko'rsatkichlarga, balki mavjud ijtimoiy qadriyatlar, tibbiyot amaliyoti, ommaviy axborot vositalari, diniy e'tiqodlar, iqtisodiy sharoit va hatto siyosiy kontekstga ham bevosita bog'liqdir. Har bir davrda va har bir jamiyatda sog'liq va kasallikning qanday talqin qilinishi – bu me'yorlarni kim belgilashini, qanday targ'ib qilishini va ularning jamiyatda qanday qabul qilinishini aniqlaydi.

Xulosa qilib aytganda inson salomatligi — bu nafaqat biologik holat, balki chuqur ijtimoiy, axloqiy va madaniy mohiyatga ega tushunchadir. Salomatlik me'yorlarini shakllantirish jarayoni jamiyatning adolat, erkinlik, haqiqat va inson qadr-qimmatiga bo'lgan munosabati bilan bevosita bog'liq. Bu esa, uni shunchaki tibbiy yoki texnologik masala sifatida emas, balki ijtimoiy-borliq va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar kontekstida anglashni talab qiladi. Shu sababli, salomatlik me'yorlarini shakllantirishda ijtimoiy adolat, madaniy moslashuvchanlik, axborotning haqqoniyligi va tibbiy ta'limning sifati muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotdan kelib chiqib, sog'liqni saqlash siyosatida va ommaviy sog'liq kampaniyalarida tibbiy me'yorlar tushunchasini ijtimoiy ongga singdirishda ehtiyotkorlik va inklyuzivlikka asoslangan yondashuvlar zarurligi xulosa qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2019). Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutq. // Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon

- bo'ladi (3-jild, b. 154). Toshkent: O'zbekiston NMIU.
2. Gippokrat. (2001). О враче 1. // Etika va umumiy tibbiyot. Sankt-Peterburg: Azbuka, b. 60.
 3. Chikin, S. Ya. (1990). Врачи – философы. Moskva: Meditsina, b. 23.
 4. Galen iz Pergama (130–201). (2006). // 100 olim, dunyoni o'zgartirganlar. Minsk: Xarvest, b. 36–38.
 5. Qodirov, A. A. (1993). Tibbiyot tarixi: Darslik. Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi.
 6. Abu Ali ibn Sino. (1992). Tib qonunlari: Uch jildlik saylanma (1-jild, b. 12). Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
 7. Madatovich, R. (2025). The role of civic responsibility in educating youth in a healthy spiritual environment in an information society. Pubmedia Social Sciences and Humanities, 3(1), 6–6.

BARKAMOL INSONNI TARBIYALASHNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI

Tohirjonova Xumora Azizbek qizi

Andijon davlat pedagogika insituti

Pedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi

e-mail: humora16042004@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson rivojlanishi-bu miqdor va sifat o'zgarishi, eskining yo'q bo'lishi, yangining o'zgarishi, eskining jarayoni ekanligi, inson rivojlanishi uchun jismoniy va ma'naviy kuchlari birgaligida har tomonlama va yaxlit amalga oshirishi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: *Irsiyat, muhit, ijtimoiy faoliyat, o'yin faoliyati, rivojlanish, sharoit.*

O'zbekiston mustaqil davlatga aylangan bir sharoitda ma'naviy va axloqiy tarbiya qator omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi. Bu eng avvalo shaxsni umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish maqsadida ish olib borishda ko'rinadi. Axloqiy sifat shaxsning barcha muhim xususiyatlarini yaxlit xolga keltiradi. O'zbek xalqining moddiy va ma'naviy darajasining ko'tarilishi yangi axloqning kelajakdagi rivojlanishi va mustahkamlanishining sotsial bazasini kengaytiradi, shaxs ehtiyojlarini yangi darajasi va undan oqilona foydalanishni shakllantiradi.

Shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish; vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi va bayrog'i hamda madhiyasiga muhabbat, insonparvarlik, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridir. Axloqiy tarbiyaning ba'zi asosiy sifatlari mazmunini tavsiflaymiz. Vatanparvarlik Vatanga muhabbat uning himoyasiga tayyor turishlik, vatanning gullab yashnashi uchun mehnat qilishdir. Fuqarolik burchi inson hayotiy faoliyatining barcha sohalaridagi ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. Vatan manfaatlarini himoya qilishda, mehnatda, ijtimoiy faoliyatda o'zining fuqarolik majburiyatlarini sidqidildan bajarishga rag'batlantiradi. Talabalarda baynalmilal tuyg'u va baynalmilalchi sifatlarini tarbiyalash jarayonida ularning O'zbekiston xalqlarining milliy birligi, umumdavlat manfaatlarining ayrim viloyat yoki millat manfaatlaridan ustunligini alohida ahamiyatga ega. Odamning shaxs sifatida rivojlanishi uning jismoniy va ma'naviy kuchlari birligida har tomonlama va yaxlit amalga oshiriladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ma'naviy sifatlari, his-tuyg'ular (burch, vijdon, mas'uliyat, muhabbat) madaniyati aniq tarixiy ijtimoiy sharoitda yaratiladi va shaxsning shakllanishiga ta'sir, etadi. Shaxs faoliyati muomalada shakllanadi hamda rivojlanadi. Agar odam ijtimoiy faoliyatning turli xillarida: o'quv, ishlab chiqarish faoliyati va hokazolarda ishtirok etsa, bu faoliyat shaxsni rivojlantiradi, lekin faoliyat odamni u yoki bu ijtimoiy munosabatlardan chegaralab qo'ysa, u yo shaxsning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, yoki uning rivojlanishini buzadi. Shaxsning yetakchi xususiyatlari shaxsga, uning ichki dunyosiga tashqi ta'sir natijasida rivojlanadi. Shaxsning ma'naviy hayot mazmuni — bu shaxsning o'z ichki ishining yakuni bo'lib, bu jarayonda tashqi ta'sirlar qayta ishlanadi va o'zlashtiriladi. Insonning rivojlanishi – bu miqdor va sifat o'zgarishi, eskining yo'q bo'lishi va yangining vujudga kelishi jarayoni bo'lib, uning manbai va harakatlantiruvchi kuchlari shaxsning ham tabiiy, ham ijtimoiy tomonlarining ziddiyatli o'zaro aloqasida yashiringandir. Odamning tabiiy tomoni uning butun umri davomida rivojlanadi va o'zgaradi. Bu rivojlanish va o'zgarishlar yosh xususiyatiga ega bo'ladi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanish manbai shaxs bilan jamiyatning ziddiyatli o'zaro aloqasida yashiringandir.

Maktabgacha pedagogika fani bu ziddiyatli o'zaro aloqani ochib tashlaydi va ulardan shaxsni shakllantirish uchun foydalanadi. Jumladan, bolaning odamlar hayotida ishtirok etish ehtiyoji bilan u intilishni amalga oshirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyat faoliyat sifatida o'yinning vujudga kelishi va rivojlanishiga hamda bolalardagi o'yin faoliyatida ijtimoiy xulq-atvor shakllari, ijtimoiy munosabatlar va hokazolarning shakllanishiga olib keladi. Bu axloqning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mehnatga mas'uliyatli munosabatning asosiy belgilari: beg'arazlik, mehnat majburiyatlariga ongli, mas'uliyatli yondashish, intizomlilik, ijodiy izlanish, tashabbus, faoliyat natijalarini oldindan ko'ra bilish, mustaqil qaror

qabul qilish, jamoatchilik hamkorligi, o'rtoqlarga yordam ko'rsatishga tayyorlik, mehnat kishisining qadr-qimmati va sharafiga tuyg'usini rivojlantirish.

Pedagogika shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar irsiyat (biologik omil), muhit (ijtimoiy, tabiiy, psixologik, ma'naviy omillar), ta'lim tarbiya to'g'risidagi xulosalarni ancha ilgari ishlab chiqqan. Jamiyat taraqqiyotining turli davrida pedagogik ularning insonning shakllanishdagi ahamiyati va nisbati turlicha mafkuraviy-siyosiy ta'sirida izohlab kelgan. Tug'ma qobiliyatlarning irsiy berilishi, masalan, tabiat ilmda va unga muvofiq pedagogikada ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan: ichkilikbozlikka berilgan ayrim oilalardagi bolalarda ba'zi bir irsiy ko'chib utadigan ruhiy kasalliklariga chalinish xollari uchraydi. Sog'lom kishilar farzandlarida aqliy faoliyat darajasi va sifati yuqori bo'lishi kuzatiladi. Shaxsning hamma ruhiy fazilatlarini uning atrof muhit bilan muloqoti natijasida insonni mehnat qilishdek hayotiy faoliyati natijasida qo'lga kiritiladi. Insonga tug'ma ravishda xatti-harakatlarning hech qanaqa ijtimoiy, noijtimoiy dasturlari berilgan emas. Har bir odam uchun shaxs sifatidagi fazilatlarining shakllanish jarayoni amalda noldan boshlanadi. Ijtimoiy muhit ko'p jihatdan sotsial shart-sharoitlarga bevosita bog'liq. Insonning ijtimoiy qiyofasi uning ijtimoiy va davlat tuzumiga mansubligi, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarining maxsus, u yoki bu davlatning fuqaroligi, shaxsning sinfiy o'rnini belgilaydigan mazkur jamiyatda, mamlakatda o'rnatilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining mahsuli hisoblanadi.

Inson rivojlanishining shahar va qishloqlarda hayot sharoitlarining o'zgarishi, mamlakat hududida aholining kuchishi, tug'ilishning o'sishi, umrning uzayishi yoki kamayishi, nikohdan o'tish yoshining o'zgarishi, mehnat taqsimoti, bozor iqtisodiyoti sharoitida, ya'ni sinflar tadbirkor, ishbilarmon, savdogar, bankir, menejmentlarning paydo bo'lishi ko'p jihatlardan bog'liqdir.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish jarayonida insoniy ongning faol tabiati ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Inson o'z tanasini o'zining ongi irodasi obyekti qilib, ataylab o'ziga muayyan harakatlar va harakat omillar-dasturini belgilab, o'z organizmining ishini takomillashtiradi, harakat qobiliyatlarini va umumiy yashovchanligini oshiradi. Ana shunday harakat vositasida tashqi tabiatga ta'sir ko'rsatadi va uni o'zgartirar ekan, ayni vaqtda o'z tabiatini ham o'zgartiradi.

Barkamol inson tarbiyasining nazariy asoslari Barkamol inson tushunchasi qadimiy va zamonaviy qarashlarning uyg'unligi natijasida shakllangan. Ushbu tushunchaga ko'ra, inson har tomonlama rivojlangan, ma'naviy boy va jismonan sog'lom bo'lishi kerak. Barkamol inson tarbiyasida oila, ta'lim-tarbiya muassasalari va ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, barkamol insonni tarbiyalash – bu murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati ijtimoiy institutlar va shaxsning o'zaro

hamkorligiga bog'liq. Har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasi orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy yuksalishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asqarov, M., Xaytboyev, M., & Nishonov, M. Pedagogika: Darslik. — Toshkent: Talqin. 289 b., 2008.
2. Ibragimov, X. I., va boshqalar. Pedagogik psixologiya: O'quv qo'llanma. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2020.
3. Mavlonova, R. Pedagogika. — Toshkent: 80 b., 2002.
4. Pirmuhamedova, M. Pedagogik mahorat asoslari. -Toshkent., 2001.
5. Raximov, B. H., va boshqalar. Pedagogika: O'quv-uslubiy qo'llanma. — Guliston: GulDU, 2008.
6. Sayidaxmedov, N. S. (n.d.). Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. — Toshkent.

ALFA AVLODINING IJTIMOY-EMOTSIONAL RIVOJLANISHI

Gulnoz Xodjayeva

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
markazi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: Alfa avlodi raqamli texnologiyalar muhiti ichida voyaga yetgan birinchi avlod bo'lib, oldingi avlodlardan farqli ravishda shakllangani taxmin qilinadi. Ushbu tizimli tahlil Alfa avlodining ta'lim va o'qishidagi o'zgarishlar haqida hozirgacha olib borilgan tadqiqotlarni umumlashtiradi va quyidagi savolga javob beradi: Alfa avlodining ta'lim va o'rganish jarayonida nima sodir bo'lmoqda?

Tadqiqot adabiyotlarida "Alfa avlodi" atamasi tez-tez qo'llanilishiga qaramay, avlodlar o'rtasidagi farqlarni va bu avlodning oldingi avlodlardan o'ziga xos jihatlarini ko'rsatadigan tadqiqotlar soni nisbatan kam. Faqatgina "Alfa avlodi boshqacha shakllangan" degan kuchli taxminlar mavjud. Asosiy muammo shundaki, Alfa avlodining texnologiyalardan foydalanishi ijtimoiy-emotsional rivojlanish imkoniyatlarini kamaytirdi va ruhiy salomatlik muammolarini oshirdi. Raqamli ta'lim vositalari va onlayn strategiyalar ishlab chiqilishi va sinovdan o'tkazilishiga qaramay, hozirga kunga qadar ularning hech biri ustunlik qilgani yo'q.

Kalit so'zlar: *Alfa avlodi, onlayn ta'limi, ijtimoiy-emotsional rivojlanish,*

o'quv vositalari, ta'limda texnologiyalardan foydalanish.

Alfa avlodi texnologiyalar sohasidagi zamonaviy yutuqlar ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tushunishga intilgan olimlarning katta e'tiborini jalb qildi. Asosiy farazlarga ko'ra, Alfa avlodi o'quvchilari boshqa avlodlardagi o'quvchilardan sifat jihatidan farq qiladi va ushbu farqlar asosida ta'lim tizimida tegishli o'zgarishlar amalga oshirilishi kerak. Garchi bu farazlar bog'liq sohalarda ko'rib chiqilgan bo'lsa ham, shu kungacha tizimli ravishda o'rganilmagan. Shunga muvofiq, Alfa avlodi o'quvchilariga pedagoglar qanday yondashishi kerakligini aniqlash uchun ta'lim bo'yicha tizimli adabiyotlar tahlili zarur [1].

"Avlod" atamasi insonlarning tug'ilgan yili, yoshi, yashash joyi, o'xshash qadriyatlari va/yoki muhim voqealari asosida tasniflash uchun ishlatiladi va odatda taxminan 20 yillik davrni qamrab oladi. "Alfa avlodi" atamasi birinchi marotaba 2005 yilda Mark MakKrindl tomonidan Z avlodidan keyingi avlodni tavsiflash uchun kiritilgan. Turli avlodlar va ularga mos texnologik yutuqlar 1-jadvalda ko'rsatilgan.

Alfa avlodi va undan oldingi avlodlarga raqamli avlodlar sifatida qaralishi mumkin, ular faqat o'zlari voyaga yetgan davrdagi raqamli imkoniyatlarning miqdori va sifati bilan farqlanadi. Kelajakdagi barcha avlodlarga haqiqiy raqamli avlod sifatida qaraladi, Alfa avlodi esa birinchi bo'lib raqamli texnologiyalarga chuqurroq singib ketgan avlod bo'ladi. Masalan, Alfa avlodi vakillari ko'p hollarda na hamyon olib yuradi, na yozma imtixon topshiradi. Ushbu avlod to'liq tug'ilganda, ularning soni dunyo bo'yicha deyarli ikki milliardga yetishi kutilmoqda.

Alfaavlodining ko'pligiga qaramay, ushbu avlodning xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar cheklangan. Alfa avlodining Z avlodidan sifat jihatidan farq qilishiga oid taxminlar katta darajada hali isbotlanmagan (Nagy & Kolcsey) va ba'zan shubha ostiga olinadi [2]. Avlodlar o'rtasidagi raqamli qobiliyat yoki mahorat darajasini to'g'ridan-to'g'ri solishtirishga oid tadqiqotlar juda kam. Balki, yagona aniq jihat shundaki, Alfa avlodi uchun raqamli qurilmalarning kundalik hayotdagi roli "vosita" yoki "qurol" sifatida emas, balki dunyo bilan o'zaro aloqaning normal va zaruriy usuli sifatida qabul qilinadi. Ushbu asosiy xususiyat rivojlanishga, ayniqsa, shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy-emotsional ta'limga (SEL) katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqot natijalari [3] Alfa avlodini oldingi avlodlardan ajratib ko'rsatadigan farqlar mavjudligini taxmin qiladi.

Alfa avlodining xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan kamdan-kam tadqiqotlar mavjud. Ularga ko'ra, kichik bir namunaga ($n = 12$) asoslangan sifatli tadqiqot [4] orqali ular Alfa avlodining quyidagi xususiyatlarini aniqlashgan:

Alfa avlodi ko'proq qiziquvchan, qoidalardan xoli, tez-tez g'azablanadigan, harakatchan va o'zini markazga qo'yuvchi. Bundan tashqari, ular yuqori o'z-o'zini baholash darajasiga ega, hissiyotlarga boy va ongliroq. Alfa avlodi Z

avlodiga qaraganda ko'proq yopiq va individualistik xulq-atvorni namoyon qiladi. Maktabgacha ta'lim o'qituvchilari Alfa avlodiga nisbatan rekonstruktiv yondashuvni qo'llagan bo'lsalar, Z avlodiga nisbatan an'anaviy sinf boshqaruv usullarini qo'llaganlar.

Apaydin va Kaya tomonidan keltirilgan yuqoridagi natijalar ko'pincha Alfa avlodiga oid adabiyotlarda qayd etiladi va ushbu avlodga xos taxminlarning asosini tashkil etadi.

Dos Reis o'tkazgan tadqiqot ham kognitiv moslashuvchanlik va dinamiklik bo'yicha shunga o'xshash natijalarni aniqlagan hamda Alfa avlodining qaror qabul qilishda avtonomlik bilan bog'liq ishlar bilan band bo'lishini taxmin qilgan. [5]Bu esa Alfa avlodini yanada tashabbuskor bo'lishiga olib kelishi mumkin (Ziyatdinov va Chillers, 2021).

Selvi va boshqalar esa Alfa avlodiga "sadoqat, mulohazakorlik, rahm-shafqatli, ochiq va mas'uliyatli" kabi fazilatlar yetishmaydi, deb ta'kidlagan.

Avlodlar va davrlar

1-jadval.

Avlod nomi	Tug'ilish diapazoni	Davrlar
Bebi-bumerlar	1946 – 1964	Televideniye
X Avlodi	1965 – 1980	Kompyuterlar
Milleniallar (Y avlod)	1981 – 1996	Smartfonlar
Z avlod	1997 – 2012	Internet
Alfa avlod	2013 – 2024	Sun'iy intellekt
Beta avlodi	2025 – 2039	Neuro-interface (Inson-mashina integratsiyasi)

Ijtimoiy tarmoqlar

Alfa avlodining eng muhim xususiyatlaridan biri bu mobil qurilmalar orqali ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishdir. Mobil internetdan foydalanishning uzluksiz o'sishi natijasida Alfa avlodining faoliyati yangiliklar, ma'lumotlar, ko'ngilochar dasturlar, muloqot va tadqiqotlar o'rtasidagi an'anaviy chegaralarni o'chirib yubormoqda. Ota-onalarning 80% dan ortig'i Alfa avlodidagi farzandlari har kuni mobil qurilmalarda video tomosha qilishlari yoki o'yin o'ynashlarini bildirgan va ular o'rtacha 7–8 soat vaqtlarini ekran qarshisida o'tkazadi. [6] Hatto bog'cha yoshidagi bolalar tomonidan ham raqamli oqim filmlardan individual ravishda foydalanish ularning sinfdagi ijtimoiy o'zaro munosabatlarini rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, matnli muloqot orqali interaktivlikning o'sishi og'zaki aloqa ko'nikmalarining yo'qolishiga olib kelishi mumkinligi haqida xavotirlar davom etmoqda. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi ta'sirchan shaxslarning dolzarb

voqealar haqida ma'lumot manbai sifatida qabul qilinishi tanqidiy fikrlash qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarning mumkin bo'lgan va zararli ta'siri haqida ko'p yozilgan bo'lsa-da, uning Alfa avlodiga qanday farqli ta'sir ko'rsatishini oldindan aytib beradigan tadqiqotlar juda kam.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish sohasidagi muammolar

Texnologiyalardan keng foydalanish ijtimoiy-emotsional rivojlanish imkoniyatlarining qisqarishiga olib kelgan. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish ruhiy salomatlik muammolarining o'sishiga sabab bo'ldi, chunki ekran qarshisida ko'proq vaqt o'tkazadigan bolalar ruhiy sog'liq bilan bog'liq ko'proq muammolarni boshdan kechirmoqda.

Alfa avlodining ota-onalari ko'pincha kechki millienniallar avlodiga mansub bo'lib, ular farzandlari bilan ko'proq vaqt o'tkazadi va ularning hayotida faolroq ishtirok etadi. Shunday qilib, ota-onalar va boshqa kattalar ijtimoiy tarmoqlarning zararli ta'sirini yumshatishda yordam berishi mumkin.

Tadqiqotlarga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn o'yinlar bolalar muhitiga kiritilganda, ular bolalarning ta'lim va kognitiv rivojlanish konseptlarini shakllantirishda vositachilik qiladi. Tadqiqotlarda aniqlanganidek: "O'qituvchilar, bolalar va texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar orqali bolalar doimiy muammolarni hal qilish qobiliyatlari, til o'rganish va ijtimoiy ta'lim kabi yuqori psixik funksiyalarni rivojlantiradi".

Ijtimoiy-emotsional ta'lim uchun ota-onalar va o'qituvchilarga eng maqbul sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Muhitning roli ham muhim hisoblanadi. Maktablar ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun kognitiv ko'nikmalarni o'rgatish va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatlari bilan jihozlangan tarzda qayta loyihalanishi mumkin. Maktabdan keyingi dasturlar kabi norasmiy ta'lim muhitlarini qayta ko'rib chiqish orqali Alfa avlodining ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga yordam beruvchi "ta'limiy-ko'ngilochar" tajribalar taqdim etilishi mumkin[7].

Alfa avlodining ijtimoiy-emotsional rivojlanishi va ruhiy salomatligiga oid xavotirlar global miqyosda muhokama qilinmoqda.

Natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:

- Faqat bir nechta muassasalar ota-onalar uchun ta'lim dasturlarini tashkil qilgan.
- Uy sharoitida gadgetlardan foydalanishni tartibga soluvchi qoidalar deyarli mavjud emas.
- Gadgetlardan ijobiy foydalanishni o'rgatish bo'yicha alohida dasturlar yo'lga qo'yilmagan.

O'qituvchilar va ta'lim muassasalari gadgetlardan foydalanish bo'yicha

maxsus dasturlarni o'quv rejasiga kiritishi va ota-onalar bilan hamkorlikda bolalar foydalanishi mumkin bo'lgan gadjetlarning davomiyligi, chastotasi va mazmunini tartibga soluvchi qoidalarni ishlab chiqishi kerak.

Malayziyada Fadzil va boshqalar [8]shuni aniqladiki, bolalar va ota-onalar gadjetlarga juda qattiq bog'langan. Ota-onalar gadjetlardan bolalarni nazorat qilish vositasi sifatida foydalanadi. Bolalar esa gadjetlarni ko'ngilochar vosita sifatida qabul qiladi. Gadjetlardan uzoq vaqt foydalanilmasa, ular xavotir, ajralish hissi va hatto tushkunlikka tushishi ham mumkin.

Rossiyada o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, virtual o'yin-kulgiga ko'p vaqt ajratish va boshqa odamlar bilan ijtimoiy aloqalarning cheklanishi[9]:

- Bolalarning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi.
- Xavotir va ota-onadan ijtimoiy uzoqlashish darajasini oshiradi.

Mazkur tahlil Alfa avlodi ta'limiga oid quyidagi uchta asosiy masalani o'rganishni maqsad qiladi:

1. O'qituvchilarning roli: Alfa avlodining ta'lim jarayonidagi o'qituvchilarning ahamiyatini aniqlash.

2. Yangi ta'lim strategiyalari: Alfa avlodini o'rgatish uchun yangi ta'lim yondashuvlarini ishlab chiqish.

3. Aralash ta'lim: Aralash yoki gibrid ta'lim usullarining Alfa avlodi ta'limidagi ahamiyatini aniqlash.

Alfa avlodining ta'lim jarayoniga oid o'sib borayotgan adabiyotlar turli xil mintaqalar va muammolarni qamrab oladi. Bu avlodni samarali o'qitish va tarbiyalash uchun pedagogik va oilaviy yondashuvlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abbasi, A. Z., Azeem, S., Farooq, M. U., Hussain, K., Ting, D. H., Rehman, U., & Pakpour, A. H. (2022). Engagement in educational games and quality of life in early and middle childhood: Evidence from a developing country. *Current Psychology*. <https://doi.org/10.1007/s12144-022-03558-1>
2. Aberšek, M. K., & Kerneža, M. (2022). Primary school students' functional literacy in digital learning environments — how to teach. In M. K. Aberšek & M. Kerneža (Eds.), *The 14th International Scientific Conference on Distance Learning in Applied Informatics* (pp. 174–185). Berlin: ResearchGate.
3. Abioso, W. S., Imam, A. I., Maulana, Y. I., & Prasetyo, M. J. (2021). Virtual reality utilization as a character-building of children in waste problems. *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*, 1158(1), 012010.

<https://doi.org/10.1088/1757-899X/1158/1/012010>

4. Aditya, B. R., Ismiatun, A. N., Atika, A. R., & Permadi, A. (2022). Digital disruption in early childhood education: A qualitative research from teachers' perspective. *Procedia Computer Science*, 197, 521–528. <https://doi.org/10.1016/j.procs.2021.12.169>
5. Adnan, A. H. M., Karim, R. A., Shah, D. S. M., Tahir, M. H. M., & Shak, M. Y. (2021). Higher education 4.0 technologies: Survey of immersive, interactive content development and materials deployment within a developing nation. *Journal of Physics: Conference Series*, 1793(1), 012002. <https://doi.org/10.1088/1742-6596/1793/1/012002>
6. Ahmad, N. F., & Iksan, Z. H. (2021). Edmodo-based science module development on students' mastery of science process skills: Need analysis. *Creative Education*, 12(11), 2609–2623. <https://doi.org/10.4236/ce.2021.1211195>
7. Ahyar, J., Edyansyah, T., & Ikramuddin, I. (2021). Online learning strategies for Indonesian language teachers in improving student learning effectiveness in class VII SMP Negeri Lhokseumawe. *Jurnal Sosial Teknologi*, 1(12), 1–526. <https://doi.org/10.36418/jurnalsostech.v1i12.257>
8. Aizenberg, M., & Zilka, G. C. (2022). Preservice kindergarten teachers' distance teaching practices during the COVID-19 lockdown period. *Journal of Early Childhood Teacher Education*. <https://doi.org/10.1080/10901027.2022.2075813>
9. Akkaya, S., Tan, Z., & Kapidere, M. (2021). Examination of primary-school teachers' views on digital game-based teaching. *Journal of Primary Education*, 11, 39–55. <https://doi.org/10.52105/temelegitim.11.4>

NEYROPSIXOLOGIK ASOSDA TA'LIMDA KREATIV VA INNOVATSION FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Xoshimov Komronbek

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bosh
iqtisodchisi

e-mail: khoshimovkomronbek@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda o'quvchilarning kognitiv-nevrobiologik

xususiyatlarini, xususan, xotira mexanizmlarini hisobga olishning konseptual jihatlarini tahlil qilinadi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda miya yarim sharlari funksional asimmetriyasi va gippokampning axborotni qayta ishlashdagi roli asosiy omil sifatida ko'rib chiqiladi. An'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, kreativ va innovatsion fikrlashni rag'batlantiruvchi, tasavvurga asoslangan metodikalarning afzalliklari amaliy misollar orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy innovatsiya, kreativ fikrlash, ta'lim metodikasi, inson miyasi, o'ng va chap yarim sharlar, gippokamp, qisqa muddatli xotira, uzoq muddatli xotira, neyropedagogika.*

Zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri – bu nafaqat fundamental bilimlarni berish, balki o'quvchilarda kreativ va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish sifati va mazmuni bilan bir qatorda, qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Interfaol usullar va o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilar o'rtasidagi kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, ularni kooperativ tadqiqot faoliyatiga jalb etish hamda o'quv muammolarini jamoaviy hal qilish uchun zamin yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, intersub'yektiv anglashuv va ijtimoiy konsensusning shakllanishiga olib keladi.


Biroq, ta'lim jarayonini optimallashtirishda nafaqat pedagogik, balki neyropsixologik va neyrobiologik omillarni ham hisobga olish zaruriyati tobora ortib bormoqda. O'quvchining kognitiv faoliyati, xususan, ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash va o'zlashtirish jarayonlari bevosita uning miya tuzilishi, neyron tarmoqlarining faolligi hamda xotira mexanizmlari bilan bog'liqdir. Ushbu yondashuv ta'limni individuallashtirish va uning samaradorligini keskin oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Miya funksional asimmetriyasi va xotira jarayonlari. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson miyasi funksional jihatdan ixtisoslashgan ikkita – o'ng va chap yarim shardan iborat. An'anaviy qarashlarga ko'ra, chap yarim shar asosan mantiqiy-analitik fikrlash, nutq, ketma-ketlikni qayta ishlash va matematik amallar uchun mas'ul bo'lsa, o'ng yarim shar obrazli tafakkur, fazoviy idrok, kreativlik, emotsiyalar va intuitivlik bilan bog'liq jarayonlarni boshqaradi (1-rasmda miya yarim sharlarining sxematik tasviri keltirilgan).


Axborotni qabul qilish va uni xotirada saqlash jarayonida miyaning markaziy tuzilmalaridan biri bo'lgan gippokamp muhim rol o'ynaydi (2-rasmda gippokampning miyadagi joylashuvi ko'rsatilgan). Gippokamp kiruvchi sensor axborotni tahlil qilib, uni qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga o'tkazish (konsolidatsiya) jarayonida ishtirok etadi. Mavjud neyrobiologik modellarga ko'ra, o'ng yarim shar orqali qayta ishlangan, emotsional va obrazli ma'lumotlar ko'pincha

uzoq muddatli xotirada mustahkamroq saqlanadi. Aksincha, abstrakt va mantiqiy tuzilmalar (ko'pincha chap yarim shar bilan bog'liq) dastlab qisqa muddatli xotirada qayta ishlanadi va ularning uzoq muddatli xotiraga o'tishi uchun qo'shimcha kognitiv harakatlar talab etilishi mumkin.

Bundan tashqari, gippokamp yangi axborotni mavjud bilimlar va tajribalar bilan bog'lash orqali neyron aloqalarini (sinaptik bog'lanishlarni) mustahkamlaydi. Ya'ni, yangi ma'lumot miyadagi mavjud assotsiativ tarmoqlarga integratsiya qilinganda, uning xotirada saqlanish ehtimoli ortadi.



1-rasm. Miyaning o'ng va chap yarimsharlari



2-rasm. Gippokampning joylashishi

Ta'lim jarayonida neyropsixologik yondashuvning amaliy ahamiyati. Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlardan kelib chiqib, o'quv materialining xotirada samarali saqlanishi uchun uning abstraktligini kamaytirish va o'quvchilarda aniq tasavvur hosil qilishga erishish muhimdir. Bu, o'z navbatida, o'ng yarim sharning faollashuvini ta'minlaydi va ma'lumotning uzoq muddatli xotiraga o'tishini osonlashtiradi.

Masalan, an'anaviy matematika darslarida ko'pincha formulalarni yodlash va ularni bir xil tipdagi masalalarga mexanik tarzda qo'llash talab etiladi. 5-sinf matematika darsligidagi "To'g'ri to'rtburchak yuzini hisoblash formulasidan foydalanib, uning yuzini toping: $a=5$, $b=3$ " kabi ko'p sonli (465-481-misollar) bir-biriga o'xshash masalalar takrorlash orqali yodlashga qaratilgan. Bu yondashuv ma'lum darajada samarali bo'lishi mumkin, biroq u asosan chap yarim sharning mantiqiy funksiyalariga tayanadi va tasavvurni yetarlicha jalb qilmaydi. Natijada, o'quvchilar formulani yod olishlari mumkin, lekin uning amaliy ahamiyatini va mohiyatini chuqur anglamasliklari ehtimoli yuqori. Bu esa kognitiv yuklamani oshiradi, ammo mazmunli o'zlashtirishni ta'minlamaydi.

Ushbu masalaga quyidagicha, neyropsixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda yondashish maqsadga muvofiq: o'quvchilarga yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, real hayotiy vaziyat bilan bog'liq masala taklif etiladi. Masalan: "Sinf xonasining enini va bo'yini qadamlab o'lchang (masalan, eni 6 qadam, bo'yi 9 qadam; 1 qadam shartli ravishda 1 metr deb qabul qilinsin). Sinf xonasining yuzi

necha kvadrat metrni tashkil etadi? Endi tasavvur qiling, shu xona poliga kafel yotqizish kerak. Agar bitta kafelning o'lchami 25x25 sm bo'lsa, polni to'liq qoplash uchun nechta kafel zarur bo'ladi?"

Bunday topshiriq bir necha afzalliklarga ega:

1. Kontekstual va amaliy ahamiyat: Masala real hayotiy vaziyat bilan bog'langanligi sababli, o'quvchilar uchun qiziqarliroq va tushunarliroq bo'ladi.
2. Kreativ yondashuv va tasavvurni faollashtirish: O'quvchilar xonani tasavvur qilishadi, o'lchamlarni hisoblashadi, kafellarni joylashtirishni vizualizatsiya qilishadi. Bu o'ng yarim sharning faol ishtirokini ta'minlaydi.
3. Kooperativ faoliyat: Bunday murakkabroq masala o'quvchilarni o'zaro maslahatlashishga, guruhlariga bo'linib ishlashga, turli yechim usullarini muhokama qilishga undaydi.
4. Muammoni hal qilish ko'nikmalari: O'quvchilar nafaqat formulani qo'llashadi, balki o'lchov birliklarini o'zgartirish, maydonni hisoblash kabi bir necha bosqichli amallarni bajarishadi.
5. Ijobiy emotsional fon: Masalani muvaffaqiyatli yechish natijasida erishilgan yutuq hissi o'quvchilarda matematika faniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi va uning amaliy ahamiyatini anglashlariga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning neyropsixologik xususiyatlarini, xususan, miya yarim sharlari funksional asimmetriyasi va xotira mexanizmlarini hisobga olish, o'quv materialining samarali o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. An'anaviy, ko'proq chap yarim shar faoliyatiga asoslangan yondashuvlar bilan bir qatorda, o'ng yarim sharning imkoniyatlarini (tasavvur, kreativlik, obrazli fikrlash) jalb etuvchi interfaol va kontekstual metodikalardan foydalanish, bilimlarning uzoq muddatli xotirada mustahkamlanishini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, nafaqat akademik ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga, balki o'quvchilarda innovatsion fikrlash va muammolarga nostandart yechim topa olish qobiliyatini rivojlantirishga zamin yaratadi, bu esa ijtimoiy innovatsiyalarning muhim tarkibiy qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020-yil 23-sentabr). O'RQ-637-son.
2. Haydarov, B. Q. Matematika 5-sinf: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik (240 b.). — Toshkent., 2015.
3. Gazzaniga, M. S., Ivry, R. B., & Mangun, G. R. Cognitive neuroscience: The biology of the mind (5th ed.). W. W. Norton & Company., 2019.
4. Squire, L. R., & Wixted, J. T. The cognitive neuroscience of human memory

since H.M. Annual Review of Neuroscience, 34, 259–288., 2011.

5. Jensen, E. P. Teaching with the brain in mind (2nd ed.). Association for Supervision and Curriculum Development (ASCD), 2005.

BO'LG'USI TARBIYACHILARDA GRAFIK ORGANAYZERLAR VOSITASIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Yuldashova Sanamjon Bobomurod qizi

Urganch davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

1-kurs magistranti

e-mail: sabirovbobomurod1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarni ekologik ong va madaniyat ruhida tarbiyalashda grafik organayzerlardan foydalanishning samarali usullari yoritilgan. Grafik organayzerlar o'quv jarayonida axborotni tizimli va vizual tarzda ifodalash orqali o'quvchilarning ekologik tushunchalarini chuqurlashtirishga, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida grafik organayzerlarning turlari (kontseptual xaritalar, Venn diagrammalari, T-sxemalar va boshqalar)ni qo'llash orqali bo'lajak tarbiyachilarni ekologik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va hal qilishga yo'naltirish usullari ko'rib chiqildi. Shuningdek, pedagogik faoliyatda ushbu vositalardan foydalanish ekologik tarbiyaning samaradorligini oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlandi. Maqola natijalari bo'lajak tarbiyachilar tayyorlovida zamonaviy didaktik yondashuvlarni joriy etish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *grafik organayzerlar, ekologik tarbiya, bo'lajak tarbiyachilar, vizual ta'lim vositalari, ekologik ong, kontseptual xarita, Venn diagrammasi, T-sxema, ekologik muammolar, pedagogik texnologiyalar.*

XXI asrda insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu — ekologik muammolarni hal qilish va atrof-muhitni muhofaza qilishdir. Bunday yuksak maqsadlarga erishishda ta'lim tizimi, ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalari va ularda faoliyat yuritadigan tarbiyachilarning o'rni beqiyosdir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, bo'lajak tarbiyachilarda ekologik ong va ekologik tarbiyani shakllantirish — zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, ekologik madaniyatga ega shaxslar jamiyatda ekologik muvozanatni saqlash, tabiatga mehr bilan qarash va resurslardan oqilona foydalanishga tayyor bo'ladi.

Ekologik tarbiyani samarali shakllantirishda innovatsion metodlar, ayniqsa, vizual va grafik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday vositalardan biri – grafik organayzerlar bo'lib, ular axborotni tizimli tarzda ifodalash, ekologik tushunchalarni aniq va sodda shaklda yetkazish, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Grafik organayzerlar yordamida o'quvchilarda ekologik hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, muammolarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Bo'lajak tarbiyachilar uchun grafik organayzerlar ekologik ta'lim mazmunini osonroq anglash va uni amaliyotga tatbiq etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali tarbiyachi nafaqat bolalarda ekologik ongni shakllantiradi, balki ularning mustaqil fikrlashi, muammolarga ijodiy yondashuvi va tabiiy muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatini ham rivojlantiradi. Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarni ekologik tarbiyalashda grafik organayzerlardan foydalanishning samarali usullari, ularning turlari, amaliy qo'llanilishi va pedagogik ahamiyati yoritiladi.

So'nggi yillarda ta'limda ekologik tarbiyani kuchaytirish zarurati keng miqyosda ilmiy va amaliy jihatdan o'rganilmoqda. Ekologik madaniyat va ekologik ongni shakllantirish masalalari A. Sultonova (2020), N. Mahmudova (2018), hamda A. Yusupov (2021)larning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ular ekologik tarbiyani shaxsning ahloqiy, estetik va ijtimoiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraydilar. Biroq bu tadqiqotlarda grafik organayzerlar vositasida tarbiyachilarning tayyorloviga oid yondashuv yetarli darajada chuqur ko'rib chiqilmagan.

Grafik organayzerlar ta'lim metodikasi bo'yicha esa M.Omonov (2019) va G.To'xtayeva (2022) tomonidan qimmatli nazariy asoslar yaratilgan. Ularning izlanishlarida grafik vositalarning o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni vizual anglash, hamda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni ta'kidlangan. Ayniqsa, G.To'xtayeva o'z tadqiqotida kontseptual xaritalar va T-sxemalarning maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanishi bo'yicha amaliy tavsiyalar bergan. Biroq ushbu ishlarda ekologik tarbiya bilan grafik organayzerlarni integratsiyalash masalasi alohida o'rganilmagan.

Chet el tajribasida esa grafik organayzerlarning ekologik ta'limdagi roli ancha chuqur tadqiq qilingan. Masalan, Novak va Gowin (1984) kontseptual xaritalar yordamida ilmiy tushunchalarni shakllantirish nazariyasini ilgari surgan. Shuningdek, Ausubel (1968) tomonidan asoslangan "ma'noli o'rganish" nazariyasi grafik organayzerlardan samarali foydalanish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuvlar bo'lajak tarbiyachilarning ekologik bilimlarini chuqurlashtirish va ularda tizimli tafakkurni rivojlantirishda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlarda ekologik tarbiya va grafik organayzerlar alohida-alohida tahlil qilingan bo'lsa-da, ularning integratsiyalashgan

holda bo'lajak tarbiyachilar tayyorlovida qo'llanilishi bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas. Shu bois, mazkur mavzuni chuqur o'rganish zamonaviy ta'lim talablari nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot davomida bo'lajak tarbiyachilarni ekologik tarbiyalashda grafik organayzerlardan foydalanish imkoniyatlari chuqur o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ekologik ta'limda ma'lumotlarning murakkab va ko'p qatlamli tarkibini sodda, tushunarli va tizimli shaklda taqdim etish uchun grafik organayzerlar muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, ularning vizual ta'sirchanligi ekologik tushunchalarning samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Tadqiqotda bo'lajak tarbiyachilar bilan olib borilgan tajriba asosida aniqlanishicha, grafik organayzerlardan foydalanish ekologik muammolarni tushunishda ularning faol ishtirokini oshiradi. Masalan, T-sxema yordamida chiqindilarni saralash muammosiga oid qarama-qarshi fikrlar tahlil qilinganida, talabalar ekologik qarorlar qabul qilishda ijtimoiy mas'uliyat hissini namoyon etganlar. Venn diagrammalari esa tabiiy va sun'iy muhit o'rtasidagi farqni tahlil qilishda foydali bo'lib, mavzulararo integratsiyani amalga oshirishga xizmat qildi.

Shuningdek, grafik organayzerlar orqali ekologik tarbiya berish jarayonida talabalarda quyidagi ko'nikmalar shakllangani kuzatildi:

Tizimli fikrlash: ekologik jarayonlar va ularning o'zaro bog'liqligini tushunish;

Tanqidiy yondashuv: ekologik muammolar sabab va oqibatlarini aniqlash;

Ijodkorlik: muammoga turli burchaklardan yondashish va yechimlar ishlab chiqish;

Kommunikativlik: guruhda ishlash, o'z fikrini aniq ifodalash va bahs yuritish.

Tajriba jarayonida ishtirokchilarning fikr-mulohazalari asosida shunday xulosaga kelindi: grafik organayzerlar yordamida tashkil etilgan ekologik tarbiya darslari nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki talabalarning amaliy faoliyatga tayyorlanishiga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, grafik organayzerlar maktabgacha ta'limda bolalarga murakkab ekologik tushunchalarni soddalashtirib yetkazish uchun metodik ko'priklar bo'la oladi. Bo'lajak tarbiyachilar ushbu vositalar orqali kelajakdagi ish faoliyatida ekologik savodxon, mas'uliyatli avlodni shakllantirishda yanada samarali faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Olib borilgan tadqiqot ishlari va tajriba-sinov mashg'ulotlari natijasida quyidagi muhim holatlar aniqlandi:

Grafik organayzerlarning ekologik tarbiyadagi samaradorligi isbotlandi. Bo'lajak tarbiyachilarning ekologik bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda grafik organayzerlar — xususan, kontseptual xaritalar, Venn diagrammalari, klasterlar va T-sxemalar o'quv materialini tizimli va tushunarli shaklda o'zlashtirishga yordam

berdi.

Talabalarda ekologik tafakkur va ong shakllandi. Tadqiqot ishtirokchilari ekologik muammolarga tanqidiy yondashish, sabab-oqibatni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini egalladi. Bu ularning kelgusidagi tarbiyachilik faoliyatida bolalarga ekologik ongni singdirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Grafik organayzerlar o'quvchilarning faol ishtirokini oshirdi. Tajriba mashg'ulotlarida talabalarining ekologik mavzularni muhokama qilish, guruhviy ishlarda ishtirok etish va ijodiy yondashuv ko'rsatishlari sezilarli darajada faollashgani kuzatildi.

Dars samaradorligi oshdi. Grafik organayzerlar asosida tashkil etilgan darslar an'anaviy metodlardan farqli o'laroq, talabalarining bilimni chuqur o'zlashtirishini, mavzuni tezda eslab qolishini va amaliy faoliyatda qo'llay olish darajasini oshirdi.

Bo'lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligi mustahkamlandi. Grafik organayzerlardan foydalanish orqali talabalarda ekologik tarbiya mazmunini maktabgacha yoshdagi bolalarga moslashtirish, interaktiv uslublarni qo'llash va innovatsion dars dizaynini yaratish qobiliyatlari shakllandi.

Olib borilgan tadqiqot ishlari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Bo'lajak tarbiyachilarni ekologik tarbiyalash — zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishidir, chunki bu jarayon orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik, mas'uliyat va e'tibor shakllanadi.

Grafik organayzerlar — ekologik tarbiyani samarali tashkil etishning qudratli vositasi sifatida namoyon bo'ldi. Ular o'quv jarayonida murakkab ekologik tushunchalarni soddalashtirib, tizimlashtirish, tushunarli ifodalash va bolalarga yetkazish imkonini beradi.

Tajriba asosida isbotlandiki, grafik organayzerlardan foydalanish bo'lajak tarbiyachilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, ekologik muammolarni tahlil qilish, ularni hal qilishga oid takliflar ishlab chiqish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantiradi. Grafik organayzerlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar ta'lim oluvchilarning motivatsiyasi, faolligi va mavzuni chuqur o'zlashtirish darajasini oshirdi. Bu esa ekologik tarbiyaning samaradorligini ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berg, T. "Grafik organayzerlar: Ta'lim jarayonida samarali vosita." Ta'lim va Innovatsiyalar jurnali, 15(2), 45-58., 2020.
2. Davronov, I. "Ekologik tarbiya va uning ahamiyati." O'zbekiston ta'limi, 10(3), 23-30., 2021.

3. Khamraev, S. "Bo'lg'usi tarbiyachilarni ekologik tarbiyalashda innovatsion usullar." O'zbekiston pedagogikasi, 8(1), 12-18., 2019.
4. Murodova, N. "Grafik organayzerlar va ularning ta'limda qo'llanilishi." Ta'lim texnologiyalari jurnali, 5(4), 67-76., 2022.
5. Rasulov, A. "Ekologik tarbiya: nazariya va amaliyot." O'zbekiston ekologiyasi, 12(2), 34-40., 2020.
6. Saidova, M. "Grafik organayzerlar yordamida ekologik bilimlarni shakllantirish." Ta'lim va taraqqiyot jurnali, 7(3), 50-55., 2021.
7. Toshpulatov, F. "Innovatsion ta'lim metodlari: grafik organayzerlardan foydalanish" Oliy ta'lim muassasalari jurnali, 2(1), 15-22., 2023.
8. Xolmirzaeva, D. "Ekologik tarbiya va uning zamonaviy usullari." Pedagogika va psixologiya, 9(4), 78-85., 2022.
9. Zokirov, R. "Grafik organayzerlar: ta'limda yangi yondashuvlar." O'zbekiston ta'limi va innovatsiyalari, 11(2), 30-37, 2021.

SHARQ ALLOMALARIMIZ ILMIY MEROSIDA EKOLOGIK TA'LIM- TARBIYA

Yusupov O'ktam

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti
e-mail: yusupoovoktam64@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda yoshlarga zamon talabi asosida ta'lim va tarbiya berish, sog'lom avlod ma'naviyatini shakllantirish, ekologik dunyo qarashini kengaytirishda buyuk allomalarimiz merosidan foydalanish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb aytganidek, mustaqil respublikamizda huquqiy va demokratik jamiyat qurish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan bir paytda ma'naviy jihat-dan barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazib, hamda ularni ona tabiatni sevishga, atrof-muhit sofligini ta'minlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *ekologik ta'lim, ma'naviy tarbiya, Abu Rayhon Beruniy, ekologik madaniyat, asrash, yoshlar tarbiyasi, fanlararo bog'liqlik, milliy qadriyatlar, ekologik ong, suv va havo muhofazasi, demokratik jamiyat, o'quvchi faolligi.*

Ta'limning isloh qilishning asosiy yo'nalishlari loyihasida yoshlarni tabiiy hodisalarni to'g'ri tushunish, tabiat go'zalliklarini his qilish va uning boyliklarini qadrlash o'quvini yanada rivojlantirishning muhimligi ta'kidlangan. Shuningdek o'z o'lkasi, tabiatiga mehr va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi-gan insonlarni tarbiyalash uqtirib o'tilgan. Shu boisdan ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bilan yoshlarni tabiatdan oqilona foydalanishga, tabiiy asrab-avaylashga o'rgatish, tabiatdan foydalanishning muhim prinsiplari har bir o'quvchi-yoshlarning shaxsiy xulqi normasiga aylanishi zarur.

Faqat madaniyatli kishigina tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini oqilona yo'lga qo'yishga intiladi. Ekologik madaniyat yoshlarni tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lishiga, ularga tabiat qonunlarini o'rgatishga, qolaversa, ishlab chiqarishni, texnika va fanni ekologiyalashtirishga xizmat qiladi.

Ekologik muammolar dolzarb muammo bo'lib, uni yechimi-ni topish hamda oldini olishda o'quvchilarga ekologiyaga oid bilimlarni berish bilan amalga oshiriladi. Yoshlarning ekologik bilimlari bir qancha fanlarni o'rganish jarayonida rivojlanib boradi.

Tabiat haqidagi fanlar fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot kabi fanlarning o'zaro aloqadorligi asosida darslarni tashkil etish, ekologiyaga oid masalalarni maqsadga muvofiq hal etishga imkon beradi.

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida — odamzod tuzilishining rangi, sur'ati, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yer (odam) ning yashaydigan joylarining turlichaligidan hamdir" deb yozadi. Beruniyning bu fikridan, insonning jismonan va aqlan shakllanishiga, ekologik omillar, xuddi shuningdek ular yashaydigan joy, mintaqaning tabiiy muhiti bevosita ta'sir ko'rsatadi, natijada odamlardagi rang, axloq, sur'at o'zgarishi paydo bo'lishiga olib kelishini o'quvchilarga tushuntirish orqali, ularda ekologik bilim hosil qilinadi. Alloma o'zining "Yulduzlar haqidagi fan" asarida "Tabiat hodisalarini tushuntirganda, tabiatning o'zidan kelib chiqib va uning o'zida bo'lgan qonuniyatga dalil va tajribaga asoslanish lozim" deb yozgan fikrida, tabiat qonunlarini buzish orqali kelib chiqqan ekologik muammolarga insonning faoliyati sababchi ekanligi, tabiatni o'z tabiiy holatiga keltirish uchun esa tabiat qonuniyatlarini buzmaslik, balki unga yordamlashish orqali uning tabiiy tozaligi, musaffoligini ta'minlash, inson shaxsining ongli faoliyatiga bog'liqligini, uning ongiga singdirish, ularda ekologik madaniyatning shakllanishi orqali amalga oshirilishi kerak degan g'oya mavjuddir. Yer qobiqlari, Yer yuzidagi

o'simlik va hayvonlar, Tabiat resurslari mavzulari orqali ta'lim va tarbiya berish jarayonida bu g'oyadan o'quvchilar ongida ekologik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan ekologik madaniyatning kurtaklari rivojlantiriladi. Allomaning "Mineralogiya" asarida esa: "Insonning asosiy vazifasi mehnat orqali ko'zlagan maqsadga erishish, yaxshi-lik orqali yaxshilik ko'rishdir. Bunga uning eshitish va ko'rish sezgilari yordam beradi. Ko'rish orqali ibrat so'zlaridan lozim yakunlar qilish kerak bo'ladi" degan g'oyasi, o'quvchilarga inson ekologiyasi haqida bilimlar berish bilan ularda ekologik ta'lim — tarbiya, madaniyatni shakllantirishda, qo'llaniladigan beqiyos qimmatli xazinadir. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy kishining ish joyi, idish tovog'i, ish qurollari hammasi ozoda bo'lishi, kishining tanasi, kiyimlari ham hamisha toza bo'lishi zarur. Barcha pardozi ashyolari ichida eng muhimi va keraklisi suvdur deb uqtirgan. Abu Rayhon Beruniy asarlarida suv, tuproq, havo, quyosh nuri, shu to'rt unsur muqaddas deb hisoblangan. Suvning eng muhim ekanligini ko'rsatish bilan uni ifloslanishidan, turli yot modda- asrab — avaylab sof holda saqlash zarurligi ko'rsatilgan. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosidagi ekologik ta'lim tarbiyaga oid beqiyos g'oyalarini o'rganish, tahlil qilish, ulardan ekologik ta'lim-tarbiya berishda foydalanish o'z natijasini beradi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim-tarbiya muassasalarida fan asoslaridan mustahkam bilim berish, turli fanlarni o'qitishda yoshlarni ekologik muammolarning mohiyatini ochib beruvchi bilimlar bilan qurollantirish va shu bilimlarni o'quvchilarning amaliy faoliyati, ijtimoiy mehnati bilan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

Ekologiya fanini o'qitishda fanning tarixi va uning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Abu Nosir Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarimizning asarlarida tabiat va unga munosabat, tirik organizmlarga tashqi muhitning ta'siri, o'simliklar-ni iqlimlashtirish haqida qoldirgan ma'lumotlarini tushuntirish orqali o'quvchi va talabalarda milliy g'ururni shakllantirish masalalariga alohida e'tiborni qaratish;

Darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tabiat bilan jamiyatning o'zaro munosabatini to'g'ri talqin qilishga o'rgatuvchi ekologik bilimlarning ilmiylik darajasini oshirish;

Kelib chiqayotgan ekologik muammolarni o'z amaliy faoliyati orqali hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash;

O'quvchi-yoshlarning ekologiyaga oid nazariy bilim va amaliy malaka hamda ko'nikmalarini o'z kasbiy faoliyatida qo'llay olishi, keng jamoatchilik orasida targ'ib qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish zarur.

Bugungi kunda o'qituvchidan darsning maqsadi, mazmuni va o'quvchilarning

individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishning shakl va usullarini to'g'ri tanlay olishi talab etiladi. Bu esa dars jarayonida o'quvchilarning faol bo'lishiga, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishga olib keladi. Demak, ekologiyaga oid ta'lim-tarbiyaning samarasi beriladi-gan bilim mazmuniga, uning izchil bayon etilishiga, shuningdek fanlararo bog'lanish va mahalliylik prinsiplarining to'g'ri amalga oshirilishiga bog'liq.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchi va talabalarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyo qarashni hosil qilishda, buyuk mutafakkirlarimiz meroslarini o'rganish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Shuningdek, milliy istiqlol g'oyasini singdirishda ekologiya kursi va shu kursga oid mashg'ulotlar (turli tadbirlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar) ni to'g'ri tashkil etish, har bir mavzuga imkon boricha bog'lagan holda, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilgan holda, Ona Vatanga sadoqat, mustaqilligimizni mustahkamlashga hissa qo'shishga kamarbastalik ruhida tarbiyalashga alohida e'tiborni qaratish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Safarov., Allanazarov.K., Bekmanov.N., Abdukarimov.A., Toyirova.Z. "Nomukammal olmoslar va super o'tkazgich materiallar". – Toshkent: 2025.
2. To'raqulov B. " Sharq mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarida ekologik g'oyalar." - Toshkent: 2022.
3. Karimova M. "Sharq allomalari merosida ekologik madaniyat asoslari". – Toshkent: 2023.

НЕЙРОДИДАКТИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ РКИ: СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД НА ИННОВАЦИИ

Каюмова Нодира Карим кизи

студентка 4 курса, филологический
факультет, направление «Русский язык и
литература», Навоийский государственный
университет

e-mail: kayumovanodira0422@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются возможности нейродидактики в обучении русскому языку как иностранному (РКИ) с точки зрения молодого специалиста. Акцент сделан на важности учета когнитивных и эмоциональных особенностей учащихся. Предлагаются практические приемы, сочетающие

традиционные и нейроориентированные методы преподавания. Отмечается потенциал интеграции нейронауки в систему подготовки учителей РКИ.

Ключевые слова: *нейродидактика; РКИ; когнитивные стили; мотивация; междисциплинарный подход.*

Современное образование немыслимо без учета индивидуальных особенностей учащегося. Это особенно актуально в обучении РКИ, где пересекаются не только языковые барьеры, но и культурные, когнитивные и эмоциональные различия. Учащийся, приходящий на урок РКИ, сталкивается с множеством вызовов: от новых звуков и грамматических конструкций до непривычной логики мышления и коммуникативных норм. Именно поэтому так важен не шаблонный, а персонализированный подход к обучению [1, с. 277].

В последние годы внимание педагогов и методистов всё чаще привлекают исследования в области нейронаук, которые позволяют глубже понять, как именно человек воспринимает, перерабатывает и усваивает информацию. Нейродидактика помогает выявить и учесть факторы, влияющие на эффективность обучения: уровень стресса, мотивацию, особенности памяти, тип восприятия информации (аудиальный, визуальный, кинестетический), внимание и когнитивную гибкость [2, с. 145; 3, с. 98]. Нейроориентированная методика становится не временным трендом, а устойчивой традицией, органично сочетающей научные открытия о мозге с лучшими практиками гуманитарной педагогики. Это позволяет не только улучшать результаты обучения, но и создавать более комфортную и поддерживающую образовательную среду, в которой каждый иностранец чувствует себя уверенно и мотивированно.

Нейродидактика — это научно обоснованная область, находящаяся на стыке нейропсихологии, педагогики, когнитивной лингвистики и даже биологии. Она изучает, как функционирует мозг в процессе обучения, и предлагает такие методы преподавания, которые наиболее соответствуют естественным механизмам восприятия, обработки и хранения информации [1, с. 212].

Для преподавателя РКИ нейродидактика — это не просто модное слово, а реальный инструмент, позволяющий строить учебный процесс с учетом возможностей и ограничений мозга учащегося. Она помогает сделать обучение более осмысленным, адаптивным и, что особенно важно, мотивирующим [4, с. 88]. Одна из базовых идей нейродидактики заключается в том, что обучение происходит эффективнее, когда задействованы не только когнитивные, но и эмоциональные, сенсорные и моторные каналы.

Например, информация значительно лучше запоминается в эмоционально благоприятной среде. Это значит, что преподавателю важно выстраивать атмосферу доброжелательности, доверия, уважения кошибкам. Улыбка, шутка, теплое слово, история из жизни — всё это не «мелочи», а мощные инструменты активации лимбической системы, отвечающей за эмоциональную память. Также нейродидактика подчеркивает необходимость повторения и вариативности подачи материала. Долговременная память формируется не столько от количества заученного, сколько от частоты и разнообразия встреч с информацией в разных контекстах. Например, лексика по теме «погода» может быть представлена и в диалоге, и в видеофрагменте, и в настольной игре, и в личной истории. Это помогает создать прочные нейронные связи и активировать материал в спонтанной речи.

Кроме того, принципы нейрообучения предполагают работу с разными типами мышления: логическим, образным, ассоциативным. Это особенно важно в поликультурных аудиториях, где учащиеся могут по-разному интерпретировать одну и ту же информацию. Задания на сравнение, классификацию, визуализацию и телесную реакцию (жест, движение) делают обучение не только глубже, но и интереснее.

Таким образом, нейродидактика вооружает преподавателя РКИ знанием о том, как учить, исходя из того, как учится мозг. Это делает урок не просто передачей знаний, а процессом, в котором учащийся чувствует себя активным участником, а не пассивным получателем информации [2, с. 211].

Как студенты, проходившие педагогическую практику в смешанных группах РКИ, мы убедились, что даже небольшие изменения в структуре урока, основанные на принципах нейродидактики, могут значительно повысить мотивацию, внимание и качество усвоения материала. Ниже приводим несколько простых и действенных приемов, которые оказались особенно эффективными на практике:

1. **Мультимодальное обучение** Этот подход предполагает одновременное или последовательное задействование нескольких каналов восприятия: визуального, слухового, кинестетического. Например, учащиеся сначала слушают короткий аудиофрагмент (слуховой канал), затем соотносят услышанное с иллюстрациями или комиксами (визуальный канал), а после этого проигрывают ситуацию в парах с использованием мимики и жестов (двигательный канал). С точки зрения нейронаук, каждый канал активирует разные зоны мозга, и при их синхронной работе создаются более прочные нейронные связи. Информация «укладывается» в память не в одном, а сразу в нескольких отделах, что повышает шансы на её воспроизведение в реальной

речи.

2. Метод эмоционального резонанса Задания, вызывающие эмоциональную отклик, активируют неокортекс и лимбическую систему — зоны мозга, отвечающие за обработку эмоций и формирование долговременной памяти. В практике это реализуется через включение автобиографических заданий, рассказов о себе, обсуждение личных предпочтений, взглядов, привычек.

Например, при изучении темы «Еда» студенты не просто читают диалог о ресторане, а создают меню своей национальной кухни и рассказывают о любимом блюде детства. Такие личностно окрашенные высказывания становятся якорями памяти: язык обретает индивидуальный смысл и эмоциональную окраску, что способствует более глубокому усвоению материала.

3. «Правило трёх»: правило – пример – игра (или проект) Этот прием хорошо работает при объяснении грамматических явлений и является разновидностью нейродидактического принципа вариативного повторения. Сначала студент получает четкое и краткое объяснение правила, затем видит его в контексте (предложения, диалог, текст), а затем — «проживает» это правило в игровой или проектной форме. Например, при изучении прошедшего времени учащиеся сначала знакомятся с моделью (правило), затем подставляют глаголы в контекст (примеры), а затем разыгрывают сценку «Что я делал вчера?», используют карточки для сторителлинга или создают комикс. Такие упражнения повышают активное внимание, улучшают перенос знаний из пассивной в активную речь и закрепляют структуру в долговременной памяти.

Важно, что все эти методы легко адаптируются под уровень учащихся и позволяют сохранять баланс между инновацией и методической традицией. Их сила — в простоте, а эффективность — в нейropsихологическом обосновании. Главное — быть внимательным к тому, как чувствуют себя студенты на уроке: их интерес, улыбки, живое участие — лучший индикатор того, что методика работает.

Традиции остаются актуальными, но требуют обновления. Методические традиции преподавания русского как иностранного складывались десятилетиями и доказали свою эффективность. Работа с художественным текстом, диктанты, лексические таблицы, грамматические упражнения — всё это остаётся важной частью учебного процесса. Однако с появлением нейроподхода к обучению эти методы начинают использоваться по-новому, в более гибкой, вариативной форме, отвечающей особенностям восприятия

и запоминания информации современными студентами.

Так, диктант в рамках нейродидактики перестает быть монотонным воспроизведением текста под диктовку. Он превращается, например, в интерактивный диктант с выбором вариантов, где учащимся предлагается не только записать услышанное, но и включиться в активную когнитивную работу: выбрать нужное слово из ряда, спрогнозировать продолжение фразы, вставить подходящее выражение. Это активизирует зоны мозга, отвечающие за внимание, предикативность и языковую гибкость.

Художественный текст тоже трансформируется: вместо того чтобы читать его линейно и выполнять типовые задания, студенты могут разбирать текст в виде сюжетного комикса или ментальной карты, выделяя ключевые сцены, персонажей, мотивацию героев. Такой подход вовлекает зрительную память, стимулирует ассоциативное мышление и развивает навык переработки информации — не только понимание, но и творческое переосмысление.

Механическое заучивание лексики, которое часто воспринимается как скучное и утомительное, приобретает форму лексического квеста, карточной игры, движения по «словарной карте», где слово связывается не только с переводом, но и с конкретной ситуацией, эмоцией, телесной реакцией. Такой способ активизирует семантические и моторные зоны мозга одновременно, что способствует долговременному запоминанию.

Таким образом, нейродидактика не отвергает традиционные формы обучения, а наоборот — усиливает их за счет адаптации к реальным возможностям и потребностям мозга. Традиции получают вторую жизнь: они не уходят, а становятся основой для более глубокой, многослойной работы с языком.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гинден, И. А. Нейропсихология и обучение: от теории к практике. Москва: Просвещение. 352 с., 2021,
2. Занков, Л. В. Нейропсихологические аспекты обучения. Санкт-Петербург: Питер. 288 с., 2020.
3. Медоуз, С. Развитие мозга и обучение. — Москва: Когито-Центр. 310 с., 2018.
4. Красильникова, О. Н. Традиционные методы в новом контексте. -Москва: Языки народов мира. 198 с., 2022.
5. Бьюзен, Т. Суперпамять на практике. -Москва: Эксмо.(256 с., 2017.

МЕТАМОДЕРНИСТСКАЯ ПЕРСПЕКТИВА ВОСПРИЯТИЯ МИРА НЕЗРЯЧЕЙ МОЛОДЕЖИ

Сеитов Азамат Пулатович

Институт перспективных международных
исследований УМЭД Заведующий
лабораторией, д.с.н., проф.
e-mail: a.seitov@iais.uz

Аннотация: В статье рассматривается возможность описания и понимания окружающего мира вне визуальных образов, а именно, через внутренние когнитивные модели, как это происходит у незрячих от рождения. В качестве методологической основы выбрана парадигма мета-модерна. Используются данные нейронауки, теории телесного познания и социальной феноменологии для объяснения того, каким образом незрячие формируют альтернативные ментальные карты и автономные версии реальности. На примере Узбекистана анализируются образовательные и социальные практики, направленные на инклюзию незрячей молодежи. Статья делает акцент на пересмотре понятий «тьмы» и «зрения», утверждая, что отсутствие визуального восприятия не является дефицитом, а представляет собой иную форму познания и бытия.

Ключевые слова. *Мета-модерн, незрячие, инклюзия, телесное познание, Узбекистан, альтернативное восприятие, технологии, интеграция.*

В настоящее время все больше внимания привлекает парадигма «мета-модерна», нацеленная на стремления к искренности, не утрачивая осознания сложности мира. В контексте статьи ставится попытка ответить на вопрос «можно ли описать и понимать мир не через визуальные образы, а через внутренние когнитивные модели, как это делают незрячие от рождения?».

При подготовке статьи сделан упор на парадигму мета-модерна как интерпретативного подхода, который сочетает диалектический баланс, открытость множественности, междисциплинарность, рассмотрения знания как динамического и открытого процесса.

Постараемся ответить на этот вопрос через доступные нейронаучные данные, социальное восприятие и мета-модернистскую логику. Так, в традиционной нейронауке утверждается, что визуальная информация обрабатывается в двух магистральных потоках (а) вентральный путь (или «что»), отвечая за распознавание объектов, форм, лиц, цвета и (б) дорсальный путь («где»), обрабатывая пространственные отношения и движение объектов.

Имеются исследования в которых утверждается, что у незрячих эти зоны коры не остаются неактивными. Как результат они трансформируются для обработки слуховой, тактильной и вербальной информации. То есть, слепой мозг не лишён способности к «видению» в широком смысле. Он создает альтернативные когнитивные карты мира на основе других сенсорных модальностей. Со своей стороны, теория телесного познания утверждает, что познание неотделимо от сенсорного и моторного опыта. У незрячих мир моделируется не на основе визуального ввода, а через тактильные и аудиовизуальные паттерны, формируя свои опять таки альтернативные ментальные образы. Важно отметить, что они не являются упрощённой копией с описаний зрячих людей, а некая иная схема, основанная на проживании незрячим объективного мира.

Считается, что незрячие, в том числе, молодые люди, с рождения воспринимают и интерпретируют объективный мир на основе чужого опыта, то есть, языковых описаний в результате социальных взаимодействий. И здесь, на мой взгляд, нет простого копирования восприятия от зрячих людей. Незрячие люди не пассивны, а наоборот, их внутренние модели реальности автономны, лишь включая элементы заданных описаний со стороны зрячих. По сути, можно говорить, что у незрячих в мозгу своя версия объективной реальности. Считается, что в ней визуальные атрибуты заменены структурными, аудиальными и ощущениями, связанными с движением в пространстве.

В этом контексте отметим, что парадигма метамодерна допускает множественность восприятий и истин, что делает феномен слепоты особенно значимым. Отсюда я вывожу мнение о том, что мир без глаз — это не отсутствие понимания мира, а иная его структура. Здесь уместно мысль Жака Лакана о том, что «мы видим не глазами, а через желание видеть». То есть, у незрячих нет световых образов, но есть стремление понять, а значит оно формирует свою уникальную картину мира. Есть все основания полагать, что эта картина объективного мира не менее насыщенная, чем зрительная. Поэтому со стороны зрячих незрячих надо не жалеть, а найти способы синтеза этих картин.

Это позволит сделать пространство зрячих более инклюзивным для незрячих, если конечно они нуждаются в этом мире. Так, зрячий человек в полной тьме начинает терять чувство реальности. Но для незрячего эта тьма или отсутствие света и есть естественная среда обитания, в которой он не только ориентируется, но и живёт в другой конфигурации реального.

Говоря об Узбекистане выделим, что жизнь молодых незрячих людей представляет собой сложный сплав образовательных, социальных и профессиональных вызовов, а также возможностей, формируемых

государственной политикой, инициативами гражданского общества и научными исследованиями. Так, ученые-исследователи играют важную роль в продвижении инклюзивных практик в Узбекистане. Например, социолог Абдулла Абдухалилов выступает за создание равных возможностей в сфере образования. Жизнь молодых незрячих людей в Узбекистане характеризуется стремлением к самостоятельности и активному участию в обществе. Несмотря на существующие барьеры, усилия государства, научного сообщества и гражданских инициатив направлены на создание инклюзивной среды, где каждый человек, независимо от физических возможностей, имеет равные права и возможности для развития и самореализации.

Таким образом, мы можем утверждать, что тьма не есть пустота для зрячих, а просто иная модальность бытия незрячих. Они не менее способны к познанию мира, чем зрячий, просто путь незрячих сейчас другой. Парадигма метамодернизма позволит увидеть в этом не ограничение, а альтернативную эпистемологию, основанную на множественности чувств, внутренней интуиции и когнитивной пластичности мозга.

В этом отношении уверен Узбекистану важно перенимать опыт стартапов, направленных на улучшение качества жизни незрячих и слабовидящих людей. Эти инновационные проекты охватывают различные сферы от навигации и коммуникации до досуга и образования. На мой взгляд, интерес представляет опыт Греции, где разработано носимое устройство с камерой и интерфейсом обработки естественного языка, предоставляющее пользователю аудиоописания окружающей среды в реальном времени. Тем самым, устройство помогает в распознавании объектов, чтении текста и ориентации в пространстве. Это касается и важности рассмотрения опыта США, где есть мобильные приложения дополненной реальности, позволяющее незрячим пользователям находить и идентифицировать объекты и текст в окружающей среде с помощью камеры смартфона.

В завершение выделю, что человеческий разум способен видеть без глаз, слышать тишину и осмыслять то, что недоступно прямому восприятию. А значит важно со стороны благотворительных организаций мира помогать незрячим, в первую очередь, молодым, формировать свою культуру и своих классиков в различных направлениях.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Bavelier D., Neville H.J. Cross-modal plasticity: where and how? // Nature Reviews Neuroscience. Vol. 3, No. 6. P. 443-452, 2002.
2. Петрова А.В. Телесная когнция и структура воображения у слепых от

- рождения // Когнитивные исследования языка. № 2. С. 101-112, 2025.
3. Gallagher S. How the Body Shapes the Mind. Oxford: Oxford University Press, 272 p. 2005.
 4. Шарипов Ф.К. Семантические карты мира незрячих: лингвистический и культурный аспекты // Социальные и гуманитарные науки. № 6. С. 78–89., 2024.
 5. Салимова Н.М. Феноменология слепоты в метамодернистской перспективе // Философские науки. № 3. С. 120–128, 2025.
 6. Сеитов А.П. Повышение активности молодежи в вопросах здоровья, социальной адаптации и экологии через развитие инклюзивной системы образования. / Сборник материалов научно-практической конференции на тему: «Социальная защита материнства и детства в условиях модернизации узбекистанского общества» (Ташкент, 29 апреля 2016 г.) – С. 183-187.
 7. Узбекистан: Почему дискриминируются незрячие педагоги? // <https://labourmission.org/ru/news/pochemu-diskriminiruyutsya-nezryachie-pedagogi/>
 8. https://arxiv.org/abs/2405.07606?utm_source=chatgpt.com “Alris: An AI-powered Wearable Assistive Device for the Visually Impaired”
 9. <https://attoday.co.uk/13-ces-2024-award-winning-assistive-tech-innovations-for-healthcare-professionals-to-know-about/>

АДАПТАЦИЯ СТУДЕНТОВ К НОВОМУ ЭТАПУ ЖИЗНИ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТЫ

Ф.Х. Сирожиддинова

доцент кафедры Педагогике и психологии
АГПИ

Махмудова Сарвиноз Жахонгир кизи

студентка 1- курса

Аннотация: В статье рассматриваются основные аспекты адаптации студентов к новому этапу жизни — переходу от школьного к студенческому

образованию. Анализируются формы адаптации (академическая, социальная, психологическая), трудности, с которыми сталкиваются студенты, а также роль родителей, преподавателей и сверстников в успешной адаптации. Приводятся практические рекомендации, примеры реальных кейсов и ссылки на научные исследования. Сделан вывод о важности комплексной поддержки студентов в адаптационный период.

Ключевые слова: адаптация студентов, студенческая жизнь, академическая адаптация, социальная поддержка, психологическая устойчивость, кураторская помощь, родительская поддержка.

Переход от школьного этапа к студенческой жизни сопровождается серьезными изменениями в образе жизни, окружении и уровне ответственности. Студенты сталкиваются с необходимостью самостоятельно принимать решения, выстраивать новые социальные связи, адаптироваться к иным формам учебной деятельности и требованиям преподавателей. В этот период крайне важно обеспечить условия, которые помогут студенту пройти адаптационный период с минимальными потерями и максимальной пользой.

Понятие адаптации и ее основные виды в студенческом возрасте. Адаптация — это процесс активного приспособления индивида к условиям внешней среды. В рамках студенческой жизни она охватывает три ключевых направления: Академическая адаптация — умение усваивать учебный материал в новом формате (лекции, семинары, самостоятельная работа). Социальная адаптация — установление новых социальных связей: с одноклассниками, преподавателями, сотрудниками университета.

Психологическая адаптация — внутреннее принятие новых условий, развитие устойчивости к стрессу, осознание своей новой роли. Эти формы тесно взаимосвязаны и определяют общее качество адаптационного процесса.

Основные трудности адаптационного периода.

Наиболее распространенные проблемы студентов в начале обучения: Отрыв от привычной среды: студенты, особенно иногородние, переживают отрыв от семьи, друзей, прежнего образа жизни. Проблемы в коммуникации: сложности при установлении контакта с сокурсниками, боязнь проявить инициативу. Учебный стресс: новый формат подачи материала, отсутствие контроля со стороны преподавателей, необходимость самостоятельно распределять нагрузку. Эмоциональное напряжение: страх не справиться с требованиями, неудачи на первых экзаменах, сомнения в выборе профессии.

Финансовые трудности: студентам нередко приходится совмещать

учебу и работу, что усиливает стресс. Эти факторы, действуя совместно, могут спровоцировать апатию, тревожность и даже депрессивные состояния. Поощрение инициативности со стороны учителей, принятия собственных решений помогает развить студенту уверенность в себе. Благодаря чему студент будет без страха проявлять свои таланты и интересы. Обсуждение целей, распределение учебной нагрузки, помощь в организации быта (особенно у иногородних). Важно, чтобы родители сохраняли баланс между контролем и доверием. Образовательное учреждение имеет огромный потенциал влияния на адаптацию студента: Кураторская работа. Закрепление за группой преподавателя-наставника помогает студентам легче ориентироваться в системе вуза. Гибкость в обучении: преподаватели, использующие интерактивные методы, формируют у студентов активную позицию в обучении. Связи с учителями и администрацией института, снижают тревожность студентов и повышают уровень доверия. Психологическая служба вуза: наличие квалифицированной помощи способствует профилактике эмоционального выгорания. Интеграционные мероприятия: дни первокурсника, студенческие фестивали, адаптационные курсы помогают студентам быстрее влиться в коллектив и проявлять себя.

Роль сверстников и друзей. Социальная среда — один из важнейших факторов адаптации. Друзья и сокурсники могут: Обеспечивать чувство принадлежности: студент чувствует себя частью коллектива, что снижает тревожность. И помогает им осваивать предметы, через беседы и советы друзей. Выступать источником поддержки: обмен опытом, совместная подготовка к экзаменам, эмоциональная разрядка. Стимулировать активность: участие в мероприятиях, вовлеченность в жизнь факультета, волонтерская деятельность. Формировать ценности: общение с единомышленниками способствует развитию личностных установок, расширению кругозора. Неформальные связи часто становятся опорой в трудные моменты и служат базой для будущего профессионального взаимодействия.

Президент Шавкат Мирзиёев 14 февраля провел встречу с представителями молодежи. В формате видеоконференции обсуждены меры по дальнейшему расширению возможностей для молодых людей. В начале встречи глава государства выразил радость от возможности вновь встретиться с молодежью и назвал ее «золотым фондом нашего народа». Одним из наиболее эффективных способов борьбы с бедностью является образование. Поэтому будут созданы условия для того, чтобы хотя бы один ребенок в малообеспеченной семье получил высшее образование путем предоставления беспроцентных образовательных кредитов, дополнительных

грантов и помощи в оплате контракта. Для талантливых молодых людей из социально уязвимых семей будет запущен новый проект «Светлое будущее» по обучению за рубежом. Агентство по делам молодежи окажет поддержку каждому студенту, обучающемуся за рубежом, а образованные молодые люди будут направляться в зарубежные вузы из топ-100 с покрытием расходов на обучение и проживание. Выпускники, получившие образование за рубежом, будут включены в национальный кадровый резерв и приняты на работу в государственные органы без конкурса. Кроме того, молодым ученым до 35 лет, получившим ученую степень в престижных международных университетах, будет предоставлена беспроцентная ссуда до 800 миллионов сумов на приобретение жилья сроком до 10 лет. Размер единовременного денежного вознаграждения для победителей и призеров престижных международных научных олимпиад будет увеличен в 5 раз. Учитывая все трудности обучения, правитель государства создает все возможные шансы на образование: Выделяет стипендии, а чтобы поддержать Start-up проекты выделяются кредиты без процентов.

Рекомендации по эффективной адаптации: Для более мягкого и продуктивного прохождения адаптационного периода можно рекомендовать:

Поддерживать регулярную связь с семьей: Быть в курсе каких-то отношений с родителями у студентов. Если есть какие-то проблемы, то помогать решить их через беседу с психологом института. Знать психологическое состояние студента. Пользоваться всеми предложенными возможностями: консультации, с психологом, изучать медитации. Учиться сдерживаться, проявлять свои хорошие стороны. Кружки драмы, поэзии и кружки читателей. То есть контролировать свое свободное время. Командные проекты. Они помогают, студентам адаптироваться в группе, легче узнавать друг друга, и научиться коммуникации в команде.

Развивать навыки тайм-менеджмента:

Установка целей

SMART-цели:

S (Specific) — конкретными

M (Measurable) — измеримыми,

A (Achievable) — достижимыми,

R (Relevant) — актуальными,

T (Time-bound) — ограниченными во времени. Пример: Не «выучить математику», а «решить 20 задач по алгебре до пятницы».

Советы: Планируйте неделю в воскресенье. Делайте ежедневные списки задач. Используйте метод “3 главных задачи в день” — выбирай три

ключевые цели на день. Заведите блокнот для записи

Примерный распорядок дня студента:

Время	Деятельность
07:00–08:00	Подъём, зарядка, завтрак
08:00–12:00	Учёба / пары
12:00–13:00	Обед, отдых
13:00–16:00	Самостоятельная работа, задания
16:00–17:00	Прогулка, отдых
17:00–19:00	Учёба или хобби
19:00–21:00	Вечер, досуг, ужин
21:00–22:00	Подготовка ко сну

Адаптация студентов к новому этапу жизни — процесс комплексный и многоуровневый. Он зависит как от внутренних ресурсов самого студента, так и от условий, которые ему создают окружающие: семья, вуз, преподаватели, друзья. На этом этапе формируются новые социальные связи, меняется ритм жизни, появляются новые обязанности и ожидания, что требует от студента гибкости, эмоциональной устойчивости и умения быстро приспосабливаться к изменяющимся условиям.

Особенно значимую роль в успешной адаптации играет образовательная среда вуза, где важны не только академические требования, но и поддержка со стороны преподавателей, наличие психологической помощи, доступ к внеучебной деятельности и благоприятный морально-психологический климат. Не менее важно участие семьи, которая может выступать источником эмоциональной поддержки и стабильности.

Таким образом, адаптация — это не только индивидуальный путь каждого студента, но и совместная задача всех субъектов образовательного процесса. Создание условий, способствующих снижению стресса, формированию чувства безопасности и принадлежности, развитию навыков самоконтроля и коммуникации — основа для успешного вхождения студента в новый жизненный этап. Комплексная поддержка и внимательное отношение к индивидуальным особенностям позволяют значительно повысить уровень

адаптации и, как следствие, успешности обучения и саморазвития.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Мирзиёев, Ш. М. (2025, 14 февраля). Встреча с представителями молодежи. В формате видеоконференции обсуждены меры по дальнейшему расширению возможностей для молодых людей. Uzinfocom.
2. Ахмедова, З. Трудности социальной адаптации студентов в вузе. Центр научных публикаций БухГУ, (17)., 2022,
3. Ильина, И. В. Психологические аспекты социализации и адаптации студентов в вузе., 2016.
4. Ковалев, А. М., & Соловьева, Т. Л. Социальная поддержка студентов в процессе адаптации в вузе. Психологические исследования, 45–58., 2019.

РОЛЬ И МЕСТО УМСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ В ПЕДАГОГИКЕ

Эгамбердиева Дилдора Тохиржон кизи

Студенка направления Дошкольное
образование Андижанского
государственного педагогического
института
e-mail: dilimegamberdiyeva@mail.ru

Аннотация: данная работа посвящена исследованию роли и места умственного воспитания дошкольников в системе педагогики. Умственное воспитание является ключевым компонентом раннего развития ребенка, так как в этот период закладываются основы когнитивных процессов, таких как мышление, внимание, память и воображение. В статье рассматриваются основные аспекты умственного воспитания, его значение для формирования базовых знаний и навыков, а также влияние на социальное взаимодействие детей.

Ключевые слова: дошкольники, раннее развитие, когнитивные процессы, мышление, внимание, память, воображение, игровые методики.

Умственное воспитание дошкольников является важным аспектом

общей системы образования и воспитания детей в раннем возрасте. В этот период закладываются основы не только интеллектуального, но и личностного развития, что определяет дальнейший успех ребенка в обучении и жизни.

Умственное воспитание включает в себя формирование у детей начальных представлений о мире, развитие мышления, внимания, памяти, воображения и других когнитивных процессов. Оно направлено на развитие способности к познанию, критическому мышлению и решению проблем. Важно отметить, что умственное воспитание не ограничивается лишь передачей знаний; оно включает в себя и формирование умений и навыков, необходимых для самостоятельного обучения.

Дошкольный возраст - важнейший этап развития и воспитания личности. Говоря о развитии, воспитании и формировании личности, необходимо учитывать, что понятия эти взаимосвязаны, дополняют друг друга. Под развитием личности понимается качественное изменение её свойств, переход от одного качественного состояния к другому. Формирование будущей личности предполагает осуществления всестороннего воспитания ребёнка. Уже в дошкольном возрасте одной из таких сторон является умственное развитие. Л. Г. Семушина отмечала, что умственное развитие - это совокупность количественных и качественных изменений, происходящих в мыслительной деятельности ребёнка в связи с возрастом, обогащением опыта и под влиянием воспитательных воздействий [4]. В ходе развития происходит превращение ребёнка как биологического индивида в человека как личность — члена человеческого общества. Педагогика и психология утверждают, что все психические свойства и качества личности развиваются и формируются в процессе жизнедеятельности человека, его общения с другими людьми, взаимодействуя с окружающей средой. Большую роль в этом играет воспитание.

Умственное воспитание в этот период играет ключевую роль по нескольким причинам:

- Формирование основ знаний: дети начинают осваивать базовые концепции, такие как числа, цвета, формы и т.д. Это создает фундамент для дальнейшего обучения в школе.
- Развитие когнитивных навыков: умственное воспитание способствует развитию таких навыков, как логическое мышление, внимание, память и воображение. Эти навыки необходимы для успешного обучения и адаптации в обществе.
- Социальное взаимодействие: в процессе умственного воспитания дети учатся взаимодействовать друг с другом, обмениваться мнениями и

работать в команде, что способствует развитию социальных навыков.

Традиционное обучение в истории педагогики обеспечивало лишь сумму знаний, которые быстро устаревали, а методы обучения не способствовали развитию познавательной самостоятельности учащихся. М. Н. Скаткин и И. Я. Лернер предложили новую классификацию методов обучения, ориентировавшую учителей на постепенное повышение познавательной самостоятельности учащихся. В 60-е годы началась перестройка системы начального образования усилиями научного коллектива в составе В. В. Давыдовой, Д. Б. Эльконина, Л. В. Занкова, Н. А. Менчинской [4, 5].

Современная педагогическая наука считает, что основными показателями умственного развития являются усвоение системы знаний, накопление их фонда, развитие творческого мышления и овладение способами познавательной деятельности, необходимыми для приобретения новых знаний. Полноценное умственное развитие происходит только в процессе организованной деятельности, поэтому задача педагогов заключается как в создании соответствующих условий для этого, так и в осуществлении целенаправленных воспитательных воздействий на ребёнка [3].

В работах отечественных и зарубежных ученых дошкольное детство определяется как период, оптимальный для умственного развития и воспитания. Так считали педагоги, создавшие первые системы дошкольного воспитания, Ф. Фребель, М. Монтессори. Но в исследованиях А. П. Усовой, А. В. Запорожца, Л. А. Венгера [2], Н. Н. Поддьякова выявлено, что возможности умственного развития детей дошкольного возраста значительно выше, чем считалось ранее. Ребенок может не только познавать внешние, наглядные свойства предметов и явлений, как это предусмотрено в системах Ф. Фребеля, М. Монтессори, но и способен усваивать представления об общих связях, лежащих в основе многих явлений природы, социальной жизни, овладевать способами анализа и решения разнообразных задач.

Становление научной педагогики связано с именем замечательного чешского мыслителя-гуманиста, педагога Яна Амоса Коменского [1].

В области умственного воспитания Коменский ставил задачу способствовать накоплению детьми с помощью органов чувств возможно большего запаса конкретных представлений об окружающем мире, развивать их мышление и речь, с тем чтобы подготовить их к дальнейшему систематическому обучению в школе. Коменский полагал, что в первые шесть лет жизни ребенок должен узнать из области естествознания, что такое огонь, воздух, вода и земля, дождь, снег, лед, свинец, железо и так далее; из

области астрономии он должен узнать, что называется небом, солнцем, луной и звездами; из географии — где он родился и где он живет (деревню, город, крепость или замок); а также представлять себе, что такое гора, долина, река, город, деревня и прочее. Кроме того, ему следует знать некоторые единицы времени и времена года (час, день, неделя, месяц, год, весна, лето, осень, зима). Таким образом, Коменский имел в виду дать ребенку дошкольного возраста первые представления об окружающих его предметах и явлениях природы на основе наблюдения их.

Центральный пункт педагогической программы Жак — Жака Руссо – естественное воспитание. Естественное воспитание, описанное Руссо в его произведении «Эмиль...», осуществляется на основе предложенной им возрастной периодизации. Учитывая характерные признаки, свойственные детской природе на различных ступенях естественного развития, Руссо установил четыре возрастных периода в жизни ребенка. Определив ведущее начало для каждой ступени развития, он в соответствии с этим указывал, на что должно быть направлено основное внимание воспитателя.

Важнейшим средством воспитания и развития человека, по Песталоцци, является труд, который развивает не только физические силы, но и ум, а также формирует нравственность. У человека, который трудится, создается убеждение об огромном значении труда в жизни общества, оно является важнейшей силой, связывающей людей в крепкий общественный союз.

В педагогике существует множество методов и подходов к умственному воспитанию дошкольников. Среди них можно выделить:

- Игровые методики: игры являются основным способом обучения детей в дошкольном возрасте. Они делают процесс познания увлекательным и интересным.
- Проектная деятельность: создание проектов позволяет детям применять свои знания на практике, развивая при этом креативность и критическое мышление.
- Интегрированный подход: объединение различных областей знаний (математика, окружающий мир, искусство) помогает детям увидеть взаимосвязи между различными явлениями.

Умственное воспитание дошкольников занимает центральное место в системе педагогики. Оно не только способствует развитию когнитивных навыков, но и формирует личность ребенка, готового к обучению и взаимодействию с окружающим миром. Важно продолжать исследовать и внедрять эффективные методы умственного воспитания, чтобы обеспечить детям наилучшие условия для их развития.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Коменский, Й. А. (2022). Великая дидактика. Москва: Книга по Требованию. (349 с.)
2. Венгер, Л. Д., Дъяченко, О. М., Говорова, Р. И., & Тсекханская, Л. И. (1989). Игры и упражнения по развитию умственных способностей у детей дошкольного возраста. Москва: Маърифат нашриёти. (127 с.)
3. Венгер, Л. Д. (Эд.). (1978). Дидактические игры и упражнения по сенсорному воспитанию дошкольников: Пособие для воспитателя детского сада. Москва: Маърифат нашриёти. (224 с.)
4. Корчак, Й. (2021). Как любить ребенка (К. Сенкевич, Транс. фром Полиш). Москва: Эксмо. (512 с.)
5. Поддъяков, Н. Н., & Сохин, Ф. С. (Эдс.). (1984). Умственное воспитание детей дошкольного возраста. Москва: Маърифат нашриёти. (207 с.)

3-SHO'BA. RAQAMLASHTIRISH VA AXBOROT MAYDONIDA YOSHLAR: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, MEDIASAVODXONLIK VA ONLAYN FAOLLIK

THE ROLE OF TECHNOLOGY IN SHAPING MEDIA LITERACY AMONG YOUTH AND CHILDREN

Abdullaeva Diyora Alliyarovna

Staff Member of the Secretariat of
Commissioner of the Oliy Majlis for Human
Rights (Ombudsman) Independent PhD
Applicant, TSUL
e-mail: abdullaevadiyora777@gmail.com

Abstract: This article is devoted to the analysis of key mechanisms and components that contribute to the development of media literacy among young people and children. Media literacy is an essential skill that enables the younger generation to critically perceive, filter, and use information responsibly. The article highlights the characteristics of media literacy, the role of the education system in its development, the importance of digital technologies, and the aspects of forming an information culture in modern society.

Keywords: *media literacy, information culture, digital technologies, human rights, children rights.*

In today's information age, the lives of young people and children are deeply intertwined with media resources. The internet, social networks, and digital platforms have become integral to their daily activities. Consequently, media literacy encompasses not only technical knowledge but also the ability to critically analyze information, assess its credibility, and apply it responsibly.

According to data from the Oxus Society for Central Asian Affairs, Uzbekistan has a significant youth population, with the median age around 27 and over a quarter under 14 [3]. This demographic is particularly susceptible to accepting false or manipulative information as truth due to limited life experience.

A 2021 study by Internews on media consumption and literacy in Central Asia indicates that media literacy levels remain low in the region. This deficiency can have serious consequences, such as youth being drawn into radical or extremist groups. For instance, in August 2023, a 22-year-old Uzbek citizen was reportedly recruited by a terrorist organization and traveled to Syria to participate in combat [4].

Additionally, the spread of harmful content on social media poses significant risks. In February 2025, The Guardian reported that parents of four British teenagers filed a lawsuit against TikTok, alleging that their children's deaths resulted from the viral "Blackout Challenge" [2]. Experts have labeled this challenge as misinformation, as it conceals the potential consequences. The parents have urged TikTok to take responsibility for the dissemination of such dangerous content.

Digital development is now a key indicator of a country's progress and alignment with global trends, as well as a crucial element of political, economic, and social advancement. However, the concept of "digital rights" has only recently been incorporated into legal practice. Terms like "network rights", "information rights" and "internet rights" are often used interchangeably, but their interpretations vary among scholars, leading to debates about their applicability to human rights in the digital environment.

This article explores the role of technology in shaping media literacy among youth, particularly in the context of ongoing reforms in Uzbekistan. The country is undergoing significant transformations in science, technology, and information and communication technologies (ICT). The media landscape has become a vital component of this process, serving not only as a means of information dissemination but also as a powerful force in shaping public consciousness.

One of the "Five Important Initiatives" proposed by President Shavkat Mirziyoyev focuses on enhancing computer literacy among young people, reflecting the government's commitment to digitalization. These efforts contribute to the development of a media-socialized society in Uzbekistan [1].

Media literacy—the ability to analyze, evaluate, and effectively use information—has become an essential skill for youth. It enables them to protect themselves from fake news, manipulative content, and information threats, while also fostering independent critical thinking.

In the era of advanced technology, education plays a pivotal role in cultivating media literacy. Integrating specialized subjects on media literacy, digital culture, and critical thinking into school and university curricula is imperative. Continuous professional development for educators and the enhancement of their digital competencies are also necessary.

Developing media literacy should extend beyond theoretical knowledge to include practical application through:

- Training sessions on identifying fake news;
- Utilization of interactive platforms and simulations;
- Student participation in social projects;
- Instruction on fact-checking tools.

These methods not only enrich knowledge but also cultivate youth as responsible consumers and disseminators of information.

The modern world demands flexible and effective approaches. For example, Germany's *Netzwerkdurchsetzungsgesetz* (NetzDG), enacted in 2017, aims to combat provocative threats and the spread of false information online. The law mandates that internet platforms remove illegal content posted by users within 24 hours.

In the digitalization era, technologies such as virtual reality, artificial intelligence, cloud computing, and remote educational platforms have revolutionized the acquisition, analysis, and dissemination of information. These tools are integral to contemporary education systems and facilitate the effective development of media literacy.

Youth must acquire skills to detect fakes and manipulations, analyze information, select reliable sources, and engage in ethical communication on social networks.

The formation of media literacy is not solely the responsibility of the education system but also of society as a whole. Parents, public organizations, media, and government institutions must collaborate. Youth should have freedom in the information space while being responsible and respectful of moral and cultural values.

As President Shavkat Mirziyoyev stated: "Youth must meet the demands of the time. But they must not forget their essence. Who we are, descendants of which great personalities — we must constantly remind ourselves of this".

In conclusion, media literacy is one of the most crucial skills needed by modern youth to navigate the information-rich world confidently. Education, digital technologies, and societal engagement play key roles in its development.

The slow advancement of media and information literacy can pose significant threats to the comprehensive development of youth. Given the modern world's saturation with diverse information from various sources, possessing media literacy skills is essential for successful adaptation and active participation in society.

Through specialized educational programs, interactive approaches, and broad social cooperation, it is possible to guide the younger generation through the information flow, develop their critical thinking, and nurture them as responsible users and creators of media content. This establishes a solid foundation for a sustainable and progressive future for our society.

REFERENCES

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning (2017, 15-iyun). "Ijtimoiy barqarorlikni

- ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi (p. 3). Manba: https://uzsm.uz/uz/press_center/uzb_news/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-ijtimoiy-barqarorlikni-ta-minlash-muqadda
2. Hall, R. (2025, February 7). Parents sue TikTok over child deaths allegedly caused by 'blackout challenge'. The Guardian. Manba: <https://www.theguardian.com/technology/2025/feb/07/tiktok-sued-over-deaths-of-children-said-to-have-attempted-blackout-challenge>
 3. «Актуальность медиаграмотности способы ее развития в Таджикистане и Узбекистане». (2024). Manba: https://oxussociety.org/wp-content/uploads/2024/07/08__RUS__Media-Oxus-Reports-06-2024__FINAL.pdf
 4. Podrobno.uz. (n.d.). 22-летний узбекистанец попал под влияние вербовщиков и сбежал в Сирию, чтобы воевать в рядах боевиков [Internet sayt]. Manba: <https://podrobno.uz/cat/proisshestviya/22-letniy-uzbekistanets-popal-pod-vliyanie-verbovshchikov-i-sbezhel-v-siriyu-chtoby-voevat-v-ryadakh/>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MEDIAMADANIYATINI DARSDAN TASHQARI FAOLIYAT ORQALI SHAKLLANTIRISH

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo'yicha prorektor, p.f.d.,
professor

Bo'riyeva Shaxnoza Inat qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika unversiteti Boshlang'ich ta'lim
fakulteti talabasi
e-mail: shaxnozam001@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda boshlang'ich sinf o'quvchilarida mediamadaniyatni shakllantirishning dolzarbligi, uning ahamiyati hamda zamonaviy axborot makonida bolalarning ongli va mas'uliyatli media iste'molchisi bo'lib yetishishi uchun darsdan tashqari faoliyatning o'rni yoritilgan. Darsdan tashqari mashg'ulotlar – to'garaklar, loyiha ishlari, mediamadaniyatga

oid musobaqalar va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va undan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari ochib berilgan. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari orqali mediamadaniyatni shakllantirishda samarali usullar va metodik yondashuvlar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, mediamadaniyat, darsdan tashqari faoliyat, axborot madaniyati, to'garak ishlari, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash.*

Bugungi axborot asrida bolalar hayoti ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar bilan bevosita bog'liq bo'lib bormoqda. Bu holat yosh avlodni har xil turdagi media mahsulotlarni ongli tahlil qilish, soxta va ishonchli axborotni ajrata bilish, axborotni tanqidiy qabul qilishga o'rgatish zaruratini tug'diradi. Shu boisdan ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – mediamadaniyatni shakllantirishdir. Ayniqsa, bu jarayonni boshlang'ich sinf bosqichidan boshlab yo'lga qo'yish dolzarb hisoblanadi. Zero, aynan shu davrda bolalarda axborotga nisbatan ongli munosabat, mustaqil fikrlash va mulohaza yuritish ko'nikmalari shakllanadi. Maktabdan tashqari ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik usullar va metodlardan, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning yangi shakllarini keng joriy etilmoqda. Bolalarni individual rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va uslubiy materiallarni doimiy takomillashtirib borish uning imkoniyatlarini ochib beradi.

Bugungi kunda umum ta'lim maktablarida to'garaklarni tashkil qilishda "STEAM - ta'lim" dasturi ham joriy etildi. Bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga muvofiq ularning ijodiy va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida yurtimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning beshta muhim tashabbus doirasida umum ta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot-texnologiyalariga qiziqishni oshirish, o'quvchi-qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb etish bo'yicha umumta'lim tashkilotlariga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatilmoqda. Maktabda tashkil etilgan to'garak mashg'ulotlari shaxsning barkamol kamol topishga, o'sib kelayotgan avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, o'quvchilarga mehnatsevarlikni singdirishga shuningdek, ularning bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan, uning asosiy vazifasi o'quvchi yoshlarga qo'shimcha ta'lim va tarbiya berish bilan birga ularning vaqtini sermazmun o'tkazish, o'quvchilar ongiga milliy g'oya va vatanparvarlik tuyg'ularini singdiradi.

To'garaklar xususiyatlari bir qator ega. Bu darsda ko'ra ko'proq erkin shaklida amalga oshiriladi. Dars tashqari bolalar ko'proq ijodiy mashqlar va fikrlash rivojlantirish, jamoa va guruh ishida ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba'zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

O'z mazmuni bo'yicha dasturga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o'quvchilarning kuchiga mos bolishi kerak.

Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o'quvchilarni jalb qilishi, ya'ni qiziqarli bo'lishi zarur. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham qiziqish yordamida faol o'quvchilarga aylanishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta'minlash lozim. Bu mashg'ulotlarga baho qo'yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Mashg'ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10-12 minutdan 1 soatgacha mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli- tumanligi.

Boshlang'ich sinflarda axborot madaniyatini oshirish ularning ijtimoiy tarmoqlardan axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish kerakligini tushuntirish zarur hisoblanadi. O'quvchilarning bilimli va zukko bo'lishlari bilan bir qatorda ularda mediamadaniyatni rivojlantirish kerak. Bugungi kunda boshlang'ich sinfdan axborot texnologiyalari asosida o'quv jarayonlarini tashkil etish o'quvchilarning kognitiv psixologiya sohasini faollashtirishga, ta'lim materiallarini muvaffaqiyatli o'rganish va aqliy rivojlanishiga hissa qo'shishi kerakligini yodda tutish kerak. Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb atash mumkin. Bola axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ma'lum bir o'quv fuksiyasini bajarishi eslab qolishiga yordam berishi kerak. Axborot texnologiyalari o'quv jarayonining yordamchi elementi bo'lishi kerak deb o'ylayman. Mamlakatimiz yoshlariga zamon talabiga mos ta'lim tarbiya berish jarayoniga yangi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari tizimi va internet tarmog'i imkoniyatlarining tatbiq etilishi o'zining ta'lim samarasini oshirish omili ekanligini allaqachon namoyon etgan.

Mediamadaniyat nima va nima uchun u muhim? Mediamadaniyat – bu insonning ommaviy axborot vositalarini tushunish, baholash va ulardan samarali foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga olgan madaniy qatlamdir. U o'quvchining axborotni tanqidiy qabul qilishi, u orqali o'z fikrini ifoda etish va himoya qila olishi, shuningdek, axborotga nisbatan mas'uliyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Darsdan tashqari faoliyat imkoniyatlari: Dars jarayonida mediamadaniyatga oid ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati cheklangan bo'lishi mumkin. Shu sababli darsdan tashqari faoliyat vositasi sifatida quyidagi shakllardan foydalanish maqsadga muvofiq:

To'garak mashg'ulotlari: "Media savodxonlik", "Axborot bilan ishlash", "Rasmlar orqali hikoya" kabi to'garaklar o'quvchilarning media mahsulotlar bilan ishlash

ko'nikmalarini oshiradi.

Loyihaviy ishlar: O'quvchilar turli mavzular bo'yicha media materiallar tayyorlaydi (masalan: rasmiy gazeta, ijtimoiy roliklar, sinf blogi).

Musobaqalar: "Eng yaxshi axborot izlovchi", "Media hikoyachi" kabi musobaqalar orqali bolalarda raqobatbardoshlik, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

Interaktiv mashg'ulotlar: Axborotga oid testlar, rolli o'yinlar, savol-javoblar orqali o'quvchilarda ishonchli axborotni tanlash, yolg'on xabarni aniqlash ko'nikmalari hosil bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda to'garak mashg'ulotlari bolalarni kasbga ham yo'naltiradi. Bolalar maktabga kelmasdanoq kelajakda kim bo'lishini orzusi qiladi. Maktabga ilk qadam qo'yganda esa bu tuyg'ular yanada kurtak ota boshlaydi. O'sha kasb egasi sifatida o'zini tasavvur qiladi, mehr qo'yadi. Mazkur realligini ta'minlashda o'qituvchining katta o'rni bor. Chunki o'qituvchi hali mukammal shakllanmagan bola tasavvurida go'yoki bir tengsiz murabbiydir. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirish bo'yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o'quvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozimdir. Maktabda kasb hunarga yo'naltirish ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda amaliy mashg'ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o'yin, mustaqil fikrlar kabi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish ko'pincha samara beradi. Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Rolli o'yin", FSMU, "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. To'garak mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqlarning qaysi bir turini tanlash to'garakning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. Shuningdek,

o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar bir tomondan, dars jarayonining uzviy davomi bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quvchilarni estetik madaniyatini rivojlantirish va kasb tanlashga yo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi, keng yo'l ochib beradi. An'anaviy metodikaga ko'ra sinfdan tashqari mashg'ulotlarga o'quvchilar ixtiyoriylik asosida jalb qilinishi lozim. Lekin mashg'ulotlarni tashkil etishning ushbu shakli bir qator ijobiy tomonlari bilan birga jiddiy kamchiliklarga ham ega. Jumladan, tajribalardan ma'lum bo'ladiki, o'quvchilarning sinfdan tashqari mashg'ulotlarga nisbatan mas'uliyatsiz munosabatda bo'lishi, berilgan topshiriq va vazifalarni bajarishda intizomsizlik, jamoaga aloqador umumiy maqsadlarni hurmat qilmaslik kabi salbiy holatlar mashg'ulotlarning samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur salbiy omil ta'sirini kamaytirish va o'quvchilar ehtiyojlarini to'laroq qondira oladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dastlab o'quvchilarning qiziqish doirasini belgilab olish hamda ularni estetik madaniyatini rivojlantiruvchi va kasbga yo'naltirish uchun xizmat qiluvchi mashg'ulotlar shaklini to'g'ri tanlash kerak. Buning uchun maxsus so'rovnoma va suhbatlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir deb o'ylaymiz. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning o'z iqtidorini, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlarini yorqinroq namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Bu hol o'quv dasturida ko'zda tutilganidan ko'ra murakkabroq vazifalar qo'yishga va ularni hal etishga asos bo'ladi. Ixtiyoriylik mezonining talab qiziqishlari bilan uyg'un holatda qo'llanilishi o'quvchilar tashabbuskorligi yuqoriroq bo'lishini ta'minlaydi. Shu tufayli sinfdan tashqari ish jarayonida o'quvchilarning ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish va kasbga yo'llash ishlarining asosiy vazifalarini bajarish bo'yicha yaxshi natijalarga erishiladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarishi bilan bog'lanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatika o'qitishning zamonaviy shakl va metodlari. O'quv qo'llanma. Guliston, GulDU, 2014 y., 151 b.
2. Медведева, Е.А. Основы информационной культуры // Социс. — 1994. — №11. — С.59

3. Семенюк, Э.Л. Информационная культура общества и прогресс информатики // НТИ. Сер.1. — 1994. — №7. — С.3.
4. Хангельдиева И.Г. О понятии «информационная культура» // Информационная культура личности: прошлое, настоящее, будущее: междунар. науч.конф. Краснодар -Новороссийск, 23-25 сент. 1993 г.: тез. докл. Краснодар, 1993. С2.
5. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: «Sharq», 1997.
6. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”. 2017.- 488b.
7. Sh.M.Mirziyoyev.“Jismoniyvama’naviyyetukyoshlar–ezgumaqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir” mavzusida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. “Xalq so’zi”. 2017 y.
8. Tolipov O'Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov Umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalar to'garak rahbarlari uchun namunaviy dasturlar. T.: Nizomiy nomidagi TDPU., 2003. 21 b.
9. Sharipov Sh.S. Maktab o'quvchilari ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish usullari. «Xalq ta'limi» jurnali. 2003 yil №4
10. Uzoqov O. Kasb-hunar kollejlari sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish metodikasi. Samarqand.: 2007 yil.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Abralova Munajat Djurayevna

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
markazi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, kasbiy kompetensiya turlari, raqamli kompetensiya haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar. *Raqamli transformatsiya, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, raqamli kompetensiya, ta'limni raqamlashtirish*

Bugungi kunda ta'limga globallashtirish va xalqarolashuv kabi keng ko'lamli o'zgarishlar ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya davrida bo'lajak o'qituvchilarda muloqotga kirishuvchanlik, hamkorlik qilish, muammolarni hal qilish, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirish talab qilinmoqda. Kompetensiya standartlarida o'qituvchilardan texnologik savodxonlikni oshirish, bilim yaratish va o'rganishni chuqurlashtirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan talab darajasida foydalanish belgilangan. Xorijiy so'zlar lug'atida "kompetentlik" atamasi lotin tilidan –competentis–mos, qobiliyatli, ya'ni kompetensiyalarga ega, kompetensiya tushunchasi – competentia – taalluqli, tegishli degan mazmunni ifodalovchi izohlarni uchratish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud. Jumladan, Yevropa va amerikalik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikning amaliy jihatlarini, ya'ni: muhitga ta'siretuvchi (I.Borg, M.Muller, T.Staufenbiel); vazifani muvaffaqiyatli uddalashga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi (M.Perlmutter, M.Kaplan, L.Nyguist); faoliyat tuzilmasidagi alohida xatti-harakatlarni amalga oshirish ta'minotchisi (G.Schreder, M.Vorweg); amaliyotga tatbiq etiladigan usullarni bilish jarayonlariga qo'llovchi (S.P.Dyrstra, S.Dollinger) sifatida o'rganishgan (Rogachev V.V., 2002). Kompetensiyani hodisa sifatida o'rganish jarayonida ko'pincha kasbiy faoliyatning har qanday turini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan kompetensiyaning qaysi turlari (yoki tarkibiy qismlari) universal ekanligi haqida savol tug'iladi. Derkach va V.G. Zazikin ijtimoiy-pertseptiv, avtopsixologik, kommunikativ, me'yoriy va refleksiv (refleksiv-status) kompetensiyalarni alohida ajratib ko'rsatadi.

Kompetensiya — bu muayyan sohadagi bilim va tajriba. Raqamli kompetensiyani o'qituvchi raqamli texnologiyalarni kasbiy amaliyotga joriy etish orqali rivojlantirishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmui, shuningdek, shaxsning pedagogik faoliyatda raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanish, to'g'ri tanlash va ular bilan o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyati sifatida o'zlashtirish mumkin. Kasbiy kompetensiya — bu kasbiy muammolarni hal qilishda amaliy tajriba, ko'nikma va bilimlar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

- ijtimoiy-psixologik kompetensiya, rivojlanish jarayonida kasbiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan;
- kasbiy-kommunikativ kompetensiya, pedagogik muloqot va ta'lim jarayoni subyektlari bilan o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyati darajasini belgilaydi;
- umumpedagogik kompetensiya, pedagogikaning asosini bilish hamda shaxsning kognitiv jarayonlari psixologiyasi va psixofiziologiyasining individual xususiyatlarini rivojlantirishga, psixologik va pedagogik tayyorgarlikni amalga

oshirishni belgilab beradi;

- axborot-kommunikativ kompetensiya, IT-texnologiya ko'nikmalariga ega bo'lish va h.k.

Olimlarning fikriga ko'ra, ta'limni raqamlashtirish islohoti ta'lim muassasalarini sifatli dasturiy ta'minot bilan jihozlash, ta'lim resurslariga, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalariga, dunyoning turli tillaridagi elektron ilmiy kutubxonalariga kirishga ruxsat beruvchi axborot tizimlarini joriy qilish zarurligini ko'rsatadi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mahorat darslarining o'zni yuqori bo'lib, bilim va ko'nikmalarni uzatish, o'qitish va tarbiyalashda tajriba almashishning samarali shakli, uning markaziy bo'g'ini darsning barcha ishtirokchilarining faol roli bilan muayyan tarkibni o'zlashtirishning o'ziga xos usullarini namoyish etishidir. Mahorat darsi tajribani uzatishning boshqa shakllaridan farq qiladi, chunki uni amalga oshirish jarayonida taklif etilayotgan uslubiy mahsulot to'g'ridan-to'g'ri muhokama qilinadi va mahorat darsi ishtirokchilari tomonidan ham, o'qituvchi tomonidan ham pedagogik muammoga ijodiy yechim izlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha treninglarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir, o'z malaka va ko'nikmalarini kengaytira oladilar va boyitadilar. Trening mantiqiy tuzilgan va Devid Kolb tomonidan taklif qilingan uch bosqichdan iborat bo'lishi nazarda tutiladi: tajriba orttirish, refleksiya, amalda birlashtirish. Treningdagi guruh jarayoni shaxsning uchta asosiy jihatini — kognitiv, hissiy va xulq-atvorni qamrab oladi. Demak, funksional-faollik yondashuvi doirasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish insonning aql-zakovati, uning his-tuyg'ulari, irodaviy fazilatlar va ijodkorligidan shunday foydalanishga imkon beradiki, yaxlit shaxsning salohiyati o'quv jarayoniga kiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda elektron muhitdan oqilona foydalanish, o'quv jarayonini metodik va didaktik loyihalash, raqamli muhitda elektron kurslar yaratish, LMS asosida kurs mazmunini ishlab chiqish; o'quv faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilarning mustaqil ishlari, LMSda elektron ta'lim uchun o'quv-uslubiy majmuani ishlab chiqish; dasturiy vositalardan foydalanish, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etishda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar imkoniyatlaridan foydalanish; raqamli texnologiyalardan foydalangan holda fanning o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiqish; sinfdagi va sinfdan tashqari ishlarni samarali birlashtirib o'quv jarayonini tashkil etish shakllari; shuningdek, uning barcha ishtirokchilari bilan muloqot qilish; xavfsizlikni ta'minlash uchun vositalar va ehtiyot choralarini samarali ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish davriy jarayon bo'lib, u doimiy ravishda takomillashtirish, yangi bilim va ko'nikmalarni

egallash, faoliyatni boyitish, kasbiy rivojlanishni talab qiladi. O'qituvchining kasbiy mahorati ta'lim va olingan tajribaga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lukashenko, M. A. (n.d.). Профессиональные компетенции руководителя. Retrieved from <http://www.cfin.ru/management/strategy/competit/ksao.shtml>
2. Khutorskiy, A. V. (2003). Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы. *Xalq ta'limi*, (2), 58–64.
3. Larionov, V. G., Sheremetyeva, E. N., & Gorshkova, L. A. (2021). Цифровая трансформация высшего образования: технологии и цифровые компетенции. *Astraxan davlat texnika universiteti axboroti: Iqtisodiyot seriyasi*, (2), 61–69.

AVTOMATIK ROSTLASH TIZIMLARINING TUZILISH SXEMALARI VA ULARNING O'ZGARISHI

Davidova Sevinch Farhod qizi

Jizzax politexnika instituti "Kompyuter va
dasturiy injinering" kafedrası III bosqich
talabasi

e-mail: sevinch2005fa15@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada avtomatik rostlash tizimlarining tuzilish sxemalari, ularning ishlash tamoyillari va turlari, avtomatik rostlash tizimlarining evolyutsiyasiga asoslangan.

Kalit so'zlar: *Avtomatik rostlash, sanoat avtomatlashtirish, boshqaruv elementi, teskari aloqa, kombinatsiyalangan rostlash.*

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan turli xil jarayonlarni avtomatlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avtomatik rostlash tizimlari sanoat, transport, energetika va robototexnika kabi boshqa sohalarda samaradorlikni oshirish va inson ishtirokini kamaytirish uchun keng qo'llanilmoqda. Avtomatik rostlash tizimi boshqarilayotgan obyekt kerakli parametrlarini doimiy ravishda nazoratga olib, avtomatik tarzda ularni muayyan bir qiymatda ushlab turuvchi texnik qurilmalar jamlanmasidir. Avtomatik rostlash tizimining asosiy vazifasi tashqi omillar ta'siriga qaramasdan, tizimning doimiy hamda barqaror ishlashini ta'minlashdir.

Avtomatik rostlash tizimlari sanoat avtomatlashtirishda, ishlab chiqarish

liniyalari, zavodlarda, metallurgiyada, issiqlik elektr stansiyalarida, gidro-elektr stansiyalarida, samolyotlarda, avtomobillarda, poyezdlarda, sun'iy intellekt tizimlarida keng qo'llaniladi. Avtomatik rostlash tizimlari (ART) zamonaviy sanoat va ishlab chiqarish jarayonlarida muhim o'rin tutadi. Ushbu tizimlar asosan texnologik jarayonlarni optimallashtirish, tizimlarning samaradorligini oshirish va ishni yanada osonlashtirish uchun qo'llaniladi. Avtomatik rostlash tizimlari, turli sanoat tarmoqlarida, masalan, avtomobilsozlik, elektronika, oziq-ovqat sanoati va farmatsevtika sohalarida ishlatilmoqda. Bunday tizimlar, odatda, kirish signalini qabul qilib, ma'lum bir chiqish parametriga moslashtirishni amalga oshiradi. Bu tizimlarning asosiy vazifalaridan biri – o'zgaruvchan va noaniq sharoitlarda yuqori aniqlikda ishlashdir.

Avtomatik rostlash tizimlarining tuzilishi va ularning o'zgarishi asosan tizimning ishini optimallashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi, avtomatik rostlash tizimlari ham rivojlanib, yanada samarali va yuqori texnologiyali tizimlarga aylangan. Ushbu maqolada avtomatik rostlash tizimlarining tuzilish sxemalari, ularning rivojlanishi, turlari va samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi.

Avtomatik rostlash tizimlari haqida bir qator ilmiy tadqiqotlar va maqolalar mavjud. Yil sayin texnologiyalar rivojlanishi bilan bu tizimlar ham takomillashmoqda. Avtomatik rostlash tizimlari asosida ishlovchi bir nechta asosiy tadqiqotlar mavjud, ularning ko'pchiligi tizimlar modelini va boshqaruv usullarini yaxshilashga qaratilgan. Avtomatik rostlash tizimlarida qo'llaniladigan modulli tizimlar haqida yozilgan maqolada, turli komponentlarning o'zaro aloqasi va tizimning tuzilishini yanada takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu tizimlar uchun yangi algoritmlar ishlab chiqilgan. Tizimlarning o'zgarishini nazorat qilish va o'zgartirishlar kiritish jarayonini tahlil qilgan. Tadqiqotda rostlash tizimlarida yuzaga keladigan noaniqlik va qiyinchiliklarga yechimlar taqdim etilgan. Avtomatik rostlash tizimlarining turli sohalarda qo'llanishi, masalan, avtomobilsozlikda, uning samaradorligini oshirish uchun qanday innovatsion yondashuvlar qo'llanilishini ko'rsatgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, avtomatik rostlash tizimlarining tuzilish sxemalari va ularning o'zgarishi har doim yangi ilmiy izlanishlar va texnologik rivojlanishlarga mos ravishda o'zgarib boradi. Tizimlar optimallashtirilgan modellarga va yangi yondashuvlar orqali yanada samarali ishlashga qodir bo'ladi.

Avtomatik rostlash tizimlari sanoat va texnologiyalardagi o'zgarishlarga tezda moslashadi. Avtomatik rostlash tizimlarining tuzilishi odatda uchta asosiy komponentdan tashkil topadi: o'lchov asboblari, boshqaruv qurilmasi va aktuatorlar (ishlovberuvchilar). Tizimlar o'zining samaradorligini oshirish uchun turli algoritmlardan foydalanadi, masalan, regulyatorlar, neyron tarmoqlar va optimallashtirish metodlari. Avtomatik rostlash tizimlarining rivojlanishi asosan texnologiyalarning yuksalishi

bilan bog'liq. Masalan, ilgari faqat analitik regulyatorlar ishlatilgan bo'lsa, hozirgi kunda sun'iy intellekt va mashina o'rganish algoritmlari asosida ishlovchi tizimlar ko'p uchraydi. Bu yangi texnologiyalar tizimni yanada optimallashtirish, unga real vaqt rejimida o'zgarishlarga tezda javob berish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda avtomatik rostlash tizimlarining tuzilishi modulli tarzda qurilmoqda. Bu tizimlar o'zaro bog'langan komponentlardan iborat bo'lib, ular orasida o'zaro axborot almashinuvi va integratsiya muhim ahamiyatga ega. Modulli tizimlar foydalanuvchilarga har bir komponentni alohida va oson sozlash imkoniyatini beradi, bu esa tizimning samaradorligini oshiradi. Avtomatik rostlash tizimlarining samaradorligini oshirishda yangi metodlar qo'llanilmoqda. Masalan, algoritmik optimallashtirish, masofaviy boshqaruv va masofaviy monitoring tizimlari keng qo'llanilmoqda. Bu tizimlar o'zining yuqori aniqligi va ishlash tezligi bilan sanoatning turli sohalarida keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, avtomatik rostlash tizimlarining o'zgarishi ekosistemalar va ijtimoiy-texnik tizimlarda muhim ahamiyatga ega. Ularning doimiy takomillashuvi texnologik taraqqiyotning ajralmas qismiga aylanishi mumkin.

Avtomatik rostlash tizimlari sanoatning turli sohalarida muhim rol o'ynaydi. Ularning tuzilishi va ishlash samaradorligi doimiy ravishda o'zgarib boradi, texnologiyalarning rivojlanishi bilan yanada optimallashtiriladi. Yangi algoritmlar, modulli tizimlar va innovatsion yondashuvlar orqali avtomatik rostlash tizimlarining samaradorligi oshmoqda. Kelajakda bu tizimlar yanada takomillashib, inson hayoti va ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilashda muhim rol o'ynashda davom etadi.

Avtomatik rostlash tizimi uz navbatida bir nechta qismlardan tashkil topadi. Ular:

O'lchash asboblari(datchiklar)-o'rganilayotgan obyektning fizik parametrlari ya'ni bosimi, harorati, tezligini o'lchaydi.

Taqqoslash moslamasi-ushbu moslama nomlanishidan ham ma'lumki, o'lchangan qiymatni berilgan qiymat bilan solishtiradi.

Boshqaruv elementi (controller)-kerakli buyruqlarni ishlab chiqadi.

Ijro mexanizmi-boshqaruv elementi bilan bog'liq bo'lib, boshqaruv buyruqlarga asoslangan holda obyektga ta'sir ko'rsatadi.

Obyekt deb avtomatik boshqarilayotgan qurilma yoki jarayonga aytiladi.

Teskari aloqa-ushbu qism tizimning haqiqiy holatini kuzatib, aniqlangan xatolarni tuzatib berish vazifasini bajaradi.

Avtomatik rostlash tizimi turli xil sxemalarga ega bo'lishi mumkin, quyida esa biz eng asosiy hamda ko'p foydalaniladiganlarimizni ko'rib o'tamiz:

Ochiq rostlash tizimi umuman olganda bu turdagi tizimda boshqaruvchi qurilma ijro etuvchi mexanizmga signal yuboradi, ammo tizimning natijasi qayta

tekshirilmaydi. Ya'ni bunda teskari aloqa mavjud emas. Ushbu tizim afzalliklari shundaki, oddiy tuzilishga ega, arzon hamda tez ishlaydi. kamchiliklari haqida gapiradigan bo'lsak, tashqi ta'sirlarga nihoyatda sezgir, aniq rostdlashni ta'minlamaydi. Bunga misol qilib, turmush tarzimizda keng qo'llaniladigan elektr choynaklar. Elektr choynaklar qizdirish elementi. U ma'lum vaqt davomida ishlaydi, lekin suvning haroratini nazorat qilmaydi.

Teskari aloqali rostdlash tizimi bu tizimda obyektning holati o'lchanib, natijasi esa qayta tekshiriladi va kerakli darajaga yetkaziladi. Bunda tizim o'z xatoliklarini tuzatib boradi. Teskari aloqa rostdlash tizimi afzalligi shundaki, katta aniqlik, barqarorlik va tashqi ta'sirlarga tezda moslashish. Kamchiligi esa murakkablik va vaqt ya'ni kechikish muammosidir. Ushbu tizimga misol qilib termostatli isitish tizimini aytsak noto'g'ri bo'lmaydi. Bu turdagi isitish tizimida xona harorati belgilangan darajadan pastga tushsa, isitish tizimi avtomatik ravishda yoqiladi.

Kombinatsiyali rostdlash tizimi nomidan ham bilinib turibdiki, tizim ochiq va yopiq rostdlash tizimlarining elementlarini o'z ichiga oladi. Odatda, oldindan berilgan signallar va real vaqt natijalari asosida boshqarish amalga oshiriladi. Yuqori aniqlik, moslashuvchanlik, barqarorlik tizimning afzalligi bo'lsa, hisoblash va boshqaruv algoritmlarning murakkabligi tizim kamchiligi hisoblanadi. Misol qilib raketalarining uchirish tizimini olsak bo'ladi. Raketa dastlab belgilangan trayektoriya bo'yicha harakatlanadi, lekin real vaqt rejimida tuzatishlar kiritiladi.

Avtomatik rostdlash tizimlari vaqt o'tishi bilan mexanik avtomatik rostdlash tizimi so'ngra elektromexanik, kompyuterlashtirilgan, elektron avtomatik rostdlash tizimlarida, sun'iy intellekt hamda neyron tarmoqlar asosidagi avtomatik rostdlash tizimlari bilan rivojlanib keldi va rivojlanmoqda.

Ushbu maqola avtomatik rostdlash tizimlarining tuzilish sxemalari, ularning o'zgarishi va bu tizimlarning samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan. Tizimlar yangi texnologiyalar asosida takomillashib, sanoat va ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Avtomatik rostdlash tizimlari hozirgi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Uning rivojlanishi aniq va samarali boshqaruv tizimlarini yaratish imkonini bermoqda. Kelajakda esa avtomatik rostdlash tizimi yanada aqlli, tez moslashuvchan va samarali bo'lishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ogata, K. (2010). Modern control engineering. Prentice Hall.
2. Dorf, R. C., & Bishop, R. H. (2017). Modern control systems. Pearson.
3. Åström, K. J., & Murray, R. M. (2008). Feedback systems: An introduction for

scientists and engineers. Princeton University Press.

4. Qodirov, B., & Abdug'aniyev, M. (2015). Avtomatik boshqaruv tizimlari. O'zbekiston Milliy universiteti.
5. Kobayashi, M., & Yamada, T. (2018). Optimization of automatic adjustment systems for industrial applications. Journal of Control Engineering, 44(2), 105–118.
6. Jang, H., & Lee, J. (2020). Modular design and integration of automatic adjustment systems. Automation and Control Engineering Journal, 32(5), 95–104.

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Jabborova Maftuna Komil qizi

SHDPI o'qituvchisi

e-mail: maftuna97jabborova@gmail.com

Qo'chqorova Aziza Asqar qizi

SHDPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda axborot texnologiyalardan foydalanish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llay olishining turli usullari, bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *Malakaviy pedagogik amaliyot, kompetensiya, raqamli kompetentlik, interaktiv mashg'ulotlar.*

Bugungi kunda ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, uning imkoniyatlaridan ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda foydalanish masalalari dolzarblik kasb etib kelmoqda. Bugun raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, vaqt tejamkorligi asosida faoliyat samaradorligiga erishish va o'qitish imkoniyatlarini oshirish vazifalari kun tartibida turibdi. Ayniqsa raqamli texnologiyalar vositasida masofaviy, frontal, korporativ, maqsadli ta'limning ommalashuvi bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish zaruratini ham oshirib bormoqda. Shu sababli malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilar raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish imkoniyatini oshirish asosida ularning kasbiy kompetentligini

rivojlantirish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida "taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash shart va zarurligi, bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini berishi"1 xulosa qilinib, bu borada aniq vazifalarni belgilab olinishi ham mamlakatimizda raqamli texnologiyalar imkoniyatidan oqilona foydalanish zarurati ortib borayotganligini asoslaydi. Natijada, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida mediasavodxonlik madaniyatini rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati paydo bo'ladi. Buning uchun, avvalo, ta'lim sohasida mediasavodxonlik madaniyatini hamda raqamli ko'nikmalarni oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi lozim, "raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish bilan bog'liq tizimli choratadbirlar amalga oshirilishi kerak". Shu sababli, pedagogik faoliyatni raqamli texnologiyalar yordamida mazmunli tashkil etish, o'quv jarayonini modernizatsiyalash hamda bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalardan samarali va oqilona foydalanish orqali mediasavodxonlik madaniyatini oshirish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Kasbiy kompetentlik haqida gapirishdan oldin, ushbu tushuncha haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim. Kasbiy kompetentlik — bu tarbiyachining o'z kasbiga doir bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek, kommunikativ, metodik va axloqiy sifatlarga ega bo'lishidir. Kasbiy kompetentlik — bu shaxsning o'z kasbiga oid vazifalarni samarali, mas'uliyat bilan va malakali tarzda bajarishga qodir bo'lishini ifodalaydigan tushuncha. U nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki shaxsiy sifatlar, kasbiy qadriyatlar, kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetentlik — bu insonning turli ijtimoiy va kasbiy muhitlarda samarali, mazmunli, madaniyatli va maqsadga muvofiq muloqot qilish qobiliyatidir. U nafaqat og'zaki yoki yozma nutq bilan fikr almashish, balki boshqalarni tushunish, tinglash, moslashish va bahs-munozarada ishtirok etish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida raqamli texnologiyalar bo'lajak tarbiyachilarni nafaqat tarbiyalanuvchi bolalarga bilim berishda, balki o'z kasbiy malakalarini muntazam ravishda rivojlantirish va yangilash imkoniyatini ham taqdim etadi. Bu jarayon yangi pedagogik mediasavodxonlik madaniyatini o'zlashtirish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash hamda ta'limda raqamli resurslardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachini tayyorlash jarayonida

mediasavodxonlik madaniyati, raqamli kompetentlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli kompetentlik deganda tarbiyachilarning zamonaviy raqamli vositalardan samarali foydalanish, ulardan o'quv jarayonini tashkil qilishda va ta'lim mazmunini boyitishda foydalanish qobiliyatlari tushuniladi. Malakaviy pedagogik amaliyot davomida amaliyotchi-talabalar maktabgacha ta'lim tashkilotining ijtimoiy muhiti, ta'lim muhiti, tashkilot subyektlari o'rtasidagi munosabatlar, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchilar bilan ishlash prinsiplari, mediasavodxonlik va boshqalar to'g'risida amaliy ko'nikmalar hosil qilishlari lozim. Talabalar tashkilot rahbariyatining ish yuritish jarayonlari, boshqaruvchilik faoliyati, yillik ish reja va ta'limiy faoliyat ishlanmalarini tuzish, fan yuzasidan ochiq mashg'ulotlarni har bir talaba individual tarzda tashkil etishi, tarbiyachilarning mashg'ulot davomida talabalar bilan munosabatlari, tarbiyachilik faoliyatini yuritish ishlari, mashg'ulot jarayoniga tegishli bo'lgan barcha o'quv me'yoriy hujjatlari bilan to'liq tanishishlari kerak.

Raqamli kompetentlik – bu shaxsning raqamli texnologiyalar, vositalar va resurslardan to'g'ri, samarali va mazmunli natijalar uchun foydalanish qobiliyatidir. Ushbu kompetentlik doirasiga texnologik bilimlar, muammolarni hal qilish ko'nikmalari, axborotni tanlash, baholash va ishlatish qobiliyatlari kiradi. Pedagog tarbiyachilar uchun raqamli kompetentlikni rivojlantirish, ularni raqamli vositalardan o'z darslarida samarali foydalanishga tayyorlashni ta'minlaydi.

Interaktiv mashg'ulotlar tashkil etish- bo'lajak tarbiyachilar raqamli vositalardan foydalanib, interaktiv mashg'ulotlar o'tkazishlari mumkin. Bunda, tarbiyachilarning fikrlarini, g'oyalarini va muhokamalarini jalb qiladigan bilimlarni baholash va o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qilish mumkin. Ushbu strategiya, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Mujassamlashgan mashg'ulot- o'qitish jarayonida raqamli vositalar yordamida aralash ta'lim modelini tatbiq etish, tarbiyalanuvchilarning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda, mashg'ulotlarda ikkitadan ortiq bo'lgan faoliyat mujassamlashtiriladi. Bu tarbiyachilarga tarbiyalanuvchilarning bir mashg'ulotda bir necha faoliyatga oid bilimlarini shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentligi shakllantirishda axborot texnologiyalarining o'rne beqiyosdir. Negaki, ta'lim samaradorligini oshirishda hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhimdir. Ta'lim sifatining natijaviyligi talabalarning mediasavodxonligi hamda ushbu texnikalarni hayot faoliyatida qo'llay olishiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI RO'YXATI

1. Hasanboyeva, N. (2019). Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: TDP.
2. Nurmuhamedova, G. (2019). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

ta'limda. Samarqand.

3. Ochilov, N. (2020). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim. Toshkent: Fan.
4. Qodirov, A. (2022). Raqamli pedagogika asoslari. Toshkent.
5. Xolboyeva, D. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Toshkent.

WEB-BASED LEARNING MANAGEMENT SYSTEMS: ENHANCING INTERACTIVITY AND EFFECTIVENESS IN DISTANCE EDUCATION

Kamolova Muxlisa Rustamovna

2nd-year student of the Faculty of English
Philology and Translation Studies, Samarkand
State Institute of Foreign Languages
e-mail: muxlisakamolova10_11@gmail.com

Abstract: The expansion of distance education has elevated the role of web-based Learning Management Systems (LMS) as critical infrastructures for teaching and learning. This study explores how LMS platforms improve interactivity and enhance the effectiveness of remote education. Drawing on empirical studies and comparative analysis, the research identifies the core features that influence learning outcomes, including student engagement tools, ease of access, and instructor readiness. The study concludes that while LMS platforms offer significant advantages for scalable and flexible learning, their success depends heavily on pedagogical integration and technological infrastructure.

Key words: *Learning management system (LMS), distance education. Online learning, interactivity, e-learning effectiveness, digital pedagogy, educational technology*

The advent of web-based Learning Management Systems (LMS) has transformed educational delivery in both formal and informal settings. According to Moore (1989), meaningful learning in distance education depends on three types of interaction: learner-content, learner-instructor, and learner-learner. LMS platforms aim to support these interactions through centralized systems that manage learning content, communication, assessment, and feedback. The shift toward digital learning environments, particularly accelerated by the COVID-19 pandemic, underscored the limitations of traditional classroom models

and emphasized the necessity of robust online learning solutions (Dhawan, 2020). Systems such as Moodle, Blackboard, Canvas, and Google Classroom have emerged as the technological backbone of remote instruction, enabling instructors to replicate and, in some cases, enhance classroom experiences online. Despite their widespread adoption, questions remain about the pedagogical effectiveness of LMS in promoting engagement, interactivity, and learning retention. As Garrison and Anderson (2003) argue in the Community of Inquiry (CoI) framework, effective online education relies on cognitive presence, social presence, and teaching presence all of which depend on the strategic use of digital tools. This paper aims to analyze how LMS platforms enhance interactivity and effectiveness in distance education. It draws on scientific literature and survey data to evaluate the strengths and limitations of widely used platforms and offers recommendations for optimizing LMS integration in diverse educational contexts.

Research Approach: This study employed a mixed-methods design, combining literature review and primary survey data collection to examine LMS performance. A qualitative content analysis of peer-reviewed studies was conducted to extract scientifically validated features of effective LMS. Concurrently, a quantitative survey was administered to students and educators to gather firsthand insights.

Platform analysis: Five prominent LMS platforms were selected for comparison:

- Moodle (open-source)
- Google Classroom (cloud-based)
- Canvas (commercial SaaS)
- Blackboard (enterprise LMS)
- Edmodo (social learning focused)

Evaluation criteria were drawn from prior work by Sun et al. (2008), who identified six critical factors in e-learning effectiveness: learner attitude, instructor characteristics, course content, system quality, technology, and environment.

Survey design. A structured online survey was distributed to 100 respondents (70 students and 30 instructors) from three higher education institutions. The survey measured user satisfaction, perceived interactivity, and the challenges encountered when using LMS platforms. Both Likert-scale items and open-ended questions were included to enable triangulation of data.

Literature insights. Empirical research suggests that LMS platforms significantly contribute to learner engagement when they incorporate multimedia content, interactive assessments, and synchronous communication tools (Al-Fraihat et al., 2020). Platforms such as Canvas and Blackboard offer integrated

analytics that support formative assessment and personalized feedback, which Chickering and Gamson (1987) identify as essential for effective teaching. Garrison et al. (2010) emphasize that social presence the ability to project oneself in a digital learning space correlates strongly with student satisfaction and participation. LMS features such as discussion forums, live chat, and peer review facilitate this presence. However, barriers persist. Studies by Selwyn (2016) caution that digital inequality, lack of instructor training, and overreliance on static content often reduce LMS to mere content repositories rather than dynamic learning environments.

Survey Findings

81% of students reported that features like real-time discussions, video conferencing, and quizzes increased their engagement. Moodle and Canvas were most frequently cited as platforms with strong interactivity features.

Google Classroom was rated highest for simplicity and user-friendliness, particularly among first-year students.

63% of instructors admitted they had not received formal training in LMS pedagogy and relied on peer assistance or online tutorials.

Lack of instructional design support (41%)

Unstable internet access (38%)

The findings support the theoretical assertions made in the Col framework and interaction theory. LMS tools that enhance cognitive presence (e.g., structured modules, formative assessments), teaching presence (e.g., instructor announcements, video lectures), and social presence (e.g., peer forums, collaborative tasks) are more likely to foster positive learning outcomes. As stated by Anderson (2008), "the challenge for distance education is to design learning environments that maintain sufficient interactivity to sustain engagement while allowing for autonomy." This challenge is addressed by platforms like Canvas and Moodle, which offer flexible structures and plugin ecosystems, enabling educators to tailor experiences to learner needs.

Nevertheless, the survey revealed a significant gap in pedagogical training, echoing the concerns of Bates (2015), who argues that digital competence among educators must go beyond technical skills to include the ability to design meaningful online learning activities. The study also confirms the findings of Al-Fraihat et al. (2020), who found that LMS effectiveness is a multidimensional construct involving system quality, content quality, and service quality. LMS adoption strategies should therefore include not only technical deployment but also comprehensive support systems for users.

Web-based Learning Management Systems have become foundational to

the evolution of distance education. When implemented with pedagogical intent and supported by institutional infrastructure, LMS platforms have the potential to enhance interactivity, personalize learning, and improve educational outcomes. However, their success depends not just on the technology itself but also on how it is used by educators and experienced by learners.

Future research should focus on integrating artificial intelligence and adaptive learning algorithms into LMS to further personalize the learning journey. Additionally, more empirical studies are needed on instructor training models and their impact on LMS effectiveness.

REFERENCES

1. Al-Fraihat, D., Joy, M., Masa'deh, R., & Sinclair, J. (2020). Evaluating E-learning systems success: An empirical study. *Computers in Human Behavior*, 102, 67–86.
2. Anderson, T. (2008). *The theory and practice of online learning*. Athabasca University Press.
3. Bates, T. (2015). *Teaching in a digital age*. BCcampus.
4. Chickering, A. W., & Gamson, Z. F. (1987). Seven principles for good practice in undergraduate education. *AAHE Bulletin*, 39(7), 3–7.
5. Dhawan, S. (2020). Online learning: A panacea in the time of COVID-19 crisis. *Journal of Educational Technology Systems*, 49(1), 5–22.
6. Garrison, D. R., Anderson, T., & Archer, W. (2010). The first decade of the community of inquiry framework: A retrospective. *The Internet and Higher Education*, 13(1–2), 5–9.
7. Moore, M. G. (1989). Three types of interaction. *The American Journal of Distance Education*, 3(2), 1–6.
8. Selwyn, N. (2016). *Education and technology: Key issues and debates*. Bloomsbury Publishing.
9. Sun, P. C., Tsai, R. J., Finger, G., Chen, Y. Y., & Yeh, D. (2008). What drives a successful e-learning? An empirical investigation of the critical factors influencing learner satisfaction. *Computers & Education*, 50(4), 1183–1202.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXBOROT- KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR(AKT)DAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Kayumova Laziza

Angren Universiteti MT-24-1 guruh talabasi

e-mail: lazizakayumova9@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalarsiz hech bir soha taraqqiyotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish eng dolzarb vazifalardandir. Maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolani sog'lom va har tomonlama saviyali qilib voyaga yetkazish, ta'lim sifatini oshirishda AKT ning ahamiyati va pedagogik imkoniyatlar to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya, o'yin, bola, axborot texnologiyalari, video, animatsiya, ijodkorlik.*

Bugun jadal rivojlanib borayotgan axborotlashtirish tizimi barcha sohalar qatori ta'lim sohasini ham qamrab olmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli hamda 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" kabi Farmonlari, maktabgacha ta'lim sohasini ta'lim jarayonlarida AKT dan keng foydalanish ta'lim sifatini ta'minlovchi vositalardan biriga aylanmoqda [1].

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limning ilk bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasiga kiritilishi pedagog xodimlarni o'z ustida ishlab, izlanuvchanlik va ijodkorlikni talab etadi. Texnika vositalari bilan to'la jihozlangan, ko'rgazmalarga boy xona boladagi iqtidor, qobiliyat va AKT dan foydalanishda kutilayotgan natijalar MTT da ta'lim sifati va bolani maktabga tayyorlash samaradorligini oshirish, erkin fikrlashi, dunyoqarashi kengligi, ota-ona bilan hamkorligini yanada mustahkamlash bilan afzal bo'lib, MTT tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etishdir.

Mamlakatimizda MTT larida 5 ta markaz mavjud bo'lib, bu markazlarning har birida bola faoliyat olib boradi. Rivojlantiruvchi markazlar tarbiyalanuvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va yosh xususiyatlarini hisobga olib tashkil etiladi. Ushbu markazning asosiy maqsadi-bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish, ularning qiziqishlarini kengaytirish, ijodiy va intellektual salohiyatini shakllantirishdir.

Ushbu markazlar quyidagilar:

1. Qurish,yasash va konstruksiyalash markazi
2. Til va nutq markazi
3. San'at markazi
4. Fan va tabiat markazi
5. Syujetli rolli o'yin va sahnalashtirish markazi.

Bu markazdagi faoliyatlardagi quyidagi elektron o'yinlarni AKT dan foydalanib tashkil etish mumkin. Qurish, yasash va konstruksiyalash markazi faoliyatida mantiqiy fikrlash, makon va shakl haqidagi tasavvurlar, son-sanoq, hajm, miqdor, vaqt va fazoviy tasavvurlar, geometrik shakllar, hisoblash materiallari yordamida mustaqil yoki guruh bo'lib ishlaydilar. Qurish-yasash markazi uchun o'yinlar "Uy quring" bu o'yinda bolaga qurilish konstruktori yoki kublar beriladi. Rasmga qarab yoki o'z tasavvurlari asosida uy, ko'prik, maktab yoki boshqa inshootlar qurish topshirig'i beriladi. "Kim balandroq minorani qura oladi?" o'yinida guruhga bo'linib, vaqt ichida balandroq minora qurish topshiriladi. O'yin muvofiqlashtirish va jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantiriladi. Til va nutq markazi faoliyatida tarbiyalanuvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlanadi, so'z boyligi oshiriladi, to'g'ri nutq madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Markaz faoliyatida bolalar suhbat qurishi, hikoya qilishi, she'r yod olishi, turli xil o'yinlar o'ynashi orqa til ko'nikmalari rivojlanadi. Nutq o'stirish markazi uchun o'yinlar "Kim gapirib beradi?" o'yinida rasmlar kitoblar asosida bolalar biror rasmga qarab hikoya tuzib berishadi. "Topib ayt" o'yinida tarbiyachi biror so'zni tavsiflaydi bolalar esa javob topadi. San'at markazi bolalarni estetik didini shakllantirish, tasavvurlarini rivojlantirish, tasviriy va amaliy san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Bu markazda bolalar turli rangdagi materiallar bilan ishlaydi, rasm chizadi, bo'yaydi, haykalchalar yasaydi. San'at markazi uchun o'yinlar "Ertakdagi qahramonlarni chizamiz" o'yinida bolalar ertak eshitishadi va o'sha ertakdagi qahramonlardan birini o'z tasavvurlari bilan chizadilar. "Bo'yash-sirli rasm" o'yinida oldindan chizilgan konturli rasmlarni bo'yash orqali bolalar tafakkur va didni rivojlantirilib, ranglarni to'g'ri tanlashga yo'naltiriladi. Fan va tabiat markazida tarbiyalanuvchilarning atrof-muhit, tabiat hodisalari va oddiy ilmiy tushunchalar, tajriba o'tkazish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu markazda o'simliklar, hayvonlar, tabiat hodisalari haqidagi bilimlar, urug' ekish, gul va o'simliklarni parvarishlash, yomg'ir, shamol, quyosh haqida suhbatlar o'tkazadi. Fan va tabiat markazi uchun o'yinlar "Bir xil bargni top" o'yinida bolalar bir xil rangdagi, shakldagi barglarni topishdi. Bu o'yin orqali predmetni o'xshashini va farqini aniqlaydi, tasavvurlari kengaytiriladi. Syujetli rolli o'yin va sahnalashtirish markazida bolalar ijtimoiy rollarni o'zlashtirish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish ijodiy tafakkur va hissiy ifodani shakllantiriladi. "Do'kon", "Shifoxona", "Oshxona", "Olia" kabi mavzularda ro'l o'ynaydi. "Do'konchilik" o'yinida biri sotuvchi biri xaridor

rolida bo'ladi. Pul birliklari, mahsulotlar yordamida muloqot qilinadi. "Shifokor va bemor" o'yinida bolalar rollarni taqsimlab, shifokor va bemor o'rtasidagi muloqotni tashkil etadi. Ushbu markazlarda AKT dan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu markazlarda bola tarbiyachi rahbarligida 10 minut kompyuter savodxonligi oshirilib, raqamli smartfon va planshet bilan tanishib boriladi. Mashg'ulotdan so'ng bolani sog'lom rivojlantirish uchun musiqali dam olish daqiqasini qilish kerak. Multimedia vositasida bolalarga ta'lim berish samaradorligini oshirish bilan birga aqliy, ijodkorlik kabi xususiyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Tarbiyachi rahbarligida bola Power Point dasturi orqali turli narsalarni rasmini chizadi. AKT bolalarga interfaol ta'lim berish vositasi sifatida bolada yangi bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi.

MTT dagi tarbiyachining yana bir imkoniyati –bu MTT yoshidagi bolalarning mustaqil ishi uchun topshiriqlar tayyorlash uchun materiallarning elektron shaklidir. Bolalar guruhga bo'linib, "Xatoni top", "Qo'g'irchoqni kiyintiramiz", "Shaklni joylashtir", "O'xshashini top", "Rasmni bo'ya" kabi o'yinlarni animatsiya tasvirlar yordamida o'ynasa mavzuga oid bilimlarni bola zo'r qiziqish bilan o'rganadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, AKT dan foydalanish MTT ta'lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etish, bolada faollikni, tashabbuskorlikni, mustaqillikni shakllantirish, AKT dan foydalanib ta'lim sifatini oshirishda katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Prezidentining PQ-3261- Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 09.09.2017.
2. To'raqulov.X.A Pedagogik tadqiqotlarda axborot intizomlari va texnologiyalari.T:Fan,2007.
3. gov.kaleria.ru(leader)Gossovet/d14.html.
4. Azizxo'jayev N.V.Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.;2018-192
5. Apatova N.V.Maktabgacha ta'limda axborot texnologiyalari.-M.,1994.-127b.
6. mdo.uz
7. id.egov.uz

GLOBAL RAQAMLASHTIRISH VA AXBOROT MAYDONIGA YOSHLARNI JALB QILISH MASALASI

Kuanishova Dilmira Tuychiyevna

I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika
universiteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrası
katta o'qituvchisi
e-mail: kuanishovadilmira@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada global raqamlashtirish va axborot maydoniga yoshlarni jalb qilish masalasi dolzarb muammo sifatida tahlil qilingan. Shuningdek bugungi axborotlashgan jamiyatda STEM sohasini rivojlantirishning muhim jihatlari va ushbu jarayon bo'yicha davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan samarali islohotlari haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *global raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, axborotlashgan jamiyat, yoshlar, xotin-qizlar, STEM, robotlashtirish, raqamli texnologiyalar, zamonaviy yosh mutaxassis.*

Hozirgi davrda global raqamlashtirish va axborotlashtirish jarayoni zamonaviy inson hayotining barcha sohalariga ta'sir qilmoqda. Shuning uchun bugungi kunda turli soha olimlari bir vaqtning o'zida yangi imkoniyatlarning o'sishi, shu bilan birga ijtimoiy xavflarning paydo bo'lishi haqida tashvish bildirishmoqda. Chunki raqamlashtirish jarayoni masalasini o'rganishda dialektik yondashuvga asoslanadigan bo'lsak, bir tomondan, ko'pchilik iqtisodchi, sotsiolog va boshqa soha mutaxassislari axborotlashgan jamiyat va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi natijasida mehnat dunyosida yoshlar, ayniqsa xotin-qizlar o'rtasida ishsizlik darajasining kuchayishi mumkinligidan xavotir olishmoqda. Ikkinchi tomondan esa, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bandlikning yangi shakllari paydo bo'lishini ham ta'minlaydi, hamda jamiyatda yangi kasblarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, robototexnika, sun'iy intellekt, nanotexnologiya va biotexnologiya, genetika, 3D bosib chiqarish, mobil aloqa tarmog'ida 4G va 5G texnologiyasi kabi sohalar rivojlanishi mehnat bozoridagi ijobiy o'zgarishlarga ya'ni jamiyatda yangi kasblar paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Umuman olganda raqamlashtirish va axborotlashtirish jarayoni iqtisodiyot va ishlab chiqarishning deyarli barcha sohalariga ta'sir qilmoqda. Bugungi kunda hatto qishloq xo'jaligi ham raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun ideal muhit hisoblanadi, chunki ushbu jarayon qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshirishi va uning rivojlanishi uchun kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [1]. Masalan, ushbu sohani robotlashtirish ishchi-xodimlarning ba'zan kasallik yoki kechikish tufayli

ish joyida yo'qligi bilan bog'liq bo'lgan ish vaqtini yo'qotish kabi salbiy holatlarni sezilarli darajada kamaytirish va hatto butunlay bartaraf qilishga ham imkon beradi. Shuningdek iqtisodiyot sohaslarida avtomatlashtirish va robotlardan foydalanish natijasida esa korxonalarda mahsulotlar ishlab chiqarish darajasini ko'paytirish imkonini beradi.

Dunyo miqyosida ushbu o'zgarishlarni hisobga olgan holda va O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish maqsadida "Raqamli iqtisodiyot – 2030" strategiyasi ishlab chiqildi. Chunki jahonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, bu texnologiyalarning iqtisodiyot sektorlariga intensiv ravishda joriy qilinayotgani iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shuningdek elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida yangi qidiruv tizimlarini yaratish yo'nalishini ishlab chiqish va aniqlash, raqamli tizimlar elementlari o'rtasidagi almashinuv vaqtini qisqartirish, yuqori samarali va ishonchli ma'lumotlarni saqlash tizimlari uchun yangi dasturlar yaratish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish muhim ahamiyatga egadir.

Xalqaro iqtisodiy forum hisobotida taqdim etilgan prognozlarga ko'ra, axborot-kompyuter texnologiyalaridan foydalanish va jarayonlarni avtomatlashtirishni nazarda tutuvchi yangi kasblar sonining ortishi kuzatilmoqda. Shunday qilib, dunyo miqyosida 2018 yilda yangi kasblar ulushi 16% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga borib bu ko'rsatkich 27% gacha ko'tarilishi kutilmoqda [2]. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli iqtisodiyotda STEM (science, technology, engineering and mathematics) sohasiga oid kasblar, ya'ni fan, texnologiya, muhandislik va matematika bilan bog'liq faoliyat sohalari shiddat bilan rivojlanmoqda.

Umuman olganda STEM sohasini rivojlantirish bugungi kunda ko'pchilik xalqaro tashkilotlar va davlatlarning asosiy diqqat markazida turibdi. Masalan, BMTning asosiy maqsadlaridan biri – bu har bir insonni, ayniqsa yoshlarni ilm-fan va texnologiyalar hamjamiyatlarini konstruktiv ravishda isloh qilish jarayoniga va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga jalb qilishdir. Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "BMTning Yoshlar strategiyasi"da ta'kidlanganidek, "yoshlar siymosida eng qimmatli va o'ta muhim resurslar mujassam topgan bo'lib, unga har qancha investitsiya kiritsa arziydi, chunki bu sarmoyalar bir necha barobar ziyoda bo'lib qaytadi". Men g'oyat muhim ushbu fikrga to'liq qo'shilaman" [3] degan fikr-mulohazalari mamlakatimizdagi raqamlashtirish jarayoni va axborot maydoniga yoshlarni faol jalb qilish juda ham muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Dunyo bo'yicha ma'lumotlarga qaraganda STEM bilan bog'liq sohalardagi barcha talaba-yoshlarning atigi 35 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Ushbu soha

bo'yicha ilmiy tadqiqotchilarning 30% dan kamrog'i xotin-qizlardir va bunday holat dunyoning barcha mintaqalarida kuzatiladi. Umuman global miqyosdagi ko'rsatkichlarga ko'ra ayollarning maoshi erkaklarga nisbatan 23 foiz kamroq. Shuningdek BMT Taraqqiyot Dasturi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra ushbu farqni yengish uchun 68 yil talab etiladi, deyiladi. Chunki bugungi kunda ayollarning mehnatdagi ishtiroki 63 foizni, erkaklarniki esa 94 foizni tashkil etadi [4].

Shuningdek turli dasturlar va tadqiqotlar bo'yicha oliy ma'lumotli yosh bitiruvchilarning ulushiga e'tibor beradigan bo'lsak, bakalavr va magistr darajalariga ega xotin-qizlar soni erkaklardan ko'proq bo'lishi mumkin, lekin fan nomzodlari va tadqiqotchilar orasida erkaklar soni ayollar sonidan ancha ko'proq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu muammolarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yoshlarni, ayniqsa qizlarni STEM sohasiga jalb etish bo'yicha tizimli yondashuv va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida ham STEAM-yo'nalishlarni (aniq fanlar, texnologiya, muhandislik, ijodiy san'at va matematikani) rivojlantirish muhimligiga urg'u berilmoqda [5]. Ayniqsa "Bir million dasturchi", "Technovation Girls Uzbekistan" tanlovi kabi dasturlar mamlakatimizda yoshlar, ayniqsa qizlarning oliy ta'lim olishi va ishga joylashishida imkoniyatlar yaratish, STEMga jalb qilish bo'yicha O'zbekistonda muntazam ravishda ko'rilyotgan chora-tadbirlarning namunasidir [6].

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda davlatimiz tomonidan olib borilyotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi raqamli texnologiyalarda erkin harakatlana oladigan, hamda kasbiy faoliyat va kundalik hayotda innovatsion kompyuter texnologiyalaridan to'liq va maqsadli foydalana oladigan zamonaviy yosh mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Axborotlashgan jamiyat va raqamlashtirish sharoitida davlatimiz tomonidan olib borilyotgan ushbu chora-tadbirlarni mustahkamlash uchun biz oliy ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar zamon talabiga javob beradigan yetuk yosh kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratish lozim. Shuningdek ushbu oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashda mehnat faoliyatida raqamli texnologiyalarni erkin qo'llay olish ko'nikmalari, mediasavodxonlik va onlayn faollik bilan bog'liq malakalarni rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratishimiz muhimdir. Chunki soha bo'yicha raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish bugungi global raqamlashtirish davrida shaxsning yoshi va jinsidan qat'i nazar, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun

zarur shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Altukhov, A. I., Dudin, M. N., & Anishchenko, A. N. (2019). Глобальная цифровизация как организационно-экономическая основа инновационного развития агропромышленного комплекса. *Problemy rynochnoy ekonomiki*, (2), 17–27.
2. World Economic Forum. (2018). The Future of Jobs Report 2018. http://www3.weforum.org/docs/WEF_Future_of_Jobs_2018.pdf
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston.
4. Gazeta.uz. (2020, December 24). STEM [Internet sayti]. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/24/stem/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, PF-5847 (2019, October 8).
6. One Million Uzbek Coders. (n.d.). <https://uzbekcoders.uz> Technovation Girls Uzbekistan. (n.d.). <http://technovation.uz>

O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA DEVIANT XULQ-ATVOR PROFLAKTIKASI

Melsov Anzor Bahrom o'g'li

Buxoro davlat pedagogika instituti

Pedagogika mutaxassisligi 1-kurs magistranti

e-mail: melsovanzor@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada deviant xulq-atvor tushunchasi, uni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar, yoshlar orasida uchrash ehtimoli va uni bartaraf etishda oila, maktab hamda jamiyatning o'zaro hamkorligining dolzarbligi yoritilgan. Shuningdek, ushbu salbiy holatlarning oldini olishda kompleks yondashuvning samaradorligi, hamda tizimli profilaktika ishlarini tashkil etish bo'yicha amaliy takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *deviant xulq-atvor, profilaktika, oila, maktab, jamiyat, hamkorlik, tarbiya, yoshlar.*

Jamiyatda barkamol, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash – har bir davlatning eng ustuvor vazifalaridan biridir. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy, ma'naviy va psixologik jihatdan sog'lom o'sishi mamlakat kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq, hozirgi zamon talablari, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar, shuningdek global axborot maydonining kengayishi sababli yoshlar orasida deviant xulq-atvor holatlari ko'paymoqda. Ushbu salbiy holatlar, o'z navbatida, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy moslashuviga to'siq bo'lib, ijtimoiy muammolarning yanada kuchayishiga sabab bo'ladi. Shu bois deviant xulq-atvorni oldini olishda oila, maktab va jamiyatning samarali hamkorligi zarur.

Deviant xulq-atvor — bu ijtimoiy normalar va qadriyatlarga zid keladigan, jamiyat tomonidan salbiy baholangan harakat va xulq-shakllarni anglatadi. Bu ko'plab ko'rinishlarga ega: maktabda o'qishni tark etish, qonunbuzarlik, tajovuzkorlik, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish, ijtimoiy me'yorlardan chetlashish va hatto o'z joniga qasd qilish holatlari ham shu guruhga kiradi. Ushbu hodisalar yoshlarning ma'naviy va ijtimoiy muhitda duch keladigan qiyinchiliklari, shuningdek, ularning ruhiy salomatligi bilan bevosita bog'liq.

Oila yosh avlod uchun asosiy ijtimoiylashuv muhitidir. Bu muhitda bola nafaqat biologik jihatdan o'sadi, balki ongli shaxs sifatida shakllanadi. Oilaning tarbiyaviy roli bolaning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhimdir. Agar oila a'zolari orasida mehr-muhabbat, o'zaro hurmat va ishonch mavjud bo'lsa, bola o'zini himoyalangan va qadrlangan his qiladi. Bunday sharoitda bolaning o'zini tutishi barqaror va ijtimoiy me'yorlarga mos keladigan bo'ladi. Aksincha, oilada nizolar, zo'ravonlik, e'tiborsizlik yoki qattiq nazorat mavjud bo'lsa, bola o'zini jamiyatdan ajratilgan, tushunilmagan his qilishi mumkin. Bu esa ko'pincha ularni salbiy xulq-atvorga olib keladi.

Oilaviy muhitdagi muammolarni aniqlash va bartaraf etishda psixologik maslahat xizmatlarining roli katta. Ota-onalarga psixologik savodxonlikni oshirish, oilaviy muloqotni rivojlantirishga ko'maklashish yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda samarali vositadir. Shuningdek, oilalarda ota-onalarning o'zaro munosabatlari ham bolaning ruhiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Oilada sog'lom munosabatlar va barqaror muhit bo'lishi yoshlarning ijtimoiy hayotga to'liq moslashishi uchun zarur.

Maktab yoshlarning ikkinchi ijtimoiy muhitidir va ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Pedagoglar nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyalovchi sifatida ham faol bo'lishlari lozim. Maktabda o'quvchilar orasida salbiy xulq-atvorning oldini olish uchun darsdan tashqari ijtimoiy-madaniy tadbirlar, sport musobaqalari, ijtimoiy loyihalar va mentorlik dasturlari tashkil etilishi zarur. Shuningdek, maktabda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning mavjudligi yoshlarning

ruhiy holatini kuzatish va zarur yordamni ko'rsatishda muhimdir.

Pedagogik xodimlarning bolalar bilan individual ishlashi, xavf guruhiga kiruvchi o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, ularni ijtimoiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashi kerak. Maktab va ota-onalar o'rtasidagi doimiy muloqot yoshlarning muammolarini erta aniqlashga imkon yaratadi. Maktabda yoshlar uchun ijtimoiy va psixologik savollar bo'yicha treninglar, stressni boshqarish bo'yicha mashg'ulotlar ham o'tkazilishi zarur.

Jamiyat darajasida esa mahalla, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, yoshlar markazlari va ijtimoiy xizmatlar yoshlarning ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etadi. Mahallalarda yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish, ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etish uchun mahalla faollari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish muhimdir. Shuningdek, yoshlarning madaniy va sportga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni ta'minlash deviant xulq-atvorning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy jamiyatda yoshlarning axborot maydoni kengaygan, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri kuchayganligi sababli, yoshlar orasida noto'g'ri va zararli axborotlarning tarqalishi ham deviant xulq-atvorni kuchaytirishi mumkin. Shu bois, maktab va jamiyat tomonidan yoshlarni axborot savodxonligini oshirish, internetdagi xavflardan himoya qilish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish kerak.

Yuqoridagi barcha omillarni o'z ichiga olgan ko'p tomonlama va tizimli profilaktika tizimini yaratish yoshlarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi, ularni jamiyat uchun foydali va faol fuqarolarga aylantiradi. Shu maqsadda, davlat siyosati darajasida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini qo'llab-quvvatlash, oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish, maktab va jamiyat tizimlari o'rtasida faol integratsiyani ta'minlash kerak.

Xulosa qilib aytganda, deviant xulq-atvorning oldini olishda oilaning mehrga asoslangan muhit yaratishi, maktabning tarbiyaviy salohiyati va jamiyatning faol ishtiroki bir butun tizim sifatida faoliyat yuritisa, bu og'riqli muammoni bartaraf etish imkoniyati yanada kengayadi. Zamonaviy pedagogik, psixologik va ijtimoiy texnologiyalarni joriy etish orqali yoshlarni salbiy ta'sirlardan himoya qilish, ularni sog'lom, mas'uliyatli va jamiyatga foydali shaxslar sifatida tarbiyalash mumkin. Bu esa o'z navbatida, mamlakatning ma'naviy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.

2. Jalolov, J. J. (2022). Pedagogika: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan.
3. Zokirova, D. S. (2021). Oila psixologiyasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Saidov, A. X. (2020). Inson huquqlari: O'quv qo'llanma. Toshkent: Adolat.
5. World Health Organization. (2020). Adolescent health and development. Geneva: WHO.
6. UNESCO. (2019). Preventing school violence and bullying: A global report. Paris: UNESCO Publishing.
7. Islomova, N. K. (2023). Yoshlar tarbiyasida zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Ta'lim.
8. Abdullayeva, M. M. (2019). Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi.

TARMOQ TEKNOLOGIYALARINI O'QITISHDA VIRTUALNETUZ SIMULYATORIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

B.B.Mo'minov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Sun'iy intellekt" kafedrası mudiri, texnika fanlari doktori, professor

D.D.Djurayev

Navoiy davlat universiteti "Raqamli texnologiyalar" kafedrası o'qituvchisi
e-mail: davrondjurayev1@gmail.com

Annotatsiya: Maqoladatarmoqtexnologiyalarigaoidamaliymashg'ulotlarni samarali tashkil etish, xususan VirtualNetUz simulyatoridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *tarmoq texnologiyalari, amaliy mashg'ulot, VirtualNetUz, virtual simulyator, kompetentlik, tarmoq loyihasi.*

Jahonda foydalanuvchilar joylashuvidan qat'iy nazar samarali muloqot va video konferensiyalar tashkil qilish, markazlashtirilgan ma'lumotlar bazalari hamda ilovalarga kirishni ta'minlash, axborot almashish, uni tarqatish, xavfsiz saqlash, IoT texnologiyalari yordamida sohalarni avtomatlashtirish, bulutli hisoblash xizmatlaridan foydalanish kabi amaliy masalalar tarmoq texnologiyalari

imkoniyatlaridan foydalangan holda hal qilinmoqda.

Tarmoq texnologiyalarining imkoniyatlari kun sayin ortib borishi, yangicha texnik va dasturiy vositalarning kirib kelishi natijasida ushbu soha mutaxassislarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda. Shuning uchun, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak axborot texnologiyalari mutaxassislari hamda informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitiladigan umumkasbiy fanlardan, xususan tarmoq texnologiyalariga oid amaliy mashg'ulotlarini samarali tashkil etish, uni olib borishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish zarur.

Oliy ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulotlar professor-o'qituvchi rahbarligida talabalar tomonidan bir yoki bir nechta amaliy topshiriqlarni individual ravishda bajarish orqali, ularni amaliy qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantiradigan mashg'ulot shakli hisoblanadi.

Shuningdek, Informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, talabalarning ilmiy va nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga, kompyuter bilan ishlash ko'nikmalarini egallashga, mustaqil ishlashning muayyan usullarini o'zlashtirishga hamda turli xil axborot resurslarida ma'lumot qidirishga va uni yanada rivojlantirishga qaratiladi. Ushbu mashg'ulotlar turli bosqich, qism va element (tashkiliy qism, so'rov, didaktik masalalarni, vositalarni, usullarni tushuntirish, ularni yechish va h.k.) lardan iborat bo'lib, ular aniq shaklda bir-biri bilan uzviy bog'liq holda ketma-ket amalga oshiriladi [4]. Mashg'ulotning bosqichlarida texnik va dasturiy vositalar, usullar va vazifalarni to'g'ri tanlash informatika o'qituvchisi uchun darslarga tayyorgarlik ko'rishning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Bu borada, ya'ni amaliy mashg'ulotlarda olib borish, uni amalga oshirishda tashkiliy vazifalar, didaktik vositalar va usullarni tanlash yuzasidan bir qator olimlar izlanishlar olib borgan. Ularning fikricha, tarmoq texnologiyalariga oid amaliy mashg'ulotlarni virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, loyiha topshiriqlarini berish orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot ishlari o'rganilgan olimlarning tavsiyalari asosida, tarmoq texnologiyalariga oid amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil qilish va olib borish bosqichlari ishlab chiqildi. Unda mashg'ulot tashkil etilishi olti bosqichdan (1-tashkiliy qism, 2-o'tilgan mavzuni takrorlash, 3-asosiy bosqich 4-amaliy bosqich, 5-bajarilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan taqdimot, 6-Yakuniy bosqich) iborat bo'lib, aynan 4-amaliy bosqichida loyihalashga mo'ljallangan dasturiy vositalar orqali tarmoq loyihasini ishlab chiqishga oid topshiriqlar berish nazarda tutilgan.

Mazkur bosqichda tavsiya etilgan amaliy dasturiy vosita imkoniyatlari ochib

berilgach, undan talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan muammoli topshiriqlar beriladi.

Misol uchun quyidagi topshiriqqa e'tibor qaratamiz.

1-topshiriq. Kompyuter sinf xonasining tarmoq strukturasi tuzing. Xonada 28 ta kompyuter, 2 ta printer, 1 ta server kompyuter, telefon liniyasi orqali global tarmoqqa ulanishi kerak. Ushbu topshiriqni bajarishda ham iqtisodiy ham fizik xususiyatlariga e'tibor bering.

Izlanishlar natijasida shuni aytish mumkinki, mazkur topshiriqni bajarishda "Loyiha" metodidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Taklif etilayotgan metod talabalar faoliyatining aniq maqsadini anglatib, tarmoq texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajribaga ega bo'lish jarayonini boshqaradi. Shu bilan birga, talabalar faoliyatini faollashtirishga hamda ichki qobiliyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

"Loyiha" metodi mashg'ulotning to'rtinchi amaliy bosqichida qo'llaniladi. Ushbu metodni qo'llashda VirtualNetUz simulyatoridan foydalanish maqsadga muvofiq. VirtualNetUz – bu O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan, o'zbek tilida ishlovchi, tarmoq texnologiyalarini o'rgatishga mo'ljallangan virtual simulyator dasturidir.

Ushbu simulyator talabalar va o'quvchilar uchun tarmoq qurish, sozlash va tahlil qilish kabi amaliy mashg'ulotlarni real muhitga yaqin tarzda bajarish imkoniyatini yaratadi.

VirtualNetUz simulyatorining eng muhim afzalliklaridan biri uning to'liq o'zbek tilida ishlab chiqilganidir. Bu, ayniqsa, xorijiy tillar mukammal bilmaydigan foydalanuvchilar uchun katta qulaylik yaratadi. Simulyator orqali talabalar virtual kompyuterlar, marshrutizatorlar, switchlar va boshqa tarmoq qurilmalarini ulab, ularni sozlashi mumkin. Bu orqali foydalanuvchi nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmaga aylantiradi. VirtualNetUz simulyatori talabalarning bajargan topshiriqlarini tahlil qiladi va natijani avtomatik ravishda baholaydi. Baholash jarayoni urinishlar soniga qarab, aniqlik darajasi va bajarilgan vazifaning to'liqligiga asoslanadi. Bu esa talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda sinab ko'rishlari va natijalarini kuzatishlariga yordam beradi.

Simulyator tarmoq texnologiyalari bo'yicha boshlang'ichdan murakkab darajalargacha bo'lgan topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Har bir bosqichda foydalanuvchiga kerakli nazariy ma'lumotlar va amaliy topshiriqlar taqdim etiladi. VirtualNetUz simulyatori talabalarni laboratoriya sharoitlarisiz ham tarmoq bo'yicha amaliy mashg'ulotlar bajarishga imkon beradi. Bu masofaviy va mustaqil ta'limda ayniqsa muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, yuqorida imkoniyatlari yoritilgan VirtualNetUz simulyatori

foydalanib, tarmoq texnologiyalariga oid amaliy mashg'ulotlarni olib borish maqsadga muvofiq sanaladi. Mazkur loyihalash va vizualizatsiya qilishga mo'ljallangan simulyator tarmoq texnologiyalarining telekommunikatsiya tarmoqlaridagi ma'lumotlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, oliy ta'lim muassasasi talabalarini o'qitishda elektron, interaktiv va pedagogik vosita sifatida foydalanish uchun samarali hisoblandi. Natijada quyidagilarga erishiladi:

- talabalarining tarmoq texnologiyalarini loyahasini vizual tarzda ishlab chiqishga oid ko'nikma va malakasi rivojlanadi;
- mashg'ulotlarda namuna sifatida ishlab chiqilgan loyihalar asosida turli xil tarmoq topologiyalarining loyihasi tuzishni o'rganadi;
- simulyatordan foydalanish orqali tarmoq texnologiyalaridagi virtual jarayonlarning mohiyatiga oid tasavvurga ega bo'ladi;
- xatoliklarni aniqlash va bartaraf etishga oid malakasi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarining tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish uchun amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashga mo'ljallangan amaliy dasturlar va simulyatorlar yordamida tashkil etish samarali hisoblanadi. Natijada talabalarining tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlanishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Djuraev, D., Shirinova, F., Rakhmatova, N., Ruzieva, D., & Norkobilov, M. (2025). Virtual technologies in the educational process development. Proceedings of the IV International Conference on Advances in Science, Engineering, and Digital Education: ASEDU-IV 2024, 6.
2. Evdokimova, V. E., & Katkova, A. L. (2020). Стимулирование профессионального интереса студентов к практическим занятиям информатике. Mir nauki. Pedagogika i psikhologiya, (1).
3. Kononets, N. V. (2013). Практическое занятие по информатике в контексте ресурсно-ориентированного обучения студентов. Fundamentalnye issledovaniya, (11-3), 540–545. <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=33160>
4. Revinskaya, O. G. (2006). Методика проектирования и проведения компьютерных лабораторных работ для изучения теоретических моделей явлений и процессов в курсе общей физики технического вуза [Avtoreferat dissertatsii kandidata pedagogicheskikh nauk]. Tomsk.
5. Styazhkina, A. A., & Neverova, O. P. (2012). Развитие практических навыков

у студентов при изучении дисциплины “Упаковка продовольственных товаров”. Agrarnoe obrazovanie i nauka, (2).

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA KREATIV VA INNOVATSION FIKRLASHNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Niyozova Shaxnoza Farxod qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar
fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs
talabasi
e-mail: shaxnoza0524@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimida kreativ va innovatsion fikrlashning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada zamonaviy texnologiyalar – sun'iy intellekt, raqamli platformalar, onlayn ta'lim vositalari – orqali o'quvchilarning mustaqil, ijodiy va yangilikka intiluvchi shaxs sifatida shakllanishi tahlil qilingan. Shuningdek, kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim metodlar, xususan STEAM yondashuvi, dizayn fikrlash va loyiha asosida o'qitishning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Muallif O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar va innovatsion yondashuvlarning yosh avlod raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini ham tahlil qiladi. Maqola ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, innovatsion metodlarni o'rganuvchilar va ilmiy izlanuvchilar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zi: *Raqamli transformatsiya, kreativ fikrlash, innovatsion fikrlash, ta'lim jarayoni, o'quvchi faolligi, STEAM yondashuvi, dizayn fikrlash, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, innovatsion ta'lim.*

XXI asr — raqamli texnologiyalar asri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur'atlarda kechmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar nafaqat o'quv-uslubiy yondashuvlarni, balki fikrlash tarzini ham tubdan yangilashni talab etmoqda. Endilikda bilim olishning o'zi kifoya emas – zamonaviy o'quvchi mustaqil, kreativ va innovatsion fikrlay oladigan, yangilikka intiluvchan shaxs bo'lishi zarur.

Raqamli texnologiyalar—sun'iy intellekt onlayn platformalar, virtual va aralash ta'lim tizimlari – o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, o'z fikrini ilgari surish va muammolarga noodatiy yechim topish imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu sababli

ham bugungi ta'lim jarayonida kreativ va innovatsion fikrlashni shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Kreativ fikrlash – bu muammolarga noodatiy, ijodiy yondashish, mavjud bo'lgan ma'lumotlardan yangi g'oyalar yaratish jarayonidir. Innovatsion fikrlash esa bu g'oyalarni amaliyotga joriy etish, foydali mahsulot yoki xizmatga aylantirish demakdir. Bugungi kunda ushbu ikki yondashuv ta'limda o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni real hayotga tayyorlashda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Raqamli transformatsiya ta'lim tizimida quyidagi o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda:

- Raqamli platformalar (Zoom, Google Classroom, Microsoft Teams) orqali masofaviy ta'lim kengaymoqda;
- Sun'iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar orqali shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari yaratilmoqda;
- Onlayn testlar, raqamli laboratoriyalar va simulyatorlar o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etmoqda.

Onlayn ta'lim platformalari o'quvchilarga o'z vaqtida va istalgan joyda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. O'quvchilar darslarni o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda ko'rishlari, savollarni berishlari va o'quv materiallarini mustaqil o'rganishlari mumkin. Bunday platformalar o'quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirishda yordam beradi, chunki ular o'z o'rganish uslublariga mos tarzda resurslarga kirishadi.

Interaktiv darslar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

O'quvchilarga qiziqarli va samarali tarzda darslarni o'zlashtirish, amaliy mashqlarni bajarish va o'z bilimlarini sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'quvchilarning o'zlarini erkin ifoda etishlariga o'rganish jarayonida yanada yuqori natijalarga erishishlariga yordam beradi.

Ta'lim jarayonlarida tobora faol qo'llanilayotgan zamonaviy vositalardan biri axborot texnologiyalari sanaladi. Ularning texnik, texnologik imkoniyatlari ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli, samarali tashkil etishda pedagoglar uchun nihoyatda qo'l keladi. Bugungi kunda ta'limda radio eshittirish, teleko'rsatuvlar, filmlarni namoyish qilish, imkoniyatlari mavjud. Ulardan foydalanish o'qitish jarayonini yaxshilaydi, shaxsning kreativ sifatlari, kasbiy malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsiya iqtisodiy toifa sifatida yangiliklar yaratish va amalga oshirishning eng umumiy xususiyatlari, belgilari, aloqalari va munosabatlarini aks ettiradi. Yangi g'oya izlab topishning asosiy usullari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sinov va xatolar.
- nazorat savollari usuli.
- aqliy hujum.
- sintetika.

- yetti karra izlash strategiyasi.
- ixtirochilik masalalarini hal qilish usuli.

Yangi ayniqsa ilmiy bilimlar eng ishonchli va oldindan aytish mumkin bo'lgan manba hisoblanadi. Innovatsiya (inglizcha, innovatsiyalar kiritilgan yangilik, ixtiro) degan ma'noni anglatib, uni qulayroq, samaraliroq yoki foydaliroq holda keltirish hamda biror narsani yangiliklarda

yaratish hisoblanadi. Masalan: Telefonlar ilgari faqat qo'ng'iroq qilish uchun ishlatilgan, hozirda esa ular internet, kamera va sun'iy intellekt bilan jihozlangan – bu innovatsiya. Maktablarda darslar faqat doskada emas, endilikda interaktiv doska, onlayn platformalar orqali o'tilmoqda –bu ham innovatsiya.

Ta'limda innovatsiya quyidagilarni anglatadi:

- Raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga joriy etish.
- Kreativ metodlar bilan o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirish.
- Mustaqil fikr yuritish va muammoga yechim topishga o'rgatish.

Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga integratsiya qilinishi, individual yondashuvni amalga oshirishga o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ta'lim jarayonlarini yaratishga va ta'lim samaradorligini oshirishga katta yordam beradi. Sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, onlayn ta'lim platformalari va innovatsion texnologiyalar yordamida ta'limni yanada samarali va qiziqarli qilish mumkin. Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim jarayonini optimallashtirish va o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olish, ta'limning sifatini va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ta'lim jarayonida kreativ va innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi texnologiyalar qo'llanilmoqda:

- STEAM yondashuvi – fan, texnologiya, muhandislik, san'at, va matematikani integratsiyalash orqali muammolarni hal qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.
- Dizayn fikrlash – muammoni aniqlash, g'oya yaratish, sinovdan o'tkazish bosqichlarini o'z ichiga olgan interaktiv metod.
- Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning)-real hayotiy topshiriqlar orqali o'quvchilarning mustaqil ishlash, tanqidiy fikrlash va kreativ qaror qabul qilish ko'nikmalarini oshiradi.

O'zbekistonda ta'lim tizimida ham raqamli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda:

- “Raqamli ta'lim” dasturi asosida maktablar kompyuter va internet bilan jihozlanmoqda;
- “Bilimlar bellashuvi”, “IT maktablari”, “Digital School” kabi loyihalar orqali yoshlarning texnologik va ijodiy salohiyati ochilmoqda;

- O'quvchilar uchun raqamli kompetensiyalar bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilmoqda.

Bu jarayonlar barchasi kreativ va innovatsion fikrga ega yangilik yaratishga tayyor yoshlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytamizki, raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi tubdan o'zgarib bormoqda. Endilikda o'quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, yechim topuvchi va yaratuvchi shaxs sifatida shakllanmoqda. Bu esa kreativ va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi. O'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, loyihaviy yondashuvlar, interaktiv metodlar orqali yoshlarning ijodiy salohiyati ochiladi, muammolarga yechim topishga yo'naltirilgan. Shunday ekan, o'qituvchilar va ta'lim tashkilotlari innovatsion yondashuvni doimiy ravishda amaliyotga joriy etishi – zamon talabi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xolmurodov, Sh. (2021). Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent.
2. Alimova, D. (2023). Raqamli ta'lim texnologiyalari: konsepsiya va amaliyot. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali. Toshkent.
3. G'ulomov, I., & Rahimova, S. (2020). Onlayn ta'lim platformalari va o'quvchilarning individual ehtiyojlari. Ta'lim metodologiyasi.
4. Ergashev, K. B. (2023). Kreativ pedagogika. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent.
5. Ismoilova, G. X. (2022). Ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasi. Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmon.
7. O'zbekiston Respublikasi. (2020). "Ta'lim to'g'risida"gi qonun (yangi tahriri).

EMPOWERING YOUTH THROUGH DIGITAL LITERACY: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES IN THE INFORMATION AGE

Umrzoqova Nafisa Sodiqjon qizi

Navo'i State University Faculty of English
language and literature

e-mail: umrzokovanafisal@gmail.com

Annotation: Young people are leading the way in technological change in today's quickly changing digital environment. On the one hand, young people can interact with people around the world, access an endless amount of educational resources, and express themselves creatively. However, problems like false information, internet addiction, and inadequate media literacy pose a threat to their growth. This article examines how youth are affected by digitalization, emphasizing the value of media literacy and the necessity of appropriate online behavior.

Key words: *media literacy, misinformation, media education, fake news, addiction, digital skills.*

The majority of us believe we are reasonably media literate. We are able to access a wide variety of media to locate the games, entertainment, music, and information we desire. We are familiar with numerous celebrities' looks and a wealth of information about their life. We identify a variety of different musical genres and have formed firm tastes in what we enjoy. Using text, images, and videos, we may quickly compose messages and post them to different websites on the Internet. We are obviously aware of how to expose ourselves to the media, how to take in its information, how to find amusement in it, and how to utilize it to craft our own messages and spread them to others. Are we literate in the media? Indeed, We have gathered a lot of knowledge and acquired extraordinary abilities. Speaking a language, reading, comprehending images, and following stories are important accomplishments, but we frequently consider them a given. Although we shouldn't undervalue our accomplishments, we must also recognize that we can all become much more media savvy. Our current level of media literacy is likely comparable to that of your early adolescence in many respects. Our knowledge base about various media messages, including well-known songs, websites, and video clips, has significantly expanded since then. However, it's possible that our knowledge base hasn't expanded much in other areas, such as the economics of the mass media sector, who controls it, how content production decisions are made, and the various hidden ways that the constant flow of content impacts you and society. We can therefore do a lot with the media at your current level of media literacy, but if we expanded our knowledge in other areas, we could be using the media with much greater control and benefit. In today's fast-paced digital world, technology connects us like never before, creating limitless opportunities for communication, learning, and invention. However, along with these developments come important issues that influence how we engage with the digital world. The spread of fake news

affects our ability to discriminate between truth and deception, impacting public opinion and decision-making. Screen addiction traps people in a never-ending cycle of digital consumption, diminishing productivity, well-being, and real-world interactions. Furthermore, a lack of digital skills makes many people vulnerable — unable to properly handle technology, exposing them to security concerns and restricting their chances in an increasingly digital workplace.

Fake news & misinformation. In the digital age, false information and fake news have grown to be serious problems that affect how people think and make decisions. The term “fake news” describes intentionally made-up tales intended to lie, frequently for financial or political advantage. Contrarily, misinformation is content that is inaccurate or misleading and is spread without the intention of misleading, frequently as a result of misunderstandings or a lack of verification. Social media, where untrue statements can become viral before fact-checkers step in, is a major contributor to the quick dissemination of misleading information. Fake news spreads 70% more quickly than actual news [1], according to studies, making it harder for individuals to tell fact from fiction. Some disinformation, including health-related myths that encourage negative behavior, can potentially have serious consequences. For example, Research by Guess, Nyhan, and Reifler (2020) indicates that a considerable portion of the American electorate was exposed to misleading online sources during the 2016 U.S. presidential election [2]. While fake news didn't necessarily change votes, it contributed to misunderstandings of facts, distrust in media, and polarized opinions.

Screen addiction. Screen addiction is a growing concern in the digital age, where excessive use of devices like smartphones, computers, and televisions can lead to negative physical and psychological effects. It is characterized by a compulsive need to engage with screens, often at the expense of productivity, social interactions, and overall well-being. Studies show that prolonged screen time can contribute to eye strain, sleep disturbances, anxiety, and even cognitive decline [3]. The constant stream of notifications and digital entertainment stimulates the brain's dopamine reward system, reinforcing compulsive usage. Over time, this can lead to reduced attention span, impaired memory, and social isolation. Breaking free from screen addiction requires conscious effort, such as setting screen time limits, engaging in offline activities, and practicing digital detox strategies. According Amber Biello-Taylor people spend up to seven hours a day looking at a screen for work-related purposes. When added to the four to six hours of personal screen time the average person engages in (mostly on their phone), almost half the day is spent with their eyes glued to a screen [4].

Lack of digital skills. In today's technologically advanced society, the lack of

digital skills is becoming a bigger problem. It describes the gap between people's actual skill set and the digital competencies needed in contemporary businesses. This disconnection may restrict professional options, limit efficiency, and even create security threats. This problem is caused by a number of factors, one of which is the speed at which technology is developing, which makes it challenging for workers and educational institutions to keep up. Furthermore, many people are unable to acquire necessary skills due to restricted access to digital training, particularly in areas with a lack of digital literacy programs. This imbalance has serious consequence: companies have trouble hiring skilled workers, and people have trouble adjusting to digital tools that are now necessary in almost every sector. Livingstone and Helsper (2007) emphasize that digital inclusion involves more than just internet access — it also depends on how effectively young people use online tools for learning and development [5]. Media literacy is essential for participating fully in the digital age. Young people need critical thinking skills to evaluate online content, understand bias, and create their own media responsibly. Hobbs outlines a national strategy for integrating media literacy into education, emphasizing its role in democracy, education, and personal empowerment [6]. Promotes teacher training, curriculum reform, and public awareness to build a media-literate society.

In an era dominated by digital content and online communication, media literacy has become known as a critical skill for safe information management. The difficulties, ranging from misinformation and algorithmic biases to a lack of critical thinking resources, show the crucial need for comprehensive education in media literacy. Society may build a more informed and adaptive population by teaching people how to identify trustworthy information, detect manipulation, and interact wisely with digital platforms. Educators, governments, and parents all play critical roles in describing media literacy programs. Teachers might include critical thinking activities into their classes, while politicians can promote transparent laws and fund in educational efforts. Parents, too, ought to encourage digital responsibility at home by teaching younger generations in responsible online activity. Finally, promoting media literacy is more than just consuming information; it is about preparing people to think critically, engage meaningfully, and contribute to a society based on truth and informed decision-making. By collaborating, we can make sure that future generations have the ability to manage all aspects of the digital world with confidence and decision.

REFERENCES

1. Science.org. (n.d.). Rasmiy sayt. <https://www.science.org>
2. Guess, A., Nyhan, B., & Reifler, J. (2020). Exposure to untrustworthy websites

- in the 2016 U.S. election. *Nature Human Behaviour*, 4(5), 472–480. <https://doi.org/10.1038/s41562-020-0833-x>
3. Stanford Center on Longevity. (n.d.). Rasmiy sayt. <https://longevity.stanford.edu>
 4. Addiction Center. (n.d.). Rasmiy sayt. <https://www.addictioncenter.com>
 5. Livingstone, S., & Helsper, E. J. (2007). Gradations in digital inclusion: Children, young people, and the digital divide. *New Media & Society*, 9(4), 671–696.
 6. Hobbs, R. (2010). Digital and media literacy: A plan of action. The Aspen Institute.

PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHINING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHI

Xudoyberdiyeva Laylo Sanjar qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim

4-kurs talabasi

e-mail: laylosanjarovna@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan (ZAT) samarali foydalanish masalalari yoritiladi. O'qituvchining zamonaviy texnologiyalarni bilishi va ulardan maqsadli foydalanishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Pedagogik ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), innovatsion ta'lim metodlari, o'qituvchining roli, ta'lim texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, pedagogik innovatsiyalar*

Bugungi globallashuv davrida ta'lim sohasining har bir jabhasida zamonaviy axborot texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Axborot asri deb nom olgan XXI asr pedagogi doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishi zaruratga aylangan. Abu Nasr Forobiy shunday deydi: "Ilmning eng oliy darajasi — uni boshqalar bilan bo'lishish va o'rgatishdir." Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy texnologiyalar yordamida bilimni o'rgatish o'ziga xos yangicha yondashuvlarni talab etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'limdagi o'rni juda katta. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qituvchi ta'lim materiallarini vizual va interaktiv shaklda yetkazishi, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishi, shaxsiylashtirilgan

o'qitish usullarini ishlab chiqishi va talabalarning mustaqil o'rganish motivatsiyasini oshirishi mumkin. O'qituvchining ZAT bilan ishlash malakasi hozirgi zamonaviy ta'lim jarayonida muhim. Samarali o'qituvchi kompyuter va internet resurslaridan faol foydalanadi; onlayn platformalarda ta'lim kurslarini tashkil qiladi; sun'iy intellekt, multimediali materiallar va interaktiv doskalar kabi yangi texnologik vositalarni o'z darslarida joriy etadi. Konfutsiy aytganidek: "Mengadek o'rgatadigan ustozlar kam emas, ammo zamonga mos o'rgatadiganlar juda kamdir."

Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha afzalliklari bor. Shu jumladan, individual yondashuv imkoniyati, real vaqt rejimida fikr almashish va tahlil qilish, yangi metodikalar va interaktiv o'yinlar orqali o'quvchilar faoliyatini rag'batlantirish, vaqt va makonga bog'liq bo'lmagan ta'lim imkoniyatlarini yaratish kabi ijobiy tomonlarga ega. Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'qituvchilar va o'quvchilarga kerakli natijaga erishishda yordam beradigan turli xil o'qitish usullari, yondashuvlari va vositalarini ifodalaydi. Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash ularning samaradorligini va kelajakda ulardan foydalanishni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir. Pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisi bo'lib, shaxsdagi muayyan sifatlarni shakllantirishga pedagogik ta'sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi. Binobarin, har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo'lishi kerak.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda bir qancha muammolarga ham duch kelmoqda. Ularni aniqlab yechim topish dolzarb masala bo'lishi kerak. Misol qilib aytganda, ba'zi ta'lim muassasalarida texnik imkoniyatlarning cheklanganligi, o'qituvchilarning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarining yetarli emasligi, dars mazmunining texnologik vositalar bilan haddan ziyod yuklanishi kabi muammolar mavjud. Bularni bartaraf etish uchun doimiy malaka oshirish, zamonaviy metodikalardan xabardor bo'lish va pedagogik mahoratni texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zarur.

Pedagogik texnologiyalarning vazifalari — pedagog-o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardor qilish hamda ularni maxsus fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etishga, ta'lim jarayonini mukammal modul asosida loyihalashga erishish, ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyasidan oqilona foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishga, ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi va ularda amaliy ko'nikma va malakalar

hosil bo'lishining kafolati bo'la olishga o'rgatishdan iborat. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatiga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar quyidagi natijalarga erishishi kerak:

- o'quv jarayonida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirishiga qaratilgan bo'lishi zarur.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim dasturlari, onlayn ta'lim platformalari, interaktiv multimedia resurslari va hamkorlikdagi raqamli muhitlarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli vositalarni qamrab oladi. Ushbu texnologiyalar o'qituvchilarga bugungi o'quvchilarning ehtiyojlari va afzalliklariga moslashtirilgan dinamik va interaktiv o'quv muhitini yaratish uchun turli imkoniyatlarni taqdim etadi. Pedagogik texnologiyalardan samarali foydalangan holda, o'qituvchilar shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini osonlashtirishi, faol ishtirok etishni rag'batlantirishi va talabalar o'rtasida tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Pedagogik texnologiyalarning integratsiyasi o'qituvchilarga an'anaviy sinf chegaralaridan chiqib ketadigan innovatsion o'qitish strategiyalarini qabul qilishga imkon beradi. Yuzma-yuz o'qitishni onlayn komponentlar bilan birlashtirgan aralash ta'lim yondashuvlari o'quv dasturlarini etkazib berishda moslashuvchanlik va xususiylashtirishga imkon beradi. O'tkazilgan sinf modellari o'quvchilarga dars oldidan mustaqil ravishda o'quv mazmuni bilan shug'ullanish imkoniyatini beradi va shu bilan faol o'quv faoliyati, munozaralar va hamkorlikdagi loyihalar uchun dars ichidagi vaqtni maksimal darajada oshiradi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. AI yordamida talabalarning bilim darajasini aniqlash va shaxsiy o'qitish dasturlarini yaratish mumkin. O'qituvchilar uchun avtomatik testlar tuzish va baholash tizimlari ishlab chiqilishi, o'qituvchilarga o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatadigan tahliliy hisobotlar taqdim etilishi mumkin. Taniqli olim Ray Kurzweil shunday deydi: "Kelajakda sun'iy intellekt bilim olish jarayonini inqilobiy darajada o'zgartiradi, ammo insoniy rahbarlik va tarbiya muhimligicha qoladi". Demak, AI yordamida o'qitish jarayoni avtomatlashtirilishi mumkin bo'lsa-da, o'qituvchining o'rnini hech qachon to'liq almashtirib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish o'qituvchidan doimiy o'z ustida ishlashni, yangiliklarga ochiqlikni va kreativ yondashuvni talab qiladi. O'qituvchi shunchaki texnik vositalarni bilish bilan cheklanmasdan, ularni did bilan, maqsadga muvofiq holda ta'lim jarayoniga tatbiq etishi lozim. Abdulla Avloniy bejizga ta'kidlamagan: "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo mamot, yo saodat yo falokat masalasidir." Shunday ekan, zamonaviy texnologiyalar vositasida sog'lom, bilimdon va mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalash bizning eng asosiy vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Musurmanova, N.J.Isaqulova, M.T.Jumaniyozova, A.Sh.Jumaev. "Umumiy pedagogika" (2-qism) o'quv qo'llanma, Toshkent "O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI". 2020
2. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" darslik. -T.; "Sano-standart" nashriyoti, 2017
3. R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev "Pedagogika" darslik. -T.; "O'qituvchi" 2001
4. Abdurahmonov, N. (2020). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda qo'llanilishi. O'zbekiston Pedagogika Jurnali.
5. Tursunov, S. (2019). O'qituvchining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish. Ta'lim va rivojlanish.
6. Rahimov, J. (2018). Zamonaviy o'qitish metodlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. Pedagogika va innovatsiyalar.
7. O'roqov, A. (2022). Sun'iy intellekt va ta'lim: Yangi davr pedagogining muammolari. Ta'lim tizimi va texnologiyalari.
8. Abdullayeva, Z.M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
9. Musurmonova, N.A. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2020.
10. Juraev, A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2018.

11. Ismoilova, M.T. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: “Innovatsiya”, 2021.
12. Inomova, D.K. Oliy ta'lim tizimida AKTdan samarali foydalanish metodikasi. – Toshkent: “Fan”, 2022.

OLIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING O'RNI

Xusenova Gulrux Otabek qizi

Osiyo Xalqaro universiteti magistranti

e-mail: gulruhxusenova20@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda tobora ommalashib borayotgan “raqamli texnologiya” tushunchasining yurtimizdagi ta'lim muassasalarida, jumladan oliy ta'limda keng joriy etilishi va uning bugungi istiqbollari to'g'risida so'z boradi. Bugungi kunda ushbu tushuncha jamiyatning barcha sohasida dolzarb ijtimoiy zaruriyat ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Kalit so'zlar: *“Raqqamli texnologiya”, ta'lim muhiti, zamonaviy ta'lim, masofaviy ta'lim, multimedia vositalari.*

Raqamli texnologiya tushunchasi hozirgi kunimizdagi barcha sohada o'z afzalliklarini ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolar, xususan yosh bolalardan, keksa avlod vakillarigacha ko'plab muammolarning yechimi sifatida “raqamli texnologiya” tushunchasini tilga olmoqda. Davlat va jamiyat boshqaruvi hamda ijtimoiy sohada raqqamli texnologiyaning keng joriy etilishi esa samaradorlikni oshirishga bir so'z bilan aytganda, insonlar hayotini keskin yaxshilashga olib kelmoqda. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham bugungi kunda jamiyatimizdagi barcha sohalarga “raqamli texnologiya” dolzarb zaruriyat ekanligi to'g'risida shuni ta'kidlab o'tadiki, “Taraqqiyotga erishish uchun raqqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi.”[1]

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, mantiqiylik va izchillik ussularidan keng foydalanildi. Raqqamli texnologiyalarning oliy ta'limdagi o'rni obyektiv ochib berildi. SH.M.Mirziyoyev qaror va farmonlari, shuningdek ilmiy maqolalar metodologik sifatida olindi.

Xo'sh, bugun butun yer yuzini qamrab olayotgan ushbu "raqamli texnologiya" tushunchasi asli qanday ma'noni anglatadi va bugun ta'lim muassasalarida qanday o'ringa ega.

Raqamli texnologiya — kodlashtirilgan (raqamli signallar yordamida uzatiladigan) axborotlarni diskret holda, ya'ni uzlukli-qisqa, muayyan vaqt oralig'ida olish imkonini beruvchi texnologiya sanaladi.

Ta'limdagi raqamli texnologiyalar- bu raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim muhitini tashkil etish usuli.

Raqamli ta'lim muhiti (DSP)- ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini birlashtiruvchi ochiq axborot tizimlari to'plamidan iborat raqamli makon.

Axborot olish va foydalanish tezligi juda oshgan hozirgi kundagi ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish hamda faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Eski ta'lim dasturlarining an'anaviy usuli o'z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlay olmagan. O'quvchi va talabalarda qoliplashtirish va bir xillik holatini paydo qilgan. Shaxsiy mustaqilligi va kreativligi shakllanmay, o'qituvchi va talaba nazariy bilimlar bilan cheklanib qolgan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta'lim muassasalari, jumladan oliy ta'limga kirib kelishi o'qituvchi va talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini o'sishiga qulay zamin yaratib bermoqda. Oliy ta'limga raqamli texnologiyalarning kirib kelishining ayni misoli sifatida biz "Kredit modul" tizimini keltirishimiz mumkin. Aynan mana shu raqamli texnologiya oliy ta'limdagi shaffoflikni ta'minlash, qog'ozbozlikni oldini olish hamda vaqtdan unumli foydalanish uchun joriy etilganligi hech kimga sir emas.

Shuningdek, yangi ta'lim tizimidagi o'quvchi va talabalarga berilayotgan dars samaradorligini oshirishda mobil qurilmalar, elektron doskalar, kompyuter va planshetlar, simulyatsiya va virtual laboratoriya kabi shu turdagi raqamli texnologiyalar o'qituvchining mavzu bayonini tushuntirishi va talabaning berilayotgan mavzuni yanada kengroq tushunishida asosiy vosita bo'lib hisoblanmoqda. Ushbu vositalar oliy o'quv yurtlariga kiritilgan yangi ta'lim tizimi, ya'ni 60/40 dasturini yo'lga qo'yishda yordam beruvchi qurol hisoblanadi.

Yana shuni qayd etishimiz mumkinki, hozirda yurtimizda kundan- kunga rivojlanib borayotgan virtual o'quv muhiti va masofaviy ta'limni ta'minlash, dasturlarda qatnashmagan talabalarga qulay imkoniyat yaratib bermoqda. Shu bilan birga, talabalar slaydlar, video-rolklar, onlayn dars va treninglardan foydalangan holda o'zlarining bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil tarzda oshirib borishlari mumkin. Ammo, hamma vaqt ham axbarot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida to'g'ri va samarali foydalana olinmayabdi. Bu esa ta'lim ta'lim sifatini oshirishda, ko'zlangan natiga erishishda og'ishishlarga olib kelmoqda. O'qitish sifatini saqlab qolgan holda

taʼlimda raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash uchun nimalar qilish kerak?[2].

Birinchidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarining so'ngi yutuqlarini o'zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berishimiz lozim.

Ikkinchidan, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy taʼlim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O'zbekistonning barcha oliy taʼlim muassasalarida qo'llash.

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va taʼlim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini taʼminlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.

To'rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, maʼruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish.

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video-konferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish.

Oltinchidan, texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli taʼlim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Bu vazifalar yo'lga qo'yilar ekan har qanday sohada, xususan taʼlimning barcha turlarida yuqori sifat o'zgarishlariga erishishimiz, jahon axbarot makonida yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirib chiqara olishimiz mumkin. Biz taʼlim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli oydalanish imkoniyatini yaratishni istadik.[3]

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, raqamli texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanish, mamlakatimiz taʼlimini rivojlangan davlatlar taʼlimi qatoriga qo'sha olishi mumkin. Shunday ekan raqamli texnologiyalarning taʼlim muassasalariga,

jumladan oliy ta'limda qo'llanishi yetishib kelayotgan mutaxassis kadrlarni uzoq muddatli malaka asosida emas, balki qisqa muddatda bilim, ko'nikma va malakalarga ega holda jamiyatga yetishtirib chiqarishda asos bo'lib xizmat qilmoqda desak adashmagan bo'lamiz. Axborot asri bugun shuni talab qilar ekan, bunday qulayliklar bilan har bir shaxs jamiyatda o'z o'rnini topishi, Vatani va xalqi oldida mardanovor turib, ishonchini oqlashi hamda bugun ta'lim sohasida ham O'zbek farzandi nimalarga qodir ekanini ko'rsatib berishi lozim va shartdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2022-yil 28-yanvar). "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. Baxraminova, D. (2022, 15-mart). Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-pedagogik masalalar. Pedagogical Research, 6(3). <https://bestpublication.org/index.php/pedg/issue/view/81>
3. UzA. (2020, January 25). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. <https://uza.uz/o/politics/ubekistin-respublikasi-prezidenti-mirziyoyevningoliy-25-01-2020>
4. G'affarova, G. G., & Kodirov, B. (2020). Raqamlashtirish – innovatsion rivojlanish omili sifatida. Academic Research in Educational Sciences, 1(2), 104–112.
5. Ayupov, R. H., & Tursunov, S. Q. (2020). Raqamli texnologiyalar: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, Nodirabegim nashriyoti.

YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: "RAQAMLI MA'NAVIYAT PLATFORMASI" MISOLIDA

Yo'ldoshev Sherzod Ravshan o'g'li

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail sherzod.yoldoshev.off@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli transformatsiya jarayonlarining ta'lim va ma'naviyat sohalariga ta'sirini chuqur tahlil qiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonlarini interaktiv, ko'p qirrali va talaba markazida

shakllantirishga olib kelayotgani, shuningdek, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tezisda “Raqamli ma’naviyat platformasi” nomli innovatsion ta’lim modeli taqdim etilib, uning modul va komponentlari, shu jumladan videodarslar, testlar va mustaqil ta’lim bo’limlari orqali ta’lim samaradorligini oshirish mexanizmlari tushuntiriladi. Shuningdek, platformaning o’qituvchi va talaba o’rtasidagi interaktiv muloqot va zamonaviy pedagogik talablarni qondirishdagi o’rni ko’rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: *raqamli transformatsiya, raqamli ta’lim, ma’naviyat, pedagogika, interaktiv o’qitish, mustaqil fikrlash, ta’lim platformasi, didaktik yondashuv, ta’lim samaradorligi, o’quv jarayoni, ta’limda innovatsiya, raqamli vositalar.*

Bugungi raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish, boshqaruv hamda axborot almashinuvi sohalariga chuqur singib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda kundalik faoliyatga tobora kengroq kirib kelishi natijasida o’quv jarayonlari, bilim olish mexanizmlari va axborotga munosabat tamoman yangi bosqichga ko’tarildi. Xususan, raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga kompleks tarzda joriy etish darslarning mazmuni, shakli va metodikasini tubdan yangilash zaruratini yuzaga chiqardi. Endilikda ta’lim jarayoni oddiy bilim uzatishga qaratilgan statik faoliyatdan chiqib, interaktiv, ko’p qirrali va shaxsga yo’naltirilgan didaktik tizim sifatida shakllanmoqda. Raqamli vositalar yordamida talabalarning mustaqil fikrlashi, analitik tahliliy yondashuvi va ijodiy salohiyati rivojlantiriladi. Bu esa o’qituvchi va talaba o’rtasidagi an’anaviy iyerarxik munosabatlarning o’zgarishiga, shuningdek, o’quvchi markazidagi pedagogik yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar faqatgina texnik vosita yoki dasturiy ta’minot darajasida qolmay, balki bilimga, o’rganish va o’rgatish jarayonlariga bo’lgan yondashuvni tubdan qayta ko’rib chiqishga undovchi epistemologik omil sifatida maydonga chiqadi. Bu esa o’z navbatida ta’lim mohiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan qayta talqin etishni talab qiladi. Bu fikrni mashhur rus olimi A.V.Xutorskiy quyidagicha izohlaydi: “Raqamli muhit faqat axborotni uzatish vositasi emas, balki tafakkur shakllanishining yangi makonidir. Unda o’qitish jarayoni o’z-o’zini anglash va mustaqil fikrlash faoliyatiga aylanadi.”

Mazkur masala yuzasidan taniqli tadqiqotchilar – Seymur Papert va Kris Dede o’z ilmiy ishlarida raqamli texnologiyalarning inson tafakkuriga, bilim olish uslublariga va o’quvchilarning madaniy kontekstdagi o’zaro aloqalariga qanday ta’sir ko’rsatishini chuqur tahlil qilganlar. Ular ayniqsa, raqamli muhitda ulg’ayayotgan yangi avlodning axborot makonidagi faol ishtiroki pedagogik

yondashuvlarni tubdan yangilashni zarur etishini ilmiy asoslar bilan bayon qilganlar. Raqamli o'qitish, ayniqsa, gumanitar fanlarda dolzarb bo'lib, u o'quvchining dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va tahliliy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan "Ma'naviyatshunoslik" fani raqamli vositalar orqali izchil va interaktiv shaklda o'rgatilishga muhtoj. Ammo amaldagi tizimda bu imkoniyatlar yetarlicha rivojlanmagan. Fan ko'pincha an'anaviy auditoriya darslari doirasida olib borilib, raqamli vositalar faqat qo'shimcha resurs sifatida qo'llaniladi. Bu esa talabaning mustaqil va chuqur fikrlash imkoniyatlarini cheklaydi.

Mazkur muammoning samarali yechimi sifatida Guliston davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti Sh.Yo'ldoshev tomonidan "Raqamli ma'naviyat platformasi" ishlab chiqildi. Ushbu platforma zamonaviy raqamli ta'lim konsepsiyalariga mos holda yaratilgan bo'lib, modulli yondashuv asosida tizimlashtirilgan. Platformaning asosiy maqsadi — Ma'naviyatshunoslik fanini zamonaviy didaktik talablar asosida interaktiv va mustaqil o'rganishga moslashtirish, hamda raqamli vositalar orqali ta'lim samaradorligini oshirishdir.

Platforma tarkibida fanning 48 ta asosiy mavzusi bo'yicha alohida modullar shakllantirilgan. Har bir modul quyidagi didaktik birliklardan iborat:

Ma'ruza matni – nazariy bilimlarning tizimli bayoni, asosiy tushuncha va g'oyalarning yoritilishi; videodars – asosiy mavzularni vizual va audio vositalar orqali tushunarli tarzda tushuntirishga qaratilgan ko'rgazmali dars shakli; prezentatsiya – mavzuning asosiy nuqtalarini sxemalar, diagrammalar, rasmlar orqali vizual tarzda ko'rsatib beruvchi slaydlar majmuasi; seminar dars ishlanmalari – o'quvchilarni tahliliy va munozarali faoliyatga yo'naltirishga xizmat qiluvchi topshiriq va savollar; testlar – bilim darajasini aniqlash, mustahkamlash va tahlil qilishga xizmat qiluvchi avtomatlashtirilgan savollar tizimi.

Ushbu komponentlar o'zaro uzviylikda va mantiqiy uyg'unlikda tuzilgan bo'lib, o'quvchining mustaqil, faol va reflektiv o'rganish faoliyatini rag'batlantiradi. Platforma orqali talaba nafaqat bilim oladi, balki uni amaliy faoliyatga tatbiq etish, tanqidiy fikrlash va tahliliy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, bu raqamli vosita o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni ham interaktiv shaklga olib chiqadi, o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi hamda zamonaviy raqamli pedagogika talablariga javob beradi.

Platformaning yana bir muhim va innovatsion bo'limi "Mustaqil ta'lim" talabaning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu bo'lim orqali foydalanuvchilar mavzular asosida esse yozish, fikr bildirish va muayyan g'oyalarga nisbatan munosabat bildirish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu esa faqat bilim egallash bilan cheklanmay, uni chuqur tahlil qilish va amaliy fikrlash jarayoniga yo'naltiradi. Talabalar o'z

yo'zma ishlanmalarini platformaga joylaydi, ular o'qituvchi tomonidan baholanadi yoki avtomatik tarzda tahlil qilinadi. Bu jarayon ijodiy yondashuv va akademik mustaqillikni rag'batlantiradi.

Videodarslar platformaning yana bir asosiy komponenti bo'lib, ular muallif tomonidan tayyorlangan. Ushbu videodarslar mavzuni nafaqat nazariy asosda tushuntiradi, balki uni hayotiy misollar, tahliliy savollar va amaliy tavsiyalar bilan boyitadi. Shu tariqa, dars materiallari yanada yodda qolarli, tushunarli va interaktiv shaklga ega bo'ladi.

Testlar esa Google Forms tizimi asosida avtomatlashtirilgan tarzda tuzilgan. Ular nafaqat bilimni baholaydi, balki har bir savolga berilgan javoblar asosida talabalar bilimining tahlilini ham amalga oshiradi. Bu esa o'quvchi va o'qituvchiga bilim darajasini aniq ko'rsatish, xatolar ustida ishlash va individual yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

Ushbu raqamli ta'lim modeli o'qituvchining an'anaviy pedagogik rolini saqlagan holda, ta'lim jarayonini talaba markazida tashkil etadi. Talaba istalgan joyda va istalgan vaqtda platformaga kirib, o'zining o'quv faoliyatini mustaqil tarzda boshqarishi mumkin. Bu esa ta'limda interaktivlik, moslashuvchanlik, mustaqillik va tahliliy yondashuv kabi zamonaviy pedagogik tamoyillarni amalda ro'yobga chiqaradi.

"Raqamli ma'naviyat platformasi" ayniqsa Ma'naviyatshunoslik fanining o'ziga xos axloqiy-falsafiy mazmuniga moslashtirilgan bo'lib, raqamli muhitda ushbu fan bo'yicha samarali o'qitish uchun kompleks yechim taklif etadi. U faqatgina dars o'tish vositasi emas, balki shaxsning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi ko'p funktsiyali raqamli muhitni yaratadi. Natijada, nafaqat o'qitish samaradorligi oshadi, balki mustaqil fikrlovchi, tahliliy salohiyatga ega, zamonaviy tafakkur bilan qurollangan shaxsni shakllantirishga keng imkoniyatlar ochiladi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'lim va ma'naviyat sohalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'lib, bilim olish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular nafaqat axborot uzatish vositasi, balki inson tafakkurini shakllantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ta'limda raqamli platformalar va interaktiv metodlarni joriy etish ta'lim sifatini oshirishda samarali vositadir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistoni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat". Shunday qilib, rivojlangan raqamli ta'lim va chuqur ma'naviy qadriyatlar birgalikda

mustahkam jamiyatning poydevorini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2023, December 22). Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi (p. 3).
2. Хуторский, А. В. (2019). Формирование нового мышления в цифровом образовании. Москва: Педагогика.
3. Papert, S. (1980). Mindstorms: Children, computers, and powerful ideas. New York: Basic Books.
4. Dede, C. (2021). Immersive learning: Practical approaches for VR/AR in education. Cambridge: Harvard Education Press.

FORMATION OF DIGITAL CULTURE: PROSPECTS AND PROBLEMS OF REALITY

Yuldasheva Nilufar Abdulayevna

Tashkent university of applied sciences

Tusunova Sadoqat Abdusalom qizi

Toshkent state technical university

Bekturdiev Sanjarbek Sharifboyevich

Tashkent university of applied sciences

e-mail: sanjarbeksharifboyevich@gmail.com

Abstract: The article is based on the position that at the current stage of social development, media technologies based on big data form a single communication space, in which virtual media constructions that replace reality begin to play a decisive role. The increasing role of philosophy as a means of socio-critical reflection in the era of socio-cultural changes, its constructive, prognostic potential is noted.

Keywords: *digital transformation of culture, information and communication technologies, media reality.*

Culture as a “system of historically developing super biological programs of human life (activity, behavior and communication) that ensure the reproduction and change of social life in all its main manifestations” is always in development,

but what is important is that the changes occurring in the course of development are so rapid that they give rise to the phenomenon of time compression as a constant compaction of a time segment by events.

This can become a source of a crisis of culture as an unresolved contradiction between the objective and subjective sides of the cultural process. Thus, scientists have already drawn attention to the immanent contradictions inherent in the dynamics of culture and affecting its development: the violation of the internal and practical order of being due to the elevation of means to the level of final goals; the accelerated development of objective culture; uneven development of “individual branches of culture”. At the same time, the said contradictions are opposed by the “semantic side of culture”, the side that constitutes one of the conditions for the development of subjective culture “as the path of the soul from itself — imperfect to itself — perfect”. If the “tragedy of culture” consists in the incomprehensibility of the objective content, which has fallen under the power of its own logic due to its cultural appropriation by the subject, then the crisis of culture is associated with the inability of the “cultured person” to independent creativity, to involve cultural objects in the process of subjective development [1].

At the same time, an alternative possibility of using modern information and communication technologies to develop human creative abilities, to expand the space of his freedom, his social and interpersonal connections is not excluded. However, the increase in the number and degree of risk of modern technologies for the life of both an individual and society as a whole is increasingly evident. On the basis of modern scientific knowledge, technologies are being developed that profoundly transform the existing natural and social order. Such transformations are especially dangerous in the value-semantic sphere of social existence, the quintessence of which is culture. We are talking about a situation of immersion of culture in a turbulent state, when the consequences of technological progress are diverse and completely new phenomena arise that previously seemed unforeseen. A number of researchers in this regard speak of a “technological singularity”, i.e. explosive acceleration of scientific and technological progress, which can completely transform modern society, and the changes occurring in it will be difficult to predict, since their rapid dynamics will run counter to traditional ideas about the sequence of occurrence of certain events [2, 3].

At the present stage of development of society, culture enters the stage of digital transformation, during which media technologies based on big data form a single communication space, in which media virtual constructions, replacing reality, begin to play a decisive role. At the same time, in such a culture, the most important characteristic is “eventfulness”, which acts as a condition for the

formation of reality as constructed from a set of “real facts” interpreted in a certain way. At the same time, the constructed realities implicitly contain certain “pictures of the world”, explicating a certain attitude of the subject to certain phenomena, which allows us to speak about their manipulative nature. By influencing various levels of worldview universals, modern media technologies are becoming the most important factor in the digital transformation of culture, “meaning the transformation of not only the image of the human world, but also the personality types produced by it, their attitude to reality, their value orientations”. As scholars have noted in this regard, “modern mass media transform communication: as a result, it is no longer a background for recording events, but a kind of core of modern culture, subordinating and shaping the characteristics of information perception, and therefore influencing the mechanisms of meaning formation” [3, 4].

If we talk about the essential parameters of modern culture, which is based on media technologies based on big data, it should be noted that it is becoming more “mosaic”, since the means of producing knowledge and models of reality is not the education system, but the mass media. In this aspect, one of the “challenges” arising in the process of digital transformation of culture is the possibility of using modern social and communication technologies, including for the purpose of manipulating public and individual consciousness. In its extreme expression, we are talking about the formation of a new type of totalitarianism — in its digital guise: “... the global digital cave can act as a model of a new totalitarian society. With the outwardly preserved freedom to press buttons and chat on social networks, a person increasingly transfers power to the system in which he becomes a digital cog or code”. In this kind of socio-cultural situation, it is manipulation that often becomes one of the technologies for maintaining social order in the absence of a recognized as a single legitimate system of values. The spread of repressive social practices and technologies for manipulating public and individual consciousness becomes possible in the absence of a clearly fixed value-normative invariant that forms a common symbolic and semantic field of culture and is based not so much on force as on achieving agreement [4, 5].

Thus, the power of modern media technologies for constructing reality is objectified not so much through the use of exclusively forceful methods of maintaining order and maintaining homeostasis of the social system, but through the constitution of a common value-semantic, ideological space. In its ultimate expression, we can talk about the formation of social reality as a symbolically constructed space, in which the mass media act as “tacit knowledge”, through the power of language and by means of “eventfulness”, forming the desired images of reality. Noting rather the risks and “challenges” of the media reality constructed

by modern information and communication technologies, it is necessary to note the growing role of philosophy as a means of socially critical reflection, a source of understanding and transformation, change of culture and man. Because it is precisely in crisis periods in the development of society and culture that the constructive, prognostic effect of socially critical reflection is most obvious, which acts as a kind of “filter” of actual and possible transformations of the fundamental foundations of society.

Provides a critical and reflective examination of the complex interplay between digital technologies and cultural formation. It highlights the need to preserve human agency, creativity, and philosophical reflection in an age dominated by algorithmic logic and media-driven perceptions. As societies become increasingly immersed in digitally constructed environments, the need to protect meaning, morality, and autonomy becomes increasingly urgent.

REFERENCES

1. Jenkins, H. (2006). *Convergence Culture: Where Old and New Media Collide*. NYU Press.
2. Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society* (2nd ed.). Wiley-Blackwell.
3. Floridi, L. (2014). *The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality*. Oxford University Press.
4. Bakiyeva, F. R., Primkulova, A. A., & Mirzahmedova, N. D. (2020). *Smart And Development Of Modern Education*.
5. Begishev I. R., Khisamova Z. I. *Artificial intelligence and robotics: glossary of concepts*. — M.: Prospekt, 2021. — 185 p.

OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASI: RAQAMLASHTIRISH ORQALI SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK SARI

Chalayeva Zilola Qo'yli qizi

CHDPU Turizm fakulteti 2-bosqich talabasi

e-mail: chalayevazilola2@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimining zamonaviy bosqichda raqamlashtirish jarayonlari orqali qanday transformatsiyalarga uchrayotgani, ushbu o'zgarishlarning ta'lim sifati va raqobatbardoshligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim mazmuni, shakl va uslublarini yangilash,

masofaviy o'qitish, sun'iy intellekt va ta'limni boshqarish tizimlarini joriy etish orqali zamonaviy ehtiyojlarga moslashishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Maqolada xalqaro tajribalar, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar, ularning samaradorligi va mavjud muammolari ilmiy asosda tahlil etiladi. Shuningdek, raqamlashtirish orqali ta'lim sifatini baholash, ochiq ta'lim resurslaridan foydalanish hamda bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'limning raqamli transformatsiyasini strategik rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, oliy ta'lim, transformatsiya, ta'lim sifati, raqobatbardoshlik, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim, raqamli texnologiyalar, ta'limni boshqarish tizimi, ochiq ta'lim resurslari.*

Global raqamli inqilob dunyoning barcha sohalarida, ayniqsa ta'lim tizimida tub islohotlarni yuzaga keltirmoqda. Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ta'limning sifatini oshirish, individual yondashuv asosida o'qitishni yo'lga qo'yish va bitiruvchilarning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash asosiy maqsad bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), masofaviy o'qitish platformalari, ochiq ta'lim resurslari va boshqa ilg'or texnologiyalar oliy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Raqamlashtirishning mohiyati va oliy ta'limdagi roli Raqamlashtirish — bu ma'lumotlarni raqamli shaklga o'tkazish, ularni boshqarish va uzatish jarayonidir. Oliy ta'limda bu jarayon nafaqat o'quv jarayonini avtomatlashtirish, balki ta'limning ochiqqligi, shaffofligi va moslashuvchanligini ta'minlash vositasidir. Bu jarayon orqali darslar videodarsliklar shaklida saqlanadi, elektron test tizimlari joriy etiladi, elektron kutubxonalar va LMS platformalari (masalan, Moodle, Google Classroom) orqali ta'lim olish imkoniyati yaratiladi.

Global tajriba va zamonaviy texnologiyalar Dunyo miqyosida Coursera, edX, Udemy kabi onlayn platformalar orqali millionlab foydalanuvchilar sifatli ta'lim olmoqda. AQSh, Kanada, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlar oliy ta'lim muassasalarini to'liq raqamli tizimga o'tkazgan. Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi, shaxsiy tavsiyalar beriladi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonlari O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va PQ–81-sonli Prezident qarori asosida oliy ta'lim tizimida elektron ta'lim resurslarini joriy etish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Masalan, Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, Inha Universiteti, TDIU va boshqa yetakchi OTMLar elektron jurnal, videodarsliklar, elektron kutubxonalar, masofaviy ta'lim platformalarini faol joriy etmoqda. Buxoro

davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va boshqa hududiy OTMLarda ham raqamli sinf xonalari tashkil etilib, onlayn o'quv darslari yo'lga qo'yilmoqda. Yagona elektron ta'lim portalini yaratish borasida ham izchil harakatlar olib borilmoqda.

Raqamli texnologiyalar orqali sifat va raqobatbardoshlikka erishish Raqamlashtirish orqali talabani ta'limga bo'lgan yondashuvi o'zgaradi: mustaqil o'rganish, interaktiv usullarda fikrlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ortadi. Bu esa ularning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga zamin yaratadi. Bitiruvchilarning raqamli savodxonligi yuqori bo'lishi esa iqtisodiyotda ham ularning moslashuvchanligini oshiradi. OTMLar o'zining xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashi, xorijiy talabalarni jalb qilishi, ilmiy-tadqiqotlar eksportini kengaytirishi mumkin bo'ladi. Muammolar va istiqbollar Ayniqsa mintaqaviy OTMLarda internet infratuzilmasi, texnik vositalar va raqamli kompetensiyalar yetarli emasligi muammo bo'lib qolmoqda. Biroq, davlat tomonidan ajratilayotgan grantlar, xorijiy texnologiyalarni jalb etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish orqali bu muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etilmoqda. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli etikaga rioya etish kabi masalalarga ham e'tibor qaratish zarur.

Oliy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi — bu zamon talabi bo'lib, nafaqat texnologik, balki metodik, pedagogik va boshqaruv nuqtai nazaridan ham tub o'zgarishlarni anglatadi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ta'lim sifati oshadi, ilmiy tadqiqotlar kengayadi, xalqaro hamkorlik imkoniyatlari ortadi. Bundan tashqari, raqamli muhitda ta'lim olgan yoshlar o'z bilim va ko'nikmalarini real hayotda samarali qo'llay oladigan, innovatsion fikrlaydigan, muammolarga yechim topa oladigan yetuk mutaxassisga aylanishi mumkin.

Shuningdek, raqamli transformatsiya universitetlararo raqobatni kuchaytiradi, yangi texnologiyalarni tezroq joriy qilishga undaydi va bozor talablariga mos kadrlar yetishtirishga xizmat qiladi. Oliy ta'limda ochiq ta'lim resurslarining (OER), massaviy ochiq onlayn kurslarning (MOOC), sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan o'quv tizimlarining keng tatbiqi orqali talabalarga qulay va moslashuvchan ta'lim muhitini yaratish mumkin. Kelajakda O'zbekiston oliy ta'limi raqamli makonning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalangan holda, bilim olishda tenglikni ta'minlaydigan, sifatli, samarali va barqaror tizimga aylanishi kutilmoqda. Buning uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, infrastruktura va platformalarni modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga mos ta'lim resurslarini ishlab chiqish, pedagogik metodikalarni yangilash va ta'lim mazmunini zamonaviylashtirish ustuvor vazifadir. Shu bilan birga, davlat, xususiy sektor va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni moliyalashtirish va monitoring tizimini

joriy qilish orqali raqamlashtirish jarayonining izchil va muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Silva, F., & Santos, J. C. (2022). Digital transformation of higher education. Springer. <https://doi.org/10.1007/978-3-030-88238-0>
2. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-learning and the science of instruction (4th ed.). Wiley.
3. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379707>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-81-sonli qarori. Retrieved from <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
5. Jo'raev, A. (2021). Raqamli ta'lim: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
6. Rajabov, U. (2023). Oliy ta'limda raqamlashtirish siyosati va amaliyoti. Samarqand: Barkamol Press.
7. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2020). Digital education outlook: Pushing the frontiers with AI, blockchain and robots. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/92f727d4-en>

СПОСОБЫ УКРЕПЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ ЧЕРЕЗ СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ И СРЕДСТВА КОММУНИКАЦИИ

Ш.И. Думахонова

Докторант Институт по изучению проблем
молодежи и подготовки перспективных
кадров

e-mail: shodiyadumaxonova@gmail.com

Аннотация В условиях глобализации и цифровизации сохранение национальной идентичности становится важной задачей для современных обществ. Социальные сети и средства массовой коммуникации играют ключевую роль в этом процессе, предлагая как новые возможности, так и вызовы. В данной работе рассматриваются основные способы укрепления национального самосознания через цифровые платформы, включая

продвижение культурного контента, языковую политику, гражданское воспитание и противодействие дезинформации. Анализируются успешные кейсы разных стран, демонстрирующие эффективные стратегии использования медиа для консолидации национальной идентичности. Исследование подчеркивает необходимость системного подхода, сочетающего государственную поддержку, общественные инициативы и креативные форматы подачи информации.

Ключевые слова: *национальная идентичность, социальные сети, медиаполитика, цифровая культура, патриотическое воспитание, языковая политика.*

В эпоху глобализации и цифровой трансформации национальная идентичность сталкивается с новыми вызовами. Социальные сети и медиаплатформы, с одной стороны, размывают культурные границы, а с другой — предоставляют мощные инструменты для сохранения и укрепления национального самосознания. Вопрос о том, как использовать цифровые технологии для консолидации общества, становится особенно актуальным в условиях информационных войн, миграционных процессов и мультикультурализма. Данная статья исследует ключевые механизмы влияния социальных сетей и СМИ на формирование национальной идентичности и предлагает практические стратегии их применения.

Национальная идентичность в цифровую эпоху: вызовы и возможности

Национальная идентичность — это сложный комплекс исторических, культурных, языковых и ценностных характеристик, объединяющих народ. Однако в цифровом пространстве она подвергается давлению глобализированного контента, который часто продвигает унифицированные культурные стандарты. Социальные сети, такие как Facebook, TikTok и Instagram, становятся площадками, где традиционные ценности конкурируют с транснациональными трендами. В то же время эти платформы дают возможность государствам, общественным организациям и активистам продвигать национальные нарративы, сохраняя уникальность своей культуры.

Продвижение национального контента в социальных сетях. Один из наиболее эффективных способов укрепления идентичности — создание и распространение контента, отражающего культурное наследие. Это могут быть исторические документальные проекты, вирусные видеоролики о традициях, инфографика о национальных символах или даже мемы, популяризирующие фольклор. Например, в Казахстане успешно работает проект #QazaqstanContent, где блогеры рассказывают о местных обычаях в современном формате. Подобные инициативы не только просвещают молодежь, но и формируют

позитивный образ нации в глобальном медиапространстве.

Языковая политика в цифровой среде. Язык — ключевой маркер национальной идентичности, и его сохранение в интернете критически важно. Многие страны внедряют программы поддержки государственного языка в соцсетях: от хештег-кампаний до создания образовательных ботов и приложений. В Эстонии, например, действует программа цифрового обучения эстонскому языку, а в Ирландии активно развиваются гэльскоязычные подкасты и YouTube-каналы. Одновременно важно бороться с дискриминацией национальных языков в алгоритмах соцсетей, которые часто продвигают контент на доминирующих языках (английском, испанском, китайском).

Гражданское воспитание и патриотические медиапроекты. Цифровые технологии позволяют вовлекать граждан, особенно молодежь, в проекты, укрепляющие национальное единство. Онлайн-квизы по истории, виртуальные экскурсии по музеям, флешмобы к национальным праздникам — все это формирует эмоциональную связь с родиной. В Индии правительство поддерживает блогеров, создающих контент о местных героях и традициях. Такие инициативы показывают, что патриотизм в цифровую эпоху может быть не навязанным, а естественным и современным.

Противодействие дезинформации и защита национальных интересов. Деструктивный контент, фейки и пропаганда могут подрывать национальную идентичность, сея раскол в обществе. Для противодействия этому необходимы: Факт-чекинговые платформы; Программы медиаграмотности для обучения критическому мышлению; Альтернативные СМИ, предлагающие достоверную информацию. Государства и активисты должны активно работать в соцсетях, чтобы оперативно опровергать ложные нарративы и укреплять доверие к национальным институтам. Роль государства и общественных организаций. Успешные кейсы показывают, что системная поддержка цифровых инициатив со стороны государства значительно усиливает их эффект. Это может включать: Гранты для создателей патриотического контента; Партнерство с IT-компаниями для разработки образовательных платформ; Цифровую дипломатию — продвижение национальной культуры за рубежом через соцсети.

Например, Япония активно использует аниме и мангу как часть «мягкой силы», а Южная Корея продвигает K-поп через глобальные платформы.

Примеры успешных практик в разных странах. Эстония: программа цифрового гражданства и виртуальные уроки истории. Казахстан: популяризация национального контента через TikTok. Мексика: проекты по сохранению языков коренных народов в соцсетях.

Эти примеры демонстрируют, что даже небольшие страны могут эффективно использовать цифровые инструменты для защиты своей идентичности.

Проблемы и ограничения цифровых стратегий. Несмотря на возможности, есть и риски: Коммерциализация культуры — когда национальный контент становится просто «трендом» без глубины; Цензура и чрезмерный контроль, который может вызвать отторжение у аудитории; Цифровое неравенство — не все группы населения имеют доступ к интернету.

Баланс между продвижением идентичности и свободой творчества остается ключевой задачей.

Будущее национальной идентичности в цифровом мире. С развитием искусственного интеллекта и метавселенных появятся новые способы взаимодействия с культурой. Виртуальные музеи, цифровые двойники исторических мест, AI-переводчики для малых языков — все это откроет дополнительные возможности. Однако важно, чтобы технологии служили сохранению уникальности народов, а не их унификации.

Социальные сети и цифровые коммуникации — это мощные инструменты для укрепления национальной идентичности. Их эффективность зависит от комплексного подхода, включающего государственную политику, общественные инициативы и креативные форматы подачи информации. В условиях глобализации именно цифровое пространство может стать главной площадкой для сохранения культурного наследия и национального единства.

Рекомендации для дальнейших действий.

- Развивать образовательные программы по медиаграмотности.
- Поддерживать локальных создателей контента через гранты и конкурсы.
- Внедрять интерактивные форматы (игры, VR-экскурсии) для вовлечения молодежи.

- Укреплять международное сотрудничество в сфере цифровой культуры.

Только объединив усилия государства, общества и технологических компаний, можно обеспечить устойчивое развитие национальной идентичности в цифровую эпоху.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Думахонова, Ш. (2023). Идеология и абсурд в литературе XX века. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(2), 56–61.
2. Андерсон, Б. (2016). Воображаемые сообщества. Размышления об истоках и распространении национализма. Москва: Канон-Пресс-Ц.

3. Кастельс, М. (2016). Власть коммуникации. Москва: Издательский дом Высшей школы экономики.
4. Matenova, Yu. U., Dumakhonova, Sh. I. q., & Raimova, M. Sh. q. (2023). Символизм и текст в русской культуре и произведениях. Theory of Scientific Researches of Whole World, 2(2), 47–51.
5. Матенова, Ю. У., и др. (2023). Символизм и текст в русской культуре и произведениях. Theory of Scientific Researches of Whole World, 2(2), 47–51.

ЦИФРОВАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК КЛЮЧ К УСПЕШНОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ И САМОРЕЛИЗАЦИИ МОЛОДЕЖИ

**Мирзалиев Фердавсбек Дилмурод
угли**

Студент 4-курса Ташкентского
Государственного Юридического
Университета

e-mail: mirzalievfirdavsbek@gmail.com

Аннотация: Статья посвящена влиянию цифровизации на молодёжь, включая возможности и угрозы цифровой среды. Рассматриваются вопросы медиаграмотности, цифровой безопасности и интернет-зависимости. Подчёркивается важность развития цифровых навыков и критического мышления для успешной социализации и самореализации в цифровом обществе.

Ключевые слова: молодёжь, цифровые технологии, медиаграмотность, онлайн-активность, цифровая безопасность, информационная среда, цифровая культура.

Цифровизация играет ключевую роль в жизни современного общества, особенно среди молодёжи, выросшей в условиях активного развития интернета. Как отмечает М. Пренски, современные молодые люди являются «цифровыми аборигенами», для которых цифровая среда – родная стихия. Изучения влияния цифровизации имеет особую актуальность в период когда цифровые технологии трансформируют способы коммуникации, обучения и социализации молодых людей, при этом создавая новые возможности и одновременно формируя новые вызовы. Быстрое развитие технологий требует от молодёжи постоянного совершенствования цифровых

навыков, что важно для их профессиональной реализации и формирования мировоззрения. Согласно исследованию ВЦИОМ (2023), более 92% россиян в возрасте 18–24 лет ежедневно выходят в интернет, проводя онлайн в среднем 7,3 часа в день.

Стоит отметить, что в образовательной сфере цифровизация привела к появлению новых форматов обучения, таких как онлайн-курсы ИбратТВ, вебинары, интерактивные образовательные платформы One million uzbek coders, расширению доступа к информационным ресурсам и возможностям дистанционного образования. Справедливо отмечает С. Даунс, что «цифровые технологии меняют не только то, как мы учим, но и то как мы учимся».

Но с другой стороны, наряду с новыми возможностями цифровизация порождает ряд вызовов и проблем. Одной из наиболее острых является проблема медиаграмотности молодежи—способности критически оценивать информацию, распознавать манипулятивные техники и фейковые новости, защищать свои персональные данные и противостоять информационным угрозам. В условиях переизбытка информации и целенаправленного распространения дезинформации низкий уровень медиаграмотности делает молодежь особенно уязвимой к манипуляциям, способствуя формированию искаженного восприятия действительности.

Проблема цифровой безопасности также остается крайне актуальной и включает защиту персональных данных, борьбу с кибербуллингом, профилактику интернет-зависимости и сохранение психического здоровья в условиях информационного давления. Молодежь, проводящая значительное время в цифровом пространстве, часто сталкивается с агрессией, деструктивным контентом и психологическим давлением, что требует не только владения техническими методами защиты, но и развития устойчивости к стрессовым ситуациям. Согласно исследованию Солдатовой Г.У. и Рассказовой Е.И., примерно 46% российских подростков испытывали различные формы кибербуллинга, однако лишь 18% знают, как эффективно справляться с этой угрозой.

Настоящая статья посвящена исследованию этих вопросов и поиску путей повышения культуры цифровой компетентности молодежи в современном информационном пространстве, как решение инфо атаки.

Современные цифровые технологии оказывают существенное влияние на трансформацию образовательного процесса, открывая перед молодёжью новые горизонты для получения знаний и самореализации. По данным исследования, проведённого Фондом «Общественное мнение», 93% граждан в возрасте от 18 до 24 лет отмечают, что не представляют свою

жизнь без использования интернета. В условиях цифровизации система образования приобретает новые черты, в частности — возрастает степень персонализации учебного процесса и расширяется доступ к разнообразным образовательным ресурсам. Как подчёркивает И.В. Роберт, цифровизация образования обуславливает переход от традиционной формы обучения к модели, ориентированной на индивидуальные особенности обучающегося и достижение конкретных результатов.

В профессиональной среде цифровые компетенции становятся обязательным требованием для трудоустройства. Результаты исследования, основанного на анализе более 39 000 вакансий, размещённых на ведущих онлайн-платформах в период с июля 2023 по июль 2024 года, свидетельствуют о высоких требованиях работодателей к уровню цифровых компетенций соискателей, особенно в сфере экономики. При этом актуальность и востребованность данных навыков находятся в прямой зависимости от уровня профессиональной квалификации кандидатов, а также от вектора их карьерного развития. Это повышает значимость непрерывного образования и постоянного обновления цифровых навыков, что согласуется с выводами Е.В. Устюжаниной о трансформации человеческого капитала в цифровой экономике.

В условиях информационного перенасыщения медиаграмотность становится критически важной компетенцией. Наше исследование среди студентов (n=580) выявило, что лишь 23% респондентов способны эффективно верифицировать информацию из интернет-источников, при этом 78% опрошенных используют социальные сети как основной источник новостей. И.М. Дзялошинский подчёркивает: «Современная цифровая среда характеризуется высоким потенциалом манипулятивного воздействия, технологии которого постоянно совершенствуются».

Проблемы цифровой безопасности также требуют особого внимания. Данные Национального центра информационной безопасности (2023) свидетельствуют, что каждый третий молодой человек в возрасте от 14 до 22 лет сталкивался с различными формами онлайн-агрессии. Особую тревогу вызывает цифровая зависимость – исследование Н.В. Корытниковой показывает, что около 38% молодых пользователей социальных сетей демонстрируют признаки проблемного использования интернета.

Для эффективного развития цифровой культуры молодежи необходимы следующие стратегические шаги:

1) Интеграция курсов по медиаграмотности в образовательные программы. О.В. Шлыкова утверждает: «Образование в области

медиаграмотности должно носить непрерывный характер и адаптироваться к меняющимся реалиям информационной среды».

2) Разработка специализированных программ по цифровой безопасности, подобных проекту “Цифровой гражданин“, реализуемому РОЦИТ совместно с IT-компаниями.

3) Создание системы психологической поддержки молодежи в цифровой среде. По мнению Т.А. Нестик, важно развивать психологическую устойчивость молодежи к стрессогенным факторам информационного пространства.

Исходя из выше анализированных можно прийти к заключению, что цифровизация создает значительные возможности для саморазвития и самореализации, однако их эффективное использование требует формирования комплекса цифровых компетенций, включающих техническую грамотность, критическое мышление и навыки цифровой безопасности.

Особую значимость приобретает медиаграмотность как фундаментальная основа гражданской позиции и личностной автономии в информационном обществе. Формирование медиаграмотности должно стать приоритетным направлением образовательной политики на всех уровнях образования. Развитие цифровой культуры молодежи предполагает системный подход, основанный на взаимодействии образовательных институтов, семьи и IT-индустрии. Только при таком интегративном подходе возможно формирование поколения, способного не только адаптироваться к цифровым реалиям, но и активно участвовать в их конструктивном преобразовании.

Поэтому можно предположить, что цифровизация – это одновременно и вызов, и возможность. Учитывая каждый анализированных фактор, важно создать условия, в которых технологии способствуют росту, интеграции и самореализации молодёжи.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Даунс, С. (2022). Образование в цифровую эпоху: новые модели обучения и преподавания. Вопросы образования, (3), 35–57.
2. Prensky, M. (2001). Digital natives, digital immigrants. On the Horizon, 9(5), 1–6.
3. Дружилов, С. А. (2022). Влияние информатизации на формы организации жизни и деятельности человека. Человек и культура, (3), 82–94.

4. Вартанова, Е. Л. (2022). Медиа в контексте общественных трансформаций: к постановке проблемы. Медиаскоп, (4), 10–24.
5. Баева, И. А., & Акиндинова, И. А. (2023). Психологическая безопасность личности в цифровом обществе. Национальный психологический журнал, (1), 17–26.
6. Роберт, И. В. (2023). Цифровая трансформация образования: вызовы и перспективы. Педагогика, (6), 8.
7. Панасюк, В. Г., Пруцкая, Е. А., & Жумагулова, А. К. (2024). Анализ востребованности цифровых компетенций и цифровых навыков специалистов экономического профиля. Экономика и предпринимательство, 50–51.
8. Устюжанина, Е. В., & Евсюков, С. Г. (2022). Цифровизация образовательной среды: возможности и угрозы. Вестник РЭУ им. Г. В. Плеханова, 1(103), 55.
9. Дзялошинский, И. М. (2023). Медиа и информационное пространство: риски для человека и общества. Коммуникология, 8(2), 130.
10. Корытникова, Н. В. (2022). Интернет-зависимость и депривация в результате виртуальных взаимодействий. Социологические исследования, (8), 75.
11. Кибербуллинг в России: масштабы проблемы и пути решения. (2023). Национальный центр информационной безопасности. <https://rocit.ru/knowledge/digital-citizen-2023>
12. Нестик, Т. А. (2022). Психологические аспекты цифровизации общества: вызовы для человеческого капитала. Институт психологии РАН. Социальная и экономическая психология, 7, 91.

4-SHO'BA. YASHIL IQTISODIYOT VA START-UP LOYIHALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH

YOSHLAR SALOMATLIGI VA EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISHDA BIOLOGIK TOZA MAHSULOTLARNING O'RNINI

Aminov Suhrob Davlatbek o'g'li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari
bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabasi
e-mail: aminovsuhrob13@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar salomatligini saqlash va mustahkamlashda ekologik toza, biologik faol oziq-ovqat mahsulotlarining o'rnini tahlil qilinadi. Ayniqsa, chorvachilikda sun'iy vositalarsiz, tabiiy ozuqa orqali yetishtirilgan mahsulotlarning inson salomatligiga ijobiy ta'siri asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada ekologik madaniyatni rivojlantirish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ekologiyaga nisbatan mas'uliyat hissini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. *Ekologik ong, sog'lom turmush tarzi, ekologik ta'lim, biologik toza mahsulotlar, fitoestrogenlar, quyonchilik, ekologik faollik, tabiiy mahsulotlar, ekologik ta'lim tizimi, ekologik brendlar.*

Bugungi kunda yoshlarning salomatligi va ekologik ongini shakllantirish global darajada muhim masalaga aylangan. Bu yo'nalishdagi ishlar nafaqat yosh avlodning farovonligi, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Yoshlar — har qanday jamiyatning tayanchi va kelajagidir. Ularning sog'lom bo'lib ulg'ayishi va ekologik jihatdan mas'uliyatli qarorlar qabul qilishi — atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror taraqqiyot yo'lida muhim qadamdir.

Zamonaviy dunyoda ekologik muammolar, ifloslangan muhit, sun'iy qo'shimchalarga boy oziq-ovqatlar va jismoniy faollikning kamayishi yoshlar sog'lig'iga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shuning uchun ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Yoshlarni ekologik ongli iste'molchilarga aylantirish, ularni atrof-muhitni asrashga undash dolzarb masalaga aylangan.

Bu borada ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi. Ekologik ta'lim orqali yoshlarda ekologik mas'uliyatni shakllantirish, ularga sog'lom ovqatlanish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish madaniyatini singdirish mumkin. O'quv jarayonlariga ekologik fanlarni joriy etish, yoshlar uchun amaliy mashg'ulotlar, tadbirlar, festivallar, targ'ibot

ishlari orqali ekologik madaniyatni mustahkamlash zarur.

Ekologik toza mahsulotlar, ya'ni sun'iy kimyoviy qo'shimchalarsiz ishlab chiqarilgan oziq-ovqatlar salomatlikni saqlashda muhim o'rin egallaydi. Ular immunitetni kuchaytiradi, kasalliklarning oldini oladi va inson organizmini mustahkamlaydi. Bunday mahsulotlarning ko'payishi va yoshlar orasida ularning iste'molini targ'ib qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

Shuningdek, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish ham dolzarb masala hisoblanadi. Muntazam jismoniy faollik, sport bilan shug'ullanish, stressni boshqarish, ruhiy salomatlikka e'tibor qaratish sog'lom avlodni shakllantirishda asosiy omillardir. Bugungi kunda noto'g'ri ovqatlanish, stress, gipotoniya va ekologik xavflar yoshlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bular semirish, yurak-qon tomir va ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari, psixologik muammolar kabi salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

Shu sababli, yoshlarni ekologik toza hayot tarziga yo'naltirish, ekologik va sog'lom ovqatlanish madaniyatini keng targ'ib qilish, ularning ekologik ongini oshirish orqali sog'lom jamiyat poydevorini yaratish mumkin. Bu yo'nalishda ta'lim, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar tashkilotlari hamkorligida samarali ish olib borilishi kerak.

Ekologik toza mahsulotlar — inson salomatligi va atrof-muhit uchun xavfsiz mahsulotlar bo'lib, ular tabiiy usullarda, sun'iy kimyoviy moddalarsiz yetishtiriladi. Bunday mahsulotlar tarkibida pestitsidlar, sun'iy o'g'itlar va boshqa zararli qo'shimchalar bo'lmaydi, bu esa ularni sog'lom turmush tarzining ajralmas qismiga aylantiradi. Biologik toza mahsulotlar nafaqat odam organizmiga foydali, balki ekotizimning barqarorligini ham ta'minlaydi. Masalan, quyonchilikda fitoestrogenlarga boy tabiiy ozuqalar bilan quyonlarni boqish natijasida ekologik toza go'sht olinadi. Bunday go'sht sog'lom, zararli moddalarsiz bo'lib, immunitetni oshiradi va umumiy salomatlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Fitoestrogenlar quyonlarning reproduktiv salohiyatini ham oshirib, sifatli avlod yetishtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, yoshlar orasida ekologik ongni shakllantirish bugungi kunda dolzarb masaladir. Yosh avlod atrof-muhitni asrash, chiqindilarni qayta ishlash, resurslarni tejash kabi muhim ekologik tamoyillarni o'zlashtirishi kerak. Bu borada ekologik ta'lim, maktab va OTMLarda o'tkaziladigan tadbirlar, ijtimoiy tarmoqlardagi kampaniyalar muhim rol o'ynaydi. Yoshlar ekologik loyihalarda ishtirok etib, mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanadi.

Yoshlarni sog'lom va ekologik ongli qilib tarbiyalashda ta'lim, madaniyat, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar katta ahamiyatga ega. Bu jarayonni rivojlantirish uchun bir qator muhim taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

1. Ekologik ta'limni kengaytirish – Maktab va oliy ta'lim muassasalarida

ekologiya fanini chuqur o'qitish, amaliy mashg'ulotlar, loyihalar va ko'ngilli harakatlar orqali yoshlarning tabiatga nisbatan mas'uliyatini oshirish lozim.

2. Ekologik faollikni rag'batlantirish – Aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida chiqindilarni saralash, suv va energiyani tejash kabi masalalarda ommaviy tadbirlar, kampaniyalar, ekologik tashabbuslar orqali faollikni kuchaytirish zarur.

3. Media va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish – Bloglar, videolar, ekologik brendlar hamda ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlik orqali yoshlarning ekologik masalalarga qiziqishini oshirish mumkin.

4. Ta'limda sog'lom turmush tarzini integratsiyalash – Sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, stressni boshqarish va ekologik xulq-atvor bo'yicha bilimlarni ta'lim dasturlariga kiritish yoshlarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini mustahkamlash bilan birga, ularni ongli fuqaroga aylantiradi.

5. Tabiiy mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash – Fermerlar va tadbirkorlarni ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga undash uchun davlat tomonidan subsidiyalar, soliq imtiyozlari kabi rag'batlar joriy etilishi lozim. Bu orqali salomatlikni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va yoshlarni mas'uliyatli iste'molchilarga aylantirish mumkin.

Ekologik ta'lim, sog'lom turmush tarzi targ'iboti va tabiiy mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash orqali yoshlarni ekologik va sog'lom hayotga tayyorlash mumkin. Bu esa barqaror va sog'lom jamiyatni shakllantirish yo'lida muhim qadam bo'ladi.

Yoshlarning salomatligi va ekologik ongini shakllantirish – bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Jismoniy va ruhiy salomatlikni ta'minlashda sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish va ekologik toza mahsulotlar iste'moli muhim rol o'ynaydi. Atrof-muhit ifloslanishi, noto'g'ri ovqatlanish, stress va passiv hayot tarzi yosh avlod salomatligiga jiddiy tahdid solmoqda. Shu bois, yoshlar orasida sog'lom hayot tamoyillarini keng targ'ib qilish, ekologik ta'limni kuchaytirish va tabiiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish zarur. Ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi va ekologiya mavzularini integratsiyalash orqali ekologik ongli va sog'lom avlodni shakllantirish mumkin. Yoshlarning ushbu yo'nalishlardagi faolligini qo'llab-quvvatlash orqali barqaror taraqqiyot sari muhim qadamlar tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedov, Sh., "Ekologik toza mahsulotlar va yoshlar salomatligini saqlashdagi o'rni," Ekologiya va Sog'lom Turmush Tarzi, Toshkent, 2025.
2. Ahmadov, T., "Ekologik ta'lim tizimi: Qadamlar va kelajak," Oliy ta'limda ekologik ta'lim, Toshkent, 2024.

3. Toshkent davlat agrar universiteti, "Tabiiy resurslar va ekologik ta'lim," Agrar ilmiy jurnali, 2023.
4. Zaripov, N., "Yoshlar salomatligi va ekologik ongini rivojlantirish," Yoshlar va barqaror rivojlanish, Toshkent, 2022.
5. Kamilov, A., "Sog'lom turmush tarzi va ekologiya fanining ahamiyati," Jismoniy faollik va ekologiya 2021, bb. 112-115.
6. Toshkent shahar ekologiya boshqarmasi, "Ekologik madaniyatni oshirish va yoshlarga ekologik ta'lim berish," O'zbekiston ekologik ma'lumotlar jurnali, 2023, bb. 34-39.
7. Sh. Yuldoshev, "Yoshlarni ekologik ongini qilib tarbiyalashning zamonaviy yo'llari," Yoshlar tarbiyasi va ekologiya jurnalida, 2021, bb. 76-80.
8. Maqsudov, S., "Tabiiy mahsulotlar va ular orqali salomatlikni saqlash" Biologik toza mahsulotlar ilmiy kitobi 2020.

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI INNOVATSION YONDASHUVLAR BILAN HAL QILISH IMKONIYATLARI

Ismoilova Nigora Mirzoaliyevna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti 1-kurs
talabasi

e-mail: nisoiilova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi asosiy muammolar va ularni innovatsion yondashuvlar orqali hal etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ekologik barqarorlikni ta'minlash, texnologik modernizatsiya, yashil moliyalashtirish va aholi ekologik ongi masalalari chuqur ko'rib chiqilgan. Muqobil strategiyalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *Yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, innovatsion texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, yashil moliyalashtirish, institutsional islohotlar, raqamli ekologik monitoring, resurslardan samarali foydalanish.*

XXI asr boshlarida insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonida ekologik muvozanatga yetkazilgan jiddiy zarar, global iqlim o'zgarishlari va tabiat resurslarining kamayishi oqibatida yangi yondashuvlarni izlash zarurati bilan

yuzma-yuz keldi. An'anaviy iqtisodiy modellar ko'pincha iqtisodiy o'sishni ustuvorlik sifatida belgilab, ekologik barqarorlik va tabiiy resurslarning tiklanish sur'atlarini e'tibordan chetda qoldirgan. Shu bois, bugungi kunda global hamjamiyat barqaror rivojlanishga erishish yo'lida "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini ilgari surmoqda. Yashil iqtisodiyot – bu nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik muhofaza va ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslangan, resurslarni tejashga qaratilgan va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etishga intiluvchi iqtisodiy modeldir.

Bu model Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan XXI asr uchun eng istiqbolli rivojlanish yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan buyon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan borib, so'nggi yillarda barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish maqsadida bir qator davlat dasturlari, qonunchilik bazasi va strategik rejalar ishlab chiqilgan. Jumladan, "Yashil energiya", "Atrof-muhitni muhofaza qilish" kabi milliy dasturlar doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ekologik ta'limni rivojlantirish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda.

Biroq, mavjud iqtisodiy va texnologik holat, institutsional bazaning zaifligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, aholining ekologik ong darajasining pastligi, hamda innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada shakllanmaganligi mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini murakkablashtirayotgan asosiy omillardandir. Xususan, sanoat korxonalarining ko'pchiligi eskirgan texnologiyalarga asoslangan, energiya samaradorligi past bo'lgan ishlab chiqarish tizimlarini saqlab qolmoqda, bu esa nafaqat iqtisodiy jihatdan samarasizlikka, balki ekologik xavflarning ortishiga ham olib kelmoqda. Shunday sharoitda, innovatsion yondashuvlar – raqamli texnologiyalar, "aqlli" energiya tizimlari, zamonaviy chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari, sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari va ekologik startaplar orqali mavjud muammolarga kompleks yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

Bunday yondashuvlar nafaqat ekologik yuklamani kamaytiradi, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ham oshiradi. Shu bois, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini innovatsion rivojlanish bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida mavjud muammolar tahlil qilinadi, ularni bartaraf etishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologik yechimlarning tutgan o'rnini o'rganiladi hamda ushbu sohadagi istiqbolli yo'nalishlar yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish global miqyosda insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib, u nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etish, balki barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, ijtimoiy tenglikni

mustahkamlash kabi ko'p qirrali masalalarni qamrab oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston ushbu yo'nalishda muayyan taraqqiyot bosqichlariga erishgan bo'lsa-da, mavjud muammolar va strukturaviy cheklovlar yashil iqtisodiyotning to'laqonli shakllanishiga sezilarli to'sqinlik qilmoqda. Muhokama jarayonida aniqlangan muammolar tahlili O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning institutsional poydevori hali to'liq shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Bu holat, bir tomondan, normativ-huquqiy baza va strategik rejalashtirish mexanizmlarining zaifligi bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan esa, ekologik ong darajasining pastligi va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishdagi sustkashlik bilan izohlanadi. Xususan, energetika va sanoat tarmoqlarida yuqori uglerodli texnologiyalarning saqlanib qolayotgani, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasining yetarli emasligi, suv va yer resurslaridan foydalanishdagi samarasizliklar mamlakatni ekologik xavf ostiga qo'ymoqda. Shu nuqtai nazardan, muhokama jarayonida innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlarning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi tutgan o'rni alohida e'tiborga loyiqdir.

Dastlabki natijalarga asoslanib aytish mumkinki, zamonaviy texnologiyalar – ayniqsa, raqamlashtirish, IoT (Internet of Things), “aqlli” ekologik monitoring tizimlari va yashil energiya infratuzilmasining rivoji – mavjud muammolarga kompleks va barqaror yechimlar taqdim etishi mumkin. Biroq bunday texnologiyalarni joriy etish faqat texnik masala emas, balki moliyaviy, institutsional va kadrlar salohiyatini oshirish bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlanadi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba tahlili O'zbekiston uchun qator foydali amaliy darslarni taqdim etdi. Jumladan, rivojlangan davlatlarda yashil iqtisodiyotga o'tish asosan davlat siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi va bu borada ko'p bosqichli, uzoq muddatli strategik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Bunda, hamkorlikda ishlab chiqilgan siyosatlar, mahalliy hokimiyatlar, biznes va fuqarolik jamiyati vakillari o'rtasidagi o'zaro integratsiya va muvofiqlashtirish muhim rol o'ynaydi.

Afsuski, O'zbekiston holatida bunday ko'p tomonlama ishtirok va hamkorlik mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi muhokama etilayotgan muammolarning asosiy sabablaridan biri sifatida baholandi. Umuman olganda, muhokama natijalari O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda tizimli, fan-texnika taraqqiyotiga asoslangan, innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga oluvchi strategik yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda. Mavjud muammolarni bartaraf etishda esa multidissiplinar yondashuvlar, ya'ni iqtisod, ekologiya, texnologiya va ijtimoiy sohalarning o'zaro integratsiyalashuvi ustuvor ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tishning mavjud holati, uning tarkibiy muammolari va rivojlanish istiqbollari

chuqur ilmiy tahlil qilinib, mazkur yo'nalishdagi dolzarb masalalarga ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida kompleks yoritma berildi. O'rganilgan faktlar va statistik ma'lumotlar asosida quyidagi asosiy ilmiy natijalarga erishildi:

Birinchiidan, mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining tizimli va strukturaviy to'siqlari aniqlab berildi. Xususan, sanoat tarmoqlarining aksariyatida energiya samaradorligi past bo'lgan texnologiyalar saqlanib qolayotgani, bu esa nafaqat ishlab chiqarishning ekologik izini orttirayotgani, balki iqtisodiy jihatdan ham resurslardan oqilona foydalanilmasligiga olib kelayotgani isbotlandi. Tadqiqotda qayd etilishicha, O'zbekistonning energetika sektori asosan an'anaviy, ya'ni qazib olinuvchi yoqilg'ilarga bog'liq bo'lib, bu holat milliy energetika xavfsizligi va ekologik barqarorlik uchun muhim xavf omiliga aylangan.

Ikkinchiidan, aholining ekologik ong darajasi, yashil iste'mol madaniyati va atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat hissi yetarli darajada shakllanmagani aniqlangani bilan, bu omil yashil iqtisodiyot tamoyillarining keng miqyosda joriy etilishi va amalga oshirilishiga psixologik va ijtimoiy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Maxsus so'rovnoma va ijtimoiy monitoringlar asosida aholining katta qismi hali ham chiqindilarni ajratib tashlash, energiyani tejash, qayta ishlanadigan mahsulotlardan foydalanish kabi barqaror iste'mol amaliyotlariga chuqur tushunchaga ega emasligi ma'lum bo'ldi.

Uchinchiidan, innovatsion texnologiyalarning yashil iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, "aqlli" ekologik monitoring tizimlari, raqamli platformalar va ekologik startaplar orqali mavjud muammolarning ko'plab jihatlariga yuqori samaradorlik bilan yechim topish mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston sharoitida quyosh va shamol energetikasi bo'yicha salohiyat yuqori bo'lib, mazkur manbalardan foydalanish uchun chet el texnologiyalarini lokalizatsiya qilish va milliy innovatsion infratuzilmani shakllantirish zaruriyati mavjud.

To'rtinchiidan, xalqaro tajriba tahlili asosida, rivojlangan davlatlarning yashil iqtisodiyotga o'tishdagi muvaffaqiyat omillari chuqur o'rganilib, ularni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlari baholandi. Jumladan, davlat-xususiy sheriklik, yashil obligatsiyalar bozori, ekologik fondlar orqali moliyalashtirish kabi mexanizmlarning mamlakatda joriy etilishi ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan birga, investitsion muhitni yaxshilashga ham xizmat qilishi mumkinligi ilmiy asosda dalillandi.

Yuqoridagi natijalar asosida, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida kompleks, ko'p bosqichli va innovatsion yondashuvni talab qiladigan tizimli islohotlar zarur ekanligi ilmiy asosda asoslab berildi. Ushbu natijalar mamlakatda ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ilmiy-nazariy va amaliy

yondashuvlarni uyg'unlashtirish muhimligini ko'rsatib beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida shuni ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotning muhim strategik yo'nalishi sifatida qaralishi lozim. Tadqiqot jarayonida aniqlangan tizimli muammolar energiya samaradorligining pastligi, ekologik ongning sustligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi cheklolar, moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli emasligi – yashil iqtisodiyot konsepsiyasining samarali joriy etilishiga jiddiy to'sqinlik qilayotgan omillar sifatida baholandi. Xalqaro tajribaning tahlili shuni anglatadiki, yashil iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ko'p tomonlama va kompleks yondashuv zarur: normativ-huquqiy asoslarni kuchaytirish, xususiy sektorni rag'batlantirish, ekologik ta'lim va targ'ibot tizimini shakllantirish, barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, va eng asosiysi, aholining ekologik madaniyatini tubdan oshirish. Tadqiqot xulosasiga ko'ra, O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida muayyan resurs va imkoniyatlarga ega bo'lib, bu resurslardan oqilona va tizimli foydalanilsa, nafaqat milliy iqtisodiyot, balki butun mintaqa ekologik va ijtimoiy barqarorlikka erishishda ijobiy namuna bo'la oladi. Biroq buning uchun davlat siyosatining barcha darajalarida ekologik va iqtisodiy manfaatlarning uyg'unlashgan holda ilgari surilishi, fan, ta'lim va texnologiyaning yagona tizim sifatida ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov Q.X., Axmedov A.A. Yashil iqtisodiyot: nazariya, amaliyot va rivojlanish istiqbollari., Toshkent: "Fan va texnologiya". 2021, 245 b.
2. Bobojonov I. Barqaror rivojlanish strategiyasi va yashil iqtisodiyotga o'tish yo'llari, Toshkent: Iqtisodiyot. 2020, 198 b.
3. Karimov M.M. Ekologik xavfsizlik va iqtisodiy transformatsiya: O'zbekiston tajribasi., Toshkent: Ilm Ziyo. 2022, 211 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PQ-4477-sonli qarori., respublika. qonunchilik.uz. 2019, 7 b.
5. Sharipov Sh.S., Xolboev B.B. Innovatsion iqtisodiyot asoslari va ekologik barqarorlik., Toshkent: Iqtisod-Moliya. 2023, 179 b.
6. UNDP Uzbekistan. Green Economy Transition in Uzbekistan: Challenges and Opportunities, Tashkent: UNDP. 2020, 154 p.

STRATEGIC DIRECTIONS FOR SUPPORTING START-UP PROJECTS IN THE CONTEXT OF A GREEN ECONOMY

Jurakulova Yulduz Shokirovna

3rd year student of the Termez University of
Economics and Service

e-mail: jurakulovayulduz0302@gmail.com

Abstract: This article explores the development of start-up projects based on green economy principles and their potential contribution to sustainable development. The study emphasizes the economic viability of environmentally driven start-ups, the challenges of securing funding, the integration of digital technologies for market expansion, and the impact of government support mechanisms. By analyzing successful international practices and local innovations, the research presents a conceptual model for enhancing the ecosystem of green start-ups in developing economies, with a focus on Uzbekistan. The findings demonstrate how start-ups contribute to low-carbon economic growth and propose strategic policy recommendations aimed at expanding their influence. The study is based on statistical analysis, expert interviews, and comparative case studies, providing insights into the structural and financial barriers to scaling green entrepreneurship.

Keywords. *Green economy, start-up ecosystem, ecological entrepreneurship, sustainability, innovation, renewable energy, digital technologies, venture capital, policy support.*

In the 21st century, environmental sustainability has become a central priority of economic policy across the globe. The green economy, characterized by low carbon emissions, resource efficiency, and social inclusivity, offers a model for achieving economic development without compromising environmental integrity. Start-ups play a pivotal role in driving this transition through innovative technologies in clean energy, waste management, eco-transportation, and smart agriculture. The emergence of ecological start-ups aligns with the global Sustainable Development Goals (SDGs) and represents a synergy between economic growth and environmental preservation.

Uzbekistan, with its vast potential in solar energy, biodiversity, and youthful entrepreneurial spirit, is well-positioned to develop green start-ups. However, several obstacles such as limited access to capital, lack of incubators, and insufficient regulatory frameworks hinder their expansion. In this article, we explore how green start-up initiatives can be harnessed as an engine of sustainable growth.

We assess the institutional, financial, and technological environment surrounding these ventures and propose a multi-stakeholder model involving government agencies, private investors, and academic institutions to support ecological entrepreneurship. The study seeks to fill the knowledge gap in understanding the operational dynamics and systemic requirements for scaling green start-ups in Uzbekistan.

The concept of green entrepreneurship has received increasing scholarly attention in recent years. United Nations Environment Programme (UNEP, 2011) emphasizes the need to promote ecological innovation through market mechanisms. OECD (2019) suggests integrating environmental indicators into economic planning and highlights the importance of green start-ups in decarbonizing industries. Isenberg (2010) outlines the characteristics of robust start-up ecosystems, while the World Bank (2020) focuses on financing strategies for start-ups in developing nations.

In the context of Central Asia, the academic discourse is still evolving. National studies by Karimov and Sattorov (2022) stress the importance of policy incentives and eco-certification for sustainable entrepreneurship in Uzbekistan. Meanwhile, Yo'ldoshev (2021) explores the economic efficiency of green start-up ventures, suggesting that their potential remains underutilized due to fragmented support infrastructure. Case studies from Germany, South Korea, and the Netherlands reveal that successful green start-up ecosystems are built upon well-designed public-private partnerships, tax incentives, green bonds, and sustainable innovation funds.

Despite an increasing number of publications, there remains a gap in empirical analysis of green start-up operations in post-Soviet economies. Existing literature also lacks integrated models that consider the unique socio-economic and environmental conditions of Uzbekistan. This article builds on prior research and introduces a framework for supporting start-ups in the green sector through tailored policy tools, funding mechanisms, and ecosystem strengthening strategies.

This study employs a mixed-methods approach, incorporating both qualitative and quantitative data. Primary data were collected through structured interviews and focus group discussions with 15 start-up founders, innovation ecosystem stakeholders, and government officials. Secondary data were sourced from the State Committee of Statistics of Uzbekistan, World Bank databases, UNEP reports, and national development programs. A comparative analysis was conducted between green start-up models in Uzbekistan and selected case studies from Germany, India, and South Korea.

We applied a SWOT (Strengths, Weaknesses, Opportunities, Threats) analysis to assess the internal and external factors affecting start-ups in the green sector.

A regression analysis was also performed to identify correlations between funding availability and start-up success rates over the last five years. Indicators such as environmental impact, revenue growth, innovation index, job creation, and public-private cooperation were used to evaluate outcomes.

The research was guided by the following objectives: (1) to identify the key constraints facing green start-ups in Uzbekistan; (2) to analyze the effectiveness of existing policy instruments; and (3) to develop a model that enhances the resilience, scalability, and social impact of green entrepreneurial ventures. The methodological triangulation ensured the reliability and validity of the findings, providing a comprehensive understanding of the green start-up ecosystem.

The study revealed a growing number of green start-up projects in Uzbekistan, particularly in the fields of solar energy, biodegradable packaging, eco-tourism, and smart irrigation. However, 72% of surveyed start-ups identified insufficient funding as the primary obstacle to growth. Despite the existence of government support programs such as innovation grants and business accelerators, many founders reported limited awareness and accessibility. Infrastructural gaps, such as the absence of green incubators and specialized mentorship, were also found to inhibit progress.

On the positive side, start-ups involved in renewable energy and waste recycling showed high scalability and social acceptance. For instance, a solar panel installation start-up in Samarkand managed to reduce energy costs for rural communities by 35% and create 25 new jobs within two years. Eco-tourism ventures in the Surkhandarya region attracted foreign visitors and promoted local heritage preservation. These examples demonstrate the socioeconomic benefits of green entrepreneurship when properly supported.

Our regression analysis showed a strong positive correlation ($r = 0.76$) between access to early-stage capital and long-term business sustainability. International partnerships, particularly with climate finance institutions and global accelerators, significantly improved operational capacities. The SWOT analysis indicated that while Uzbekistan has abundant natural resources and a youthful workforce, institutional rigidity and regulatory uncertainty remain critical threats.

Based on these findings, we propose a strategic framework that includes fiscal incentives (green tax credits), a national green start-up registry, environmental impact assessments as investment criteria, and regional green innovation hubs. This multi-dimensional approach is expected to enhance the contribution of start-ups to a green and inclusive economy.

Green start-ups are emerging as vital actors in the transition toward sustainable development. In Uzbekistan, the green economy agenda provides

fertile ground for ecological innovation, yet systemic barriers continue to constrain entrepreneurial efforts. This research confirms that a lack of financing, insufficient infrastructure, and limited regulatory guidance are the major challenges. However, with strategic government intervention and private sector engagement, these challenges can be transformed into opportunities.

The study suggests key policy recommendations: first, to increase transparency and accessibility of state support programs; second, to establish regional green business incubators; and third, to create financial instruments such as green venture funds and innovation guarantees. Moreover, integrating environmental sustainability metrics into start-up evaluations and fostering cross-sectoral collaboration can accelerate progress.

Ultimately, supporting green start-ups is not merely a matter of economic policy—it is an investment in the long-term resilience of both the environment and society. By mobilizing resources, knowledge, and innovation, Uzbekistan can position itself as a regional leader in sustainable entrepreneurship and make tangible progress toward its ecological and economic goals.

REFERENCES

1. United Nations Environment Programme (UNEP). (2011). Towards a green economy: Pathways to sustainable development and poverty eradication.
2. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2019). Measuring the green transformation of the economy. OECD Publishing.
3. World Bank. (2020). Green start-up ecosystems and financing strategies in developing countries.
4. Isenberg, D. (2010). The big idea: How to start an entrepreneurial revolution. Harvard Business Review.
5. Karimov, B., & Sattorov, M. (2022). Ecological innovations and their economic impact. Tashkent Institute of Finance.
6. Yo'ldoshev, D. (2021). Economics of green start-up projects. Journal of Innovation and Development, 2.
7. Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan No. PF-269. (2022). On the implementation of the National "Green Space" Project.
8. Global Green Growth Institute (GGGI). (2023). Green growth and startups: Empowering sustainable innovation.

9. Innovation Development Agency, Ministry of Innovative Development of Uzbekistan. (2021–2023). Innovation Development Agency reports.

YASHIL IQTISODIYOT DAVRIDA SUV RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Kurchiyeva Moxina Baxrom qizi

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat
instituti Iqtisodiyot (Tarmoqlar va sohalar
boyicha)
e-mail: kurchiyevam@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning suv tanqisligi muammosini yumshatish va kelajakdagi barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin bo'lgan turli iqtisodiy modellar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *suv resurslari, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot, suv ta'minoti, suv oqimini, oqova suvlar, sug'orish tizimlari, suvni tejash.*

O'zbekiston oldida turgan suv tanqisligi sharoitida suv resurslarini boshqarishning samarali iqtisodiy modellarini ishlab chiqish alohida dolzarb ahamiyat kasbetadi. Suv qishloq xo'jaligi, sanoat hamda aholining maishiy ehtiyojlari uchun asosiy strategik resurs hisoblanib, uning yetishmovchiligi mamlakatning barqaror rivojlanishiga jiddiy xavf tug'diradi.

O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanishning zamonaviy holati tahlili mamlakat suv resurslari sohasida chuqur tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Asosiy muammolardan biri bu chuchuk suv tanqisligi va mavjud resurslardan samarasiz hamda irratsional foydalanishdir. O'zbekistonning suv resurslari umumiy ko'rinishdan cheklangan bo'lib, ular mamlakat qishloq xo'jaligi, sanoati va aholisi uchun asosiy suv manbai sifatida xizmat qiladi. O'zbekiston hududidagi asosiy suv manbalari — Amudaryo va Sirdaryo daryolari bo'lib, ular mintaqaning asosiy gidrologik resurslarini tashkil etadi. Bugungi kunda ushbu daryolarda suv sathining pasayishi iqlim o'zgarishlari, paxta yetishtirish maydonlarining kengayishi va suv resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlarining yetishmasligi kabi bir qator omillar bilan izohlanadi. Buning oqibatida qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari sug'orish va ishlab chiqarish jarayonlari uchun zarur bo'lgan suv hajmining yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Cheklangan suv resurslari sharoitida qishloq xo'jaligi, sanoat va maishiy sektorlar uchun samarali suv boshqaruvi vositalarini shakllantirish, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Maxsus e'tiborga loyiq hududlardan biri bu Farg'ona vodiysidir. U O'zbekistonning meva va sabzavot yetishtirishda asosiy qishloq xo'jalik markazi bo'lib, aholisining katta qismi qishloq xo'jaligiga bog'liq holda yashaydi. Vodiyning suv ta'minoti faqat taxminan 70% darajada qondiriladi, qolgan qismi esa yuqori energiya sarflaydigan, eskirgan nasos stansiyalari orqali olinadigan yer osti suvlariga bog'liq. Iqlim o'zgarishi esa ushbu mintaqaning transchegaraviy daryolaridan suv oqimini ishonchsiz holga keltirib, qurg'oqchilik, toshqinlar va ko'chkilar xavfini oshirmoqda. Jahon banki va Yevropa Ittifoqi ko'magida amalga oshirilayotgan dasturlar Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida suv va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan. Jumladan, qarigan sug'orish tizimlari modernizatsiya qilinib, energiya tejamkor quyosh texnologiyalari joriy qilinmoqda, 500 ta yangi quduq qazilib, fermerlar suv bilan ta'minlanmoqda. Bu chora-tadbirlar sug'oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish, suv va energiya yo'qotishlarini kamaytirish hamda tabiiy ofatlardan himoya qilish orqali qishloq aholisining turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatda suv tanqisligi muammosi tobora keskinlashib borib, iqtisodiyotning turli sohalariga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tayanch sohalaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi yetarli miqdorda sug'orish suvi ta'minlanmasligi natijasida hosildorlikning pasayishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga duch kelmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlari uchun suv hajmining yetarli emasligi korxonalar faoliyatini susaytirib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelmoqda. Aholining maishiy ehtiyojlari uchun suv ta'minotining qisqarishi esa fuqarolar salomatligi va hayot sifatining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Suv tanqisligi natijasida yuzaga kelayotgan iqtisodiy yo'qotishlar milliy iqtisodiyotning barcha darajalarida sezilmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining qisqarishi eksport ko'rsatkichlarining pasayishiga va tashqi savdo daromadlarining kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlari va suv resurslarini import qilish xarajatlarining ortishi tashqi savdo balansini yomonlashtirib, milliy valyuta barqarorligiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bundan tashqari, suv resurslari tanqisligi jamiyatda ijtimoiy va siyosiy tangliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Sug'orish imkoniyatlarining cheklanishi qishloq hududlarida aholi farovonligining pasayishiga va shaharlar tomon majburiy migratsiya jarayonlarining kuchayishiga olib kelib, bu esa shahar infratuzilmasining ortiqcha yuklanishiga va ishsizlik darajasining oshishiga sabab bo'ladi.

O'zbekistonda suv resurslari tanqisligi iqlim o'zgarishlari, aholining barqaror o'sishi hamda iqtisodiy rivojlanish jarayonlari natijasida tobora kuchayib bormoqda. Ushbu holat mamlakat oldiga suv resurslaridan foydalanishni optimallashtirish

bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish vazifasini qo'yimoqda. Xususan, zamonaviy iqtisodiy modellarni tatbiq etish ushbu muammoning kompleks yechimini izlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Muhim yo'nalishlardan biri sifatida suv resurslariga asosli narx belgilash modelini qayd etish mumkin. Suvga iqtisodiy asoslangan narx siyosatini joriy etish resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga, shu bilan birga suv tejovchi texnologiyalarni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Biroq, bunday yondashuvni ishlab chiqishda ijtimoiy jihatlar, xususan, aholiga ortiqcha moliyaviy yuk tushirmaslik masalasi e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Yana bir ustuvor yo'nalish — innovatsion texnologiyalarni joriy etishdir. Tomchilatib sug'orish tizimlari, ilg'or oqova suvlarni tozalash texnologiyalari va qayta ishlash mexanizmlari resurslardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan ko'maklashish, suv resurslaridan foydalanish bo'yicha samarali monitoring tizimlarini yaratish, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda iqtisodiy rag'batlantirish choralari qo'llash suv resurslari boshqaruvini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida irrigatsiya tizimlarini zamonaviylashtirish va namlik sensori kabi ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, suvni yig'ish va saqlash infratuzilmasini, jumladan, suv omborlari va dambalarni rivojlantirish yo'qotishlarni kamaytirish hamda suv resurslarini samarali boshqarish imkonini beradi. Oqova suvlarni qayta ishlash va ularni sanoat hamda qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich qayta ishlatish amaliyotini rivojlantirish ham dolzarb yo'nalishlardan biridir. Shuningdek, aholining va biznes sektorining suv tejash madaniyatini shakllantirish, iqtisodiy samaradorlikka yo'naltirilgan tarif siyosatini ishlab chiqish hamda rag'batlantirish choralari qo'llash zaruriyati mavjud. O'zbekistonda suv resurslarining cheklanganligi va ularni boshqarishdagi tizimli muammolar qishloq xo'jaligi, sanoat hamda aholining maishiy ehtiyojlari uchun jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini keltirib chiqarmoqda. Ushbu sharoitda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, suvga asosli narx belgilash tizimini yaratish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishga erishishning muhim shartlari sifatida qaraladi. Maqolada mavjud muammolar tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy modellar ilmiy asosda o'rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baxronova D, Abdushahidov N, Jo'rayeva M – "O'zbekistonda suv siyosati: muammolar, yechimlar va takliflar" maqola.

2. Building a Water Secure Future in Central asia, World Bank 2024.09.26
3. gov.uz/uz/suvchi.
4. Lex.uz

YASHIL IQTISODIYOT VA START-UP LOYIHALARNI QO'LLAB- QUVVATLASH: O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDAGI IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Ochilov Shoxrux Ravshan o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti xodimi

e-mail: shoxruxochilov63@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston qonunchiligidagi yashil iqtisodiyot va start-up loyihalarini qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar tahlil qilinadi. "Yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasi" (2020) va "Startap loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarori (2024), "Raqamli texnologiyalar sohasidagi istiqbolli startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash va sohadagi yirik tashkilotlar faoliyatini eksportga yo'naltirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VMQ (2024) kabi asosiy hujjatlar ko'rib chiqilgan. Asosiy muammolar – moliyaviy resurslarning cheklanganligi, davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish yetishmovchiligi va mutaxassislarning kamligi – aniqlangan. Maxsus investitsion fond tashkil etish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kabi yechimlar taklif etilgan. Maqola barqaror rivojlanish sohasidagi tadbirkorlar, yuristlar va siyosatchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, start-up loyihalar, O'zbekiston qonunchiligi, barqaror rivojlanish, investitsion mexanizmlar, qayta tiklanadigan energiya, innovatsion iqtisodiyot, atrof-muhitni muhofaza qilish, soliq imtiyozlari, davlat rag'batlantirishlari, xalqaro investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, karbon kreditlari, start-up O'zbekiston dasturi, IT Park va innovatsion zonlar, ekologik standartlar, yashil energiya manbalari.*

Yashil iqtisodiyot – bu barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi, tabiiy resurslarni tejovchi va ekologik xavflarni kamaytiruvchi iqtisodiy model hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi 2020-yildan boshlab "Yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasi"ni qabul qilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik toza texnologiyalar va innovatsion start-up loyihalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan islohotlarni amalga oshirmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish yuzasidan zarur

choralar hamda dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2030-yilga kelib, quyosh, shamol va gidroenergiya hisobiga elektr energiyasining 25% ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan. Hozirgi kunda Qashqadaryo viloyati Nishon tumani hududida 119400 kv.m maydonda qurilayotgan, qiymati 300 million dollar bo'lgan ulkan loyiha yiliga 500 MVt elektr energiyasi ishlab chiqarish reja qilingan. Bundan tashqari "Nur Navoi" (100 MVt quyosh elektr stansiyasi, 2021), "Zarafshon" shamol elektr stansiyasi (500 MVt, 2024), "Surxondaryo SES" kichik gidroelektrostansiyalari shular jumlasidandir.

Xitoy, BAA va Yevropa Ittifoqi kompaniyalari (masalan, Masdar, ACWA Power) bilan hamkorlikda 5 milliard dollardan ortiq sarmoya jalb qilindi. Yashil sanoat" dasturi doirasida korxonalarga energiya tejovchi uskunalar o'rnatish uchun subsidiyalar ajratilmoqda. IT Park va texnoparklarda esa aeromonitoring dronlari (qishloq xo'jaligida suv resurslarini tejash) hamda Smart-recycling (chiqindilarni aqlli tizimlar bilan qayta ishlash) kabi loyihalar ustida ish olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasida asosiy qonun hujjatlari va strategik hujjatlar haqida gap ketganda 20 dan ortiq normativ huquqiy-hujjatlar, qonun, VMQ lari hamda prezident hujjatlarini aytib o'tish o'rinlidir. Shulardan: "Yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasi" (2020) — 2030-yilgacha barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha barqaror rivojlanish strategiyasi" – BMTning 17 barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashtirilgan. "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonun (2019) – Alternativ energiya sohasida investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlarini belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasida "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish unga keng imkoniyatlar yaratib berish maqsadida hukumat tomonidan soliq imtiyozlari va moliyaviy rag'batlantirishlar joriy etildi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun 7 yil muddatga daromad solig'i 50% ga kamaytirildi. "Yashil texnologiyalar" ro'yxatiga kiritilgan uskunalarni import qilganda qo'shimcha soliqlar oshirilmaslgi nazarda tutildi. Quyosh panellari, shamol generatorlari va boshqa "yashil" texnologiyalarni sotib olishda QQS 0% miqdorida belgilandi. Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun "yashil" loyihalarni amalga oshirishda yillik 5% dan kam kreditlar hamda qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun 30% miqdorida subsidiyalar ajratilishi belgilandi. Hukumat tomonidan yashil energiya loyihalari uchun davlat kafolatlari 5 yilgacha, chet el investitsiyalari uchun 10 yilgacha soliq barqarorligi kafolati berildi.

"Yashil texnologiyalar" ixtisoslashtirilgan Navoiy va Jizzax viloyatlaridagi maxsus zonalarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun daromad solig'i 1% miqdorida belgilandi. Shu bilan birgalikda UNDP, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD) kabi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

Startaplar o'sish bosqichida ko'pincha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadilar. Bu sohada venchur kapitali va investitsiya fondlari eng ishonchli qo'llab-quvvatlash manbalaridan hisoblanadi. Ushbu tashkilotlar innovatsion g'oyalarga sarmoya kiritishga tayyor bo'lsa-da, ularning tanlov mezonlarini tushunish muvaffaqiyatli moliyalashtirish uchun asosiy shartdir.

Investitsiya fondlari bizneslarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali ularning rivojlanishiga bevositata'sir ko'rsatadi. Masalan, yetkazib berish xizmatini kengaytirishni maqsad qilgan startap qo'shimcha mablag'ga muhtoj bo'lgan taqdirda, u fondga ariza topshirib, loyihasini keyingi bosqichga olib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunga javoban fond kompaniyada ma'lum ulushga ega bo'lish huquqini qo'lga kiritadi.

Investitsiya fondlari tuzilishi jihatidan quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan tashkilotlar
- Korporativ investorlar guruhi
- Mustaqil faoliyat yurituvchi moliyaviy institutlar

"Spot" materialida startaplar uchun muhim bo'lgan quyidagi jihatlar yoritiladi:

1. Qaysi fondlar yangi loyihalarni moliyalashtirishga tayyorligi
2. Moliyalashtirishni muvaffaqiyatli jalb qilish uchun zarur bo'lgan asosiy talablar
3. Investitsiya olish imkoniyatlarini oshirish yo'llari

Ushbu tushunchalarni chuqur o'zlashtirish, startap fondlari bilan samarali hamkorlik qilish va loyihani keyingi rivojlanish bosqichlariga olib chiqish uchun asosiy qadam hisoblanadi. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribaga nazar soladigan bo'lsak, Germaniyaning EEG (Qayta tiklanadigan energiya to'g'risidagi qonun) da quyosh va shamol energiyasi loyihalari uchun subsidiyalar berish tartibi nazarda tutilgan. AQSh ning "Inflyatsiyani kamaytirish to'g'risidagi qonun" da 369 milliard dollar yashil energiya va iqlim loyihalariga ajratish nazarda tutilgan. Xalqaro savdo tashkilotining xalqaro hujjatlarida uy quyosh panellari uchun 30% soliq imtiyoz, elektromobillar uchun 7 500 dollargacha chegirma berish qayd etib o'tilgan. Kaliforniyaning 2035-yilga kelib benzinli avtomobillarni taqiqlash dasturi, Nyu-Yorkning offshore shamol energiyasini rivojlantirish bo'yicha 9 milliard dollarlik loyihasi xalqaro tajribani o'rganishdagi eng muhim jihatlari hisoblanadi.

Xitoy davlatida "Yashil kreditlar" joriy etilgan bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qiluvchi loyihalar uchun banklarning foiz stavkalarini pasaytirish orqali ajratib beriladi. Pekin va Shanxayda "yashil sertifikat" tizimi yaratilgan bo'lib, uning asosiy mazmuni korxonalarining ekologik standartlarga rioya qilishini nazorat qilishdan iborat hisoblanadi.

Bugungi kundagi asosiy muammolardan biri bu qonunchilikdagi byurokratik to'siqlar bo'lib, imtiyozlarni olish jarayoni murakkabligicha qolmoqda

hamda bu jarayonlarni soddalashtirish lozim. Qonunlar ijrosining biroz zaifligi – bu yo'nalishdagi nazoratni mustahkamlash va jazo choralarini biroz oshirishni talab etmoqda. Hududlarda moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi hududlarda “yashil” loyihalar uchun alohida fondlar tashkil etish zarurligidan dalolat bermoqda. O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida qonunchilik bazasini izchil ravishda takomillashtirmoqda. Biroq, qonunlarning amaliy ijrosini ta'minlash, byurokratik jarayonlarni soddalashtirish va xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Kelgusi 5 yil ichida O'zbekiston Markaziy Osiyoda yashil iqtisodiyotning mintaqaviy yetakchisiga aylanishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud ekanligini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

O'zbekiston Respublikasi Yevropa tajribasi sifatida qat'iy soliq tizimi hisoblangan karbon solig'i va ekologik to'lovlarni bosqichma-bosqich joriy etishni, Xitoy modeli sifatida davlat-xususiy sheriklik asosida yirik miqyosdagi yashil infrastrukturallari loyihalarini taqdim etishni, Skandinaviya usuli sifatida fuqarolar ishtirokida “Aqlli shahar” va chiqindilarni qayta ishlash dasturlarini, AQSh va Janubiy Koreya namunalari tariqasida innovatsion subsidiyalar ya'ni startuplar va elektr transporti ishlab chiqaruvchilariga to'g'ridan-to'g'ri yordam berish kabilarni rivojlantirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tishda qonunchilikning aniqligi, soliq tizimining moslashuvchanligi va innovatsiyalarga katta investitsiyalar kiritish asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston ushbu modellardan eng yaxshi amaliyotlarni o'zlashtirib, mintaqada barqaror rivojlanishning yetakchisiga aylanishi mumkin degan xulosaga kelishimiz uchun barcha faktlar yetarlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni. (2020).
2. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha barqaror rivojlanish strategiyasi. (2021). Toshkent.
3. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish to'g'risida”gi Qonun. (2019).
4. Jahonbanki (World Bank). (2022). Green growth in Uzbekistan: Opportunities and challenges.
5. Yevropa Ittifoqi (European Commission). (2019). The European Green Deal.
6. Xalqaro energiya agentligi (IEA). (2023). Renewable energy market update 2023.

7. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP). (2021). Uzbekistan's pathway to carbon neutrality.
8. Liu, J., & Zhang, Y. (2022). China's green energy policy: Lessons for Central Asia. Energy Policy Journal.
9. Johnson, P. (2023). The U.S. Inflation Reduction Act and its impact on clean energy. Harvard Business Review.
10. Andersen, M. S. (2021). Carbon taxes in Scandinavia: Successes and challenges. Environmental Economics.
11. O'zbekiston Energiya vazirligi. (2023). Renewable energy capacity report 2023.
12. International Renewable Energy Agency (IRENA). (2023). Global renewables outlook 2023.
13. Daniya Ekologiya vazirligi. (2022). Carbon neutral cities: Copenhagen case study.
14. International Trade Centre. (n.d.). <https://www.intracen.org>
15. Spot.uz. (2024, November 6). <https://www.spot.uz/oz/2024/11/06/startup>
16. O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi. (n.d.). <https://www.uznature.uz/uz/legislation/index?legislationCategoryId=1>
17. European Commission. (n.d.). https://ec.europa.eu/clima/policies/eu-climate-action_en
18. U.S. Department of Energy. (n.d.). <https://energy.gov/inflation-reduction-act>

MAMLAKATIMIZ ERKIN IQTISODIY VA KICHIK SANOAT ZONALARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING DOLZARBLIGI

Rashidov Mels Karimovich

PhD, dotsent, Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti
e-mail: melsrashidov20@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatdagi erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida yashil iqtisodiyotdan foydalanish masalalari hamda ishlab chiqarish natijasida

yuzaga keladigan ekologik xavflarni sezilarli darajada kamaytirilishi uchun “yashil iqtisodiyot”ga o'tish afzalliklari yoritib beriladi. Qolaversa, ushbu maqolada “yashil iqtisodiyot”ga o'tishdan Jahon bankining yillik hisobotlari ham tahlil qilib o'rganilib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *barqaror rivojlanish, atrof-muhit, ekologik barqarorlik, ekologik muammolar, “yashil iqtisodiyot”, qayta tiklanadigan energiya, “yashil” o'tish, “yashil” ish o'rinlari*

Yashil iqtisodiyot- bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyotdir. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega. Jahon amaliyotida Iqtisodiyot hisobotida ta'kidlanishicha, “iqtisodiyotning yashil bo'lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o'lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlashni nazarda tutadi”.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar O'zbekistonning bozor islohotlarining navbatdagi bosqichiga o'tishi uchun qulay sharoit yaratdi. Iqtisodiy islohotlaryanada “yashil” bo'lib, iqtisodiyot barqaror bo'lsa, ushbu jarayon O'zbekiston uchun yanada foydaliroq kechishi mumkin[1]. Darhaqiqat, UNEP (the United Nations Environment Program)ning fikriga ko'ra “Yashil iqtisodiyot” (Green Economy) — bu “inson farovonligi va ijtimoiy tenglikning yaxshilanishiga, ekologik xavf va ekologik tanqislikning sezilarli darajada pasayishiga” olib keladigan iqtisodiyotdir. Zero, yashil iqtisodiyot bu sof yoki “yashil” texnologiyalarga asoslangan ekologik toza mahsulotlarni yaratishga qaratilgan rivojlanishning yangi bosqichi bo'lib tabiatga yordam beradigan va foyda keltiradigan yangi texnologiyalar, ekotizimlarni o'z ichiga oladi. Qolaversa, bu tizim mamlakat tabiatini yaxshilashga yordam beradigan iqtisodiyotning yangi tarmoqlariga bevosita yo'l ochishi shubhasizdir.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun “yashil” o'tish yangi bosqich bo'lganligi bois bu borada hali yetarlicha izlanishlar olib borilmagan. Ammo, Jahon banki tomonidan shu kungacha bir qator izlanishlar, muhokamalar o'tkazilib kelinmoqda. Quyida ushbu muhokamalar asosida “yashil” iqtisodiyot sari amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini asos qilgan holda bir qator fikr mulohazalar keltirilgan.

Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish yo'nalishlari quyidagilar:

- qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish;
- chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish;

- "Toza", barqaror "yashil" transportni rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligida organik dehqonchilikni rivojlantirish;
- uy-joy kommunal xo'jaligida energiya samaradorligini oshirish;
- ekotizimlarni saqlash va boshqaruv samaradorligini oshirish;
- "Yashil texnologiyalar"ni yaratish va sotish bozorlarini rivojlantirish.

Hukumat COVID pandemiyasi davrida kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotni barqarorlashtirish bilan bir vaqtda islohotlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Bu sa'y-harakatlar ko'zlangan natijalarni berdi va bugun O'zbekistondagi odamlar farovonlik va turmush sharoitlari yaxshilanganini his etmoqda. Iqtisodiy islohotlarning navbatdagi bosqichida kambag'allikni ikki baravar kamaytirish va 2030-yilga borib O'zbekistonni daromadi o'rtachadan yuqori davlatga (UMIC) aylantirishni maqsad qilib qo'yilgan. Iqtisodiy islohotlarga "yashil" maqsadlarni joriy etish orqali O'zbekiston o'tish jarayonini mustahkamlash va ushbu jarayondan olinadigan foydani oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu sinergiya "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da ham e'tirof etilgan.

Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida "yashil iqtisodiyot"ga o'tishi zarurligiga bir qator omillar sabab bo'lmoqda, jumladan:

- xalq xo'jaligida iste'mol qilinadigan energiyaning katta qismi qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalangan holda ishlab chiqarilishi;
- ushbu resurslarning cheklangan ta'minoti;
- sanoatning jadal rivojlanishi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi;
- suv tanqisligi;
- Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik muammolar kuchaymoqda.

Mustaqillik va islohotlarning o'tgan o'ttiz yili ichida O'zbekiston Orol bo'yida atrof-muhitni muhofaza qilish va o'rmonchilik choralari tufayli iqlim o'zgarishi oqibatlariga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishdi. Ammo sug'orish va ichimlik suvi tanqisligi, ishonchli elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar hamon mavjud, bunga so'nggi paytlarda yuz bergan keng ko'lamli elektr uzilishlari, misli ko'rilmagan qum va chang bo'ronlari dalil bo'la oladi. Odamlar, jamoalar, atrof-muhit va infratuzilmaga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ushbu muammolar O'zbekistonning "yashil" kelajagini ta'minlash uchun hali ko'p ishlar qilinishi kerakligini eslatib turadi[2].

Rivojlanish bo'yicha xalqaro hamkorlar O'zbekistonga 2030-yilgacha "yashil" o'tish strategiyasini amalga oshirishda va 2050-yilgacha iqtisodiyotni karbonsizlash bo'yicha uzoq muddatli istiqbolni ishlab chiqishda yordam beradi[3]. Yashil iqtisodiyot("Green Economy") Konsepsiyaning maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investitsiyalar faolligini oshirish, shu bilan birga atrof-muhitni

muhofaza qilish va ijtimoiy integratsiya sifatini oshirishdan iborat. "Yashil" o'sishning kelishilgan ustuvor yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- aholini muhofaza qilish, zarar ko'rgan hududlar, aholi guruhlari va iqtisodiyot tarmoqlariga moliyaviy va boshqa favqulodda yordamlar ko'rsatish orqali tabiiy ofatlarga tayyorlik va iqlim o'zgarishiga chidamlilik;

- bozor islohotlari, qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi inklyuziv siyosat, xususiylar sektorni tegishli jarayonlarga jalb qilish orqali tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;

- chiqindilarni kamaytirish, korxonalarni modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va issiqxona gazlari chiqishini kamaytirish orqali sanoat va iqtisodiyotni "yashil" rivojlantirish;

- iqtisodiyot tarmoqlarining "yashil" o'tishini qo'llab-quvvatlash uchun "yashil" investitsiyalar va innovatsiyalar;

- barqaror va inklyuziv urbanizatsiya hamda "yashil" iqtisodiyotga o'tishdan eng ko'p zarar ko'rgan aholi va hududlarni qo'llab-quvvatlash, jumladan kompetensiyalarni rivojlantirish va "yashil" ish o'rinlarini yaratish.

2019-2028 yillarga mo'ljallangan chiqindilarni boshqarish bo'yicha strategiya mintaqaviy yondashuvga o'tishda shahar chiqindilarini yig'ishni optimallashtirish va boshqaruvni yaxshilashga qaratilgan. Chiqindilarni boshqarish operatsiyalar, moliyalashtirish, qonunchilik, monitoring va ijro etish, atrof-muhitni boshqarish va barcha aholi uchun uzoq muddatli barqarorlikka erishishga qaratilgan ijtimoiy inklyuziya bo'yicha barqarorlikni hisobga olgan holda kompleks tarzda hal qilinishi kerak.

Bugungi kunda, bizni fikrimizcha, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida yashil iqtisodiyotni faol tartibga solish uchun quyidagi ta'sir omillari muhim hisoblanadi:

1. Ochiq va raqobatbardosh bozorlarning mavjud bo'lishi;
2. Ko'rsatkichlar, buxgalteriya hisobi va hisobotlardagi xufiyona iqtisodiyotning mavjud emasligi;
3. Moliya tizimi va investitsiyalarni to'g'ri tizimlashtirish;
4. Ogohlik va siyosiy yondashuvlar(integratsiyalashgan siyosat)
5. Resurs samaradorligi va bandlik
6. Ta'lim, ko'nikmalar darajasi
7. Boshqaruv, hamkorlik va qarorlar qabul qilish.

Mamlakatdagi erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida "yashil iqtisodiyot"ning rolini kuchaytirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur:

birinchidan, erkin va kichik sanoat zonalaridagi investorlarni atrof-muhitning yomonlashuvi sabablari to'g'risida axborot bilan ta'minlashga qaratilgan loyihalarga

ustuvor ahamiyat berishini ta'minlash;

ikkinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi sifatini oshirish darkor;

uchinchidan, "yashil" davlat xaridlari siyosatini olib borish orqali ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va ishlab chiqarishda "yashil" texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi;

to'rtinchidan, milliy iqtisodiyotning energiya salohiyatini oshirishda "yashil" texnologiyalardan samarali foydalanish kerak;

beshinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida "yashil" infratuzilmaga sarflanadigan davlat investitsiyalari hajmini oshirish lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali biz kelajak avlodlar uchun yanada taraqqiy etgan barqaror rivojlanish asosidagi iqtisodiyotni ta'minlashga erishamiz desak, shubha qilmagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. Towards a Greener Economy in Uzbekistan. ©World Bank."
2. "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. Jahon banki: Washington D.C."
3. "2019-2030-yillardavrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" Iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 4-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori.

ATROF MUHITNI HIMOYA QILISH VA "YASHIL IQTISODIYOT"NI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Salimov Burxon Abubakirovich

Angren universiteti "Iqtisodiyot va moliya"
kafedrasida katta o'qituvchisi

Mamadiyeva Malikaxon Mahmudjonovna

Angren universiteti "Moliya va moliyaviy
texnologiyalar" yo'nalishining 3-bosqich
iqtidorli talabasi

e-mail: malika1737m@gmail.com

Annotatsiya: Maqolaning asosiy qismida atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi har bir mamlakat uchun strategik vazifasi, ekologik muammolar, ekologik ta'lim va tarbiya, yashil iqtisodiyot yo'nalishlari, yashil iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlari, "Yashil makon" umummilliy loyihasi, yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xalqaro hamkorliklar hamda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muammolar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Yashil iqtisodiyot, global ekologik muvozanat, atrof-muhit, ekologik madaniyat, energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash, quyosh, shamol, geotermal, biomassa, gidroenergiya, yashil makon, iqtisodiy barqarorlik*

Oxirgi yillarda insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq ekologik muammolar keskin tus oldi. Sanoatning kengayishi, transport vositalarining ko'payishi, aholining ortib borishi natijasida atmosfera havosi, suv havzalari, tuproq tarkibi sezilarli darajada ifloslanmoqda. Bularning barchasi global ekologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, iqlim o'zgarishlari, cho'llanish, o'rmonlarning kamayib borishi, yer osti suvlari darajasining pasayishi kabi jarayonlar insoniyat oldiga yangi ekologik va iqtisodiy muammolarni qo'yimoqda. Shu bois atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi har bir mamlakat uchun strategik vazifaga aylangan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish – bu inson hayot sifati va sog'ligini saqlab qolish, kelajak avlodlarga tabiiy boyliklarni asrab qolish demakdir. Bu borada quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim: Qonunchilik asoslarini mustahkamlash. Har bir davlatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun qonunlar va normativ hujjatlar tizimi ishlab chiqilishi va amaliyotda qo'llanilishi zarur [1]. Ekologik ta'lim va tarbiya. Aholi, ayniqsa yosh avlod orasida ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga mehr va mas'uliyat hissini uyg'otish juda muhim. Ekologik toza texnologiyalarning joriy etilishi. Ishlab chiqarish jarayonlarida zararli chiqindilarni kamaytirish, suv va energiyani tejash, qayta ishlash texnologiyalarini keng qo'llash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Monitoring va nazorat tizimini kuchaytirish. Atrof-muhit holatini muntazam kuzatib borish va o'z vaqtida chora ko'rish uchun zamonaviy monitoring tizimlarini joriy etish kerak. Yashil iqtisodiyot tushunchasi ushbu jarayonlarda muhim o'rin tutadi. Bu konsepsiya iqtisodiy rivojlanishni ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Yashil iqtisodiyot quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish – quyosh, shamol, geotermal energiya; Chiqindilarni qayta ishlash va ularni kamaytirish; "Yashil" transport vositalarini rivojlantirish – elektr avtomobillar, velosiped yo'laklari;

Ekologik toza ishlab chiqarish – atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni joriy etish.

Energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirishi hamda iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash haqida ham bir qator ishlar olib borilmoqda [2].

Yashil iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu yashil energetika hisoblanadi. Yashil energetika – bu qayta tiklanadigan, atrof-muhitga minimal darajada zarar yetkazadigan energiya manbalaridan foydalanish tizimidir. Bunday manbalarga quyosh, shamol, geotermal, biomassa va gidroenergiya kiradi. Ular an'anaviy yoqilg'i – neft, ko'mir va gazga nisbatan ekologik jihatdan ancha xavfsizdir.

O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha izchil choralar ko'rilmogda. Davlat rahbari tashabbusi bilan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidamillionlabdaraxtlarekilmoqda.2030yilgaboribelektrenergiyasiningkamida 25 foizini qayta tiklanadigan manbalardan olish rejalashtirilgan. Qayta tiklanadigan energiya bozorini rivojlantirish, xususan quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha yirik investitsiyalar jalb qilinishi to'g'risida ishlar olib borilmoqda. Biroq ushbu yo'nalishda qator muammolar ham mavjud: mavjud infratuzilmaning yangilanishga muhtojligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, texnologik bilimlar va kadrlar salohiyatining pastligi aholi o'rtasida ekologik savodxonlikning yetarli emasligi. Yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. BMT, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi tashkilotlar ekologik loyihalarni moliyalashtirishda faol ishtirok etmoqda. Bundan tashqari, xalqaro tajribani o'rganish, zamonaviy texnologiyalarni transfer qilish va qo'shma loyihalar yaratish orqali yashil iqtisodiyotga o'tish tezlashadi.

Atrof-muhitni himoya qilish va yashil iqtisodiyotni shakllantirish bugungi global iqtisodiy muammolar ichida eng dolzarblaridan biridir. U insoniyatning ekologik xavfsizligini, iqtisodiy barqarorlikni va sog'lom turmush tarzini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Insoniyat taraqqiyoti, sanoat va texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan birga, ekologik muammolar ham ortib bormoqda. Atmosfera, suv, tuproqning ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayib borishi, global isish jarayonlari inson salomatligiga, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka tahdid solmoqda. Shu sababli, atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng qo'llash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu boradagi yondashuvlar ichida "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi alohida o'rin tutadi.

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o'sish bilan birga ekologik barqarorlikka erishishni maqsad qilgan yondashuv bo'lib, u ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish, "yashil" ish o'rinlarini yaratish, energiya samaradorligini oshirish, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ishlab chiqarish faoliyatini yuritishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot yo'nalishida

qator muhim tashabbus va islohotlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi, qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish, ekologik toza transport vositalarini rivojlantirish shular jumlasidandir. Shunga qaramay, bu sohada muammolar ham yo'q emas. Moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi, texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi, aholining ekologik madaniyat darajasining pastligi kabi omillar yashil iqtisodiyotni shakllantirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini hayotga tatbiq etish zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik, davlat siyosati va jamiyat faolligi muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda ushbu yo'nalishda sezilarli yutuqlarga erishmoqda, ammo mavjud muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv va barcha jamiyat a'zolarining faol ishtiroki ta'kidlangan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. (n.d.). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi. (2019). 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

"YASHIL" ENERGETIKA-FAROVON KELAJAK, IQTISODIY BARQARORLIK KAFOLATI

Sharapova Gulnoza Valentinovna

Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

Bo'riyeva Gulshan Ulmasbek qizi

Biologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil makonni saqlash va muqobil energiyani ishlab chiqishda tabiiy bilimlarni rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi. Ya'ni ekologiyamizni asrash, chiqindilarni qayta ishlash va tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanishimiz kerak.

Kalit so'zlar: *yashil makon, ko'chatlar, obodonlashtirish, umum milliy loyiha, energiya, muqobil energiya, qayta tiklanadigan energiya, iqlim o'zgarishi, tabiiy energiya, populyatsiya.*

Yashil makonni saqlash va bunga olib borilayotgan xatti-harakatlar aholi

hayotining sifatini umumlashtiruvchi ijtimoiy –iqtisodiy kategoriya bo'lib, nafaqat moddiy ne'matlar va xizmatlarni iste'mol qilish darajasini, balki ma'naviy ehtiyojlarni qondirish salomatlik umr ko'rish davomiyligi atrof – muhit ekologik sharoitlarni, axloqiy-psixologik iqlim, ma'naviyatini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, "2021-yil 30 – dekabrda "Respublikada ko'klamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari " to'g'risidagi farmonida tatbiq etilishi belgilangan [3]. Respublikamizda ekotizimlarni himoya qilish va tiklash, ko'klamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va yashil maydonlarni kengaytirish borasida "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirilishi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Ushbu loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlar oshib bormoqda Ushbu loyihadan so'ng yashil maydonlar 8 foizdan 30 foizgacha oshishi kuzatilmoqda.

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning eng muhim vazifalaridan biri inson hayoti sifati va farovonligini oshirishdan iborat. O'zbekistonda 2030- yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha chora –tadbirlar rejasi ishlanib, unda 16 ta milliy barqaror rivojlanish maqsadi 125 ta vazifa belgilanib olindi. Milliy maqsadlardan iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha tezkor choralarni qabul qilish, quruqlik ekotizimlarni himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko'maklashish, o'rmonlardan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, va yerning yemirilishini to'xtatish vazifalari belgilandi[3]. Shu o'rinda so'nggi yillarda O'zbekistonda iqlimning o'zgarishi, yillik o'rtacha temperaturaning ko'tarilishi, mavsumiy qurg'oqchilikning kuchayishiga olib kelmoqda. Bu salbiy ta'sirning oqibatlarini yumshatish uchun davlatimiz tomonidan qator tadbirlar ishlab chiqib, ular qatoriga Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni barpo etish, 2026 – yil yakuniga qadar ularning umumiy hajmini 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish, Orolbo'yida xalqaro "Yashil iqlim" va global ekologik jamg'armalarning bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan loyihalar hisoblanadi [1]. Yashab turgan joyimizni ozoda saqlab bizdan keyingi avlod ham munosib tabiiy muhitda yashashlari uchun bugun biz tabiatga mehr va e'tibor bersak kelajak avlod ham munosib ekologik sharoitda yashaydi. Buning uchun yer va suv resurslarni, ekologik tizimini asrash hamda daraxt ko'chatlarini ekib, bog' yaratishimiz zarurdir.

Biz bilamizki, Ekologiya bu — organizmlarning bir birlari bilan hamda tashqi muhit bilan munosabatini o'rganuvchi bo'limdir. Ekologiya ayrim individlarning

rivojlanishi, yashashini, ko'payishini, populyatsiyalarni va jamoalarning tarkibi hamda o'zgarishlarini yashash muhitiga bog'liq holda o'rganadi. Ekologiya organizm, populyatsiya, jamiyat, ekotizim va biosfera kabi darajalarda o'rganiladi. Hech o'rmonda sayr qilib u yerda yashovchi g'aroyib organizmlarning xilma xilligi, qirqquloqlardan tortib daraxtlargacha, tog'oradek keladigan qo'ziqorinlargacha ahamiyat berganmisiz? Yoki mashinada sayohat qilib, oynadan eman o'rmonidan balandroq qarag'ayzorlarga ulardan yaylov – tekisliklarga almashinayotgan manzara o'zgarishini tomosha qilganmisiz. Agar shunday bo'lsa, siz biologiyaning tarmog'i bo'lmish organizmlarning bir birlari hamda atrof – muhit bilan munosabatini o'rganuvchi ekologiyaning mumtoz namunasidan bahramand bo'lasiz. Dunyo kundan kunga ko'plab ekologik muammolarga duch kelmoqda. Asosiy muammolardan biri havoning ifloslanishi, suvning yaroqsizligi, iqlimning o'zgarib borishi, o'rmonlarning yo'qolishi daraxtlarning sababsiz kesib olinishi ham ekologiyaga salbiy ta'sir qilmoqda [4].

Iqlimning o'zgarishi bu ekologik muammodir. Bu iqlim o'zgarishlariga atmosfera javobgar. Bu atmosferani yaratgan insonlar, atmosferada sun'iy ravishda hosil bo'lgan gazlar to'planib vaqt o'tishi dunyoni issiqroq qilishadi. Ushbu harorat natijasida muzliklar eriydi va ko'p iqlim muvozanatga sabab bo'ladi. O'rmonlarning yo'qolishi daraxtlarning sababsiz kesib olinishi ham ekologiyaga salbiy ta'sir qilmoqda. Dunyoda tirik organizmlar uchun kislorodning asosiy manbai o'rmonlar, ya'ni o'simliklardir. Eng muhim ekologik muammolardan biri – o'rmonlarning yo'q qilinishi. O'rmonlarning yo'q qilinishi o'rmon yong'inlari va daraxtlar kesilishidan kelib chiqadi. Qog'oz ishlab chiqarish ko'p sohalarda daraxtlardan foydalanish daraxtlarning kesilishi va o'rmon maydonlarini kamaytirish mumkin. Buning evaziga ishlatiladigan materiallarni qayta ishlash daraxt kesishni kamaytirish uchun kalit hisoblanadi[6]. Qayta ishlash keng tarqalgan ekan, o'rmon joylari kamroq yo'q qilinadi va jonzoqlar ko'proq kisloroddan foydalanadi. Suvning ifloslanishi ya'ni yaroqsiz bo'lib borishiga inson bevosita va bilvosita omil hisoblanadi. Buning sababi ularning chiqindilari hisoblanadi. Yana eng ko'p uchraydigan holat bu suvning kimyoviy ifloslanishidir. Afsuski rivojlanib borayotgan mamlakatlar asosiy ifloslanish manbalarini nazorat qilishda orqada qolmoqda [5]. Natijada atrof-muhit hamda ichimlik suvlarining sifati asta sekin yomonlashib bormoqda. Havoning ifloslanishi insonlarni kasalliklarga yo'liqtirish hamda allergiyalar paydo qilish xususiyatiga va hattoki o'limga ham olib kelishi mumkin. Zavod fabrikalar bilan bir qatorda havo ifloslanishiga olib keladigan bioomil transport vositalari hisoblanadi. Ulardan ajralib chiqadigan gazlar inson hayoti uchun zararli hisoblanadi.

Qayta tiklanadigan energiya vaqt o'tishi bilan tabiiy ravishda to'ldiriladigan qayta tiklanadigan manbalardan to'plangan energiyadir. Masalan quyosh nuri, suv,

shamol va geotermal issiqlik kabilardir. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi muntazam ortib borayotganligiga asosiy uchta omil sababchi hisoblanadi.

Tabiiy resurslar zaxirasini kamayib borayotganligi

Energetik xavfsizlikni ta'minlash zaruriyati

Ekologik krizisini ma'lum darajada yumshatishni ta'minlay olish [7].

Darhaqiqat, yurtimizda bugun ushbu sohani rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. "Yashil" energetikadan samarali foydalanish masalasi esa kun tartibiga chiqdi. Bu bejiz emas. Chunki "yashil" energetika — qazilma yoqilg'i sarfisiz, atmosferaga CO va CO₂ gazlari chiqarmaydigan va natijada atrof-muhit ekologiyasiga ziyon yetkazmagan holda energiya ta'minotini amalga oshiradigan tuzilmadir [8]. Bunda iste'mol talabi quyosh, shamol, suv, biomassa, vodorod energetikasi kabi muqobil energiya manbalari evaziga qoplanadi.

Mamlakatimiz "yashil" energetikaga o'tish iqtisodiyot uchun naqadar ahamiyatli ekanini anglagan holda, so'nggi yillarda ushbu masalaga alohida e'tibor qaratmoqda. Boisi, bu mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun tayyor bozor va katta imkoniyat ham. Keyingi paytlarda bu borada ko'plab muhim kelishuvlarga erishilayotgani e'tiborga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.V.Vaxobov, Sh. X.Xajibakiyev, Yshil iqtisodiyot: Darslik. 2-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan, G'i.d.f, A.V.Vaxobovning umumiytahriri ostida. – Toshkent: "ZEBO PRINT", 2021. – 264 b.
2. Ergashev A. Umumiy ekologiya Toshkent 2003
3. Mirzayev K.J., Ulug'murodov F.F, Rabbimov E.A. Tabiiy resurslar iqtisodiyoti o'quv qo'llanma G'Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024 — 458 bet.
4. To'xtayev A., Ekologiya, Toshkent 2000.
5. Ulugmurodov, F. F., Shodiev, F. K., & Qurbonov, T. N. (2024). Prospects for the Development of the Green Economy in the Organization of a Sustainable Economy in the Republic of Uzbekistan. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(6), 217- 221.
6. O'zME. birinchi jild. Toshkent 2000
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
8. <https://G'daryo.uz>G'2024G'12G'10G'ozbekistonda-yana-5-ta-yangi-ies-
ishga-tushiriladi.

O'ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT"NI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Sirojiddinova Zilolaxon Jaloliddin qizi

Agrobiznes va Raqamli iqtisodiyot fakulteti

Logistika (Agrologistika) ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabasi

e-mail: sirojiddinovazilola05@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash va ekologik muammolarni yengillashtirish maqsadida "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish zarur. Yashil iqtisodiyot- resurslarni samarali boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish va qayta tiklanadigan Kelgusida, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish natijasida va xalq farovonligini oshishi kutilmoqda.

Kalit so'zlar: Barqaror rivojlanish, orolbo'yi mintaqasini tiklash, ekologik innovatsiyalar, iqlim o'zgarishi, qishloq xo'jaligida ekologik texnologiyalar, ifloslanishini kamaytirish, ekologiya va toza transport tizimi.

Hozirgi kunda O'zbekiston jadal iqtisodiy rivojlanishni davom ettirayotgan bir paytda, barqaror va ekologik xavfsiz rivojlanishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mamlakat tabiiy resurslarga boy bo'lsa-da, ularning samarali va tejamkor ishlatilishi, kelajakda atrof-muhitni asrash va ijtimoiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga asoslangan barqaror rivojlanish yo'lini tanlamoqda. "Yashil iqtisodiyot" tushunchasi iqtisodiy rivojlanishni ekologik xavfsizlikni va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosida ta'minlash uchun muhim hisoblanadi. Shu sababli O'zbekiston "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga asoslangan barqaror rivojlanish yo'lini tanlamoqda. "Yashil iqtisodiyot" tushunchasi iqtisodiy rivojlanishni ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosida ta'minlashni nazarda tutadi. Bu ayniqsa, iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi, energetika, sanoat va transport sohalarida qo'llanilishi bilan mamlakat aholisining hayot sifati va atrof-muhitni himoya qilish uchun katta ahamiyatga ega. O'zbekistonda quyosh energiyasi va shamol kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalari salohiyatiga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Energetika sohasida yangilanadigan energiyaga o'tishi, bir tomondan iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi mumkin. Mamlakatimizda 2030-yilgacha elektr energiyasini 25 %ni qayta tiklanuvchi manbalardan olishi rejalashtirilgan. Yana bir asosiy yo'nalishlardan biri suv resurslarini samarali boshqarish suv resurslarini tejash, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish va suvni qayta ishlash O'zbekiston

uchun muhim masaladir.

Yashil iqtisodiyot nuqtai nazaridan suvdan foydalanishning zamonaviy va ekologik jihatdan samarali usullarini joriy etish kelajakda suv taqchilligini va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishga yordam beradi. Va yana O'zbekistonda chiqindilarini qayta ishlash va chiqindisiz texnologiyalarni tatbiq etish sohasida bir qator loyihalar, nafaqat chiqindilarni kamaytirishga yordam beradi balki qayta ishlash orqali iqtisodiyotga qo'shimcha daromad olib keladi. Avtotransportni ekologik standartlarga o'tkazish transportdan keladigan zararli chiqindilarni kamaytirish uchun O'zbekistonda elektr transport vositalarini rivojlantirish va ekologik toza yoqilg'i turlarini tatbiq etish maqsad qilinmoqda. Bu sohada milliy dasturlar va xalqaro hamkorlik asosida yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish xalqaro moliyaviy tashkilotlar va rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik kengaytirilmoqda.

Xususan, BMT, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlar bilan ekologik loyihalarini moliyalashtirish va texnik yordam ko'rsatish yuzasidan kelishuvlar mavjud. Bu hamkorlik yashil iqtisodiyotga o'tishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Dunyo bo'ylab iqlim o'zgarishi, ekologik ifloslanish va tabiiy resurslar tanqisligi kabi muammolar yashil iqtisodiyotni rivojlantirish zaruratini oshiradi. Quyidagi sabablarga ko'ra yashil iqtisodiyot muhim ahamiyatga ega: Iqlim o'zgarishini kamaytirish yashil iqtisodiyot chiqindilarni kamaytirishga va uglevod neytralligiga erishishga ko'maklashadi, Tabiiy resurslarni saqlash qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish orqali tabiiy zaxiralar uzoq muddatli saqlanib qolinadi, Ijtimoiy farovonlikni oshirish yashil texnologiyalarni joriy etish yangi ish o'rinlari yaratadi va aholini ekologik xabardor qilishga yordam beradi. Qishloq xo'jaligi

O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish ushbu sohaga ijobiy ta'sir qiladi. Asosiy chora tadbirlar: suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish ya'ni tomchilatib sug'orish tizimlari suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish –pestitsidlar va kimyoviy o'g'itlardan foydalanishni kamaytirish orqali ekologik xavfsiz mahsulotlar yetishtirish. Agroforestriya (o'rmon – qishloq xo'jaligi tizimi)-Cho'llanishning oldini olish uchun ekin maydonlarida daraxtzorlarni barpo etish. Mamlakatimizda chiqindilarni boshqarish tizimini rivojlantirish yashil iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biridir. Hukumat tomonidan 2025-yilgacha chiqindilarni qayta ishlash darajasini 40% ga yetkazish maqsad qilingan. Ulardan asosiy yo'nalishlar: Plastik chiqindilarni kamaytirish birdan-bir ishlatiladigan plastik mahsulotlardan bosqichma–bosqich voz kechish.

Qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish. Mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish orqali chiqindilarni qayta ishlovchi zavodlarni ko'paytirish. Chiqindilarni ajratish

va qayta ishlash bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish. Asosan, transport sektori O'zbekistonda havo ifloslanishining asosiy omillaridan biridir. Shuning uchun yashil transport texnologiyalarini rivojlantirish zarur. Elektromobillarni rag'batlantirish davlat tomonidan elektromobillarni xarid qilishga subsidiya berish va ularga soliq imtiyozlarini taqdim etish. Jamoat transportini modernizatsiya qilish-elektr avtobuslar metropoliten tizimini kengaytirish. Velosiped va piyodalar yo'laklarini ko'paytirish shaharlarda ekologik toza harakatlanish vositalaridan foydalanishni targ'ib qilish. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muammolar va ularning hal etish yo'llari. Asosiy muammolari yashil iqtisodiyotni rivojlantirish katta sarmoya talab qiladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan joriy etish, ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha infratuzilmalar yaratish uchun uchun katta mablag' zarur. Ko'plab korxonalar ekologik loyihalar uchun yetarli moliyaviy imkoniyatlarga ega emas. O'zbekistonda ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish hali keng ommalashmagan. Mahalliy korxonalar energiya samarador texnologiyalarga va chiqindilarni qayta ishlash uskunalariga yetarlicha ega emas. Ko'plab fuqarolar hali ham ekologik toza mahsulotlardan foydalanish, chiqindilarni saralash, suv va energiyani tejash kabi masalalarga yetarlicha e'tibor bermaydi.

Yashil iqtisodiyot va raqamlashtirish o'zaro bog'liq yo'nalishlar bo'lib bugungi kunda bir-birini to'ldiradigan jarayondir. Blokcheyn va raqamli moliyaviy tizmlar yashil loyihalarni moliyalashtirish jarayonlarini shaffoflashtiradi, elektron hukumat tizimlari qog'oz sarfini kamaytirib ekologik barqarorlikka hissa qo'shadi

Yashil iqtisodiyot va raqamlashtirish kelajagimiz uchun muhim strategik yo'nalishlardan biridir. Ushbu sohalarga investitsiya kiritish orqali biz: ekologik muammolarni kamaytiramiz, iqtisodiy samaradorlikni oshiramiz, yangi innovatsion yechimlarni joriy etamiz. Bu yo'lda barchamiz harakat qilishimiz kerak. Texnologiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillaridan foydalangan holda biz yanada yashil rivojlangan kelajakni yaratishimiz zarur. Misol sifatida aqlli shahar texnologiyalarini olaylik, aqlli infratuzilmalar elektr energiyasini tejashga, suv resurslarini samarali boshqarishga va transport tizimini optimallashtirishga yordam beradi. Bunday texnologiya nafaqat atrof- muhitga ta'sirini kamaytiradi, balki shahar aholisi uchun ham qulay sharoit yaratadi. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida fuqarolarning faol ishtiroki muhim sanaladi. Markaziy Osiyo mintaqasida eng yirik ekologik muammolardan biri bo'lib, u butun dunyo ekologlarining diqqat markazida turibdi. XX asr o'rtalarida jahondagi eng katta ko'llardan biri bo'lgan. Orol dengizi, hozirgi kunda deyarli yo'q bo'lib ketgan. Bu hodisa inson faoliyat va tabiiy omillar natijasida yuzaga kelgan bo'lib, uning oqibatlari ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Orol dengizining qurib qolgan tubidan yuz minglab tonna

tuz va chang havoga ko'tarilib, nafaqat O'zbekiston balki butun Markaziy Osiyo va boshqa hududlarga ham tarqalmoqda Bu tuproq unumdorligini pasaytiradi va hududni yashash uchun noqulay qiladi.

Orol qurishi natijasida havoga ko'tarilayotgan tuz va chang tarkibida zararli moddalar mavjud. Bu esa nafas yo'llari kasalliklari, allergiya va boshqa salomatlik muammolarini keltirib chiqarmoqda. Hududda qishloq xo'jaligi, baliqchilik va boshqa tarmoqlarning inqirozi sababli ko'plab odamlar ish joyini yo'qotdi va mintaqani tark etishga majbur bo'ldi

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbekiston jadal iqtisodiy rivojlanishni davom ettirayotgan bir paytda, barqaror va ekologik xavfsiz rivojlanishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mamlakat tabiiy resurslarga boy bo'lsa-da, ularning samarali va tejankor ishlatilishi, kelajakda atrof-muhitni asrash va ijtimoiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-4863-son 15.10.2020 y
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 martdagi "Ichki iste'mol bozorini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №135 qarori.
3. Mirziyoyev Sh.M. Meva-sabzavotchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va eksportini oshirish, aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi. 05.11.2019. www.xabar.uz.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 103 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun

hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

8. Murtazaev O., Axrorov F., Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik, -T.: "ILM ZIYo", 2017 y.

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINI YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNING O'RNI

Ubaydullayeva Gulchehra

Angren universiteti o'qituvchisi

Latipova Nargiza

Angren universiteti 3-bosqich talabasi

e-mail: ahror.urishboyev99@gmail.com

Annotatsiya: So'nggi yillarda sanoat sohasida ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi yashil texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonda sanoat korxonalarini ekologik jihatdan barqarorlashtirish yo'lida xorijiy investitsiyalarning roli yoritilgan. Energiya tejankor va ekologik toza texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash tizimlari kabi usullar orqali ishlab chiqarish samaradorligi va ekologik xavfsizlikni ta'minlash yo'llari tahlil qilingan. O'zbekiston hukumati tomonidan xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan imtiyozlar, xalqaro hamkorlik, "yashil diplomatiya" strategiyalari orqali mamlakatda yashil sanoat infratuzilmasi shakllanmoqda. Maqolada shu bilan birga, mavjud muammolar va kelgusidagi ustuvor vazifalarga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *yashil texnologiyalar, xorijiy investitsiyalar, ekologik samaradorlik, barqaror sanoat, energiya tejash, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik transformatsiya, O'zbekiston sanoati, chiqindilarni qayta ishlash, yashil diplomatiya.*

So'nggi yillarda global miqyosda ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi va tabiat resurslarining cheklanganligi sanoat sohasida tub o'zgarishlarni talab qilmoqda. An'anaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining atrof-muhitga zarar yetkazishi, chiqindilar hajmining ortishi va energiya isrofi yashil texnologiyalarni joriy etishni kun tartibiga olib chiqdi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarining ekologik samaradorligini oshirish va ularni barqaror rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Xorijiy investorlar tomonidan olib kirilayotgan innovatsion, energiya tejankor va ekologik toza texnologiyalar sanoat korxonalarining ekologik

transformatsiyasini tezlashtirmoqda.

O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda faol islohotlarni amalga oshirib, xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratish, yashil energiya va ekologik ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha aniq strategiyalarni ishlab chiqmoqda. O'zbekistonda yashil texnologiyalarni joriy etishda bir qancha muammo va kamchiliklar ham yuzaga kelmoqda. Ammo shunga qaramasdan, bu sohada yetarlicha kadrlarni yetishtirish, xorijiy ilmiy tadqiqot institutlari hamda sanoat korxonalari bilan ilmiy amaliy hamkorlik o'rnatish, xorijiy grantlarni qo'lga kiritish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ekologik muvozanatni saqlash, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va chiqindilarni kamaytirish butun dunyo ishlab chiqarish sanoati oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayonda yashil texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarish sohasida innovatsion, ekologik toza uslublarga o'tish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish barqaror rivojlanish uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Yashil texnologiyalar — bu atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishga qaratilgan texnologiyalar majmuasidir. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Energiya tejamkor uskunalari
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish (quyosh, shamol, biogaz)
- Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish texnologiyalari
- Suvni tejaydigan tizimlar
- Emissiyalarni nazorat qilish uskunalari

Demak, ushbu texnologiyalar resurslarni tejaydi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, sifatli va ekologik mahsulot ishlab chiqarish imkonini yaratadi, sanoat korxonalarining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar hisobiga yashil sanoat loyihalari energetika sohasida quyidagicha, masalan, ACWA Power (Saudiya Arabistoni) – Sirdaryo va Buxoroda shamol va quyosh elektr stansiyalari qurmoqda, Masdar (BAA) – Navoiy va Jizzax viloyatlarida 500+ MVt quyosh elektr stansiyalari loyihasi bilan shug'ullanmoqda. Bu stansiyalar sanoat korxonalariga arzon, toza energiya taqdim etadi. Sanoat korxonalarida esa Indorama (Singapur) – Namangan viloyatidagi to'qimachilik korxonalarida ekologik standartlar asosida ishlab chiqarish, Knauf (Germaniya) – qurilish materiallari ishlab chiqarishda chiqindisiz texnologiyalar joriy etilgan, Nestle (Shveysariya) – suv tejoychi va chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini o'rnatgan va boshqalar. Shuningdek, qayta ishlash sohasida Italiya, Xitoy va Koreya investorlar ishtirokida chiqindilarni ajratish va qayta ishlash zavodlari barpo etilmoqda. Toshkent

viloyatida "Green Technology" loyihasi doirasida axlat saralash va bioenergetika qurilmalari joriy etildi.

O'zbekiston hukumati xorijiy investorlarni yashil sohalarga jalb qilish uchun qator yengilliklar va imtiyozlar taqdim etmoqda, jumladan, erkin iqtisodiy zonalarda yashil loyiha uchun soliq imtiyozlari, valyuta erkinligi va daromadni olib chiqish kafolatlari, yashil obligatsiyalar chiqarish imkoniyati yaratilmoqda. Shu sababdan yashil energiya ulushi 2019 yilda 10% dan → 2024 yilda 15% ga yetdi, 2030 yilga borib sanoat energiya iste'molini 30% ga kamaytirish maqsad qilingan. Ko'plab korxonalarda karbon izini kamaytirish bo'yicha mexanizmlar joriy etilib, xorijiy investorlarga "yashil texnologiyalar klasterlari" uchun qulay maydonlar ajratilmoqda, yashil energiya asosidagi eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish boshlangan, "Yashil diplomatiya" orqali O'zbekiston Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Koreya bilan hamkorlikni chuqurlashtirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalarini yashil texnologiyalar asosida rivojlantirish nafaqat ekologik muhofaza, balki iqtisodiy samaradorlik, energiya tejash va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish uchun ham muhim vosita hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar bu jarayonda asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib, ular orqali O'zbekiston zamonaviy ishlab chiqarish madaniyatiga, ekologik standartlarga va innovatsion texnologiyalarga ega bo'lmoqda.

Mamlakatda bu yo'nalishda yaratilgan huquqiy va iqtisodiy muhit, xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar, yashil energiya va sanoatni transformatsiya qilishga yo'naltirilgan strategiyalar — bularning barchasi O'zbekistonda barqaror rivojlanishga asoslangan yashil sanoat tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikni kengaytirish, yashil texnologiyalarni yanada ommalashtirish va milliy ishlab chiqarish tizimini ekologik jihatdan barqaror qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). "Yashil energiyani rivojlantirish strategiyasi – 2030" to'g'risidagi qaror.
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, Sanoat va Savdo Vazirligi. (n.d.). Rasmiy hisobotlar.
3. Jahon banki. (2023). Uzbekistan country climate and development report.
4. "Green Technology" loyihasi, Toshkent viloyati – OAV manbalari va hukumat axborotlari. (2024).

YASHIL DIPLOMATIYADA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKOLOGIK TASHQI SIYOSATI

Xasanov Asliddin Saydulla o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistika fakulteti Xalqaro

munosabatlar yo'nalishi 1-bosqich talabasi

e-mail: xasanovasliddin@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik diplomatiya – ya'ni “yashil diplomatiya” tushunchasi zamonaviy xalqaro munosabatlar kontekstida tahlil qilinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining so'ngi yillarda ekologik muammolarni tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ilgari surayotgani ko'rsatib beriladi. Mamlakatning Orol dengizi inqirozi bo'yicha global e'tirof etilgan tashabbuslari, transchegaraviy suv resurslari masalasida mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish borasidagi harakatlari, hamda xalqaro tashkilotlar bilan ekologik yo'nalishdagi hamkorligi asosida O'zbekistonning yashil diplomatiyasini shakllantirish bosqichlari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, BMT, Parij kelishuvi, Orolbo'yi mintaqasi, ekologiya, diplomatiya, iqlim o'zgarishi, xalqaro ekologik huquq, yashil energetika.*

XXI asrda insoniyat duch kelayotgan eng muhim muammolardan biri – bu ekologik muvozanatning buzilishi va uning global oqibatlaridir. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, suv tanqisligi kabi muammolar nafaqat atrof-muhitga balki siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik masalalariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda davlatlarning tashqi siyosatda ekologik masalalarning alohida o'rin egallashi tabiiy holdir. Aynan shu nuqtai nazardan “yashil diplomatiya” – ekologik muammolarni xalqaro doirada ilgari suruvchi yangi diplomatik yo'nalish sifatida shakllanmoqda. O'zbekiston ham bugungi kunda ekologik muammolarni xalqaro darajada ko'tarish, mintaqaviy va global ekologik tashabbuslarda ishtirok etishi orqali o'zining “yashil tashqi siyosati”ni bosqichma bosqich shakllantirmoqda. Xususan Orol dengizi fojiasi, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish kabi masalalarda O'zbekistonning xalqaro doiradagi pozitsiyasi tobora mustahkamlanmoqda. Yashil diplomatiya – bu davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida tashqi siyosat doirasida amalga oshiradigan faoliyati sifatida izohlanadi. U xalqaro munosabatlarda ekologik munosabatlarni ilgari surish, global ekologik siyosatni shakllantirish va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha davlatlararo hamkorlikni chuqurlashtirishni

o'z ichiga oladi. Yashil diplomatiya XX asr oxiri – XXI asr boshlaridan boshlab keng ommalasha boshladi. Xususan, 1992-yildagi Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMTning atrof muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi, 1997-yildagi Kioto protokoli, 2015- yildagi Parij iqlim kelishuvi – bu diplomatik doiralarda ekologik masalalarning tobora markaziy o'ringa chiqayotganidan dalolat beradi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi davlatlari, Norvegiya, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar yaqin yillardan boshlab o'z tashqi siyosatining ajralmas qismi sifatida qaramoqda. Masalan, 2019-yilda Yevropa Ittifoqi “Yashil kelishuv” dasturini qabul qildi va 2050-yilga borib iqlimiy neytrallikka erishishni maqsad qilgan. Dastur doirasida nafaqat ichki siyosatda, balki boshqa davlatlar bilan ham ekologik me'yor va talablarni ilgari surmoqda. Ayni paytda xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT, UNEP (BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi), va Global Enviroment Facility kabi tuzilmalar yashil diplomatiyaning muhim platformasiga aylangan[1]. Davlatlar ushbu tuzilmalar orqali ekologik loyihalarda ishtirok etadi, ekologik xavfsizlik, texnologik almashinuvni ta'minlashga harakat qiladi. Yashil diplomatiya zamonaviy diplomatiyaning yangi bosqichi sifatida shakllanayotgan bir paytda, O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda o'zining mustaqil va faol pozitsiyasini namoyon etmoqda. 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida so'zlagan nutqida Orol dengizi muammosini global ekologik falokat deb e'tirof etish zarurligini ta'kidladi. Natijada 2021-yil 18-may kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Orolbo'yi hududi “Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi” deb e'lon qilindi[2]. Bu qaror O'zbekistonning xalqaro ekologik diplomatiyadagi muhim yutug'i bo'ldi.

Shuningdek, O'zbekiston BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doimiy konferensiyalarida (COP) muntazam ishtirok etib kelmoqda. 2021-yil noyabr oyida Glazgoda bo'lib o'tgan COP-26 konferensiyasida O'zbekiston delegatsiyasi ishtirok etib, 2030-yilgacha issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga kamaytirish rejasini e'lon qildi. Bundan tashqari O'zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro loyihalarda faol ishtirok etmoqda[3]. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, yashil diplomatiya bugungi kunda xalqaro siyosatning ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. O'zbekiston esa ushbu sohada nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham faol tashabbuskor sifatida maydonga chiqmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgani bois, suv resurslari masalasi tashqi siyosatning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Mamlakat Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan transchegaraviy daryolar – Amudaryo va Sirdaryodan foydalanish masalasida doimiy muloqotni olib bormoqda.

O'zbekiston 2018-yildan buyon mintaqaviy hamkorlik tamoyillarini ilgari

surib, suvdan adolatli va oqilona foydalanishni targ'ib qilib kelmoqda. O'zbekiston quyosh va shamol energiyasini rivojlantirish borasida xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik qilmoqda. Masalan, Saudiya Arabistonining ACWA Power kompaniyasi bilan 1000 MVt dan ortiq quyosh elektr stansiyalarini qurish bo'yicha shartnomalar imzolangan[4]. Bu tashabbuslar nafaqat ichki energetik xavfsizlik, balki global ekologik majburiyatlarning ham bajarilishiga xizmat qiladi. O'zbekiston BMT, Yevropa Ittifoqi, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro ekologik tashkilotlar bilan hamkorlikda mintaqaviy ekologik loyihalarda ishtirok etmoqda. Mamlakat 2022-yilda Yevropa Ittifoqining "Switch Asia" dasturiga qo'shildi va yashil iqtisodiyot yo'nalishda qo'shma loyihalarni boshladi. 2024-yilda O'zbekiston BMT bilan hamkorlikda iqlim migratsiyasi bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazishni rejalashtirdi. Ushbu tadbir iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan migratsiya muammolarini muhokama qilish va yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslardan biri bu "Global iqlim poytaxtlari alyansi"ni tashkil etishdir. Ushbu alyans iqlim o'zgarishidan eng ko'p zarar ko'rgan shaharlar o'rtasida tajriba almashish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan hamkorlikda O'zbekiston "Yashil bandlik" dasturini ishlab chiqdi. Ushbu dastur iqlim o'zgarishining mehnat bozoriga ta'sirini o'rganish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan[5]. O'zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalarisohasida xalqaro doirada aloqalarni kengaytirmoqda. Xususan, joriy yilga kelib, mamlakatda 25 gigavatt quvvatga ega qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Yaqin yillarda O'zbekiston ekologik tashqi siyosiy sohada faoliyati va tashabbuslarini yanada chuqurlashtirishni rejalashtirmoqda. Global iqlim o'zgarishlari, bioxilma-xillikning yo'qolishi, suv tanqisligi va ekologik migratsiya kabi dolzarb muammolar, yashil diplomatiyaning strategik ahamiyatini oshirib bormoqda. O'zbekiston kelajakda raqamli texnologiyalarni ekologik boshqaruvga keng joriy etishni rejalashtirmoqda. Xususan, sun'iy yo'ldoshlar orqali Orolbo'yi hududlarining ekologik monitoringi, yer degradatsiyasi va suv resurslari holatini real vaqt rejimida kuzatish tizimlari yo'lga qo'yiladi. Bu tashabbuslar xalqaro hamkorlikda, xususan BMTning UNEP (Atrof-muhit dasturi) bilan birga amalga oshirilishi kutilmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyoda ekologik muammolarga qarshi kurashishda mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish tarafdori. Bu yo'nalishda mavjud tuzilmalarning salohiyatidan samarali foydalanish hamda yangi tashabbuslarni ilgari surish ko'zda tutilmoqda. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (IFAS) doirasida mintaqaviy muvofiqlashtirish va ekologik siyosatni integratsiyalash borasida ishlanmalar olib borilmoqda. O'zbekiston IFASdagi raislikni o'z zimmasiga olgan 2023-2024-yillarda bir qator tashabbuslarni ilgari surdi. O'zbekiston Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev IFASning huquqiy asoslarini takomillashtirish va institutsional mexanizmlarini modernizatsiya qilish tashabbusini ilgari surdi[6]. Bu tashabbus jamg'armaning samaradorligini oshirish va mintaqaviy ekologik muammolarni hal etishda yanada faol rol o'ynashini ta'minlashga qaratilgan edi. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun texnologik va moliyaviy yordam ko'rsatish, ularda yashil energiya manbalarini rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ham global hamkorlikning muhim yo'nalishidir. Bu borada BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (UNFCCC) va uning doirasidagi Parij kelishuvi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Yashil diplomatiya faqat hukumatlar darajasida emas, balki xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor ishtirokida ham olib borilishi lozim. Zero, ekologik muammolar faqat bitta davlatga emas, balki butun insoniyatga daxldordir.

Xulosa qilib aytganda, yashil diplomatiya – bu zamonaviy diplomatiyaning ajralmas qismi bo'lib, global ekologik muammolarni hal etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga davlatlar diplomatik muzokaralar orqali ekologik muhofaza masalalarini kun tartibiga olib chiqishi, muayyan xalqaro huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishi va ularga qat'iy amal qilishi lozim. Atrof-muhit muhofazasi yo'lida davlatlar o'rtasidagi konstruktiv muloqot, uzoq muddatli hamkorlik va barqaror siyosiy yondashuvlar eng muhim omillardandir. O'zbekiston ham bu jarayonlarda faol ishtirok etib, yashil energetika va ekologik barqarorlik yo'lida muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Bu esa O'zbekistonning global ekologik muammolar yechimiga o'z hissasini qo'shayotganidan dalolat beradi. Yashil diplomatiya nafaqat rasmiy hukumatlar darajasida, balki xalqaro va nohukumat tashkilotlar, ilmiy doiralar va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borilishi kerak. Bu yo'lida ta'lim, ilm-fan va axborot vositalarining roli ham beqiyosdir. Ayniqsa, yoshlarda ekologik ongni shakllantirish, ularni bu jarayonlarga faol jalb etish, nafaqat yoshlar balki har birimiz ekologik mas'uliyatni his qilib yashasak, kelajak avlodlar uchun sog'lom va barqaror muhitni yaratishga hissa qo'shgan bo'lamiz. Zero, tabiatni asrash – bu jamiki insoniyatning umumiy burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2015). Paris Agreement. Manba: <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqlari. (n.d.). Manba: <https://president.uz>
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.

4. ACWA Power kompaniyasi. (n.d.). O'zbekistondagi loyihalar haqida ma'lumot. Manba: <https://www.acwapower.com/>
5. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (n.d.). Rasmiy sayt. Manba: <https://mfa.uz>
6. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (IFAS). (n.d.). Rasmiy sahifa. Manba: <http://ec-ifas.org/>

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA YO'QOLIB BORAYOTGAN KASBLAR VA YANGI SOHALARNING PAYDO BO'LISHI NATIJALARI

Chintemirova Diyora Shuxrat qizi

TDIU, "Raqamli iqtisodiyot va axborot
texnologiyalari" fakulteti 1-bosqich talabasi
e-mail: dchintemirova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining mehnat bozoridagi o'zgarishlarga ta'siri tahlil qilinadi. An'anaviy kasblarning asta-sekin yo'qolishi va ekologiya hamda barqarorlikka asoslangan yangi sohalarning shakllanishi haqida ma'lumot beriladi. Bundan tashqari, ushbu jarayon mehnat bozorida malaka transformatsiyasi zaruratini yuzaga keltirib, talablarning o'zgarishiga olib kelishini ochib beradi.

Kalit so'zlar: *Yashil iqtisodiyot, mehnat bozori, yo'qolib borayotgan kasblar, yangi mutaxassislar, ekologik barqarorlik, malaka transformatsiyasi, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik muammolar, texnologik innovatsiya.*

Hozirgi kunda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ekologik muammolar kuchayib borayotgani, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o'sish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat insoniyatni yangi iqtisodiy model – yashil iqtisodiyot sari yo'naltirmoqda. Natijada, bu model mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda; kasblar tarkibi o'zgarib, an'anaviy ishlab chiqarish sohalarining o'rni ekologik yo'nalishga ega mutaxassisliklar bilan almashtirilmoqda.

Yashil iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni saqlab qolgan holda, atrof-muhit va ekologiyani bir butun sifatida mudofaa qilishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishidir. Bunday iqtisodiy modelda energiya samaradorligi, chiqindilarning kamaytirilishi va

qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish kabi jihatlar ustuvor ahamiyatga ega. Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida yashil iqtisodiyotning shakllanishi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish;
- Resurslardan tejamkor foydalanish;
- Barqaror ish o'rinlarini yaratish;
- Sog'lom yashash muhitini ta'minlash;
- Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish;
- Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- Suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish;
- "Toza" va barqaror "yashil" transportlarni rivojlantirish;
- Uy-joy kommunal xo'jaligida energiya samaradorligini oshirish;
- "Yashil" texnologiyalarni yaratish va sotish bozorlarini rivojlantirish.

Mutaxassislar ushbu sohalarning har birida yashil iqtisodiyotga o'tish orqali qo'shimcha yil davomida foydalarni aniqlaganlar. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbaidan kutilayotgan foyda 5 milliard dollardan oshadi. Shuningdek, "yashillashtirish" siyosati qo'shimcha "yashil" ish o'rinlarini yaratadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya sektorida 2020-yilgacha 175 mingga yangi ish o'rinlari va 2050-yilgacha 270 mingga yaqin ish o'rinlari ochilishi mumkin.

Barqaror rivojlanish va ekologik himoya sohasidagi yangi formatdagi mutaxassislar tayyorlash va ilg'or innovatsion texnologik yondashuvlarni joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qaror qabul qilingan bo'lib, unda 2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlangan.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillariga o'tish nisbatan yaqinda boshlanganligi sababli, ish o'rinlarini yashil iqtisodiyot talablariga moslashtirish noyob va kam uchraydigan hodisa sifatida qaralishi kerak. Mamlakatimizda "yashil" ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ushbu jarayonni ikki yo'nalishda tahlil qilishni maqsadga muvofiq degan xulosaga kelish mantiqan to'g'ri bo'ladi, zero yangi "yashil" ish o'rinlarini yaratish va mavjudlarini "yashil" ga aylantirish "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga mos keladi. Asosiy farq shundaki, birinchi yondashuv mavjud ish o'rinlarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi-ekologik barqaror sanoatning rivojlanishiga ko'maklashish va boshidanoq atrof-muhitga kam ta'sir ko'rsatadigan yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan.

Tadqiqotimiz jarayonida "Yashil iqtisodiyotga o'tish"da quyidagi kasblar asta-

sekin yo'qolib bormoqda:


- Ko'mir qazib oluvchi va neft sanoati ishchilari – yashil iqtisodiyotning toza va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishini hisobga olgan holda;
- Ichkiyonuvdvigatellarigaxizmatko'rsatuvchimexaniklar–elektromobillarning ommalashishi hisobiga, ichki yonuv dvigatellariga talab kamaymoqda;
- Kimyoviy o'g'it ishlab chiqaruvchilar – organik qishloq xo'jaligiga o'tmoqda;
- Plastik mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar – ekologik qadoqlash texnologiyalarining joriy etilishi hisobiga.

Bunday sharoitda savol tug'iladi: "Bu sohalarda ishlaydigan kishilar endi nima qiladi? Mamlakatda ishsizlik darajasi ko'payadimi?" Albatta, yo'q. Bu jarayonda malaka transformatsiyasi yuzaga keladi, ya'ni ekologik yo'nalishga ega zamonaviy texnologiyalar asosida yangi kasblar shakllanadi. Misol uchun, hozirda quyosh panellarini o'rnatish keng tarqalgan, biroq bu borada mutaxassislar yetarli darajada etishmaydi. Shu sababli, yo'qolib borayotgan kasblardagi ishchilarni yangi texnologiyalar asosida tayyorlashga e'tibor qaratish zarur, jumladan:

- Ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha mutaxassis;
- Qishloq xo'jaligi sohasining turli tarmoqlari uchun mutaxassislar;
- Turli don va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish bo'yicha mutaxassislar;
- O'rmon xo'jaligi bo'yicha mutaxassis;
- Qayta tiklanadigan energiya manbalari loyihasi menejeri;
- "Yashil" infratuzilma dizayneri;
- Energiya tejash bo'yicha mutaxassis;
- Quyosh panellariga xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar;
- Shamol energiyasi bo'yicha mutaxassislar;
- Yashil transport muhandislari va texniklari;
- Chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiquvchi mutaxassislar;
- Iqlim o'zgarishi bo'yicha mutaxassis;
- "Yashil" iqtisodiyot va uning tarmoqlarini barqaror boshqarish fanlari o'qituvchilari;
- "Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish bo'yicha mutaxassislar.

Ushbu sohalar barcha texnologik savodxonlik, ekologik fikrlash, raqamli ko'nikmalar va yangilikka intiluvchanlikni talab qiladi. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi, shuningdek, ta'lim tizimida yangilanishlarni talab qiladi. Endi kasb-hunar kollejlari, texnikumlar va oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalari ekologik fanlar, barqaror rivojlanish, yashil texnologiyalar kabi sohalar bilan boyitilishi zarur. Shuningdek, faoliyat yuritayotgan ishchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish lozim. Aks holda, kasbini yo'qotgan fuqarolarning mehnat bozorida qayta moslashishi qiyinlashadi.

2018-2022-yillar oralig'ida O'zbekiston mehnat bozorida yetarlicha ishsizlar mavjud bo'lgan. 2023-yilda esa ishsizlik darajasi 1024,1 ming kishiga yetib, boshqa yillarga nisbatan pasayganini ko'rishimiz mumkin. Ishsizlikning pasayishi yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining amaliy natijasi sifatida baholanadi. Ushbu davrda yangi texnologiyalar va ekologik barqaror loyihalar asosida yangi ish o'rinlari yaratilgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda yillar kesimida ishsizlar soni, ming kishi

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muhitni yaxshi tomonlarga o'zgartiradi, balki iqtisodiy va ijtimoiy hayotni ham sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Kasblarning yangilanishi va mehnat bozorida o'zgarishlar bu jarayonning tabiiy oqibatidir. Shu bois, ta'lim, qayta tayyorlash, ijtimoiy moslashuv va davlat siyosati ushbu jarayonda uyg'un holda faol bo'lishi zarur. Bu nafaqat hozirgi avlodlar, balki kelajak avlodlar uchun ham barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ergasheva, R. (2024). Nordic_Press. Nordic University Research. Retrieved from <https://research.nordicuniversity.org>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, October 4). 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida PQ-4477-son qarori. Retrieved from <https://www.lex.uz/uz/docs/-4539502>
3. Xodjayeva, M. U. (2024). Yangi O'zbekistonni “yashil” iqtisodiyotga o'tish istiqbollari. Golden Brain, 2(4), 69–74. Retrieved from <https://webgoldenbrain.com/index.php/gb/article/view/20>
4. Akbarova, B. Sh. (2023). O'zbekistonda aholi turmush darajasini statistik tahlili. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social

Sciences, 24, 204–212.

5. Yuldashev, M. I. (2024). "Yashil" iqtisodiyotni rivojlanishining muhim omili yangi ish o'rinlarini yaratish va ulardan samarali foydalanishdir. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 6, 675. Retrieved from <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
6. Shuxratovna, A. B., et al. (2025). Ishsizlik statistikasi va uning iqtisodiy ta'siri. Ta'lim, Tarbiya va Innovatsiyalar Jurnal, 1(4), 80–83.
7. Akbarova, B. Sh. (n.d.). Scientific and theoretical bases of efficiency of farm facilities. Retrieved from <https://acopen.umsida.ac.id/index.php/acopen/article/view/>
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi. (n.d.). Mehnat bozori bo'yicha rasmiy statistika. Retrieved from <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

ЭКОЛОГИЯ И ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ С ПОМОЩЬЮ НОВЕЙШИХ ТЕХНОЛОГИИ

Пулатова Л.Т.

доктор технических наук, профессор,
Университет Альфраганус
e-mail: lorena_97@mail.ru

Набижонов М.С.

студент 2 курса, направление лечебное
дело
e-mail: mirodilnabijonov2004@gmail.com

Аннотация. Современные технологии играют ключевую роль в решении экологических проблем и продвижении устойчивого развития. Новые технологии, позволяют выращивать растения без использования почвы, что позволяет сократить затраты на воду и удобрения, а также снизить загрязнение почвы и воды. Искусственный интеллект может быть использован для решения экологических проблем.

Ключевые слова: защита окружающей среды, технологии очистки, экологическое движение, технологический прогресс.

Охрана окружающей среды является делом каждого гражданина.

Республика Узбекистан активно работает над улучшением экологической ситуации в стране и придерживается принципов экологической безопасности. С каждым годом все больше людей осознают важность сохранения окружающей среды и принимают активное участие в экологических мероприятиях и акциях. Важнейшим приоритетом Экологического движения стало повышение активности участия общественности в охране окружающей среды и оздоровлении экологической обстановки. В связи с этим, в деятельности актива Экологического движения особое место занимают мероприятия по улучшению состояния природной среды в экологически неблагоприятных регионах, среди которых важное место отведено действиям по смягчению последствий Аральской катастрофы для здоровья населения и природной среды Приаралья.

Рассматривая историю развития экологического движения, следует отметить, что с первых лет своей деятельности оно работало над реализацией проектов по улучшению показателей здоровья жителей зоны Приаралья. Так, в 2009 году для медицинских учреждений Кегейлийского района Республики Каракалпакстан, были приобретены медицинское диагностическое оборудование, инвентарь и медикаменты, смонтированы солнечные фотоэлектрические панели и водонагревательный коллектор, проведено обучение медперсонала.

Анализируя современное состояние изучения экологических вопросов, важно отметить, что защита окружающей среды от вредных веществ промышленного производства делает актуальным развитие новых технологических процессов и оборудования очистки промышленных сточных вод и дымовых газов. В частности, наноионизированная вода со значением pH 12,5 производится электролитическим способом, обладает очищающими, дезинфицирующими и стерилизующими свойствами и в то же время полностью безопасна для человека, животных и окружающей среды. Уникальные свойства продукта, получившего официальное название «щелочно-ионизированная вода» (ЩИВ), позволяют эффективно использовать его в различных промышленных применениях и в быту.

Однако, врачи высказывают неоднозначные мнения по вопросам комплексной оценки пользы и вреда наноионизированной воды. В данном аспекте, мнение и отзывы потребителей, свидетельствуют о том, что систематическое потребление щелочной редуцированной жидкости положительно сказывается на работе всех систем организма, обеспечивая тем самым:

активизацию иммунных процессов;

нормализацию обмена веществ, кровяного давления;
нейтрализацию свободных радикалов, последствий
несбалансированного питания, курения и употребления алкоголя;
ускоренную регенерацию тканей органов и кожных покровов;
усиление терапевтического эффекта от принимаемых медикаментов
при обострении хронических заболеваний, прогрессировании опухолей
любого генеза.

Как показывает практика, употребление ионизированной воды
особенно рекомендуется людям, подверженным вредным привычкам, таки
как, курение, алкоголь, не здоровая пища, а также употребляющим воду из-
под крана, которая может содержать тяжелые металлы и различного типа
загрязнения.

Рассматривая исследования по улучшению состояния питьевой
воды, необходимо отметить важность установки современной системы
очистки – система наноионизатор, способная удалять до 99,6% примесей.
Особым преимуществом оборудования является также использование
минерализатора, который насыщает воду всеми необходимыми
микроэлементами.

Технология очистки отходящих и дымовых газов от вредных веществ
с помощью микропузырьков нано-ионизированной воды (Nano Bubble
treatment System – NBS). Загрязнение воздуха может происходить как в
результате производственной деятельности человека, так и из-за природных
катаклизмов, например, при извержении вулканов. Основными источниками
загрязнения воздуха являются: промышленное производство, транспорт,
стихийные бедствия.

Факторами загрязнения воздуха, оказывающими негативное влияние
на здоровье человека и окружающую среду, являются:

- взвешенные частицы;
- органические загрязнители;
- неорганические загрязнители.

Мелкие частицы с размером PM 2.5 и менее являются наиболее
опасными, так как могут находиться в воздухе во взвешенном состоянии
длительное время и вызывать smog(дым). Частицы с таким размером
обладают, как правило, развитой поверхностью, активной поверхностной
энергией и легко захватывают молекулы токсичных и опасных веществ. К
органическим загрязнителям воздуха в виде летучих органических веществ
(ЛОВ) относятся, например, формальдегид, толуол и другие. Исследования
показали, что ЛОВ могут вызвать головную боль, тошноту, а в больших

концентрациях – повреждение печени, почек, мозга и нервной системы.

Неорганические загрязнители: сульфиды, нитриды, хлориды – в сочетании с влагой воздуха образуют кислотные дожди, которые крайне негативно влияют на человека, животных и растения. Развитие научно-технического прогресса, создание специальных промышленных установок по переработке, особое внимание уделяется внедрению в производство специальных технологических процессов очистки отходящих и дымовых газов основан на взаимодействии высокоактивных микропузырьков наноионизированной воды с вредными веществами, присутствующими в очищаемом газе. Микропузырьки имеют диаметр от несколько сотен нанометров до нескольких микрометров, обладают большой удельной поверхностью и высокой окисляемостью.

Анализируя технологию работы промышленных процессов очистки, важно отметить, что в системе распыления с помощью многоступенчатого насоса высокого давления и осевого вентилятора формируется туман из микропузырьков наноионизированной воды, который смешивается в реакционных резервуарах с подаваемым отходящим или дымовым газом. Из-за эффекта кавитации микропузырьки разрушаются за время не более 10 секунд, при этом генерируется большое количество теплоты и высокое давление в зоне их схлопывания. В результате данных процессов происходит быстрое разложение летучих органических веществ и газов, а также захват и осаждение взвешенных твердых частиц.

Система фильтрации и циркуляции воды обеспечивает вывод окисленных органических загрязнителей, осажденных микроскопических твердых частиц, а также возврат очищенной наноионизированной воды в систему распыления для формирования микропузырьков. При этом установлено, что сброс сточных вод значительно сокращается. Производственная эксплуатация оборудования показывает, что при очистке отходящих газов объемом 60 000 м³ в течение двух недель количество сточных вод составляют не более 4-х тонн. Не менее актуальным направлением в создании благоприятных условий для развития и формирования экологического природного баланса, имеют фундаментальные и прикладные исследования по вопросам охраны лесов от сплошных концентрированных вырубок, пожаров, болезней, загрязнения окружающей среды. Анализ современной литературы показал, что индивидуальный отбор, очень широко применяемый в селекции, приводит к сокращению эффективной численности особей в популяциях древесных растений, обуславливая тем самым, постоянное снижение генетического разнообразия лесов. Такая тенденция имеет отрицательные последствия,

т.к. новые поколения леса, появившиеся от численно ограниченной группы, будут иметь менее разнообразные наследственные признаки с точки зрения генетики, т.е. будет снижаться их продуктивность и устойчивость к неблагоприятным условиям. Устранить эту проблему в отношении каждого конкретного вида можно только в том случае, если будет достаточно хорошо изучена его популяционно-хорологическая структура.

Учитывая специфику реализации популяционной генетики, можно с уверенностью сказать, что эксплуатация и последующее восстановление численности популяции должны осуществляться на основе максимально возможного сохранения принципа естественного воспроизведения этой популяции. Например, для сосны обыкновенной в таёжной зоне, где под пологом взрослых деревьев имеется много подроста, восстановление леса должно проходить естественным путём. Суть метода здесь – в выборе оптимальных схем разработки лесосек для максимального сохранения подроста. В типах лесов, где сосна не сменяется менее ценными древесными видами, но подроста мало, возобновление сосны также должно быть естественным, а постепенные рубки сопровождаться мерами, способствующими этому. Восстановление вырубок путём посадок возможно только в тех типах лесов, где сосна заменяется другими, хозяйственно малоценными видами. Здесь важно соблюдение принципа: где были заготовлены семена, там они и должны быть высеяны.

Таким образом, на основании субъективного анализа вопросов изучения экологии и охраны окружающей среды, следует подчеркнуть, что применение новейших технологий играют решающую роль в решении экологических проблем и продвижении устойчивого развития каждого государства в целом. На сегодняшний день, имеющиеся научные инновационные разработки по созданию возобновляемой энергии, умные нейронные сети на основе искусственного интеллекта, технологии мониторинга окружающей среды, умные города и биотехнологии, позволяют снизить негативное воздействие на окружающую среду, обеспечивают защиту населения от развития эндемических заболеваний, обуславливают всесторонний контроль за безопасностью и здоровьем населения страны, а также координируют вопросы сохранения биоразнообразия флоры и фауны.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Кондратенко В. С., Кобыш А. Н., Рогов А. Ю., Сакуненко Ю. И. Международный трансфер технологий научной школы профессора Кондратенко В. С. // Русский инженер. 2018. № 1 (58). С. 40–47.

2. Мониторинг качества атмосферного воздуха для оценки воздействия на здоровье человека // Региональные публикации ВОЗ, Европейская серия. – № 85. –2001. – Копенгаген. – С. 38.
3. Инновационные технологии в промышленности» («МНТК ФТИ-2017»). Московский технологический институт. Выпуск 23 (XXIII)/Под редакцией д. ф.-м. н., проф. Булатова М. Ф. – М., 2017.
4. Министерство экологии, охраны окружающей среды и изменения климата Республики Узбекистан. При использовании материалов ссылка на www.eco.gov.uz обязательна.
5. Pulatova, L. The European Journal of Economics and Management Sciences, Issue 4/2019.
6. Pulatova L.T., Saidov A. "Section 9. Economic security." European Journal of Economics and Management Sciences: 91.
7. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ps6uN7gAAAAJ&cstart=100&pagesize=100&citation_for_view=Ps6uN7gAAAAJ:WF5omc3nYNoC

UO'K: 37.013.42:502.131.1:004

KBK: 74.6:20.1:32.81

YANGI AVLOD TASHABBUSLARI VA BARQAROR TARAQQIYOT

**mavzusidagi
respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

MATERIALLARI TO'PLAMI

Mas'ul muharrir:

i.f.f.d., dots. Sh.Muxamadjanov

Texnik muharrir:

S.Maxanov

Tahrir hay'ati:

t.f.d., dots. X.Nosirov

f.-m.f.f.d. A.Elmurodov

Taqrizchilar:

PhD, dots. Z.A.Shamansurova

PhD M.B. Umarova

PhD S.I.Xalikchayeva

Tashkiliy guruh a'zolari:

S.Tojiboyev

N.Ismoilov

Sh.Xo'jaqulov

M.Abralova

I.Tillaboyev

Z.Ataxanov

D.Choriyeva

T.Shodiyev

© Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markazi, 2025-yil